

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

**O.M.MADALIYEV**

**SUD  
STATISTIKASI**

**O`quv qo`llanma**

**TOSHKENT-2008**

Toshkent davlat yuridik instituti o`quv uslubiy Kengashining 2006-yil 29-iyul kungi majlisida muhokama qilingan 12-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan, nashr etishga tavsiya etilgan.

**O.M.Madaliyev**

**Sud statistikasi:** O`quv qo`llanma. Mas`ul muharrir: **K.P. Irkaxodjayev** y.f.n.. dosent. -T.: TDYI nashriyoti. 2006. –289 bet.

Sarlavhada: O`zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, TDYI.

**Mas`ul muharrir:** y.f.n., dotsent. **K.P. Irkaxodjayev**

**Taqrizchi:** O`zbekiston Respublikasi Qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish Markazi kafedra mudiri **B.X. Po`latov**

Mazkur ilmiy-amaliy o`quv qo`llanmada jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini takomillashtirish va uni samaradorligini oshirish uchun Respublikadagi jinoyatchilik va qonuniylikni tahlil qilish yuzasidan olib boriladigan huquqiy statistika tushunchasi, nazariyasiga oid jihatlari, sud statistikasining predmeti, uslubi, statistika va hisobning ahamiyati, ijtimoiy-huquqiy, jinoiy-huquqiy, fuqaroviy-huquqiy munosabatlarning o`ziga xos jihatlari, ularning obyektlari hamda ilmiy-amaliy faoliyatdagi ahamiyati xususida fikr yuritilgan. Qo`llanmada berilgan uslub va usullardan, ayniqsa, prokuror-tergov xodimlari jinoyatlarini oldini olish, ularning kelib chiqish sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish maqsadida keng foydalanishlari, umuman olganda jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi organlar tomonidan o`z faoliyatlaridagi samaradorlikni oshirishda foydalanishlari mumkin.

Qo`llanma huquqshunoslik sohasida faoliyat ko`rsatuvchi barcha xodimlar, huquqshunoslik oliy o`quv yurti talabalari va o`qituvchilariga, shuningdek, sud statistikasi-huquqiy statistika bilan qiziquvchi ilmiy va amaliyot xodimlari uchun mo`ljallangan.

© O.M. Madaliyev.

© Toshkent davlat yuridik instituti, 2008-yil.

## KIRISH

O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarda, sud – huquq islohotlari, jamiyatni yuksaklikka olib chiqish va ilg'or davlatlar qatoridan teng o'rin oldirish uchun amalga oshirilayotgan ishlar va davlatimiz o'z oldiga qo'ygan vazifalar mezonini belgilab olishda statistikaning ham tengsiz xizmati bor. Hozirgi kunda, har qanday davlat o'z rivoji uchun statistik ma'lumotlardan samarali foydalanadi. Bozor munosabatlarini muqobil tarzda ushlab turish, uning dinamikasini o'rganish va boshqarishda, umuman davlatchilik siyosatini amalga oshirishda, har qanday munosabatlarni, shu jumladan, huquqiy munosabatlarni ham tartibga solishda statistikaning ahamiyati kattadir.

“Statistika” atamasi XVIII asrning ikkinchi yarmida davlatning o'zi, davlatlarning o'ziga xos xususiyatlari, ziyoratgohlari, faxrlansa bo'ladigan tomonlari haqida so'z yuritila boshlagan bir davrda shu munosabat bilan davlatlarni o'rganish chog'ida vujudga keldi.

“Statistika” fan sifatida aynan shu davrda Germaniya universitetlarida o'qitila boshlandi.

Insoniyat tarixiga nazar tashlansa, davlat boshqaruvini ijtimoiy organizm sifatida statistik ma'lumotlarsiz boshqarib bo'lmaydi. Davlat hayotiy faoliyatining turli yo'nalishlaridagi rivojlanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish, shu jumladan, huquqbuzarliklar ustidan ijtimoiy nazoratni amalga oshirish sohasida ham o'zaro qulay mutanosiblikni ta'minlash uchun ham statistik ma'lumotlar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Statistika fanini o'rganish yuqori malakali yuristlarni - ham amaliyotchi mutaxassislarni (ayniqsa, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda ishlovchi xodimlar) hamda nazariyotchi xodimlarni tayyorlashda juda muhim rol o'ynaydi. O'rganishning statistik uslubi ilmiy bilimlarning deyarli barcha sohalaridagi tadqiqotlarda amaliy qo'llaniladi. Statistik uslubdan ayniqsa ijtimoiy-iqtisodiy fanlarda juda keng qo'llaniladi. Statistik uslub ijtimoiy hayot tarzini o'rganish uchun, ommaviy xarakterga ega bo'lgan har qanday ijtimoiy ko'rinishlarni o'rganish uchun juda zarur hisoblanadi. Statistika o'z ildizlari bilan ommaviy ko'rinishlarga ega bo'lgan hodisotlarni, shu jumladan, huquqbuzarliklarni ham o'rganishga chuqur kirib ketadi.

Ijtimoiy fanlar bo'yicha mutaxassis, ayniqsa, huquqshunoslik bo'yicha mutaxassis statistikaning umumiy nazariyasi asosiy savollarini egallagan bo'lishi kerak. Statistikaning ushbu umumiy savollariga quyidagilar kiradi:

Statistik uslubiyotlar majmuasi sifatida – statistikaning predmeti, usullari va uslublari, o`z mazmuniga ko`ra foydalaniladigan aniq statistik ma`lumotlarning predmeti va uslubi, katta sonlar qonuni, statistik kuzatuv, guruhlash, miqdorlarni umumlashtirish va statistik tahlilni misol qilsak bo`ladi. Ushbu masalalarni o`rganish natijasida dunyoqarash kengayadi, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy ko`rinishlar holatlari, jarayonlari vujudga kelgan vaqtda o`zini yo`qotmasdan masalaga chuqurroq qarashga yordam beradi, amaliyotda isbotlanishicha ushbu masalalarni puxta o`rganish talaba-huquqshunoslarga boshqa qator huquqshunoslik fanlarini yanada chuqurroq va mustahkamroq egallashlariga amaliy yordam beradi.

Statistika kriminologik, jinoyat-huquqiy, jinoyat-protsessual, penitensiar (jinoyat – ijroiya, lotincha - poenitentiarius –jinoiy jazolarni ijro etish bilan bog`liq mazmunni bildiradi), kriminalistik, ma`muriy-huquqiy sohada o`ta muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fanlarning birontasi ham statistik ma`lumotlarsiz, ya`ni jinoyatchilik haqidagi statistika yoinki huquqiy statistika ma`lumotlarsiz sermahsul rivojlana olmaydi. O`zlariga taalluqli bo`lgan statistika ma`lumotlari, miqdorlari ma`muriy-huquq, fuqarolik huquqi, soliq huquqi, mehnat huquqi va huquqning boshqa sohalari bo`yicha mutaxassislariga, sud psixiatrlari, psixologlari ham, huquqiy psixologlarga ham juda zarur hisoblanadi. Huquqiy statistika ma`lumotlarsiz huquqni muhofaza qilish organlarining- sudlar, prokuratura, adliya, Ichki ishlar organlarining faoliyatini tasavvur ham qilib bo`lmaydi.

Statistikada keltirilgan raqamli ko`rsatmalar jinoyatchilikning aniq tavsifini, ya`ni uning ahamiyatli, sifatli xususiyatlarini ko`rsatib beradi. Statistikada narsalarning miqdoriy tomoni ularning sifatli tomoni bilan ajratilib kyetmagan. Ularning o`rtasida yaqin bog`liqlik va o`zarolik amal qiladi. Statistika ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonini o`rganadi, uning sohalariga (iqtisodiy, tibbiy, jinoiy va h.k.) muvofiq aniqlashtiriladigan predmeti o`zida nimani ifodalaydi. Ta`kidlash joizki, statistika vaqt va makonning aniq sharoitida ijtimoiy voqea-hodisalarni o`rganadi va buning uchun qanday usullarni qo`llaydi, degan savollarga javob berish lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, sud statistikasi mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy, madaniy va huquqiy hayotining barcha tarmoqlarini o`z miqdorlarida aks ettirgan statistikaning ko`psonli tarmoqlaridan biridir. Modomiki, bu kabi sohalarning predmetining o`ziga xos xususiyatiga nazar tashlamaylik, umumiy nazariy statistikaning yaxlit prinsiplariga asoslanadi, avvalo, ushbu prinsiplar haqida, umuman statistikaning xarakterli xususiyatlari haqida aniq tasavvurni olish lozim. Shunday ekan,

statistika o'zi nima? Statistika- boshqa ijtimoiy fanlar singari turli-tuman ijtimoiy hodisalarni o'rganadi. Biroq, boshqa fanlardan farqli o'laroq, statistika ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonini o'zining qayta ishlangan fan usullarini qo'llagan holda o'rganadi. Yodda tutaylik, har qanday hodisani bilish uchun, masalan, jinoyatni, eng avvalo ularning sifati va miqdorini, nechog'lik ikki tomonni birga va aynan shu holatda o'zida ifodalashini, bir-biri sifat ortida, biz narsalar mohiyatini yoki faylasuflar aytganidek, hodisalarning ichki aniqligini, ularning mavjudligini va bir-biridan chegaralanishini, farqlanishini tushunib yetamiz. Misol uchun umumlashtirib, statistika nazariyasi eng ajralib turuvchi ijtimoiy hodisalarni statistik o'rganish uchun zarur bo'lgan umumiy qoida va usullarni ishlab chiqadi. Aniq ijtimoiy hodisalarni (iqtisodiy, huquqiy va b.) o'rganishda bunday usullarni qo'llash, statistika nazariyasini bilishdan tashqari, hodisalarning (masalan, jinoyatchilik tushunchasi, sababalari va b.) o'ziga xos xususiyatlarini anglash zaruriyatini talab qiladi. Bunday bilimni biz moddiy tabiatni, bizni qiziqtiruvchi hodisalar sifat, mohiyatini o'rganuvchi tegishli fanlar (masalan, iqtisodiyot nazariyasi, kriminologiya, jinoyat huquqi va b.)dan olamiz.

Shuni nazarda tutish lozimki, statistika boshqa fanlarning mazmuniga tayangan holda, o'zi o'rganayotgan ijtimoiy hodisaning mohiyati, sifatli xususiyatlarini raqamlar bilan ifodalaydi. **Statistikani ijtimoiy hodisalarning sifatli o'ziga xosligini fosh qilish maqsadini ko'zlovchi miqdoriy ta'limot deb atash mumkin.**

Hozirgi vaqtda huquqiy statistika ma'lumotlarini oshkora ravishda bema'lol matbuotda nashr qilinishi munosabati bilan sud statistikasi bo'yicha ham ma'lumotlarni chuqurroq o'rganish imkoniyatini yaratilganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning natijasida huquqshunoslik fanlari bilan shug'ullanuvchi olimlarga ijtimoiy hayotning jinoiy ko'rinishlarini, maishiy buzqlik sifatlarini, salbiy tomonlarini o'rganishning keng imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu esa, davlat faoliyatida (majburlov choralarini qo'llash, jarimaga tortish, qonunda belgilangan tartibda tegishli javobgarlikka tortish) juda muhim rol o'ynab, bunday illatlarga qarshi kurashishning samaradorligini oshirdi. Huquqbuzarliklarning oldini olish va kelgusida shu kabi qonunbuzarliklar, qoidabuzarliklar sodir etilmasligi uchun tegishli aniq chora tadbirlarni belgilash imkoniyati vujudga keldi.

Jinoyatchilikning o'sishi yoki kamayishi masalasi bilan keng jamoatchilik doimo qiziqib kelgan, chunki fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, ularning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash, ularning o'zlarini hamda qarindosh – urug'larining hayoti va sog'ligi,

mulklarining daxlsizligi kafolati masalalariga ushbu mezonning ta'siri juda ham katta ekanligi barchaga ma'lum. Shuning uchun ushbu masala doimo dolzarb masala bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi. Statistika ma'lumotlariga qarab, nafaqat davlat rejalari yoxud davlat idoralarining rejalari tuziladi, balki fuqarolar ham o'z shaxsiy rejalari tuzishda ayni masalaga jiddiy e'tibor berishadi. Statistika xalqaro munosabatlar zamiriga, tabiatni muhofaza qilish, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, jamoat xavfsizligi, butunjahon muammolarini hal qilish zamiriga ham asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Huquqiy statistika nazariyasini o'rganish natijasida talabalar statistika fanining umumiy asoslari haqidagi bilimlarga ega bo'lishi va huquqiy hodisotlarni statistik o'rganish uchun ularda tegishli ko'nikma hosil bo'lishi kerak. Huquqiy statistika nazariyasini talabalarga o'rgatishdan maqsad – bo'lg'usi yuristlarda huquqiy statistika nazariyasi sohasida zarur bo'lgan bilimlarni vujudga keltirish hisoblanadi. Bundan tashqari, huquqiy statistika ommaviy ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy hodisalar va jarayonlarda statistik ma'lumotlarni to'plash va to'plangan ma'lumotlardan foydalanish usuli va ulardan foydalanish yo'llarini, statistik faoliyatni amaliy tashkil etishni, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish uchun kamida eng zarur bo'lgan boshlang'ich nazariy bilimlarni va amaliy ko'rsatmalarni beradi.

2002-yilning 29-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida «Shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'rvonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q<sup>1</sup>» deb ta'kidlab o'tdi.

Prezidentimiz I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston buyuk kelajak sari» nomli asarida «qonunchilik va huquq tartibot tantana qilmas ekan, huquqiy davlat qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi... qonunning ustuvorligi-huquqiy davlatning asosiy prinsipidir<sup>2</sup>» deb ta'kidlab o'tganlar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «O'zbekistonda butun huquq va sud tizimini takomillashtirish dasturini mamlakat ichidagi jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kuchli chora deb

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари / Халқ сўзи. 2002. 30 авг.

<sup>2</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. -Т.: Ўзбекистон. 1998. –126 б.

hisoblamoq darkor. Bir tomondan, qonunning mutlaq ustunligi va fuqarolarning huquqlari kafolatli himoya qilinishi ushbu dasturning maqsadi bo'lishi lozim<sup>1</sup>» deb aytganlarini ta'kidlab o'tish joizdir. Zero, sud statistikasining, huquqiy statistikaning ham maqsadi jinoyatchilik va qonuniylikning real ahvolini aniqlab, unga qarshi samarali kurashish va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarida belgilangan huquq va erkinliklarini huquqiy kafolatini yaratishdir.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: Хавфсизликка тахдид, баркарорлик шартлари ва тараккиет кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997. 94 б.

# 1-BOB: SUD STATISTIKASINING UMUMIY TUSHUNCHASI VA TARIXI. SUD STATISTIKASINING PREDMETI VA USULLARI

## 1-§. *Statistika atamasi, tushunchasi, statistika fanining predmeti, o'rganish obyektlari*

“Statistika”-lotincha, status – soʻzidan olingan boʻlib, “ahvol”, “holat” degan mazmuni bildiradi<sup>1</sup>. Shu soʻz ildizidan s t a t o – “davlat”, statista – “davlat bilimdoni”, “davlatni biluvchi”, degan soʻzlar mazmunidan kelib chiqqan<sup>2</sup>.

Shuningdek, “statistica”- davlat toʻgʻrisida muayyan bilim, maʼlumotlar yigʻindisi degan mazmuni bildiradi<sup>3</sup>.

Statistika - birinchidan, jamiyatdagi ijtimoiy ishlab chiqarishning miqdor miqdorlarini, ularning oʻzgarishi va rivojlanishini oʻrganuvchi, qayta ishlovchi – fandir. Ikkinchidan, ommaviy koʻrinish-hodisotlarning miqdor hisobidir. Uchinchidan, matematik statistika – ilmiy –amaliy xulosalar qilish va tegishlicha foydalanish uchun matematik uslub bilan tizimlashtirishga bagʻishlangan matematikaning bir boʻlimidir. Toʻrtinchidan, demografik statistika- aholi joylashishining, harakatining(bir yashash joyidan ikkinchi joyga koʻchib yurishi), tarkibining(qanday millat, qanday irq, qancha erkak, qancha ayol, qancha voyaga etgan, qancha voyaga yetmagan, qanchasi nafaqa yoshida va h.k.), miqdorining (aholining son jihatdan oʻsishi, tugʻilishi va oʻlish dinamikasi) darajasiga oid maʼlumotlarni statistik uslub bilan tahlil qilish bilan shugʻullanuvchi statistika sohasi hisoblanadi.

Statistik kuzatuv – orqali jamiyatdagi ommaviy koʻrinishlar, holatlar haqida aniq maʼlumotlar toʻplanadi. Masalan, aholini roʻyxatdan oʻtkazish orqali, insonlarning koʻpayishi, tugʻilishi va oʻlimi dinamikasi, jamiyatda qaysi yoshdagi shaxslar qancha foizni tashkil etayotganligi, ularni qaysi manzillarda qancha miqdorda yashayotganligi aniqlanadi. Albatta bu maʼlumotlardan aholini kerakli boʻlgan isteʼmol mollari, oziq-ovqat bilan taʼminlash, transport vositalarining qatnovini yoʻlga qoʻyish, ish joyi bilan, yashash joyi bilan taʼminlash va kerakli madaniy va maishiy xizmatlar koʻrsatish masalalarini oʻz vaqtida toʻgʻri hal qilish uchun, jinoyatchilik haqidagi maʼlumotlardan esa, jinoyatchilikka qarshi kurash borasida keng foydalaniladi.

<sup>1</sup> Словарь иностранных слов.М., Русский язык., 1989. С.481.

<sup>2</sup> Ё.Абдуллаев. Статистика назарияси. –Т.: Уқитувчи, 2002. 6 б.

<sup>3</sup> Ё.Абдуллаев. Статистика назарияси. –Т.: Мехнат, 2000. 8 б.



“Statistika- degan edi taniqli fransuz davlat arbobi va tarixchisi A.Tyer (1797-1877) – bu o`zing bilmagan narsalar haqida aniq ma`lumot berish san`atidir”.

Yozuvchi B. Dizraeli (1804-1881) “Hayotda, qoida bo`yicha kimda ko`p ma`lumot bo`lsa, o`sha ko`proq yutuqqa erishadi”, –degan edi. Hamda uning o`zi tomonidan yana, “Yolg`onning uchta turi mavjud: uydirma, surbetlarcha uydirma va statistika” deb ta`kidlangan<sup>1</sup>.

Amerika iqtisodchisi va statisti U.K.Mitchel(1874-1948)ning ta`kidlashicha, “Statistika – men va menga o`xshagan har qanday iqtisodchi (press qilib) briket hosil qilish uchun jipslashtiradigan – poyacha (soloma)dir”<sup>2</sup>.

**Statistika tushunchasi** haqida minglab olimlarning undanda ko`proq bo`lgan fikr-mulohazalari va o`zlarining bergan ta`riflari mavjuddir. Bu tushuncha va fikr-mulohaza, o`xshatish va ta`riflarni juda ham uzoq muddat to`xtovsiz davom ettirish mumkin. Bizning fikrimizcha, **“Statistika – bu jamiyat hayotining diagnostikasidir”**. Inson kasalligi va uni davolash haqida, uning faqatgina tashqi turishiga qarabgina, hech qanday tekshiruvsiz va tahlilsiz, asossiz ravishda fikr bildirish emas, balki insonni butun mavjud a`zolarini fan-texnikaning eng ilg`or texnologiyalari yordamida batafsil tekshirib, turli uslublar bilan yagona va aniq bir xulosaga kelish uchun chuqur tahlilni amalga oshirish va uning kasalligini bexato ravishda aniqlash va albatta davo chorasini belgilashning eng to`g`ri yo`lini ko`rsatib berish meditsina diagnostikasining vazifasi bo`lsa, statistika – jamiyat hayotimizning barcha jabhalaridagi dinamikani bexato aytib bera olishdir. Uning yordamida jamiyatimizdagi har qanday siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy buhronlarning sodir bo`lishi mumkinligini oldindan bilishimiz, jamiyatimiz rivojlanishi uchun undagi kasallik qanday tarzda va qanday shaklda va qaysi bir bo`lagida paydo bo`layotganligi, uni davolash uchun qanday choralar qabul qilinishi zaruriyati paydo bo`lganligini, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun vujudga kelgan zaruriyat nimalardan iborat ekanligini, qanday qonunlar qabul qilinishi kerakligi, qaysi munosabatlarimizni huquqiy tartibga solinishi naqadar zarurligi to`g`risida aniq ma`lumotlar beradi.

Statistikani boshqacharoq qilib, ta`riflash ham mumkin. Masalan, **Statistika – bu, jamiyat hayotining ko`zguisidir**. Statistika o`z miqdorlari yordamida, jamiyatdagi barcha o`zgarishlarning real ko`rinishini aks ettiradi.

<sup>1</sup> Кимбал Г. Как правильно пользоваться статистикой. М., 1982. С.15. Савюк Л.К. Правовая статистика. –М.: ЮРИСТЪ, 1999. С.15.

<sup>2</sup> Иниматальная статистика / Под ред. Бакланова Г.И., Кильдишева Г.С., М., 1980. С.10. Савюк Л.К. Правовая статистика. –М.: ЮРИСТЪ, 1999. С.15.

## **2-§. Statistika fanining asosiy tarmoqlari, umumiy nazariy statistika, ijtimoiy statistika, statistikaning paydo bo'lish va rivojlanish tarixi, statistikaning predmeti**

«Statistik» (statisto) so'zi uyg'onish davrida Italiyada vujudga kelgan bo'lib, uning ma'nosida insonni, siyosatda mahoratni, turli davlatlarning bilimdonlarini anglashgan. Bu so'z ancha keng ko'lamda qo'llanilgan bo'lsa kerakki, buyuk Shekspirning asarlari – «Gamlet» (1602-y) va «Sinbelini» (1611-y) da qayta – qayta uchragan. XVII asrda «statistika» so'zi o'sha ma'nosi bilan nemis tiliga o'tgan. Undan Germaniyada lotin tilida chop etilgan ishlarda ilmiy qo'llanishga qo'yilgan lotincha sifati (statistus) paydo bo'ladi. «Statistik» va «statistika» so'zlarini XVIII asr nemis olimlari, ularning ostida davlat afzalliklari haqidagi barcha bilimlar yoki turli davlatlar ta'riflarini tushunib qo'llay boshlashdi.

“Statistika” atamasi dastlab 1749-yilda nemis statisti, falsafa va huquq professori G. Axenval ( 1719-1772) tomonidan davlatshunoslik to'g'risida chiqargan kitobida, davlatshunoslikning bir tarmog'i sifatida statistikani ko'rsatib o'tgan. E.V.Petrova va R.A.Shmoylovalarning fikricha, Axenval birinchi Marburg, undan keyin Gettingem universitetida yangi fan sifatida “statistikani” o'qigan. Lekin aslida unga qadar G.Axenvalning ustoz M.Shmeysler 1723-yilda Yen universitetida “Siyosiy statistika haqida ommaviy ma'ruzalar”, ya'ni “Collegium politico statisticum” kursini o'qigan<sup>1</sup>.

O'zbek olimlaridan Y. Abdullayevning ta'kidlashicha, “Statistika ko'p asrlik tarixga ega. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, eramizdan 3500 yil ilgari Misrda aholi hisobi ( ro'yxati) o'tkazilgan... Bxaskara (XII asr) va boshqa hind olimlari hisob-matematika adabiyoti fondida ajoyib namunalar qoldirdilar. Uning fikrini o'zbek olimlaridan yana X.Shodiyev, Z. Toshmatov, M.Hamroyev, X. Xo'jaqulovlar hamda shu fan o'qituvchilaridan T. Boltayev va R. Urunovlar ham tasdiqlab, quyidagi fikrlarni bildirishadi: “Hisob-statistika ishlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlar xitoyliklardir. Ularga Kunfutsiya (Kun Fuszu, 551-479 eramizgacha), Men Szo` (372-289y. eramizgacha) va boshqalarni kiritish mumkin.

Eramizgacha to'rt minginchi yillarda yirik quldorlik davlatlaridan bo'lgan Misrda juda ko'p statistik ishlar amalga oshirilgan. Eramizgacha bo'lgan uch minginchi yillarda Misr yozuvi paydo bo'lgan. Matematika juda rivojlangan. Ayrim ma'lumotlariga ko'ra eramizdan 3500 yil ilgari Misrda aholi ro'yxati o'tkazilgan. O'sha davrlarda Misrda kasrlar va

<sup>1</sup> Савюк Л.К. Правовая статистика. –М.: ЮРИСТЪ, 1999. С.17-18.

arifmetik amallar ma'lum bo'lgan. Masalan: bir, o'n, yuz, ming va h.k. maxsus belgilar bilan bayon qilingan. Million raqami juda katta songa hayron bo'lib qo'lini ko'tarib turgan inson figurasi orqali belgilangan. Qadimgi Misrda geometriya va astronomiya fani ham vujudga kelib, insoniyat tarixida birinchi bo'lib kalendar va kadastr tuziladi.

Yangi eraning boshlarida hisob-matematika ishlari bilan juda ko'pchilik shug'ullana boshlaydi. Bu ish o'z hududiga Hind yarim orolidan Afrikaning shimoliy dengiz qirg'oqlari va Ispaniya janubigacha kengayadi. Bu hududlarda bosqinchilik urushlaridan so'ng (VII asr), islom dini tomonidan o'rnatilgan rasmiy (arab) tili zonasi paydo bo'ladi. Regionning ajoyib iqlimi, geografik, xo'jalik va siyosiy sharoitlari umuman fanning, shu jumladan, statistika fanining ham rivojlanishiga katta yordam va turtki bo'lgan. Butun hududdan ilmiy asarlar to'planib, ular arab tiliga o'girilgan. Arab, hind matematika asarlari o'ziga qisman antik grek mualliflarini hamda Hindiston, Xitoy, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari olimlarining asarlarini birlashtira boshladi.

Demak, xulosa qilish mumkinki, statistikaning kurtaklar ijtimoiy faoliyatning turi sifatida davlatlarning paydo bo'lishi bilan rivojlana boshlangan. Bu holat, statistikaning paydo bo'lish mexanizmini to'la tushunish uchun juda muhimdir. Shuni yaxshi anglash kerakki, qadimiy jamiyatlarda hisoblarning yoki hisobning ayrim belgilari mavjud bo'lgan, xolos. Davlatlarning paydo bo'la boshlashi, ijtimoiy faoliyat sifatida statistikaning ham paydo bo'lishini taqozo etgan. Davlatni boshqarish uchun zarur bo'lgan ommaviy va boshqa ma'lumotlarni to'plash va ularni tahlil qilish zaruriyati paydo bo'ldi. Hukmron sinf o'z hukmronligini ushlab turishi va uni boshqarishi uchun, davlat yig'img'larini to'plash uchun, yer egalari qancha yer borligini, undan qancha daromad olishini, urush olib borish, egalikdagi hududni dushmanlardan asrash uchun qo'riqlash vazifasini bajaruvchi tabaqa-harbiylarning qanchasi zarur bo'lishi, shuning uchun aholining umumiy soni qancha va shundan qanchasi katta yoshdagi erkaklar, qanchasi ayollar va qanchasi qariya va yosh bolalarni tashkil etishini aniq bilish zaruriyati tug'iladi. Bu ishlar qadimgi statistik ishlardan farq qiladi, ya'ni u faqat ro'yxatga olish emas, ma'lumotlarni jamiyat va davlatni boshqarish uchun tahlil qilish bilan farqlanadi<sup>1</sup>". Statistika fani XVII asrning oxirlariga kelib mustaqil fan sifatida shakllana boshladi. Bu davrda endigina feodalizm o'rni kapitalizm tuzumi egallayotgan edi. Kapitalistik tuzumning barqaror bo'lishi ko'pgina fanlarning, shu jumladan, statistikaning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. XVII

<sup>1</sup> Шодиев Х.А., Ё.Абдуллаев, З.Тошматов ва бошқалар. Суд статистикаси. Дарслик. –Т.: Тошкент Молия институту. 2004. –Б.9-10.

asrda Angliyada "Siyosiy arifmetika" degan fan vujudga keldi. Uning asoschilari ingliz olimlari U.Petti (1623-1687) va Jon Graunt (1620-1674) bo'lganlar. U Pettini o'z vaqtida siyosiy iqtisodning "otasi" va ma'lum darajada statistikaning ixtirochisi deb atashgan. Yevropada statistikaning asoschisi belgiyalik olim A. Kettle (1796-1874) hisoblangan. O'sha davrda Germaniyada G. Axenval (1719-1772) birinchi marta "statistika" so'zini qo'llagan. Angliyada esa. A. Bouli (1869-1957) statistikaning taraqqiy etishiga asos solgan<sup>1</sup>.

K. Marks U.Pettini ulug' va original iqtisodchi-tekshiruvchilardan biri, siyosiy iqtisodning otasi va ma'lum bir darajada statistikaning ixtirochisi deb hisoblagan.

U.Petti o'z asarlarida ("Soliqlar va yig'imlar", 1662-y.; "Donolarga so'z", 1664-yil; "Siyosiy arifmetika", 1676-yil) o'z tengdoshlarini qiziqtirgan ijtimoiy va iqtisodiy savollarga miqdoriy hisob-kitoblarga suyangan holda javob berishga harakat qiladi.

U.Pettining yaqin do'sti, fabrikant, Lord, London shahrining hokimi J.Graunt birinchi bo'lib o'lish to'g'risidagi ma'lumotlar jadvalini tuzgan. U tug'ilish masalalarini o'rgandi, birinchi bo'lib bolalar va qizlar tug'ilishi o'rtasidagi doimiy nisbatni ochdi (14/12), Angliya aholisining sonini aniqladi (6,5 mln.kishi), London aholisining soni 460 ming kishi, shulardan qurol olib yuradigani (harbiy xizmatga yaroqlilari) 81 ming kishi ekanligini aniqladi, aholi migratsiyasini o'rgandi. Bulardan tashqari u ommaviy miqdoriy hodisalarga taalluqli ayrim statistik qonuniyatlarni aniqladi.

U.Petti va J.Graunt bajargan ishlar ilmiy statistikaning paydo bo'lishiga poydevor bo'lib xizmat qilgan. Ular boshlagan ish bir qancha olimlar tomonidan davom ettirilgan. Ular orasida G.King (1648-1712) va E.Galley (1656-1742) bajargan ishlar alohida e'tiborga sazovordir. G.King 1696-yilda Angliya aholisini barcha ijtimoiy guruhlar bo'yicha daromadlar va xarajatlar balansini tuzdi, astronom E.Galley esa 1693-yilda o'lish jadvalini tuzdi. U tuzgan jadval J.Trautnikiga nisbatan ancha takomillashgan bo'lib, u jadval ma'lumotlari sug'urta amaliyotida ishlatila boshlandi.

Shunday qilib, siyosiy arifmetika maktabining dastlabki ko'rinishi vujudga kelgan.

Siyosiy arifmetika maktabi bilan deyarli bir paytda Germaniyada tasviriy maktab (fan) ham paydo bo'ladi. Bu maktab asoschilari G.Konring (1606-1681) va G.Axenvaldir.

---

<sup>1</sup> Абдуллин Э. Статистика паразияси. 100 савол ва жавоб. –Т.: Меҳнат, 2000, -Б.8-9.

1660-yilda G.Konring yangi soha (fan) bo'yicha - "Davlatshunoslik" "Staatskunde" ma'ruza kursini tashkil qiladi. Bu fan G. Konring fikricha, har bir davlatda diqqatga sazovor bo'lgan faktlar (ro'y bergan hodisa va voqealar) haqida so'zlab beruvchi fandır.

Statistika fanining rivojlanishi bilan bir qatorda statistika amaliyoti ham paydo bo'la boshlaydi. Hayot tobora qiyinlashib borganligi sababli, davlatlar statistik organlarni tuzishga majbur bo'ladilar. Birinchi davlat statistika organi 1756-yilda Shvedsiyada tashkil qilingan. Fransiyada 1772-yildan butun mamlakat bo'yicha aholining harakatlari to'g'risida hisobotlar tuzish boshlanadi. 1801-yilda Fransiya Ichki ishlar vazirligida statistik byuro tashkil qilingan. Angliyada 1801-yilda aholi ro'yxati o'tkazilib, shu yillarda sanoat vazirligi qoshida statistika departamenti barpo etilgan.

Statistikani markazlashtirish zaruriati tug'ila boshlaydi. Masalaning zarurligi birinchi xalqaro statistlar kongressida (1853-y. Bryussel) ham ta'kidlab o'tildi va har bir davlatning markaziy statistika komissiyalarini tuzish taklif etildi.

Statistika fani rivojlanishida rus olimlari ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar: V.N.Tatishev (1686-1750) - Rossiyada birinchi aholi ro'yxatini o'tkazgan va aholining joriy hisobini tatbiq qilish lozimligini kun tartibiga qo'shgan; K.I.Krilov (1689-1737)-statistikada ilk bor davlatni tavsiflovchi iqtisodiy-statistik ma'lumotlarni statistik jadval yordamida izohlagan; D.P.Juravskiy - birinchilardan bo'lib, statistika faniga ta'rif bergan; Semenov-Tyan-Shanskiy (1827-1914) - Rossiyada uning boshchiligida ilk bora butun Rossiya aholi ro'yxati o'tkazilgan, ko'p yillar markaziy statistika qo'mitasi boshlig'i bo'lib ishlagan; Y.E.Yanson (1835-1893) – statistika umumiy nazariyasidan ilk bor darslik yozgan (bu darslik bugungi kunda ham, bizning fikrimizcha, eng yaxshi darsliklardan biridir); A.I.Chuprov (1842-1908), V.I.Ulyanov (1870-1924); A.A.Chuprov (1874-1926), A.A.Kaufman (1864-1919) va boshqalar.

Sobiq Ittifoq, davrida ijod qilgan va statistika fani rivojlanishiga va amaliyotiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shgan statistik olimlarni bugun eslash joizdir. Ularga G.Strumilin, V.S. Nemchinov, V.N.Starovskiy, M.N.Smit, V.S.Yastremskiy, S.M.Yugenburg (ko'p yillar Samarqand kooperativ institutida ishlagan), A.Y.Boyarskiy, A.I.Gazulov, A.I.Petrov, G.V.Ryabushkin, V.M.Simchera, N.N.Ryauzov va boshqalarni kiritish mumkin<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Шодиев Х.А., Ё.Абдуллаев, З.Тошматов ва бошқалар. Статистика асослари. Дарслик. –Т.: Тошкент Молия институти. 2004. –Б.9-14.

XVIII-asrning o`rtalariga kelib, davlat haqidagi ma'lumotlar yig`indisiga, ya'ni statistikaga davlatshunoslik sifatida qarala boshlandi. Masalan, statistika yordamida shu davlatning hududida yashovchi xalqlar turlari, ularning millati, dini, irqi qanday ekanligi, ularning soni, yashash joylari va ularning joylashishi, nima bilan shug`ullanishi, asosiy yashash manbai, shu davlatning iqtisodiy va ijtimoiy resurslari va h.k., mamlakat ijtimoiy hayotining dinamikasini o`rganish mumkin.

Statistika deganda, dastlab davlat haqidagi shu bilimlarning majmuasini tushunilar, keyinchalik esa, zarur ma'lumotlarni to`plash va undan foydalanish imkoniyatini beruvchi fanning bir tarmog`i sifatida qarala boshlandi. Statistika- ma'lumotlar yig`indisi, statistika- ma'lumotlar yig`indisining parametri, statistika- faoliyat turi, statistika ommaviy ijtimoiy hodisotlar haqidagi fan, bular esa statistikaning paydo bo`lishi, shakllanishi va rivojlanishi tarixidir.

Bugungi kunda statistika - ijtimoiy-ommaviy hodisotlarning va jarayonlarning o`ziga xos bo`lgan uslub va shakllar yordamida miqdoriy tomonini o`rganuvchi va ularning rivojlanish qonuniyatlarini hamda an`analarini miqdoriy miqdorda o`zida aks ettiruvchi fanning tarmog`idir<sup>1</sup>.

Statistikani ikki variantda, ya'ni keng va tor ma`nodagi statistikaga bo`lishimiz mumkin. **Keng ma`nodagi statistika** deganda –qaysi sohaga taalluqli bo`lishidan qat`i nazar, barcha ommaviy hodisotlarning yig`indisini o`rganadigan fanni tushunamiz.

**Tor ma`nodagi statistika** deganda - birmuncha ixtisoslashgan, ijtimoiy-ommaviy hodisotlarning faqatgina miqdoriy tomoninigina o`rganuvchi fanni tushunamiz.

Statistika ijtimoiy fanlarning tarmog`i va axborotlarni olish, tahlil qilish, undan foydalanish va nashr qilish bo`yicha amaliy faoliyati sifatida jamiyat hayoti qonuniyatlarini aniq joy va vaqtlardagi aks etishining miqdoriy ko`rinishini o`rganadi. Masalan, jamiyat hayotini o`zida aks ettiruvchi iqtisodiyotning o`sishi va pasayishi qonuniyatlari, demografik, huquqiy va boshqa ma'lumotlarni ma'lum bir davr, ma'lum bir vaqt ichidagi ko`rinishini ifodalaydi. Ushbu qonuniyatlarni statistika albatta statistik miqdorlar yordamida aks ettiradi. Shuning uchun statistikani miqdorlar tizimi haqidagi bilimlar, ya'ni u yoki bu hodisotlarning holatini miqdoriy miqdorda tavsiflovchi sifatida ham ifoda qilishimiz mumkin.

**Statistikani yana turli yil, davr, daqiqalar, sonlar yoki ma'lumotlarni tavsiflovchi, ya'ni davlat hayotining turli tomonlarini o`zida aks ettiruvchi: iqtisodini, aholisini, jinoyatchiligini,**

<sup>1</sup> Савюк Л.К. Правовая статистика. –М.: ЮРИСТЪ, 1999. С.18.

**jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatining ma'lum bir yo'nalishlarini miqdoriy miqdorlarda ifodalovchi deb atasak ham bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida jinoyat ishlari bo'yicha 2001-yilda jami 8009 ta ish apellatsiya tartibida ko'rilib, 3708 ta shaxsga nisbatan, shundan tuman, shahar prokurorlarining protesti bilan 3021 ta hukm o'zgartirilgan va bekor qilingan. Apellatsiya protesti kiritish samaradorligi 81,5% ni tashkil etgan.**

Kassatsiya tartibida shaxs hisobida jami bo'lib, 2001-yilda 1542 ta hukm o'zgartirilgan va bekor qilingan bo'lib, shundan 146 tasi taraflarning shikoyatlari asosida, 724 tasi esa viloyat prokurorlarining kassatsiya protestlari asosida, 657 tasi viloyatlar sudlari raislarining kassatsiya protestlari asosida amalga oshirilgan. 2001-yilda viloyat prokurorlarining kassatsiya protestlarini kiritish yo'li bilan hukmlarni qonunlarga muvofiqlashtirish samaradorligi 46,9 % ni tashkil etadi. (Ilova № 3). Viloyat sudlarining rayosatlarida hukmlarning bekor qilinishi va o'zgartirilishi 2001-yilda 1997 tani tashkil etgan bo'lib, shundan viloyat prokurorlarining nazorat protestlari asosida 703 ta shaxsga nisbatan hukmlarning o'zgartirilganligi va bekor qilinganligini ko'ramiz. Bunda viloyat prokurorlarining nazorat protesti kiritish yo'li bilan hukmlarni qonunga muvofiqlashtirish samaradorligi 35,2% ni tashkil etadi. 2002-yilning 6 oyida Respublikada apellatsiya tartibida o'zgartirilgan va bekor qilingan hukmlarning 1437 nafar shaxsga taalluqlisi yoki 79,2 % i prokuror protestlariga to'g'ri kelgan<sup>1</sup>.

Xuddi shunday ma'lumotlarni jinoyatchilik, iqtisodiyot yoki jamiyat hayotining boshqa sohalaridan ham misol qilsa bo'ladi. Masalan, 28-yanvar 2005-yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z ma'ruzasida statistik ma'lumotlardan foydalanib "Jazoni manzil koloniyalarda o'tayotgan shaxslarning ulushi qamoqda saqlanayotganlar soniga nisbatan ancha ko'paydi., ya'ni 1990-yilda manzil koloniyalarda jazoni o'tayotgan shaxslar mahbuslarning umumiy soniga nisbatan 7 foiz bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 21 foizni tashkil etmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda har bir 100 ming aholiga nisbatan qamoqdagilar soni 158 kishini tashkil etadi. Ayni paytda ushbu miqdor, masalan, AQShda – 715, Rossiyada- 584, Ukrainada – 416, Qozog'istonda – 386, Estoniyada – 339 kishidan iborat<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> Қодиров Р.Х. Мустақиллик, қонун ва прокуратура. // Қонун ҳимоясида, 2002. №8. -Б. 5.

<sup>2</sup> И.А.Каримов Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Ўз.Рес.О.М. Қонунчилик палatasi ва Сенатининг қўшма мажлисидаги маъруза. Тошкент Оқшоми. 31.01.2005. № 20.

Statistik ma'lumotlarni o`zida aks ettirayotgan bunday raqamlarni, faktlar yig`indisi sifatida keltirilayotgan bunday misollarni mutaxassislar tomonidan O`zbekiston, Rossiya va MDH davlatlari va ularga tegishli bo`lgan o`lkalar haqidagi, shu yerlardagi jinoyatchilik va qonuniylikning ahvoli haqidagi, yoki alohida turdagi yoxud ma'lum bir turdagi jinoyatlarni shu yerlardagi sodir etilishi to`g`risidagi ma'lumotlarni misol qilsak bo`ladi.

Statistika yordamida dunyoning turli yerlarida demografik o`zgarishlarni kuzatish mumkin. Masalan, o`tgan asr boshida butun dunyo bo`yicha Yerda 1 mlrd. 650 mln. odam yashagan bo`lsa, hozirda 6 mlrd.dan oshiq odam yashaydi. Odam ko`payishining darajasi shunday ketaversa, taxminan 30 yillardan keyin yer kurrasida odamlarning qanchalik darajada zich yashashi mumkinligini tasavvur qilib ko`rishingiz mumkin. O`z-o`zidan tabiiy resurslardan foydalanish muammosi chuqurlashadi, raqobatlar kuchayadi, yashash uchun kurash hozirgiga nisbatan birmuncha kuchayadi.



### **3-§. O'zbekistonda statistikaning vujudga kelishi va rivojlanishi**

O'zbekistonda statistikani rivojlantirishda Toshkent xalq xo'jaligi institutida 1932-yildan boshlab o'z faoliyatini boshlagan "Statistika" kafedrasining olimlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan. Respublikamizda birinchilar qatorida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoniga sazovor bo'lgan N.M. Soatov va E.A. Akramovlar shular jumlasidandir. 1979-yilida ushbu olimlarning muharrirligi ostida birinchi marta o'zbek tilida "Statistika asoslari" nomli o'quv qo'llanma "O'qituvchi" nashriyoti tomonidan chop etilgan<sup>1</sup>. Shuningdek, statistika fanini rivojlantirishga o'z hissasini qo'shgan professorlar I.N.Ermatov, H.N.Nabiev, S. Sirojiddinov. R. Alimov, Y.Abdullayevlarni alohida e'tirof etishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasida statistikaning rivojlanishida va uni o'zbek xalqiga o'rgatishda diqqatga sazovor ishlar qilingan. Birinchi "Statistika" kafedrasida 1932-yilda Toshkent, keyinchalik -Samarqand va boshqa shaharlarda tashkil etilgan. Hozirgi paytda deyarli hamma iqtisodiy institut va fakultetlarda statistika kafedralari mavjud. Ularda o'zbek statistikasini yaratgan va yaratayotgan ajoyib olimlar faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublikamizda birinchi bo'lib statistikadan doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan shaxslar bu – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi unvoniga sazovor bo'lgan olimlarimiz N.M.Soatov va E.A.Akromovdir. Ular muharrirligi ostida ilk bor o'zbek tilidagi "Statistika asoslari" nomli o'quv qo'llanmasi chop etilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, o'zbek tilida "Statistika" fani bo'yicha o'quv adabiyotlari chop etish boshlandi. O'zbek tilida o'quv qo'llanma va darsliklar yaratgan Toshkent Moliya instituti statistika kafedrasida professor o'qituvchilari namuna bo'lmoqdalar. Bu ishga boshchilik qilayotgan iqtisod fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Y.Abdullayevning xizmatlarini alohida ta'kidlash joiz. Professor Y.Abdullayev ilk bor statistika umumiy nazariyasi, darslik (1993-y, ) Statistika nazariyasi O'qituvchi nashriyatida 1993-yili, "Mehnat" nashriyatida 2000-yili va "O'qituvchi" nashriyatida 2002-y.) chop etdilar, 1996-yilda shu fandan o'quv qo'llanma nashr etildi, 1998-yilda esa o'quvchilarga "Makroiqtisodiy statistika: 100 savol va javob" taqdim etildi. Kafedraning boshqa a'zolari ham bu sohada faol ishlamoqdalar. Masalan, iqtisod fanlari doktori, professor X.A. Shodiyev "Statistika nimani o'rgatadi." (T., O'zbekiston, 1985 ), X.A. Shodiyev, M.Ya.Hamroyev "Moliya statistikasi"

<sup>1</sup> Абдуллев Ё. Статистика пазарияси. 100 савол ва жавоб. –Т.: Меҳнат, 2000. -Б.11.

(T.: Abu Ali Ibn Sino, 2002), X.A.Shodiyev "Moliya statistikasi bo'yicha amaliyotnoma" (T.: TMI, 2002) M.Hamroyev "Milliy bo'lyik statistikasi" (T.: TMI, 2002) va boshqa o'quv adabiyotlari chop etilgan.

Sobiq Sovet Ittifoqi davrida statistika faoliyati markazdan boshqarilib, barcha metodologik va uslubiy masalalar u yerda mujassamlashgan edi. Ittifoqdosh respublikalardagi statistika idoralari (avvalgi Markaziy statistika boshqarmalari, keyinchalik esa Davlat statistika qo'mitalari) faqat statistik ma'lumotlarni respublika miqyosida to'plash, qayta ishlash va olingan ma'lumotlarni markazga yetkazib berish bilan shug'ullanar edi. Masala shu qadar markazlashtirilgan ediki, hatto ittifoqdosh respublikalarda yaratilgan milliy daromad hajmi joylarda emas, balki markazda aniqlanar edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan boshlab statistika faoliyatini tashkil etish masalasida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Dastavval, statistika va bashorat qilish ishlarini uyg'unlashtirish hamda metodologik-uslubiy masalalarni bozor iqtisodiyoti sharoitlariga moslashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 6-avgustdagi UP-949-sonli Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 7-avgustdagi 367-sonli qaroriga ko'ra Davlat statistika qo'mitasi Taraqqiyot istiqbolini belgilash qo'mitasi bilan birlashtirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining Istiqbolni belgilash va statistika ("O'zistiqbolstat") Davlat qo'mitasi tashkil qilindi.

Respublikamizda statistika ishlarini qonuniy va xalqaro standartlar asosida olib borish ishlarini tashkil qilish uchun 1993-yilning 2-sentabrida Oliy Majlis tomonidan «Davlat statistikasi to'g'risida» qonun va 1994-yilning 24-avgustida Vazirlar Mahkamasining 433-sonli qaroriga binoan «O'zbekiston Respublikasining xalqaro amaliyotda qabul qilingan hisob va statistika tizimiga o'tish bo'yicha Davlat dasturi» qabul qilindi.

Respublikaning ehtiyojlaridan kelib chiqib xalqaro registrlarni shakllantirish tamoyillariga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning Yagona davlat registrini (KTYDR) ishlab chiqish va yuritish maqsadida 1994-yilning 17-noyabrida Vazirlar Mahkamasining 555-sonli «Mulkchilik va xo'jalik yuritishning barcha shakllaridagi korxonalar va tashkilotlarning Yagona davlat registri to'g'risida» qarori qabul qilindi. Bu qarorni qabul qilishdan asosiy maqsad:

- O'zbekiston Respublikasida korxonalar va tashkilotlarni yagona davlat hisobiga olishni ta'minlash;

- Aniq mo'ljali iqtisodiy miqdorlar negizida yoppasiga statistik kuzatishni yuritish, shuningdek, bir yo'la hamda tanlab o'tkaziladigan tadqiqotlar va ro'yxatga olishlarni tashkil etish;

- Respublika va hududiy boshqaruv idoralarining axborot almashishda ijtimoiy-iqtisodiy miqdorlarning bir-biriga to'g'ri kelishini va taqqoslanmasligini ta'minlash;

- Xo'jalik yurituvchi subyektlarning respublika axborot makoni doirasida o'zaro hamkorlik qilishlarida ularni identifikatsiyalashtirishning yagona tamoyillarini ta'minlash; ishonchli axborot to'plash va ular bilan boshqaruv idoralari va foydalanuvchilarni ta'minlash.

Korxonalar va tashkilotlar Yagona davlat registrining amaliyotga kiritilishi natijasida quyidagilarni amalga oshirish imkoniyati yaratildi:

- Xo'jalik yurituvchi subyektlarni bir yoki bir necha axborot belgilari bo'yicha istalgan jamlilikda tanlash va guruhlarga ajratish;

- boshqa idoralarning registrlari bilan o'zaro hamkorlik qilish;

- KTYDR ma'lumotlarini qog'ozda, disketda, aloqa vositalari orqali tanlash va berish;

- KTYDR ma'lumotlarini yangilash va dolzarblashtirish;

- KTYDR ma'lumotlarini himoya qilish.

Yuqorida keltirilgan qonuniy asoslar Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonining birinchi bosqichida statistika ishlarini tashkil qilish va takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etdi.

Shu davrda respublikamizda xalqaro moliya va statistika institutlarining ekspertlari yordamida xalqaro standartlarga asoslangan inflatsiya jarayonlarini ifodalovchi iste'mol narxlar indeksleri hamda milliy hisoblar tizimiga asoslangan yalpi ichki mahsulot boshqa makroiqtisodiy miqdorlarni hisoblashga asos solindi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning ikkinchi bosqichida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning aniq yo'nalishlari, yo'llari va uslublarini belgilash, respublika iqtisodiyotini boshqarishning bozor mexanizmlarini ta'minlash, iqtisodiy voqea va hodisalarni hisobga olishning zamonaviy indikativ, tahliliy va statistik uslublari hamda vositalarini rivojlantirish va chuqurlashtirish maqsadida 1997-yilning 11-oktabrda Vazirlar Mahkamasining 474-sonli qaroriga ko'ra Davlat Istiqbolni belgilash va statistika vazirligi tashkil qilindi. Bu davrda Respublika axborot tizimining yagona ilmiy uslubiyat asosida faoliyat ko'rsatishi ta'minlandi, milliy hisoblar tizimi va iqtisodiy balanslarni xalqaro me'yorlar va andozalarga muvofiqlashtirish ishlari davom ettirildi, Respublika hududida joylashgan barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar tizimini yuritish uchun asos yaratildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning hozirgi bosqichida respublikamiz oldida turgan yangi vazifalarni hal qilishda 1993-yilda qabul qilingan «Davlat statistikasi to'g'risida»gi qonunga o'zgartirishlar kiritish va umuman statistika ishlarini tashkil qilishda rivojlangan mamlakatlar tajribasiga suyanan holda, to'la mustaqillikni ta'minlash maqsadida 2002-yilning 12-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Davlat statistikasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi. Yangi tahrirdagi «Davlat statistikasi to'g'risida»gi qonun 16 ta moddadan iborat bo'lib, unda davlat statistikasining asosiy vazifalari, tamoyillari, davlat statistika organlarining huquqlari, majburiyatlariga qonuniy asos berildi, unga dunyodagi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida bo'lgan statistika to'g'risida qonunlarning o'rganilishi natijasida zarur bo'lgan qo'shimcha moddalar kiritilgan.

Qonunning «Davlat statistikasining asosiy vazifalari» nomli 3-moddasida quyidagi vazifalar keltirilgan:

- Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning hamda ularning natijalari to'g'risida statistika ma'lumotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil etish va e'lon qilish;

- Xalqaro standartlarga mos keluvchi yagona statistika uslubiyatini ta'minlash;

- Davlat organlari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar, davlat muassasalari va xalqaro tashkilotlarni, shuningdek, jamoatchilikni belgilangan tartibda statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash;

- Statistik ishlarni tashkil etish uchun zarur bo'lgan iqtisodiy-statistika tasniflagichlar tizimini hamda korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish.

Qonunning 4-moddasida xalqaro miqyosda tan olingan davlat statistikasining asosiy tamoyillari keltirilgan, ya'ni: ishonchlilik, xolislik, beg'arazlik, dolzarblik, qiyosiylik va barqarorlik; qulaylik, ochiq oydinlik va oshkoralik; statistika hisobotini yig'ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga aralashishni istisno etuvchi statistika ishlarini tashkil qilish tizimini yaratish.

Davlat statistika idoralari nomli 5-moddada Davlat statistikasi vakolatli organining rahbari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan uch yil muddatga tayinlanadi, deb belgilab qo'yilgan. Ushbu moddada "Davlat statistika organlari ma'lumotlar manbalarini, statistika usullarini, statistika ma'lumotlarining mazmuni, shakli, vaqti va tarqatilishini tanlashda mustaqildir" deyilgan. Pirovardida, statistika

ishlarida foydalaniladigan uslublarni qo'llash jarayonida bu uslublarni real iqtisodiy vaziyatga tezda moslashtirish imkoniyati yaratildi.

Bundan tashqari, statistika idoralariga Davlat statistika ishlari dasturiga kiritilmagan statistik ishlarni buyurtmaga ko'ra haq to'lash yo'li bilan shartnoma asosida amalga oshirish huquqi ham berilgan.

Qonunning 8-moddasi «Statistika kengashi» deb atalib, unda «Statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organ huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko'rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo'yicha kollegial-maslahat organidir» - deb belgilab qo'yilgan.

Kengashga faqat rasmiy statistika organlarining xodimlari kiritilib qolmasdan, davlat organlari, jamoatchilik ilmiy va ishbilarmon doiralar, ya'ni statistik ma'lumotlardan foydalanuvchilarning vakillari ham kiritiladi.

Kengash a'zolari yoki yig'ilishga taklif qilinadigan ekspertlarning fikrlari, ularning takliflari statistik ishlar dasturini tuzishda inobatga olinadi.

Shu yo'sinda statistik ma'lumotlardan foydalanuvchilar bilan uzviy va bevosita aloqa o'rnatiladi va natijada statistik ma'lumotlardan foydalanuvchilarga zarur bo'lgan ma'lumotlar tizimi doimiy tarzda ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 21-dekabrda VP-3183-sonli «O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligini qayta tashkil etish to'g'risida»gi Farmoniga binoan Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi tugatilib, uning negizida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tashkil qilindi. Ushbu farmonga binoan statistika idoralari zimmasiga quyidagi vazifalarni hal qilish yuklatiladi:

- statistika sohasida yagona siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, zamonaviy xalqaro talablar va andozalarga mos keladigan statistikani tashkil etishning samarali tizimini ta'minlash;

- ilmiy asoslangan, bozor iqtisodiyotining asos tamoyillariga javob beradigan, milliy hisoblar tuzishni ta'minlaydigan hamda xalqaro statistika andozalariga muvofiq bo'lgan yagona statistika metodologiyasi miqdorlar tizimini ishlab chiqib, tatbiq etish;

- statistika va hisobot miqdorlarining tezkorligi, ishonchliligi va xolisligini ta'minlash, statistika axborotini olish bemalolligi, uning ochiqqligi va oshkoraligini kengaytirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- statistika axborotini yig`ish, qayta ishlash va umumlashtirish tartibiga har qanday aralashuvlarga yo`l qo`ymaydigan statistika ishlarini tashkil qilish tizimini yaratish;

- statistika organlarini zamonaviylashtirish hamda ularni statistik axborotlarni tezkor uzatish va qayta ishlashni ta`minlaydigan zamonaviy kompyuter hamda axborot kommunikatsiya tizimlari va texnologiyalari bilan qayta jihozlash, statistika bo`yicha yagona axborot tizimini yanada rivojlantirish;

- korxonalar va tashkilotlarning Yagona davlat registrini, iqtisodiy-statistik klassifikatorlar tizimini yuritish.

Ushbu Farmonning 7-bandida statistika idoralariga statistika axborotlarining haqqoniyligini ta`minlash borasida katta vakolatlar berilgan: «Belgilab qo`yilsinki, ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmlarining sun`iy ravishda kamaytirilishiga, korxonalar faoliyatiga noxolis baho berilishiga, pul mablag`larining bankdan tashqari noqonuniy aylanishiga olib keladigan noto`g`ri statistik hisobotni taqdim etishda, statistika ma`lumotlarini yashirishda aybdor bo`lgan mansabdor shaxslar qonunga muvofiq qattiq javobgarlikka, hatto jinoiy javobgarlikka ham tortiladilar».

2003-yilning 8-yanvarida Vazirlar Mahkamasining 8-sonli «O`zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo`mitasi faoliyatini tashkil etish to`g`risida»gi qarori qabul qilinib, unda Respublika Davlat statistika qo`mitasi tizimining tuzilmasi, markaziy apparatining tashkiliy tuzilmasi, qo`mita to`g`risidagi Nizom, maxsus jamg`arma to`g`risidagi Nizom tasdiqlanib, Davlat statistika qo`mitasi huzurida davlat statistikasini rivojlantirish, uning faoliyat ko`rsatishi va uni muvofiqlashtirish muammolari bo`yicha kollegial maslahat organi tashkil etilishi belgilab qo`yilgan.

#### **4-§. Sud statistikasining umumiy va tarmoqlararo rivojlanishi. Jahon kriminalistik statistikasining vujudga kelishi, statistik ma'lumotlarni taqqoslash, statistik ma'lumotlarni taqqoslashda BMTning roli**

Statistik ma'lumotlarni yig'ish faqat bir davlatning o'z doirasidan tashqariga chiqqanligiga juda ko'p bo'ldi. Bir qancha xalqaro tashkilotlar bu ma'lumotlardan o'z oldilariga qo'yilgan maqsadlariga erishish va ularni muvafaqqiyatli hal etish uchun foydalanadilar. **Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)** ham deyarli tashkil etilganidan buyon dunyodagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar haqidagi, jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun dunyo jinoyatchiligi haqidagi statistik ma'lumotlarni yig'ish yuzasidan juda ham ulkan ishni amalga oshirib kelmoqda. Jinoyatchilikning ahvoli haqidagi ma'lumotlarni o'zini to'plash uchun ham o'zining keng qamrovli faoliyatini amalga oshirib, statistik ma'lumotlarning chuqur tahlilini yaratib kelmoqda. Masalan, 4 ta besh yillikni o'z ichiga olgan statistik tahliliy natijalar to'plamini yaratdi: 1970-1975, 1976-1980, 1980-1985, 1985-1990-yy.

BMT tashkiloti tomonidan to'planayotgan bu ma'lumotlarni yanada boyitish uchun barcha davlatlar o'zlaridagi ma'lumotlarni taqdim qilishlari zarur. Lekin ba'zi davlatlar o'z mamlakatlaridagi jinoyatchilik haqida ma'lumot berishmaydi. Bundan tashqari, ba'zi bir davlatlar tomonidan beriladigan statistik ma'lumotlar haqiqatdan uzoqroq bo'lishi ham mumkin. Bu borada "latent" jinoyatchilik (yashirin, ko'zga ko'rinmas jinoyatchilik) dunyodagi jinoyatchilik haqidagi statistikani juda ham aniq bo'lishiga real xalaqit beradi. Jinoyatchilik haqidagi ma'lumotlar ma'lum bir hududdagi kriminogen holatning aniq tasvirini berishi mumkin.

Dunyo jinoyatchiligi to'g'risidagi statistika ma'lumotlari birmuncha tashvishlanarli holatni vujudga keltiradi, chunki bu ma'lumotlardan oxirgi 40-50 yil ichida yer yuzidagi jinoyatchilik ilgarigiga nisbatan 3-4 marta oshib ketgan. Masalan, Sobiq Ittifoq davlatlarida 6-8 marta, AQShda 7-8 martagacha, Buyuk Britaniya va Shvedsiyada 6-7 marta, Fransiyada 5-6 marta, Germaniyada 3-4 marta, Yaponiyada 1,5-2 martagacha oshib ketgan. BMT ma'lumotlariga qaraganda, 1985-1990-yy. mobaynida jinoyatchilikning yillik o'sishi o'rtacha 5 % ni tashkil etgan<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Волкова Л. Нации "вымирают", чтобы выжить. // Российская газета. 1997. 31 январь.

## 5-§. Sud statistikasining fan sifatidagi rivojlanishi

**Statistika** raqamlarni o`zida aks ettiribgina qolmay, jamiyatning, umuman olganda, insoniyatning ijtimoiy hayotiga rahna soluvchi “kasalliklarga” qarshi kurashuvchi **samarali qurol** ham hisoblanadi.

Har qanday fanni, shu jumladan, **sud statistikasini** ham o`rganishga kirishishdan avval, uning **predmeti nima** va usullari qandayligini aniqlashtirish, ya`ni u qanday voqea-hodisalarni o`rganadi va buning uchun qanday usullarni qo`llaydi, degan savollarga javob berish lozim. Shuni nazarda tutish kerakki, **sud statistikasi mamlakatimiz iqtisodiy, siyosiy, madaniy va huquqiy hayotining barcha tarmoqlarini o`z miqdorlarida aks ettirgan statistikaning ko`psonli tarmoqlaridan biridir**. Modomiki, bu kabi sohalar predmetining o`ziga xos xususiyatiga nazar tashlamaylik, umumiy nazariy statistikaning yaxlit prinsiplariga asoslanadi, avvalo, ushbu prinsiplar haqida, umuman statistikaning xarakterli xususiyatlari haqida aniq tasavvurni olish lozim. Shunday ekan, statistika o`zi nima? Bu fan nimani o`rgatadi degan savolga javob berish kerak.

**Statistika, boshqa ijtimoiy fanlar singari turli-tuman ijtimoiy hodisalarni o`rganadi**. Biroq, boshqa fanlardan farqli o`laroq, statistika ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonini o`zining qayta ishlangan fan usullarini qo`llagan holda o`rganadi. Yodda tutaylik, har qanday hodisani bilish uchun, masalan, jinoyatni, eng avvalo, ularning sifati va miqdorini, nechog`li ikki tomonni birga va aynan shu holatning o`zida ifodalanishini, bir-biri bilan uzviy bog`liqligini aniqlash lozim. Odatda sifat ortida, biz narsalar mohiyatini yoki faylasuflar aytganidek, hodisalarning ichki aniqligini, ularning mavjudligini va bir-biridan chegaralanishini, farqlanishini tushunib yetamiz. Misol uchun, sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishning (harakat yoki harakatsizlikning), boshqacha qilib aytganda har bir sodir etilgan jinoyatning sodir etilish uslubi, vaqti, kimga nisbatan sodir etilganligi, kimlar tomonidan sodir etilayotganligi, sodir etilish sabablari va jinoyat natijasida yetkazilayotgan zararning o`ziga xos xususiyatlariga qarab, ushbu jinoyatlar jabrlanuvchilari kimligi, jabrlanuvchilar bilan jinoyat sodir etgan shaxslar o`rtasidagi munosabatlar qanday bo`lganligini aniqlash natijasida jinoyatning vujudga kelish nuqtasiga kelishimiz va unga qarshi samarali kurashni tashkil etishimiz mumkin. Jinoyatchilikka qarshi samarali kurashni tashkil etish uchun jinoyatning o`zi nima degan savolga javob topish kerak bo`ladi.

Jinoyatning o`zi nima? Bu aniq sifat bo`lib, ijtimoiy xavflilik, huquqqa xiloflik, ayb va javobgarlik kabi xususiyatlar yig`indisi



majmuidir. Ilmiy tadqiq qilish, eng avvalo, o`rganilayotgan hodisaning mohiyatini yoki sifatini o`rnatish shart, ya'ni ularni boshqa hodisalardan ajratib turadigan o`ziga xos xususiyatlarini ochish zarur (masalan, jinoyatni boshqa huquqbuzurliklar – ma'muriy, fuqarolik va b. dan farqlaydigan). Ta'kidlash joizki, o`rganilayotgan hodisaning, predmetlarning sifatli tomonini aniqlamasdan turib, ularning taraqqiy etishiga qonun choralari o`rnatmaslik darkor. Bu esa har qanday fan oldiga muhim vazifalarni qo'yadi. Mana, masalan, kriminologiya fani jamiyatdagi jinoyatchilikning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari, ularning rivojlanishi, jinoyatchilik sabablarining o`ziga xos xususiyatlarini o`rganadi va ularga qarshi tezkorlik bilan qonuniy choralar o`rnatadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, har qanday predmetning sifati uning miqdori yoki hodisani uning kengayishi, hajmi, tengligi, sur'ati, darajasi va boshqa shu kabi jihatlarini tavsiflaydigan miqdoriy aniqligisiz mavjud bo`lmaydi. Masalan, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyada miqdoriy tomoni o`ziga xos – mehnat unumdorligining o`rnatilgan darajasi, sarmoyadorlarning foyda olish darajasi, o`zlashtiriladigan qo`shimcha narxlarning miqdori va h.k. Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlar o`zlarining muhim sifatli xususiyatlari bilan ajralib turadilar (ishlab chiqarish vositalari hajmining kattaligi, dunyo ishlab chiqarishiga ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning katta ta'siri bo`lishi), o`zlarining miqdoriy miqdorlari bilan bir-biri bilan farqlanadilar (masalan, band ishchilar soni, qo`shimcha narxlar me'yori, mehnat unumdorligi darajasi). Jinoyatni har qanday jamiyatga ichki xosligini aniqlab, uning sifati va o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatgan holda, jinoyatchilikning miqdoriy jihatini ham o`rnatishimiz lozim. Faqat shugina bizga ularning taraqqiy etishida, jinoyatchilik va qonuniylik haqida mutlaqo aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Rasmiy ma'lumotlar qaysi mamlakatlarda ma'lum bir vaqt ichida qanday jinoyatlar turlari oshganligi yoki ma'lum bir davlat hududida qaysi bir jinoyat turi oshayotganligi yoki kamayayotganligini ko`rsatib beradi. Albatta, jinoyatlarning o`rnatilgan sabablari, ularni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlar turlicha va bu jinoyatlarni bartaraf etish usullari ham turlicha bo`lishi mumkin.

Statistika yordamida to`planadigan ma'lumotlar jinoyatchilikning aniq tavsifini, ya'ni uning ahamiyatli, sifatli xususiyatlarini ochib beradi. Ko`rib turganimizdek, narsalarning miqdoriy tomoni ularning sifatli tomoni bilan ajratilmagan. Ularning o`rtasida yaqin bog`liqlik va o`zarolik amal qiladi. Statistika ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonini o`rganadi, uning sohalariga (iqtisodiy, huquqiy, jinoiy va h.k) muvofiq

aniqlashtiriladigan predmeti o`zida nimani ifodalaydi. Ta`kidlash joizki, statistika vaqt va makonning aniq sharoitida ijtimoiy voqea-hodisalarni o`rganadi va buning uchun qanday usullarni qo`llaydi, degan savollarga javob berish lozim. Statistika nazariyasi eng ajralib turuvchi ijtimoiy hodisalarni statistik o`rganish uchun zarur bo`lgan umumiy qoida va usullarni ishlab chiqadi. Aniq ijtimoiy hodisalar(iqtisodiy, huquqiy va b.)ni o`rganishda bunday usullarni qo`llash, statistika nazariyasini bilishdan tashqari, hodisalarning (masalan, jinoyatchilik tushunchasi, sabablari va b.) o`ziga xos xususiyatlarini anglash zaruriyatini talab qiladi. Bunday bilimni biz moddiy tabiatni, bizni qiziqtiruvchi hodisalar sifati, mohiyatini o`rganuvchi tegishli fanlar (masalan, iqtisodiyot nazariyasi, kriminologiya, jinoyat huquqi va b.)dan olamiz.

Shuni nazarda tutish lozimki, statistika boshqa fanlarning mazmuniga tayangan holda, o`zi o`rganayotgan ijtimoiy hodisaning mohiyati, sifatli xususiyatlarini raqamlar bilan ifodalaydi. Statistika ijtimoiy hodisalarning sifatli o`ziga xosligini fosh qilish maqsadini ko`zlovchi **miqdoriy ta`limot** deb atash mumkin.

Masalan, mamlakat iqtisodiyotining miqdoriy tomonini raqamlar bilan tavsiflashda – bozorlardan tushadigan naqd pul tushumi, millionlab nafaqaxo`rlarga beriladigan nafaqa summasi, mamlakatdagi ishlab chiqarish miqdorining, chet elga tovarlar importini kuchaytirilishi va milliy byudjetimizga chet el valutasidagi tushumlarning ko`paytirilishi, daromadning yirik summalari, amaldagi ish haqining oshib borishi, aholining o`sinh dinamikasi, jinoyatchilik sonining o`sishi, kamayishi va h.k.larda statistika vaqt va makonning aniq sharoitida namoyon bo`ladigan hodisotlarning asosiy ahamiyatli jihatlarini va afzalliklarini ifodalaydi. Agar, masalan, sud statistikasi qo`shimcha kuzatuvlar uchun qaytarilgan, bekor qilingan shartnomalar va kelishuv yoki ishlarning katta foizi, shuningdek, fosh qilingan jinoyatlar quyi foizining yirik miqdorini o`z miqdorlarida tavsiflasa, u holda mazkur hududda sud yoki tergov organlari ishining quyi sifati oshkora shakllanadi.

Saylovdan saylovgacha o`tgan davrda prokuratura organlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi, uning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, ular o`rtasida hamkorlikni ta`minlash yuzasidan keng ko`lamli ishlar amalga oshirilganligini, buning natijasi o`laroq, Respublikamizda jinoyatchilikning barqaror holatda saqlanib qolishiga, uning og`ir va o`ta og`ir turlarining kamayishiga erishilganligini O`zbekiston Respublikasi Bosh prokurori R.X.Qodirov “Qonun himoyasida” jurnalida bergan “Konstitutsiya va qonunlar ustunligi-taraqqiyot kafolati” nomli maqolasida ko`rsatib o`tgan

bo`lib, statistik qiyoslashni amalga oshirgan. Uning ushbu statistik qiyosini ko`rib chiqamiz "Ma'lumotlarga ko`ra, shu yilning 10 oyida mamlakat hududida umumiy jinoyatlar soni o`tgan yilga qaraganda 184 taga yoki 0,3 foizga kamaygan. Respublika miqyosida og`ir va o`ta og`ir jinoyatlar 2,1 foizga, o`g`irlik 16 foizga, avtotransportni haydab olib qochish 14,4 foizga, bezorilik 4,6 foizga, retsdiv jinoyatlar 4,9 foizga, jinoiy guruhlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 2,3 foizga, mast holda jinoyat sodir etish 2,31 foizga, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar 8,3 foizga, ularning jinoyatdagi ishtiroki 4,5 foizga, ayollarning ishtiroki 2,6 foizga. ishlamaydigan va o`qimaydiganlarning ishtiroki 0,3 foiz-) ga kamayishiga erishildi.

Bu davrda umumiy jinoyatchilik hamda uning og`ir va o`ta og`ir turlarini fosh etish miqdorlari ham doimiy ravishda ortib bordi. Umumiy jinoyatchilikning ochilishi 1999-yilda 78 foizni tashkil etgan bo`lsa, 2004-yilda bu miqdor 82 foizga, og`ir va o`ta og`ir jinoyatlarning ochilishi esa 75,3 foizdan 85,5 foizga yetdi.

Tergov sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish yuzasidan ko`rilgan chora-tadbirlar ham o`zining ijobiy natijasini berdi. 2004-yilning 10 oyi davomida prokuratura organlari tomonidan 16406 jinoyat ishlari bo`yicha dastlabki tergov harakatlariolib borilib, ularning 11011 tasi ayblov xulosalari bilan sudlarga yuborildi. Jazoning muqarrarligini ta`minlash bilan birga jinoyatlar oqibatida yetkazilgan moddiy zararlarni aybdorlardan undirishga alohida e`tibor qaratildi. Bunday choralar ko`rilishi natijasida yetkazilgan moddiy zararining 4,5 milliard so`mi (71,2 foizi) hamda 512 ming AQSh dollari va 7,6 ming yevro aybdorlardan tergov jarayonida undirildi.

Xususan, «Farg`ona neftni qayta ishlash zavodi» mansabdor shaxslari boshchiligidagi jinoiy guruhlar tomonidan neft mahsulotlari talon-taroj qilinganligi yuzasidan yuritilgan 23 ta jinoyat ishi bo`yicha 2,2 milliard so`mlik moddiy zarar yetkazilganligi aniqlanib, tergov jarayonida 2 milliard so`mdan ortiq zarar undirildi<sup>1</sup>.

Shunday qilib, ijtimoiy hodisa va ularga xos qonuniyat statistikada ularning o`ziga xos afzalligini tegishli miqdoriy belgilarini oladi. Quruq sonlar, ularni aniqligidan qat`i nazar, statistika uchun na nazariy, na amaliy qiziqish uyg`ota oladi. Bunda – statistikaning matematikadan asosiy farqlaridan biri ko`rinadi, ya`ni xoh u, xoh boshqasi o`z kuzatuvlarida «raqam tili»ni qo`llasin. Matematika miqdorni, uning aniqligidan, ya`ni sifatidan qat`i nazar mavhum ko`rib chiqadi va bunda

<sup>1</sup> Қодиров Р.Х. Конституция ва қонунлар устуңлиги-тараккист қафолати. // Қонун ҳимоясида. Т.: 12(108) 2004.- Б.1-4.

uning prinsip jihatdan statistikadan farqi yotadi. Albatta, matematika statistikada juda keng qo'llaniladi, lekin boshqaruvchi va aniqlovchi sifatida u namoyon bo'lmaydi. Asosan, statistikada boshqaruvchi sifatida, ma'lum hodisalarning afzalli jihatlarini o'rgangan holda, ilmiy nazariya namoyon bo'ladi.

Matematikani qo'llash «qachon daraxtlar ortidan o'rmonlar, sonlar to'plami ortidan hodisalarning iqtisodiy turlari g'oyib bo'lishi...»ga olib kelmasligi kerak. Aynan hodisa turi, uning afzalli jihati har qanday statistik tadqiqotning negizida yotishi lozim. Statistikada miqdor va sifat bir-biridan ajratilmaydi. Shunday ekan, statistika, o'z navbatida dialektik uslublarda asoslangan aniq fanlarning nazariy holatiga tayanib, o'rganilayotgan hodisalarning sifat miqdoriy tavsifini berishni, ya'ni ularning o'lchovini sifat- miqdoriy aniqligini tezlashtiradi.

«Statistikada, deydi Gegel, u shug'ullanadigan sonlar, ... bir-biri bilan bog'langanligi yoki sifatli natijalari bilan qiziq. Quruq sonli izlanish misoli, u yerda na nazariy, na amaliy qiziqishlarni qanoatlantira oladigan rahbariy nuqtai nazar bor, quruq sinchkovlik predmetini adolatli hisoblashadi». Shunisi e'tiborliki, Gegel «chora»ni «sifatli aniqlangan miqdor» kabi ajratgan.

Hozirda «statistika» atamasi bir qancha ma'nolarga ega. Statistika orqali turli ijtimoiy hodisalar haqida ko'rsatmalar yig'indisini tushunishgan, masalan: jinoyatlar soni haqida, tug'ilishlar soni haqida, sud – prokuratura organlari faoliyati haqida va h.k. Bunday ko'rsatmalarni yig'ish bilan mashg'ul ishchi haqida “u statistika bilan shug'ullanadi.”-deyishadi. «Statistika» termini, shuningdek, turli statistik to'plamlarni, statistik miqdorlarni va shu kabilarni belgilashda ham qo'llaniladi.

**6-§. Sud statistikasining yuridik fan va amaliyot uchun ahamiyati. Sud statistikasi tarmoqlari**

Mamlakatimizning huquqiy va madaniy, siyosiy, iqtisodiy hayotning barcha qirralari (tomonlari)ni o'zining miqdorlari bilan qamrab olgan statistika bir qator sohalarga bo'linadi, ajratiladi.

Shunday sohalardan biri bo'lib, o'zining miqdorlari bilan davlat qurilishi va jamiyatni, mulkchilikning qanday qo'riqlanayotgani, Fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari bilan kafolatlangan huquq va manfaatlarining qanday himoya qilinishini aks ettiruvchi - *sud statistikasi* hisoblanadi.

Sud statistikasining asosiy maqsadi, jamoa tashkilotlari va sudlar, prokuratura, Ichki ishlar Vazirligi organlari tomonidan ko'rib chiqiladigan, shuningdek, ushbu qonun buzilishlarga qarshi kurash bo'yicha tadbirlarda, qonunchilikning buzilishini hisobga olish hisoblanadi.

Ko'rsatib o'tilgan organ faoliyatining yaxshilanishida sud statistikasining roli juda katta, chunki aynan u boshqa manbalar bilan bir qatorda, sud, tergov va jazoni ijro etuvchi muassasalarining qanday ishlayotgani, ular tomonidan odil sud qanday amalga oshirilayotganini aniqlashga imkon beradi.

Adliya organlari sodir etilgan jinoyatning sonini bila turib, oila, mehnat, uy-joy va boshqa qonunlarning buzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lib, qishloq xo'jaligining turli uchastkalarida jinoyatlarning tarqalganligi haqida, ushbu jinoyatlardan yetkazilgan zararining ziyoni haqida, jinoiy va boshqa buzilishlarga qarshi kurash natijalarini hisobga olib, qonunchilikni mustahkamlash bo'yicha yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Sud statistikasi qanday holatlarni o'rganadi, ya'ni uning predmeti bo'lib nima hisoblanadi? Avvalambor, shuni nazarda tutish kerakki, sud statistikasi faqatgina sudlarning ishini hisobga olmaydi, biroq uning nomidan kelib chiqqan holda, bu noto'g'ri tushunilgan bo'lishi mumkin.

Balki, jamiyat va davlat qurilishi, mulkchilik, shaxs, fuqarolar, korxonalar va tashkilotlarning huquq va manfaatlarining jinoiy-huquqiy va fuqarolik-huquqiy himoyasini amalga oshiruvchi barcha davlat organlarining ishini hisobga oladi.

Demak, sud statistikasi, prokuratura, militsiya, sud va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jazoni ijro etuvchi muassasalar faoliyatidagi ijtimoiy huquqiy o'zgarishlar, shu idoralar tomonidan qabul qilingan qarorlar miqdorlarini, jinoyatchilik va qonuniylikning miqdoriy va sifatiy tomonlarini hisobga oladi.

Bu esa, uning predmeti hisoblanib, bir tomondan, jinoyatning va unga qarshi kurash bo'yicha tadbirlar va ayrim jinoyatlar, jinoyatchilar va jazolarni hisobga olishni talab qiladi.

Boshqa tarafdin, sudda va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda tekshirish obyekti bo'lib qolgan fuqarolik-huquqiy tortishuvlarning miqdoriy tomonidir.

Binobarin, yuqorida ta'kidlanganidek, sud statistikasi davlat organlariga mos keladigan barcha buzilishlarni ko'rib chiqishni, ularning oldini olish bo'yicha tadbirlarni hisobga olishni o'zining asosiy maqsadi qilib oladi. Ta'kidlash zarurki, sud statistikasi jinoiy yoki fuqarolik protsessida faqatgina fuqaroviy-huquqiy davolar va jinoyatlarni fuqarolik yoki jinoyat protsessida ko'rib chiqish predmeti bo'lib qoldi. Shunday qilib, sud statistikasi barcha sodir etilgan jinoyatlarni emas, balki oshkor bo'lgan va ular ustidan tergov va jinoyat-sudlov ishlar yurgizilgan ma'muriy va jamoa ta'siri choralari qo'llanilgan jinoyatlarni hisobga oladi.

Sud statistikasi, shuningdek, paydo bo'lgan barcha fuqarolik huquqiy munosabatlarni hisobga olmaydi (uy-joy, mehnat, oila va b.), balki, sudga murojaat qilish uchun asos bo'lgan yoki fuqarolik davosi bilan buzilgan huquqni majburiy tiklash to'g'risidagi ishlarni, qonun talablarini himoya, qonun tomonidan muhofaza qilinayotgan manfaatlarini himoyalash to'g'risidagi, huquqni tan olish to'g'risidagi yoki notarial ish yurgizish tartibida tasdiqlangan huquqiy munosabatlarini hisobga oladi.

Sud statistikasi, o'zining spetsifik usullarini qo'llab, davlat va jamiyat qurilish, xo'jalikning tizimi va mulkka, siyosiy, mehnat, uy-joy va boshqa shaxsiy va mulkiy huquqlar va O'zbekiston Respublikasi fuqarolari manfaatlariga, qonun tomonidan himoyalalanayotgan davlat va jamiyatning manfaatlari va huquqlarini har qanday tajovuzlardan himoyalash uchun davlat organlarining faoliyatini matematik tarzda raqam miqdorlari bilan tuzadi va shu tadbirlarni miqdoran aks ettirishi kerak.

Sud statistikasini o'rgana turib, biz birinchidan, hisobga oluvchi turli xarakterdagi huquqiy buzilishlardan, ikkinchidan esa amaliyotda sud statistikasi bilan shug'ullanayotgan turli xarakterdagi muassasalardan kelib chiqishimiz kerak. Ushbu bo'linishlarga asoslanib, sud statistikasi ikkita mustaqil sohalarga bo'linadi:

1. Jinoyatning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar va jinoyatning miqdoriy tomoni bevosita obyektga ega bo'lgan **jinoiy-huquqiy statistikasi**;

2. **Fuqarolik-huquqiy statistikasi**. Uning bevosita obyekti bo'lib, sud, xo'jalik sudi va notariat tomonidan ko'rib chiqiladigan fuqarolik-huquqiy bahslashuvning miqdoriy ta'rifi hisoblanadi.

Shunday qilib, sud statistikasi o`zining miqdorlari bilan jinoyat va fuqarolik protsessining barcha bosqichlarini aks ettiradi.

Jinoyat protsessi, ma'lum bo`lishicha, qonun tomonidan ko`zlangan sud va tergov organlar, tergov va sud organlarining jinoiy ishini hal qilishda va tergov qilishda sodir etiladigan harakatlarda shakllanadi. Jinoyat protsessi «jinoyat ishlarni hal qilish va tergov qilish jarayonida tergov ishlarini olib borish bosqichlariga mos keladigan bir qator bosqichlar (tergovni kuzatish bosqichi, dastlabki tergov, sudga berish, sud muhokamasi, kassatsion imkoniyat va hukmni ijro etish)ga bo`linadi. Ushbu bosqichlar jinoyat statistikasi tomonidan birin- ketin hisobga olinadi, o`zining miqdorlari bilan jinoyatchilikka qarshi barcha kurash jarayonini izohlab beradi. Jinoyat statistikasi jinoyat protsessining ayrim bosqichlarini amalga oshiruvchi organlar faoliyatiga sifatli-miqdoriy tasnif beradi. Fuqarolik-huquqiy statistikasi jinoyat protsessining barcha bosqichlarini hisobga oladi, fuqarolik ishi bo`yicha odil sudlovni amalga oshiruvchi tartibni yo`lga qo`yadi, ya`ni fuqarolik huquqi to`g`risidagi tortishuvlarni hal qilish va tekshirishni tartibga oladi. Belgilaymizki, fuqarolik huquqi jamiyatning mulkiy munosabatlarini tartibga soladi, shuningdek, fuqarolarning ayrim shaxsiy mulkiy bo`lmagan munosabatlarini, masalan, mulk huquqi bilan bog`liq bo`lgan shartnomalar, shartnomalanmagan majburiyatlar: oilaviy, mehnat, uy-joy huquqlari, mualliflik huquqi to`g`risida, meros to`g`risida va boshqa munosabatlarni tartibga soladi. Binobarin, fuqarolik huquqiy statistikasi fuqarolik ishini hal qilish bilan mashg`ul bo`lgan davlat organlarining ishlarini hisobga olishga qaratilgan.

Sud statistikasining har bir – jinoyat-huquqiy va fuqarolik-huquqiy sohasi fuqarolik va jinoyat protsessining asosiy bosqichlari bilan mos keladigan bir nechta qismlarga bo`linadi.

Ushbu belgiga ko`ra, o`zining miqdori bilan jinoyatchilikka qarshi kurashni aks ettiruvchi jinoiy-huquqiy statistika quyidagi tarkibiy qismlarga bo`linadi:

A) jinoyatni sodir etishda ayblanuvchilarni, shaxslarini aniqlovchi va jinoyatlarni tergov qiluvchi davlat organlarining faoliyatini hisobga oluvchi, dastlabki tergov stasistikasi. Bizning mamlakatimizda ularga Ichki ishlar Vazirligi, tergov apparati organlari, davlat xavfsizligi va prokuratura kiradi. Shuningdek, bu yerda tergov va surishtiruv organlarining prokuror nazorati bo`yicha ishlari yoritiladi.

Ushbu bo`limga birinchidan, tergov va surishtiruv organlari tomonidan ma'lum bo`lib sodir etilgan jinoyatlarni, shuningdek, jinoyat

sodir etilgan paytda fosh qilingan shaxslarni, ikkinchidan, jinoyatlarni tergov qilish bo'yicha tadbirlar, tergov muddati, jinoyatlarni fosh qilish, ushlab turish, ehtiyot choralarini ko'rish va hisobga olish kiradi.

B) jinoyat ishlarini tekshirish bo'yicha nazorat bosqichi (pog'onasi) va birinchi, ikkinchi (kassatsion) sudlarning ishlarini aks ettiruvchi tergov sudlov ishlarini yurgizish statistikasi. Bunga prokuratura organlarining sud tomonidan jinoiy ishlarini ko'rishda ularning qonunchilikka amal qilishini, nazorat qilish sohasidagi faoliyatini ham hisobga olish kiradi. Bu bo'lim birinchidan, jinoiy ishlar kelib tushgan va ko'rib chiqilgan jinoyatlarni, shuningdek, sudlanuvchilarni hisobga olish, ikkinchidan, sudning asosiy protsessual harakatlarini hisobga olish; jinoiy ishlarni to'xtatish, sudga berish, oqlov va ayblov hukmlarini chiqarish, nazorat (pog'onasi) yoki kassatsion instansiyadagi ishlarni ko'rib chiqadi va boshqa hisobga olishlarini kiritadi. Shu yerda sudlarning – jazolash tartibi, jazolashning boshqa turlari bilan ozodlikdan mahrum qilishning moslashuvi, shartli sudlash kabi jazo amaliyoti yoritiladi.

Jinoiy jazolarni ijro etish muassasalari ishlarini aks ettiruvchi hukmlarni ijro etish statistikasi - bunga prokuraturaning ozodlikdan mahrum qilish joylarini nazorat qilish sohasidagi faoliyatini hisobga olish kiradi.

Ushbu bo'lim mahbuslarni ularning kategoriyalariga qarab taqsimlanishini hisobga olishni kiritadi (jinoyatiga qarab, protsessual belgilariga qarab-tezkor, tergov va b), shuningdek, tartib-qoida turlariga qarab jazoni ijro etish muassasalari faoliyatini, shuningdek, jazoni yyengilroq jazo bilan almashtirish va muddatidan ilgari shartli ozod qilish bo'yicha sud ishlarini ham aks ettiradi.

Ko'rinib turibdiki, jinoiy huquqiy statistika miqdorlari, bir tarafdan jazoni ijro etish muassasalari va sudlar, taxminiy tergov organlari faoliyatini, boshqa tarafdan esa jinoyatchilikning holatini xarakterlaydi. Jinoiy statistikaning mustaqil ko'rinishi bo'lib prokuror nazorati statistikasi hisoblanadi.

Bularning hammasi kelgusida, ushbu organlar ishlarining yaxshilanishida, shuningdek, jinoyatchilikning oldini olish va ishini o'rganishda muhim o'rin egallaydi.

Jinoiy-huquqiy statistika tergov organlari prokuratura va sudlarning jinoyat protsessi fanining predmeti bo'lib hisoblangan faoliyatini nazarda tutadi, shu sabab faqat jinoiy-huquqiy statistika haqida emas, balki jinoyat-protsessul statistikasi haqida gapirish mumkin.

Bu yerda yangi yo'nalish haqida bir nechta so'z aytish mumkin, bizning qarashimizcha, jinoyatni oldini olish va o'rganishdagi yo'nalish



bo'lmish **viktimologiyani** tarjima qilganda, qurbonlik to'g'risidagi ta'limot (victima – lotinchadan – qurbon)<sup>1</sup>ni anglatadi.

Viktimologiya jinoyat, jinoyatchi va jinoyatchilikka qarshi kurash choralarini o'rganuvchi, bor bo'lgan jinoiy huquqiy fanga qarama qarshi (zid) bo'lib, jinoyat qurbonini turli aspektlarda, aniqrog'i, jinoiy tajovuzdan zarar ko'rgan odamlarni tekshirishini talab etadi.

Shu singari tekshirishlar jinoyat statistikasining maxsus bo'limini tashkil qilishini talab qiladi, ko'rinib turibdiki, ko'rib chiqilgan ko'pgina jinoiy ishlarda, sud amaliyotining xulosasidan inson xulqi faqatgina jinoiy bo'lmay, balki viktim ham, ya'ni qaltis, ig'voli, binobarin, o'zi uchun xavfli bo'lishi mumkin.

Viktimologiyaning asosiy maqsadi - turli holatlardan chiqib ketishga olib keluvchi ma'lum muhim choralarini ishlab chiqish, jinoyat sodir etish sabablari bo'lib shaxs yoki qurbon bo'lganning xulqi bo'lishi mumkin. Bu yerda statistikasiz bo'lmaydi. Masalan, Tojikiston bo'yicha ittifoq mavjudligi paytida o'tkazilgan qasddan odam o'ldirishlarning tanlab tekshirilgan materiallari shuni ko'rsatganki, jinoyatlarni sodir etishda qurbonlar xulqlari ko'p hollarda sabab bo'lishini, bulardan 60% holatlaridagi xulqlar axloq nuqtai nazaridan salbiy xarakterga ega bo'lgan, 35% ijobiy (jamoaburchini ado etish va homiylik va b.) va 5% neytral xarakterga ega bo'lgan. Ma'lumki, jabrlanganlarning uchdan bir qismi ularning xulqi ig'vogarlik xarakterga ega ekanligini anglatmaydi, 43% ig'vogarlik xarakterini olib keluvchi holatlar esa uzoq muddat davom etgan. Ushbu va ko'pgina materiallarning o'rganilishi rejada viktimologik tekshiruvlar ruhiy darajada shunday kriteriyalarni topishga imkon beradi degan xulosaga keladi va «potensial qurbonni» jinoyatdan zarar topishini osonlashtiradi. Bu viktimiylikni kamaytirishga imkon beradi, shuningdek, jinoyatchilikni kamaytirishga ochiqdan ochiq ta'sir qilar edi yoki bizning fikrimizcha, jinoyatchilik yo'llarining qisqartirilishi faqatgina shaxslar sonini kamayishi orqali emas, ular ma'lum darajada jinoyatchi bo'lib qolishlari mumkin, lekin jinoiy tajovuzlarning qurbonlari bo'lib qolishlari mumkin bo'lgan shaxslar miqdorining pasayishi orqali ham bo'ladi.

Viktimologiyaning dastlabki rivojlanishi jinoyat statistikasi tizimida maxsus bo'limning shakllanishini talab qiladi va u viktimiylikning statistikasi deb nomlanishi mumkin. Uning asosiy maqsadi - jabrlangan shaxsga va uning xulqiga taxminan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha miqdoriy tasnif berishdir:

---

<sup>1</sup> Л.В.Франк. Виктимология и виктимность. Душанбе, 1972: С.С. Остроумов и Л.В.Франк, О виктимологии и виктимности. «Советское государство и право», 1967, № 4.

1) ayblanuvchining shaxsi va unga yetkazilgan zarar, sodir etilgan jinoyat;

2) jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi, demografik, ijtimoiy-psixologik, huquqiy va boshqa belgilar;

3) jabrlanuvchining nizoli vaziyatdagi o`rni (uning ayblanuvchi bilan harakati, jinoyat sodir etayotgan paytda uning holati va xulqi, jabrlanuvchining «aybi» to`g`risidagi masala – axloqiy, jinoiy-huquqiy va b). Binobarin, jinoyat statistikasi jinoyatchilikni belgilovchi miqdorlarni, unga qarshi kurash choralarini va jinoyatchining shaxsini kiritmaydi, balki viktimlik va uning profilaktikasini ham o`z ichiga oladi. Bu yerda jabrlanuvchining shaxsi, uning xulqi, shuningdek, viktimlik holatlarini oldini olishga yo`naltirilgan choralar miqdoran aks ettiriladi, ya`ni jinoyatni sodir etishda qurbon bo`lganning o`z xulqi va shaxsi bo`lishi mumkin.

Sud statistikasining ikkinchi vazifasi bo`lib, fuqarolik-huquqiy statistika hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi – xo`jalik sudi va sudga ruxsat berish, bo`lib o`tgan fuqarolik-huquqiy bahslashuvlarni hisobga olishdir, shuningdek, bahslashuvlarni tekshirish bo`yicha ularning faoliyati natijalarini hisobga olishdir. Bundan tashqari, fuqarolik statistika vazifasiga shunday fuqarolik-huquqiy munosabatlarni hisobga olish kiradiki, ular huquqbuzarliklar bilan bog`liq bo`lmaydi va fuqaro tortishuv predmeti bo`lmay, ma`muriy, notariat yoki nizosiz sud ishlarini yurgizish tartibida qoniqtiriladi (masalan, merosni notariat tomonidan tasdiqlash, meroslik huquqiga egalik qilish haqidagi guvohnomani berish, ish stajining sud tomonidan tasdiqlanishi va boshqa).

Fuqarolik-huquqiy statistikasi 2 bo`limga bo`linadi:

1) fuqarolik ishlarini ko`rib chiqish bo`yicha sud ishlarini yoritib beruvchi fuqarolik sud ishlarini yurgizish statistikasi. Bu yerga, shuningdek, fuqarolik ishlarini ular tomonidan ko`rib chiqish bo`yicha sud ishlarini nazorat qilish sohasida prokuratura organlari faoliyatini hisobga olish kiradi. Bu bo`lim, birinchidan, sudga kelib tushadigan ishlarni hisobga olish; ikkinchidan, sudning asosiy (muhim) protsessual harakatlarini hisobga olishni o`z ichiga oladi: ko`rib chiqish muddati, qarorlarni ijro etish, ishlarni apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiyasi sudlarida ko`rish va h.k.

2) fuqarolik ishlari bo`yicha sud qarorlarini ijro qilish yuzasidan sud ijrochilari faoliyatini aks ettiruvchi sud qarorlari ijrosi statistikasi.

Ta`kidlash kerakki, sud statistikasi yuqorida aytib o`tilgan qismlarga bo`linib, fuqarolar, korxonalar va muassasalar huquq va manfaatlarini jinoyat-huquqiy yoki fuqarolik-huquqiy himoyasini amalga oshiruvchi

organlar operativ ishi asosida tuziladi. Shuning uchun amaliyotda militsiya, prokuratura, sudlar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jazoni ijro etish muassasalari statistikasi bilan ishlashga to'g'ri keladi.

3) sudlar, prokuratura va IIB organlari statistika apparati tarkibiga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Sud organlar statistikasi bevosita shu sud organlarining yuqori turuvchi sud idoralari tomonidan boshqaruvni amalga oshiradi. Uning tarkibida alohida sud statistikasi bilan shug'ullanuvchi xodimlar mavjud. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi tarkibida alohida statistika bilan shug'ullanuvchi mutaxassis mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasida jami bo'lib, yettita shtat birligidan iborat "Tashkiliy nazorat va tahlilot boshqarmasi" mavjud. Viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar, tuman, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuratura organlarida ham tashkiliy nazorat va tahlilot bo'yicha bo'lim yoinki, katta yordamchilar mavjud. Mazkur bo'lim prokuratura organlari oldida turgan asosiy vazifalar va qonunchilikdagi tegishli o'zgartirishlarni hisobga olib statistik hisobot miqdorlarini ishlab chiqadi, prokuratura organlarida statistik hisobot bo'yicha yo'riqnomalar chiqaradi. Prokuratura organlari faoliyatining barcha sohalari bo'yicha o'rnatilgan statistik hisobot miqdorlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi.

Qabul qilingan va qayta ishlangan ma'lumotlarni tahlil qilib, Ichki ishlar vazirligi hamda adliya vazirligi, sud organlari hisobotlari miqdorlaridan foydalangan holda, jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tahliliy ishlarni amalga oshiradi. Bu shaxslar:

A) o'z prokuraturasida dastlabki hisobni tashkil qiladilar va o'z prokuratura faoliyati to'g'risida statistik hisobot tayyorlaydilar;

B) tuman (shahar) prokurorlaridan olingan statistik hisobotlarni to'playdilar va hal qiladilar hamda hisob va hisobot masalalarida tuman (shahar) prokurorlariga tegishli ko'rsatma va tushunchalar beradilar.

Tuman va shahar prokuraturalarida statistik hisobot bevosita prokuror tomonidan tayyorlanadi. Bu ishni jamoatchi yordamchilarga, kotiblarga hamda boshqa shaxslarga topshirish taqiqlanadi.

Prokuror hisobotini shaxsan tayyorlar ekan, ayon bo'lgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida, tuman yoki shahar prokuraturasi faoliyatini yaxshilashda statistik miqdorlardan tezkor foydalanishi kerak.

IIB organlari statistikasi Ichki ishlar Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bu ishlarni bevosita tashkil qilish mas'uliyati shtab bo'linmalari zimmasiga yuklatilgan. IIB tarkibida faoliyat yuritayotgan boshqaruv va ma'lumotlar ilmiy-tekshiruv bosh markazi tasdiqlangan hisobot

miqdorlarini qabul qiladi yoki qayta ishlaydi, ularni tahlil qiladi hamda tegishli sharh va dokladlar tayyorlaydi. IIV va IIB statistika apparatlari tumanlardagi militsiya organlaridan olingan, dastlabki hisob kartochkalari asosida statistik hisobot tayyorlaydilar. Mazkur hisobot belgilangan muddatlarda yuqori tashkilotlarga jo`natiladi. Tuman militsiya organlari o`z ishlari registratsiyasini maxsus jurnallar, kartochkalar va boshqa hujjatlarda olib boradilar. Bulardan keyinchalik operativ maqsadlarda, shuningdek, statistik hisobot tayyorlash uchun foydalaniladi.

Shunday qilib, sudlar, prokuratura va IIV organlarida statistika apparatini tashkil qilish, ular faoliyatining har tomonlama tavsifi, mavjud kamchiliklarni aniqlash va ularga barham berish, binobarin, hozirgi kunda mazkur organlar oldida turgan vazifalarni yanada samarali bajarish uchun zarur bo`lgan statistik materiallarni yig`ish, qayta ishlash va tahlil qilishni ta'minlaydi.

### **7-§. Amaliy va ilmiy ishlarda sud statistikasining ahamiyati**

Sud statistikasi materiallaridan foydalanish usullari, uning IIV organlari, sud va prokuratura faoliyatini yaxshilashdagi, kriminologiya, jinoyat va fuqarolik huquqi hamda protsessining kelajakdagi rivojidadagi amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega.

Statistik materiallardan, birinchi navbatda, yuqorida ta'kidlangan organlar ishini operativ boshqarish maqsadida foydalaniladi. Sud statistikasi miqdorlari qimmatli manba hisoblanadi. Bular yordamida sudlar, prokuratura, militsiya, xo'jalik sudi va boshqa tashkilotlar ishi ustidan boshqaruvni amalga oshiruvchi organlar, mazkur tashkilotlarni nazorat qiladilar, ular ishining ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlaydilar. Shuni esda tutish kerakki, odil sudlovni amalga oshirish sohasidagi hisob bir vaqtning o'zida sud amaliyoti ustidan nazoratdir. Yaxshi tashkil qilingan hisob va statistika orqaligina sud, prokuratura, militsiya va hukmni ijro qiluvchi organlarning qanday ishlayotganliklarini aniqlash mumkin.

Masalan, prokuratura statistikasi miqdorlari dastlabki tergov organlari faoliyatining qanchalik muvaffaqiyatli ekanligi, har xil turdagi jinoyat ishlarining ochilishi, prokuratura organlarining umumiy va sud nazorati sohasidagi, tergovni boshqarish va boshqa sohalaridagi faoliyatini baholash imkoniyatini beradi. Sud organlari statistikasi materiallari sud ishlari hajmi va sifatini, sud ishlarini yurgizish davomiyligi, ishlarni hal qilish natijalari, sud jazosi tavsifi va boshqalarni aniqlash imkoniyatini beradi. Barcha mazkur ma'lumotlar sud ishlarini baholashda, mazkur ishni boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Jazoni ijro etish muassasalari statistikasi, masalan, mahbuslarning ijtimoiy mavqei, yoshi, ma'lumoti, jazo muddati, retsediv bo'yicha tarkibini, shuningdek, turma va koloniyalardagi professional hamda umumta'lim o'qitish ahvoli, mahbuslarni mehnat jarayoniga jalb qilish faoliyatining asosiy miqdorlari haqida ma'lumot beradi. Mazkur ma'lumotlar mahbuslarni tuzatish va qayta tarbiyalash ishi qanday ketayotganini ko'rsatadi.

Shunday qilib, statistika materiallari odil sudlovni amalga oshirish organlari faoliyatini nazorat qilish va yo'naltirish ishida muhim ahamiyatga ega. Sud statistikasi bunday nazorat va boshqaruv ishida, albatta, yagona usul hisoblanmaydi. Lekin statistik miqdorlar boshqa materiallar bilan qo'shilganda sovet yustitsiya ishini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Statistika sud, prokuratura va jazoni ijro etish muassasalari faoliyatidagi asosiy tendensiyalarni aniqlashga ko'maklashib, ko'p uchraydigan kamchiliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf qilish

choralarini ko`rish, odil sudlov ishini yanada yaxshilashga ham yordam beradi.

Adliya organlari faoliyatini amaliy statistik tahlili, birinchi navbatda, o`z miqdorlarida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, qo`shma korxonalar, investorlar, tadbirkorlarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga qaratilgan faoliyatning barcha bosqichlarini qamrab oluvchi amaldagi statistik hisobot negizida amalga oshiriladi.

Sud statistikasi materiallaridan amaliy foydalanishga misol qilib u tomonidan birinchi instansiya sudlari ishi sifatini kassatsiya va nazorat instansiyalari tomonidan baholanishi kabi, fuqarolarni jinoiy javobgarlikka jalb qilishning asoslantirilganlik xarakteristikasi kabi, jinoyatlar ochilishi miqdorlari, davlat jamiyat mulkini o`g`irlashda yetkazilgan zararlarni voqeligi kabi sud hukmlari ijrosi ishini ko`rsatish mumkin.

Tergov, sud, prokuratura organlari hamda jazoni ijro etish muassasalari statistikasi miqdorlari, yuqorida ta`kidlanganidek, ularning faoliyatini ko`rsatadi. Mazkur miqdorlarga tayanib hamda boshqa materiallardan foydalanib, boshqaruvchi tashkilotlar zarur choralarini ko`radilar, tushuntirish talab qiladilar hamda tekshiruv o`tkazadilar.

Boshqaruvchi organlar statistik materiallardan, shuningdek, sud va prokuratura amaliyotini umumlashtirishda tekshiruv materiallari revizor hamda jinoyat va fuqarolik ishlarining alohida kategoriyalarini o`rganish bilan birga foydalanadilar. Statistika, masalan, sud jazo choralari rivojidadagi asosiy yo`nalishga alohida ishlar bo`yicha hukmlarni qayta ko`rib chiqishda aniqlanadigan kamchiliklar jinoiy jazo choralarini aniqlash imkonini beradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, jinoiy ishlar bo`yicha ko`pgina hukmlar ustidan shikoyat qilinmagan va hukmga e`tiroz bildirilmagan bo`lib qolyapti. Ushbu hukmlar bo`yicha statistik miqdorlar sud ishi ustidan nazoratning muhim manbai hisoblanadi.

Ta`kidlash joizki, har bir militsiya, prokuratura organlari, jazoni ijro etish muassasalari va boshqalardagi statistik ma`lumotlar ular faoliyatini yaxshilashda jiddiy rol o`ynashi kerak. Muhimi, shunday ma`lumotlarning har doim shunday tahlil qilinishi, ishda asosiy kamchiliklarni, ularning sabablarini ochib tashlashga imkon beradi va ushbu kamchiliklarni bartaraf etish choralarini qo`llash imkonini beradi. Biroq adliya organlarining faoliyatini baholashda faqatgina statistik ma`lumotlar bilan chegaralanish, haqiqatdan zid narsa, noto`g`ri bo`lar edi, qanday bo`lmasin, sud statistikasining miqdorlari muhimdir, sud, prokuratura, IIB, MXX va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jazoni ijro etish muassasalarining faoliyati tergov, sud ishlarini yurgizish, adolatli qaror

qabul qilinishiga erishish maqsadida chuqurroq o`rganilishi bilan yanada mustahkamlanishi kerak. Ushbu organlarning faoliyati to`g`risidagi oxirgi xulosalar tekshirilayotgan obyekt va jarayonlar uchun muhim, har taraflama sifatli tahlildir, sud-tergov amaliyotining har taraflama bilimidir. Faqatgina shunday tez-tez sharoitlarda sud statistikasining miqdorlari, tekshirilyotgan holatlarning o`ziga xos, sifatli xususiyatlarini ochib beradi.

Jinoyatchilikning oldini olish va o`rganishda sud statistikasining, aniqrog`i jinoiy roli katta. Jinoyat statistikasi jinoyatning holati, uning tarkibi va dinamikasi, jinoyatni sodir etishga imkon beruvchi sharoit va sabablar, jinoyatchining shaxsi, militsiya faoliyatining minus va pluslari, prokuratura, sud va jazoni ijro etish muassasalari borasida ilmiy asoslangan ma`lumotni beradi. Bularning hammasi faoliyatning sifatini oshirishga, jinoyatchilikka qarshi kurashga qaratilgan va bunga prokuratura va sudning boshqaruv organlari katta e`tibor qaratadi.

Adliya organlari faoliyatining barcha tomonlarini tavsiflovchi katta hajmdagi material havola etilib, sud statistikasi bir vaqtda sud-tergov xodimlari, kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va b, mablag` va shtatlarni loyihalashtirish uchun jazoni ijro etish muassasalari, tergov, sud dislokatsiyalarning to`g`riligi borasidagi masalalarni hal qilishda katta ahamiyatga ega. Ushbu muassasalarning faoliyatini har taraflama aks ettiruvchi statistik material bo`lgandagina, ta`kidlab o`tilgan masalalarni to`g`ri hal qilish mumkin.

Masalan, ma`lum bir viloyat sudi yoki tergov ishlari aniqlangandan keyin, demak, ularning shtatlarini yangilash to`g`risida tergov va sud organlari miqdorini o`zgartirish to`g`risidagi masalalarni olib chiqish mumkin.

Sud statistikasidan foydalanishning uchinchi turi qonunchilik sohasiga tegishli. Sud ishlarini yurgizish sohasida, fuqarolik huquqi va protsessi sohasida qonun loyihalarini ishlab chiqish, u yoki bu huquqbuzarliklarni tarqatish, amaldagi kodekslarning ayrim moddalarini, farmonlarni amaliyotda qo`llashni to`liq tahlil qilmaslik bilan kifoyalanmaydi. Ayrim huquq buzilishlarning harakatlarini tavsiflab, u yoki bu qonunni amaliyotda qo`llash miqdorlarini ko`rsata turib, statistika aniq qonunning shu davrdagi harakatlarining maqsadga muvofiq va muvofiq emasligini, uning samaradorligini tasdiqlaydi. Bundan esa ayrim fuqarolik-huquqiy munosabatlarni o`zgacha tartibga solish jinoyatchilikka qarshi kurashning yangi shakllarini belgilash zaruriyati paydo bo`lishi mumkin. Masalan, heroin va shunga o`xshash narkotik moddalarni O`zbekistonimiz hududidan "tranzit" tariqasida olib o`tilishi natijasida, giyohvandlikni yana bir ko`rinishi vujudga keldi. O`z o`rnida bu zahri qotilga qarshi kurash ishi

jinoyatchilikka qarshi kurash ishida asosiy o`rinlardan birini egallab oldi. Shuningdek, diniy ekstremizm, aqidaparastlik aynan shu sohada sodir etilishi mumkin bo`lgan jinoyatlarga qarshi kurashni kuchaytirishni taqozo etmoqda. Butun dunyo statistikasiga nazar tashlansa, terrorism jinoyati avj olayotganligini, bu muammo yanada chuqurlashayotganligi va bunga qarshi tegishli chora va tadbirlar belgilanishi zaruriyati mavjudligini ko`rsatmoqda.

Sud statistikasidan foydalanishning oxirgi shakliga (xil) nazariy tadqiqotlar sohasi kiradi. Sud statistikasi, jinoyat va fuqarolik huquqi va protsessida, kriminalistikaning boshqa masalalari va jinoyatlarni o`rganish bo`yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida keng qo`llanish xususiyatiga ega. Fuqarolik-huquqiy holat va jinoiy-huquqiy dinamikasini va hajmini tasniflovchi muhim materiallarni taklif qiluvchi sud statistikasi ushbu fanning xulosalari va mos keladigan takliflarni namoyon etadi. U aniq dalillar va holatlarni bilish bilan belgilangan fanlarni to`ldiradi, fuqarolik va jinoiy huquqbuzarliklar qayerda va qanday sharoitlarda sodir bo`ladi, boshqa ijtimoiy hodisalar bilan o`zaro bog`liqligi qanday ekanligini ko`rsatadi.

Shunday qilib sud statistikasi bu yuridik fanni nazariy umumlashtirish uchun haqiqiy materiallar bilan ta`minlovchi muhim manbalardan biridir. Ma`lumki, statistikada olinadigan konsentrlash ifodalarda, dalillarda har qanday ilmiy holat ijtimoiy jarayonlarda o`zlarining o`z tabiatiga ko`ra har tomonlama tahlil qilingan ma`lumotlarga asoslanmog`i lozim.

Bu yerda o`rganilayotgan predmetning mohiyatini aniqlab olish uchun, sud statistikasi fuqarolik va jinoyat huquqi va protsessi fani holatlariga va jinoyatchilikning sifat xususiyatlariga, ularning sabablari, oldini olish choralari, shuningdek, jinoyatchining shaxsini o`rganuvchi kriminologiya fanlariga tayanadi. Ma`lumki, jinoiy statistika jinoyatchilikning turli tomonlarini, ularning sifati, o`ziga xosligini ochish maqsadida o`rganadi. Ammo jinoyatchilikning sifat xususiyatlarini, uning tarkibi va dinamika xususiyatlarini, va uning bozor iqtisodiyoti sharoitlarida rivojlanish qonuniyatlarini jinoiy statistika faqat kriminologiya yordamida ochishi mumkin. Bu yerda jinoiy statistika kriminologiya kabi bir predmetga – jinoyatchilik, uning sabablari, uning oldini olish choralari, shuningdek, jinoyatchi shaxsini aniqlash kabilarga ega. Ammo bu fanlar ushbu kategoriyalarning turli tomonlarini o`rganadi: kriminologiya – sifat, statistika bo`lsa bir-biriga o`zaro bog`liq bo`lgan miqdorini o`rganadi. Shuning uchun har qanday asosli o`rganilgan jinoyat bu statistik kriminologik o`rganilgan jinoyatdir. Boshqa so`z bilan aytganda, kriminologiya statistika bilan birgalikda jinoyatchilik haqidagi



dalilli materiallarning yig`indisi, qayta ishlangan va tahlil qilib, ularning qonuniyat va tendensiyalarini belgilab, ular bilan kurashishning mavjud qonuniyatlarini aniqlab olishi kerak. Ushbu ikki fanni bir-biridan ajratishni tajriba ko`rsatdiki, bu bir tomondan, haqiqatan uzoq bo`lgan sxolastikaga, ikkinchi tomondan, matematik formalizmga olib keladi. Ushbu holatni fuqaroviy-huquqiy statistikada ham kuzatish mumkin.

**Jinoiy huquqiy statistika o`z oldiga nafaqat jinoyatlarni, jinoyatchilarni, jazoni hisobga olishni tashkillashtiruvchi, balki jinoyatchilik sohasidagi va ular bilan bog`liq ijtimoiy holatning sifat-miqdor xarakterlaridagi o`zgarishlarni o`rganuvchi ilmiy fandır.** Jinoiy-huquqiy statistika jinoyatchilik sabablari, uning asosiy tendensiyalarini belgilashi, jinoyatchining shaxsiga turli tavsiflar berishni o`rganshi kerak. Jinoiy statistika mustaqil fan bo`lib, o`z tuzilishiga ko`ra kriminologiya, jinoyat huquqi va statistikaning umumiy holatlariga tayanadi. Shuning uchun statistikani faqat yig`ilgan va qayta ishlangan son ma`lumotlari yig`indisi deb tan olish xato.

Albatta, jinoiy-huquqiy statistika o`z-o`zidan jinoyatchilikni hech qanday rivojlanish qonuniyatlarini ochmaydi, ammo o`zining kriminologiya va jinoiy huquqiy fan tamoyillaridan kelib chiqib, statistika chuqur, ilmiy asoslangan xulosalar berishi mumkin va shart. Aks holda statistika katta amaliy va nazariy ahamiyatga ega bo`lgan fan emas, arifmetik mashq bo`lib qoladi. Bu yerda shuni yodga olish muhimki, statistika ko`proq tasavvur qiluvchi, faqat va shunchaki son ma`lumotlar emas, balki bizga qayerda qonuniylik qandayligini belgilab beruvchi usul. Demak, har qanday fan, shu jumladan, yuridik, faqatgina o`z oldiga qo`yilgan maqsadni statistik usullar asosida o`rganilgan hodisalarga tayansagina hal qila oladi. Sud statistikasi hujjatlarini ilmiy bilishdagi ahamiyati xususida to`xtaladigan bo`lsak, ma`lumki, sud statistikasining asosiy sohasi - jinoiy-huquqiy, o`zining miqdorlari bilan jinoyat protsessining barcha bosqichlarini o`z ichiga oladi, dastlabki tergov bosqichidan boshlab, hukmni ijro etish bohqichi bilan tugaydi. Bu miqdorlar jinoyatning holatini tasniflashda ishlatilishi mumkin. Ko`zlangan maqsadlarga ko`ra, jinoyat bilan kurashning ma`lum bosqichini aks ettiruvchi, u yoki bu statistik materiallarni ishlatish mumkin. Jinoyatning miqdori to`g`risidagi ma`lumotlarni tahlil qila turib jinoyat protsessining qaysi bosqichiga tegishliligini har doim nazarda tutish kerak. Faqat shundagina bu ma`lumotlar statistikaning turli manbalaridan, surishtirish organlari, tergov, sud va boshqalar mos kelgan holda tushuniladi.

Bizning sharoitda jinoyat protsessining ayrim bosqichlarini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlarni ko'zdan kechira turib, quyidagi vaziyat (holat) larni nazarda tutish kerak: jinoyat sodir etilgan vaqtdan, jinoyatga qarshi turli bosqichli kurashdan yiroq holda, ushbu bosqichdagi statistik materiallar juda aniq jinoyat sodir etilganlikning aniq sonini aks ettiradi. Dastlabki va surishtiruv tergovning statistik miqdorlari haqiqiy miqdorini aniq ko'rsatadi. Ushbu bosqichda hisobga olingan jinoyatlar soni jinoyat protsessining dastlabki bosqichini statistika bilan aks ettiruvchi jinoiy huquqbuzarliklarning soniga qaraganda yuqoriroq. Bu albatta tushunarli, statistik tomondan dastlabki tergovni olib borish, jinoyat sifatida hisobga olingan. Ma'lum soni, sudda jinoiy ishni ko'rib chiqishda bunday bo'lishi mumkin emas (masalan, jinoyat tarkibining yo'qligi sababli ishning to'xtatilishi). Boshqa tarafdin, fosh qilinmagan ishlar sudgacha yetib bormaydi, shuningdek, surishtiruv, tergov va prokuratura organlari tomonidan ayblanuvchilarga nisbatan jamoa ta'siri choralari ko'rish orqali hal qilinadi.

Sud organlarining statistik miqdorlari aniq pasaytirilgan bo'ladi, chunki aks etgan sudlanuvchilar soni jinoyatning yarmini belgilaydi. Jinoyatning muhim qismi (latentli jinoyat) kuchsiz bo'lib keladi, masalan, jabrlanuvchi bu haqida tergov organlariga, sudga ma'lumotlar bermaydi, yoki bir qator sabablarga ko'ra ushbu organlar haqiqiy sodir etilgan jinoyatlarni topa olmaydi.

Dalilli, aniq jinoyatchilik har doim topilgan, oshkor etilgan jinoyatdan yuqori turadi, bu esa chiqarilgan hukmlar sonini ko'taradi, bu son esa o'z navbatida sudlanganlarning sonidan kattadir.

«Latentli, ya'ni sirli deb, biz jinoyat statistikasida aks etmagan, lekin aslida sodir etilgan va rasmiy qayd etilmagan jinoyatchilikni tushunamiz.

Latentli jinoyatning hajmi (P2) huquqiy sodir etilgan jinoyatning soni o'rtasida (Pf), va jinoyatlar soni o'rtasida farq bor, statistik hisobot bilan ro'yxatga olingan (Ps), ya'ni  $P1 \text{ h } Pf - Ps$ . Bundan ta'kidlangan munosabatlar sonining hajmini hisobga olish darajasi deb atash mumkin (U), ya'ni  $Uh \text{ Ps daraja } Pf$ .

Jinoyat statistik materillarning miqdorlari borasida so'z yurita turib, shuni alohida belgilash kerakki, ushbu vaqt mobaynida topilgan, jinoyat to'g'risidagi statistik ma'lumotlar o'sha davrga mos keladigan darajani aniq aks ettirmaydi, chunki jinoyatning qandaydir soni avvalgi vaqtda sodir etilgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, statistik miqdorlar bilan tasniflovchi jinoyatchilikning darajasi, shuningdek, sud-tergov organlari sonining

o'zgarishi va ish sifatiga bog'liq. Ushbu organlarning kattalashuvi, tergov qilish muddatini va jinoiy ishlarni hal qilishni tezlashtiradi, bu esa ularning vaqtini oshiradi. Aksincha, keyingi davrda oldingi ishlarning qoldiqlari tufayli sud-tergov organlarining ortiqcha yuki tufayli, statistik miqdorlar jinoyatchilikning kamayganini ko'rsatadi, biroq bunday pasayish haqiqatan ham bo'lmagan bo'lsa kerak. Bunday holat sud va tergov organlari faoliyatining yaxshilanishi va yomonlanishida sodir bo'lishi mumkin va bu jinoyatni fosh qilishning ko'payishi yoki pasayishiga va sudga berish faktlari soniga ham ta'sir qilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida jinoyat statistikasining miqdorlariga ta'sir qiladi va jinoyatchilikning o'sishi yoki pasayishi to'g'risidagi ma'lumotni tavsiflaydi.

Ta'kidlash joizki, jinoyat statistikasining xususiyatlariga juda ko'p tadqiqotchilarning ko'p yillar mobaynida diqqatini qaratganlar. Masalan, rus kriminalisti F.Zaxarevich jinoyatni tavsiflovchi miqdorlarga tayanib, 120 yil oldin shunday yozgan: Statistik jadvallardagi jinoyatlar sonining ko'payishi, ko'pincha yangi tizimlarni yaratish uchun qabul qilingan yangi usullarni ko'rsatuvchidir.

Odil sudlovga yuborilgan qamalganlar soni, bu jinoyatchilar sonini bilish uchun yetarli vosita emas, aynan sodir etganlar, shunga o'xshab to'rt yordamida tutilgan baliqlar soni daryoda suzib yurgan baliqlarning sonini belgilamaydi. Shu sabab – umumiy olingan jinoiy statistik miqdorlar, jinoyatchilikning yagona hisobi olib boriladigan Ichki ishlar vazirligining axborot markazidagi hisob bo'yicha yuritilishi kerak. Shundan ma'lum bo'ldiki, aniqlangan jinoyatlar ushbu yildagi jinoyatning holatini aniq tavsiflamaydi, uning bir qismi oldingi yilda sodir etilishi vaqtiga mos kelishi kerak. Bu jinoyatning statistikasiga kirmaydi. (ish, voqea, dalil miqdori), balki sudlanganlar statistikasiga kiradi. Shuni nazarda tutish kerakki, bitta shaxs yil mobaynida 2 marta sudlangan bo'lishi mumkin (jiddiy jinoyatlarga qarab) oqibatda sudlanuvchilarning soni sun'iy ko'payadi. Boshqa tarafdin, jinoyatchilarni hisobga olishda jinoyatlarning majmuasi va ularda ishtirok etishi katta rol o'ynaydi.

Jinoyatlarning majmuasida odatda bitta o'ta jiddiy jinoyat hisobga olinadi, oqibatda jinoyatlarning soni sun'iy ravishda kamayadi. Sudlanganlarning soni, ishtirok etishda jinoyatga qaraganda ko'p bo'ladi. Jinoyatchilik holatidagi statistik miqdorlarining ayrim tahlili, albatta belgilangan organlarning faoliyatini aks ettiruvchi miqdorlar bilan har doim zarurdir. Jinoyat statistikasidagi ilmiy anglashning mohiyati haqida gapira turib, belgilangan xususiyatlarga yana bitta o'ziga xos tarafini qo'yish mumkin.

uchun albatta ma'lumotlarni aniq, haqqoniy va ishonchli bo'lishi talab etiladi. Ma'lumotlar obyektiv haqiqatni aks ettirishga jinoyatchilikka qarshi kurashning samarali uslubi qo'llaniladi)

SK – huquqiy va yuridik ahamiyatli hodisalar va jarayonlar haqidagi qiziqtiruvchi faktlarning yagona dastur bo'yicha tashkillashtirilgan hisobidan hamda ushbu hisob asosida olingan ommaviy boshlang'ich ma'lumotlarning biror bir yig'indidagi to'plamidan iborat har qanday konkret yuridik – statistik o'rganishning spetsifik uslubi va bir vaqtning o'zida birinchi bosqichidir.

Har qanday yuridik – statistik tadqiqot, avvalambor, birlamchi ijtimoiy – statistik ma'lumotlar olinadi, ya'ni jinoyatlar, qoida buzishlar, fuqarolik nizolari, hukmlar, sud qarorlari, jazo turlari va boshqa yuridik ahamiyatli faktlarini hisobga olishdan boshlanadi. Ikkinchidan, hisobga olingan faktlarni tegishli uchun umumlashtirishdan boshlanadi. Amalda SKning bu ikki jihati hisobga olish hisobotining yagona jarayonini tashkil qiladi: dastlab jinoyat yoki fuqarolik ishlari, bizga kerakli alomatlar bo'yicha davogar yoki javobgarlar hisobga olinadi, keyin esa olingan ma'lumotlar hisobot berishning turli shakllarida taqdim etiladi.

Hisobga olish va hisobotning mazmuni kuzatuvning maqsad va vazifalariga ko'ra oldindan belgilab olinadi. Agar, misol uchun, chora tayinlash uchun hibsga olingan va tergov izolatorlarida saqlanayotgan shaxslarning yoshi bo'yicha taqsimlash lozim bo'lsa, u holda hibsga olinganlarni hisobga olishda ularning yoshini hisobga olishdan iborat bo'ladi. Agar yo'l-transport hodisalarining «qanchaga tushgani»ni umumlashtirgan ma'lumotlar kerak bo'lsa, unda har bir yo'l-transport hodisasidagi zarar summasi hisobga olinadi. Agar ichkilikbozlikning oilaviy munosabatlarga ta'siri o'rganilsa, u holda hisobga olish asosida er-xotinlarning alkashligi sabab bo'lgan ajralishlar, ota yoki onaning ichkilikbozlik sababli ota-onalik huquqidan mahrum etilgani faktlari, alkash ota-onalar tarbiyasidagi voyaga yetmaganlar axloqidagi nuqsonlar va boshqa hodisalar yotadi. Barcha hollarda SK muayyan sifat alomatlari bilan tanlab olinajak ayrim hodisalarning sonini qayd etishdan iborat bo'ladi. Kriminologik tadqiq etishdagi SK chog'ida o'rganilayotgan yig'indilarning (jinoyatlar, jinoyatchilar, sabablar) individual hodisalari yoki hodisalari yoki ularning ayrim alomatlari (jinoyatning yuridik tasnifi, jinoyatchilarning ijtimoiy-demografik ma'lumotlari, jazo turlari va muddatlari va hokazolar) qayd etiladi.

Faktlarni hisobga olish va to'plash qay yo'sinda amalga oshirilmasin, ushbu mushtarak jarayon shunday tashkillashtirilishi lozimki, toki olingan

boshlang'ich ma'lumotga tayanib o'rganilayotgan hodisa haqida ozmi-ko'pmi obyektiv xulosalar qilish mumkin bo'lsin. Shu bois SK ga qo'yiladigan asosiy talablardan biri-yig'ilayotgan dastlabki axborotning haqqoniyligi va to'liqligidir. Ushbu talablarni qasddan yoki ehtiyotsizlik oqibatida buzish ko'gina hollarda butun mamlakat buylab tashkil etilgan SKning natijalarini barbod qilishi mumkin. Yolg'on statistik ma'lumotlar ijtimoiy xavfli bo'lishi hech gap emas.

SK natijalari asosida muhim Amaliy va ko'pincha qimmat turuvchi qarorlar qabul qilinadi. Agar kuzatuv natijalari real voqelikni aks ettirmasa, qarorlar befoyda, xato va, hatto, zararli bo'ladi. Faraz qilaylik, shahar yoki viloyatda hisobga olingan jinoyatchilik haqidagi ma'lumotlar real voqelikni aks ettirmaydi. Huquq – tartibot idoralari yoki ayrim mansabdor shaxslar amal kursisi ortidan quvib, jinoyatchilikni nazorat qila bilishga layoqatini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'lib, o'zlariga ma'lum bo'lgan jinoyatlarni yo'naltirilgan – tanlov asosida hisobga oladilar: mayda, oson ochiladigan va «oshkora» (hammaga ma'lum bo'lgan) qilmishlarni qayd etishadi va fosh etish qiyin bo'lgan jinoyatlarni yashiradilar. Aslida esa, jinoyatchilik o'sadi, fosh etilishi bo'lsa kamayadi. Rasmiy hisobga olish va hisobot asosida ko'rilgan choralar shaharlarning kriminal muammolarini ushbu statistik aldov ayon bo'lguniga yoki aniqlanguniga qadar yoxud zaminida jinoyatchilik negizida ijtimoiy portlash ro'y berguniga qadar chuqurlashtiraveradi. Tegishli mansabdor va, hatto, jinoiy shaxslarning qoidabuzarligi xatti-harakatlari bilan hisobga olish va hisobotni yuqoridagi misoldagidek yuritish mamlakatimizdagi statistik voqelikda deyarli an'ana tusini olgan. Hozir aniqlik kiritish lozim bo'lgan narsa bitta: SK – har qanday yuridik – statistik tadqiq etishning boshlang'ich va asosiy bosqichi bo'lib, uning pirovard natijalari o'rganishni to'g'ri tashkil etishga bog'liqdir.

SK ni tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maqsad va vazifalarini belgilash;
- tegishli obyektни tanlash;
- kuzatuv, yig'indi, o'lchov birliklarini belgilash;
- kuzatuv dasturini tuzish;
- kuzatish formulari va yo'riqnoma.

1. SK maqsadlari turli-tuman bo'lishi mumkin. Ular huquq-tartibot organlari va boshqa yuridik muassasalar yoki butunlay davlat, zimmasida turgan real ijtimoiy – huquqiy ehtiyojlar, hayotiy zarurlatlardan kelib chiqadi. Masalan, hisobga olingan jinoyatlar darajasi, ochilishi, sudlanganlik va hukm etilganlarning umumiy sonini kuzatib borish

dunyoning barcha davlatlarida me'yorga, sivilizatsiyalashganlik miqdoriga, jinoyatchilikka qarshi kurashni tashkil etishdagi va jamiyat xavfsizligini baholashdagi tayanch ma'lumotga aylanib borayotir. Boshqa, jinoyatchilik va sudlanganlik haqidagi anchayin mufassal ma'lumotlar yuzaga kelgan ehtiyojlar munosabati bilan yig'iladi.

Sobiq SSSRda 60–yillargacha huquq – tartibot organlari va sudlar tomonidan olib borilgan jinoyat, qoidabuzishlarning oldini olishdagi faoliyati hisobi yuritilmasdi. 60–yillar o'rtasida kriminologik tadqiqotlarning qaytadan tiklangani, jinoiy siyosatda profilaktik yo'nalishning tatbiq etilgani, jinoyat protsessual qonunchilikka tergovchi, prokuror, sudga jinoyatni sodir etishga olib kelgan sabab va sharoitlarni o'rganish hamda tegishli taqdimnoma va alohida ta'riflar berish majburiyatini yuklovchi qoidalar kiritilgani profilaktik faoliyatni hisobga olish va u bo'yicha hisobot yuritishni talab qilardi.

80–yillar ikkinchi yarmida SSSRda uyushgan jinoyatchilikning ommaviy ravishda paydo bo'lgani tegishli idoraviy hisobni yuritishni taqozo etdi. Bunday hisob yuritish amaliyotga barcha ittifoqdosh respublikalar jinoyat kodekslariga ham «uyushgan guruh tomonidan jinoyat sodir etilishi» tushunchasini ta'riflagan zarur o'zgarish va qo'shimchalar qabul qilinishidan avval tatbiq etilgandi. Undan keyingi yillardagi uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning tashkillashtirilishi ushbu hisob yuritishni doimiy takomillashtirish va kengaytirishni talab qilardi.

Bunday hol SSSRda 90–yillarda davlat xizmatchilari orasida korrupsiya tarqalgani munosabati bilan ham yuzaga keldi. Huquq – tartibot idoralari davlat xizmatchilari tomonidan sodir etilayotgan korrupsiya jinoyatlarining maxsus hisobini yuritishga majbur edi. Masalaga shunday yondashgan taqdirdagina huquq – tartibot idoralarining korrupsiyaga qarshi real kurashiga biror bir baho berish va korrupsiya nechog'lik tarqalgani va uning ustidan ijtimoiy nazoratning samaradorligi xususida so'z yuritish mumkin.

Respublikalar, o'lkalar, viloyatlar, shahar va tumanlar darajasida u yoki bu yuridik ahamiyatli hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'ziga xos ehtiyojlar yuzaga kelishi mumkin. Ular ishlar manfaati yo'lida hisob yuritish va hisobotning umummajburiy va umumdavlat shakllariga qo'shimcha tarzda olib boriladi. Biroq bunda ham tegishli chora – tadbirlarga rioya etmoq zarur. Alohida ehtiyoj bo'lmagan yangi va yangi ma'lumotlarni quyi turuvchi tashkilotlardan talab qilaverish ularning real faoliyatini to'xtatib qo'yishi yoki susaytirishi mumkin. Masalan, 80 –

yillarda jinoyatlar oldini olishdagi nomigagina bo'lgan miqdorlar ortidan quvish (soddaroq qilib aytganda, qo'shib yozish) amaldagi profilaktik faoliyatni, keyinchalik esa Ichki ishlar organlaridagi profilaktika tizimini butunlay vayron qildi.

SK uning maqsadlari bilan belgilanadi. Maqsadlari esa o'z navbatida yuridik faoliyatning real ehtiyojlaridan va SK yuklanayotgan tashkilotlarning amaliy imkoniyatlaridan kelib chiqib shakllantirilishi lozim.

2. SK maqsadi tanlangandan so'ng **kuzatuv obyekti** tanlanadi. **Kuzatuv obyekti deyilganida o'rganilayotgan hodisa va jarayonlar to'plami tushuniladi.** Bu tanlash - qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'rganilajak ijtimoiy – huquqiy munosabatlar yig'indisini o'z ichiga oladi. Agar biz kuzatuv maqsadini – davlat xizmatchilari orasida korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirish maqsadini belgilasak, u holda kuzatuv obyekti davlat xizmati sohasidagi ijtimoiy – huquqiy munosabatlar yig'indisi bo'la oladi: sodir etilayotgan korrupsiya xatti – harakatlari darajasi, ularning huquq – tartibot organlari tomonidan amalda fosh etilishi ulushi, korrupsiya latentligi shart-sharoitlari, davlat xizmatchilari korrupsiyaga olib kelgan sabab va sharoitlar, qilmishi uchun amalda jinoiy javobgar bo'lgan korrupsionerlarning umumiy ulushi, real korrupsion xatti-harakatga jinoiy javobgarlik belgilangani darajasi va hokazo. **SK obyekti** bo'ladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlarning har qanday doirasi amalda cheksiz bo'lishi mumkin. Shu bois obyekt mazmunini aniqlagach, uning soha, vaqt va miqdor chegaralarini aniq belgilab olish lozim: jarayonlar, hodisalar, voqealar, alomatlarni qo'yilgan maqsadga erishish uchun qaysi hududda (tuman, shahar) qaysi davr mobaynida (chorak, yil, bir necha yil), qaysi hajmda (kuzatuvning 100, 1000 va undan ko'p birligi) o'rganish nazarda tutilayapti. SKning ko'rsatilgan chegaralarini aniqlamay turib uni o'tkazishni tashkillashtirish qiyin, olingan ma'lumotlarning biror qiymatga ega bo'lishi haqida gapirish undanda mushkul. **Statistik kuzatuv obyektini to'g'ri chegaralab olish uchun:**

1. **Mazmunan qanday hodisa kuzatishga jalb qilinishi kerakligini belgilab olish;**
2. **Qanday hudud( tuman, shahar) chegarasida bu ma'lumotlar olinishi kerakligini belgilab olish;**
3. **Qaysi davr va vaqt uchun ma'lumot olinishi kerakligini ( aniq bir yil yoki bir necha oy va hokazo) belgilab olinishi zarur.**

Ba'zida kuzatuv obyektini belgilayotganda maxsus senzlardan ham foydalanilishi mumkin. **Senz deganda - barcha obyektlar ichidan ayni**

kuzatishda hisobga olinishi lozim bo'lgan miqdoriy me'yor tushuniladi. Masalan: O'g'irlik jinoyatini tahlil etishda ushbu jinoyatni sodir etgan voyaga yetmaganlar, ya'ni 18 yoshga to'lmagan shaxslarning o'zi haqidagi ma'lumotlarni to'plash tushuniladi.

Kuzatuvning asosiy shakli va usullari aniqlangandan so'ng uning obyekti haqida masala vujudga keladi. Kuzatuv obyektini aniq belgilab olmasa, alohida fakt o'tkazib yuborish har doim bo'ladi va birgalikda kuzatiladigan obyektlarga aloqador bo'lgan faktlarni qayd qilish xavfi har doim bo'ladi. Ma'lumki, jinoyatchilikning miqdoriy tomonini hisoblashda statistikaning jinoiy huquqiy obyekti haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak, masalan, jinoyat nima, u nimasi bilan ma'muriy, fuqarolik hamda intizomiy huquqbuzarlikdan farq qiladi. Jinoyatning subyekti sodir etgan shaxs, jinoyatning sodir etilishi sababi uni sodir etish shart-sharoitidan nimasi bilan farq qiladi? Bu savollarning barchasiga faqatgina jinoiy statistika kriminologiya va jinoyat huquqi fani asoslariga tayangan holda javob olishi mumkin.

Kuzatuv obyektini haqidagi bu umumiy asoslardan keyin ikki asosiy tarmoqqa

1 – Jinoiy-huquqiy.

2- Fuqaroviy-huquqiy tarmoqqa bo'linadigan sud statistikasining obyektlari nima hisoblanishini to'liq aniqlashga harakat qilamiz.

#### **A) Jinoiy huquqiy statistika obyekti**

Jinoiy huquqiy statistikaning asosiy vazifasi shundan iboratki, bir tomondan jinoyatchilikning miqdoriy tomonida mukammal tasnif berish, boshqa tomondan o'z miqdorlari bilan unga qarshi kurash qanday olib borilishi bilan tasniflash.

Bir necha alohida jinoyatchilarning yig'indisini aks ettiruvchi jinoyatchilikni tasniflash uchun har bir jinoyatni qayd qilish lozim.

Jinoyatchilik va uning jinoyatchiligini tashkil etish munosibligi-bu umumiylik va alohidalikning dialektik mutanosibligidir.

Aynan faqat jinoyatchilik ijtimoiy, jinoiy huquqiy va ommaviy tushuncha umumiylikning toifasi sifatida esa o'z tizimi va dinamikasining o'ziga xos belgilarining va qonuniyatlarini, unga qarshi kurashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlaydi.

Jinoiy statistika jinoyatchilikning mukammal tasnifini berishni istagan holda jinoyatning subyekti va unga qarshi kurashni hisobga olmagan holda ko'rib chiqolmaydi. Shundan kelib chiqqan holda jinoiy huquqiy statistika miqdoriy tomondan tafsiflovchi 3 ta aniq obyektini belgilab olsa bo'ladi.



- 1-jinoyat, ya'ni ijtimoiy xavfli harakat faktining o'zi;
- 2-jinoyatchilarning, ya'ni shunday harakatni sodir etgan shaxs;
- 3-jazo, ya'ni sud tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun davlat majburlov chorasi.

Jinoyat ishlarining muayyan qismi surishtiruv organlari, tergovchilar va prokurorlar tomonidan sudga yetkazilmasdan hal etilganligi bois ham jinoiy statistika shu organlar tomonidan qonunga muvofiq jamoat ta'sir choralari ko'rilgan ishlar hisobini olib boradi:

Amaliyotda jinoiy huquqiy statistika o'zining obyektini, jinoyatchilikka 'Qarshi kurash olib boruvchi davlat organlarining faoliyatini uzviy boglab baho berish orqali jinoyat protsessirining barcha bosqichlariga mukammal raqamli tasniflar berishni amalga oshiradi.

Shunday qilib jinoiy huquqiy statistikani aniq obyektlari quyidagilar.

- 1-jinoyat, ya'ni jinoyat qonuni bilan belgilangan ijtimoiy xavfli harakat (yoki harakatsizlik);

- 2-jinoyatchi, ya'ni jinoyat sodir etgan vaqtda muayyan yoshga to'lgan aqli raso, jismoniy shaxs;

- 3-jazo, ya'ni jinoyatchiga sud tomonidan beriladigan davlat majburlov chorasi.

Bu obyektlarning barchasiga aniqlangan belgilar bo'yicha miqdoriy tasnif beriladi. Shuni e'tiborga olish lozimki, jinoyat protsessining alohida bosqichlarini hisobga olgan holda jinoiy huquqiy statistika aynan o'sha obyektini tadqiq qilish bilan shug'ullanadi.

Shunday qilib, dastlabki tergov statistikasida jinoyat haqida gap ketganda tergov qilingan ishlar jinoiy javobgar bo'lgan shaxslar hisobi olib boriladi, sud muhokamasi statistikasida esa sudga kelib tushgan jinoyat ishlari, sudga berilganlar va mahkumlar soni hisobi olib boriladi.

Statistik tadqiqotlarning har bir bosqichida jinoiy huquqiy statistika obyekti jinoyat protsessining har bir bosqichdagi o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi (qo'zg'atilgan ishlar soni, tergov qilingan ishlar soni, ayblov hukmlari, ayblanuvchilar mahkumlar soni va h.k.) tashkiliy jihatdan jinoiy huquqiy statistika tegishli davlat orgalarining tergov funksiyalaridan kelib chiqib o'z ishini tashkil etadi.

Demak, jinoyat va jinoyatchining (gumondor, ayblanuvchi, mahkumlar, mahbuslar) surishtiruv, prokuratura, sud va jazoni ijro etish muassasalari tomonidan hisobi yuritiladi. Jinoiy statistika oxirgi paytlarga qadar yuqoridagi organlarning har biri tomonidan alohida yuritilgan, buning natijasida jinoyatga qarshi kurashning barcha jarayoning o'z ichiga oladigan yagona hisob bo'lmagan. Keyingi paytlarda jinoyatlarining yagona

hisobi amalga oshiriladigan bo`ldi. Jinoiy huquqiy statistika jinoyat tarkibininig barcha sifat va miqdorlariga mukammal tasnif berishni ta'minlay oladigan tegishli organlarni tezkor ehtiyojlarini kondira oladigan bo`lsagina to`g`ri tashkil etilgan deb tan olinishi mumkin.

Eslatib o`tish kerakki, shaxsni jinoiy javobgarlikka tortish va uni aybdor deb hisoblash uchun bu shaxsning sodir etgan harakatida jinoyat tarkibi mavjud bo`lishi lozim.

Barcha jinoyat tarkibi uchun zaruriy belgilar quyidagilar:

1-Jinoyat obyekti, ya'ni jinoiy tajovuz nimaga qaratilgan;

2-Jinoyatninig obyektiv tomoni, ya'ni ijtimoiy xavfli harakat yoki harakatsizlik;

3-Jinoyat subyekti amaldagi qonunchilik bo`yicha javobgarlikka tortilishi mumkin bo`lgan shaxs;

4-Jinoyatning subyektiv tomoni, ya'ni jinoyat sodir etgan shaxsning qasd yoki ehtiyojsizlik ko`rinishidagi harakati.

Amaliyotda bu belgilarning jinoiy huquqiy statistika tomonidan hisobi yuritiladi. Jinoyat tarkibining ikki va uch belgilari, ya'ni jinoiy harakat yoki harakatsizlik va jinoyat subyekti bevosita qayd qilinadi.

#### **B) fuqaroviy huquqiy statistika obyekti**

Fuqaroviy huquqiy statistika sud, arbitrans notariatda ko`rilgan ishlarning, ya'ni fukolik huquqiy munosabatlarni hisobga olishni o`z oldiga maqsad qilib qo`yadi.

Fuqaroviy huquqiy munosabatlar bu shaxsning shaxsiy, ommaviy, mulkiy munosabatlarning, shuningdek, tashkilot, korxon va muassasalarninig mulkiy munosabatlari yig`indisidir.

Shuni e'tiborga olish lozimki, fuqaroviy-huquqiy munosabatlarning hisobotini yuritish bilan statistikaning boshqa tarmoqlari ham shug`ullanadi. Masalan, ommaviy huquqiy munosabatlar fuqaroviy huquqiy statistika tomonidan yuritiladi balki aholi statistikasida olib boriladi (nikoh, nikohdan ajratish, tug`ilish, o`lim, va h.k.) mukiy munosabatlar fuqaroviy statistikaninig predmeti bo`lib hisoblanmasdan balki iqtisodiy statistikaninig predmeti ham dir. Fuqaroviy huquqiy statistika obyekti sud statistikasininig bir qismi hisoblanadi.

Har qanday huquqiy munosabat ham sud statistikasining obyekti bo`la olmaydi, balki uning ayrimlari, ya'ni suda xo`jalik sudida notariyatda ko`rib chiqish predmeti bo`la olganlarigina bo`la oladi. Bu bilan fuqaroviy huquqiy statistika chegaralari belgilanadi. Bu fuqaroviy huquqiy statistikani belgilab beruvchi belgilar uni iqtisodiy statistikalar demokrafik statistikadan deyarli aniq farqlab beradi.

Demak, agar iqtisodiy statistika, masalan, chiqarilgan mahsulotning og'irligi va uni shartnoma bo'yicha yetkazib berishni nazarda tutsa, demokratik statistika esa nikohdan o'tganlar va tug'ilganlarni fuqaroviy-huquqiy statistika esa bu shartnomaviy munosabatlar buzilgan va buning natijasida shartnoma shartlari bajarilmaganda sudga arbitrajga murojaat qilishga asos bo'lgan holatlarda ifodalanadi.

Fuqaroviy huquqiy statistika faqatgina sudda ko'rishga taalluqli bo'lgan yoki notarial tartibda tasdiqlanadigan fuqarolik huquqbuzarliklarni inobatga oladi.

Fuqarovi huquqiy statistikaning bu o'ziga xos xususiyati uni boshqa, ya'ni iqtisodiy va demokratik statistikadan ajratib turadi. Fuqaroviy huquqiy konkret obyekt bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

1-fuqarolik ishi bo'yicha nizo;

2-fuqarolik jarayonidagi taraflar (davogar va javobgar);

3-sud hal qiluv qarori.

Fuqaroviy huquqiy statistika fuqaroviy huquqiy munosabatlarning asosiy elementlarini namoyon qiladi. Huquq, majburiyat, huquq subyekti majburiyat subyekti obyekt. U, eng avvalo, sudda xo'jalik sudida va tegishli fuqarolik huquqi institutlaridagi turli huquqiy munosabatlarni inobatga oladi.

Fuqaroviy huquqiy statistikaning obyektini aniqlab olgandan so'ng uning asosiy vazifalari haqida ham tasavvurga olish lozim. Bular:

1-fuqaroviy huquqiy davo va huquqbuzarliklarning holati, uning strukturasi va depolikasini o'rganish;

2-huquqbuzarlik sodir etilishining sabab va sharoitlarini o'rganish;

3-Turli xil statistik miqdorlar asosida fuqarolik jarayonida taraflarni o'rganish;

4-Fuqarolik nizolarini o'rganish chora tadbirlarni, ya'ni prokuratura, sud, xo'jalik sudi va notarial idoralarning bu ish bo'yicha faoliyatining samaradorligini o'rganish hisoblanadi. Bu to'rt vazifa bir-biri bilan uzviy bog'liqdir.

3. Kuzatuv birliklari, Yig'indi birliklari va o'lchov birliklari masalasini ham albatta, yechmoq kerak bo'ladi. Kuzatuv birligi deb odatda boshlang'ich statistik axborot olinadigan manbaga aytiladi. Shuningdek, kuzatuv birligi deyilganida kuzatilayotgan to'plamning bir-birligi tushuniladi. Kuzatish birligi hisob birligidan farq qiladi. Hisob birligi deyilganida o'rganilayotgan to'plamning, ya'ni statistik kuzatish obyektining shunday boshlang'ich unsuri, birligi tushuniladigi, uning belgilari tekshirish jarayonida qayd qilinishi kerak Jinoyatlar hisobini

yuritishda bu militsiya bo`limi, shahar yoki tuman prokuraturasi, tuman yoki shahar sudlari, jazoni ijro etish muassasalari bo`lishi mumkin. Fuqarolik – huquqiy statistika ma'lumotlari borasida kuzatuv birliklari, xalq sudyalari. Xo`jalik sudi sudlar, tuman prokuraturalari, notarial idoralar, mahalliy boshqaruvning turli bo`limlari bo`lishi mumkin. Ma'muriy – huquqiy statistikaning kuzatuv birliklari tuman, shahar jinoyat ishlari bo`yicha sudlar, tumanlararo fuqarolik sudlari, jinoyat ishlari bo`yicha viloyat sudlari, fuqarolik ishlari bo`yicha viloyat sudlari, xo`jalik nizolarini ko`rib chiquvchi viloyat sudlari va ularning yuqori turuvchi idoralari, Ichki ishlar organlari, DAN, yong`in nazorati va boshqa ma'muriy yurisdiksiya huquqi berilgan o`nlab nazorat muassasalari bo`lishi mumkin.

Yig`indi birligi deb kuzatuv jarayonida alomatlarini qayd etish zarur bo`lgan o`rganilayotgan yig`indining boshlang`ich tarkibiy bo`linmas unsuriga aytiladi. Bunday unsurlar sirasiga jinoyatlar, jabrdiydalar aziyat chekkan (jabrlanuvchilar), davogar, javobgar, sabab, davo va boshqalar kiradi. Ushbu ko`rinishlarning to`plami jinoyatlar, jinoyatchilar, sabablar, jabrdiydalar, davolar yig`indisini tashkil etadi.

O`lchov birligi yuridik statistika bilan o`rganilayotgan ijtimoiy – huquqiy hodisalar qaysi miqdor – o`lchamda hisobga olinishini ko`rsatadi. Jinoyat yustitsiyasi organlarining statistik hisobotlarida jinoyatchilikning o`lchov birligi sifatida uch miqdor qo`llanadi: jinoyat ishi (tergov yoki sud-ijroiya), jinoyat (turlari bo`yicha) va jinoyat subyekti (shahar bo`yicha) – gumondor, ayblanuvchi, sudlanuvchi, hukm etilgan, mahbus, o`lchov birliklari o`rtasida to`g`ri chegara qo`ya bilish muhim ilmiy – amaliy ahamiyatga ega. Misol uchun, jinoyatlar, jinoyat ishlari va shaxslar bilan o`lchangan jinoyatlarni qiyoslab bo`lmaydi, negaki, konkret jinoyat ishida bir necha jinoyat bo`lishi mumkin, bir jinoyat bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilgan yoki biror bir shaxs qator jinoyatlarni sodir etgan bo`lishi mumkin. Qolaversa, tergov va tezkor faoliyatda qayd etilgan jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning bir qismigina aniqlanadi. Jinoyatni odil sudlashning turli bosqichlarida ham jinoyatlar subyektlarini bir – biriga qiyoslab bo`lmaydi; har bir gumondor ayblanuvchi bo`lmasligi har bir sudlanuvchi hukm etilmasligi, har bir hukm etilgan jazoni ozod etish joyida o`tamasligi mumkin. O`lchov birligining qiyoslanishi – SKning eng muhim talabidir. Ushbu talab ma'lum miqdorda kuzatuv birligi va yig`indi birligiga ham taalluklidir.

4. SK dasturi kuzatuv chog`ida haqqoniy javob olinishi lozim bo`lgan aniq tuzilgan savollar ro`yxati mavjud bo`lishi lozim.

A. Katle o`z davrida SK dasturini tuzishning uch qoidasini yaratgan edi. Uning fikricha, dasturga:

1) qo`yilgan vazifani echish uchun javob olish zarur bo`lgan savollar kiritilgani ma`qul;

2) qoniqarli javob olish mushkul savollar kiritilmagani ma`qul;

3) o`tkazilayotgan tadqiqot maqsadlariga nisbatan o`rganilayotgan subyektlarda ishonchsizlik uyg`otuvchi savollarni kiritmaslik kerak.

Bu qoidalar hanzu ahamiyatini yo`qotmagan.

Dastur mazmuni kuzatuv maqsadi va xususiyatlariga ko`ra belgilanadi. kuzatuvning to`g`ri tuzilgan dastur va ma`lumotlarni tekshirishni – muvaffakiyatli statistikaning muhim shartlaridir. SK dasturi har bir yuridik – statistik o`rganishni tashkil etishda tuziladi. Hisobga olish va hisobotning rasmiy, davlat va idora shakllari SK ning o`ziga xos, nisbatan barqaror dasturlari hisoblanadi. Sud amaliyoti fuqarolik va jinoyat ishlari, jinoyatchilik, uning hududiy farqlari, jinoyat sabablari va boshqa muammolar bo`yicha yanada chuqurroq o`rganish maxsus dasturlarni talab qiladi.<sup>1</sup>

2. SK ni tashkil etish shakllari boshlang`ich ma`lumotlarni, SK jarayonining boshlang`ich tarkibiy qismi sifatida, hisobga olish va ularni hisobotlar va boshqa natijaviy hujjatlarda pirovard tarkibiy qism sifatida umumlashtirish ko`pincha kuzatuv obyektini haqida boshlang`ich ma`lumot yig`ish deb ataladi. Garchi mutaxassislar «yig`ish» deganda ma`lumot olishning turli shakllari, turlari, usul va uslublari yordamida amalga oshiriladigan bir rejali jarayonni tushunishmasada, ushbu shartli umumlashtiruvchi termin ko`pchilik statistikalarga nisbatan ishlatiladi. Statistik axborot yig`ishning ko`p sonli usullarni chetga surib qo`ya turamizda uning tashkil etish shakllariga to`xtalamiz. Ular atigi 2 ta :

1) yuridik muassasalarda funksional faoliyat sifatida tashkil etiladigan rasmiy hisob va hisobotlar;

2) mamlakat, hudud, muassasa, ayni o`sha yuridik idorada o`tkaziladigan maxsus tashkil etilgan statistik tekshiruv.

Bu shakllar rasmiy hisob va hisobotda mavjud bo`lmagan ma`lumotlarni yig`ish imkonini beradi.

Bunday bo`lish shartlidir. Konkret statistik kuzatuvlarda ushbu ikki shakl turli darajada o`rganish obyektini haqida haqqoniy ma`lumotlarni to`ldirishi va aniqlashtirilishi, bizni kuzatilayotgan ijtimoiy – huquqiy voqeiklarni to`liq va obyektiv tushunishga yaqinlashtirishi uchun birga qo`llanishi mumkin.

<sup>1</sup> См.: Быков Л.А. Организация изучения причин преступности и разработки мер её предупреждения. М., 1966.

Jinoyatchilik ko'p davlatlarda, qoidaga ko'ra, rasmiy davlat statistikasi darajasida hisobga olinadi va umumlashtiriladi, ammo bu yetarli emas. Qayd etilgan jinoyatchilik amalda sodir etilganidan ko'ra 2 – 4 baravar kam. Jinoyatchilikning latent yoki yashirin qismi murojaat qilinmagan, aniqlanmagan, hisobga olinmagan qilmishlardan iborat. Ularni hisobga olish uchun o'nlab usullar borki, ularni faqat SK ning maxsus tashkil etilgan shakllari darajasida qo'llash mumkin. Ayrim uslublar davlat hisobotiga asoslanadi, negaki, unda latent qilmishlar bilvosita aks etadi: jinoyat ishi qo'zg'ashdan qonunga xilof bosh tortish, jinoyat tarkibi yoki hodisasi bo'lmagani bois jinoyat ishini qonunga xilof tugatish, huquq – tartibot idoralari munosabat bildirmagan fuqarolar ariza va xabarleri va boshqalar haqidagi ma'lumotlar. Lekin bu rasmiy ma'lumotlar barcha latent jinoyatchilikni aks ettirmaydi. Ularda «ariza bilan murojaat qilinmagan», «aniqlanmagan» va qasddan hisobga olinmagan jinoyatchilik yo'q latent jinoyatchilikning bu qismini fuqarolar, mansabdor shaxslar, mahkumlar o'rtasida o'ylangan uslubga binoan ijtimoiy so'rov o'tkazish yo'li bilan aniqlash mumkin, buning imkoni SK ning maxsus tashkillashtirilgan shaklida bo'ladi. AQShda federal darajada jinoyatlarning sakkiz jiddiy (indeks) turlari haqidagi ma'lumotlar hisobi yuritilib, ular to'g'ridagi axborotlar har yili jinoyatchilik xususidagi yagona hisobotlarda e'lon qilinadi. Ushbu axborotlar to'liq bo'lmagani bois yilda 2 marta fuqarolar va ularning oilalari o'rtasida jinoyatning o'sha sakkiz turidan viktimizatsiya predmeti (jabr ko'rish) bo'yicha representativ so'rovlar o'tkaziladi.

Bu ma'lumotlar AQSh dagi viktimizatsiya haqidagi to'plamlarda har yili chop etiladi. Masalan, 1992-yilda rasman 14438200 qotillik, bosqinchilik, zo'rlash, o'g'irlik va boshqa og'ir jinoyatlar qayd etilgan. Ayni o'sha yili aholi o'rtasida so'rov o'tkazish yo'li bilan 33649340 yoki 2,3 marta ko'p shunday jiddiy jinoyatlar aniqlandi.<sup>1</sup>

**Statistik formulyar- shunday maxsus hujjatki, unda kuzatish dasturidagi savollarga javoblar aks ettiriladi (Hisobot formasi, tabel, nakladnoy, ro'yxatga olish varaqasi va hokazo).**

Statistik formularning ikki turi mavjud:

- 1) alohida shakldagi formulalar (tuman, shahar prokuraturalarining oylik, yillik hisoboti formulari misol bo'ladi)
- 2) ro'yxat shaklidagi formulalar (bu formularda bitta emas, bir necha hisob birliklari haqida ma'lumotlar keltiriladi). Masalan: viloyat prokuraturasiga yoki Respublika Bosh prokuraturasiga prokuratura

<sup>1</sup> Cm.: Crime in the United States/ Uniform crime reports/1992. Wash., D.C. 1993.

faoliyatining sudlarda jinoyat ishlarining ko`rilishida prokuror vakolatini ta'minlash bo'yicha sudlarda ko`rilgan jami jinoyat ishlari haqidagi ma'lumotnomaga voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan ishlarning ko`rilishini ham, sud zalidan ozod qilingan, sud zalidan qamoqqa olingan, qo`shimcha tergovga yuborilgan, sudda harakatdan yotqizilgan, bekor qilingan, to`xtatilgan, amnistiya Farmoni qo`llangan ishlarni bir hujjatda bir ro`yxat bilan taqdim qilinishini misol qilsak bo`ladi.

## **2-§. Rasmiy davlat hisobi va hisobot statistik kuzatishning birinchi va asosiy shakli sifatida**

Rasmiy davlat hisobi va hisoboti SK ning birinchi asosiy shaklidir. Rasmiy jinoyat – huquqiy, kriminologik, ma’muriy – huquqiy va fuqarolik – huquqiy statistikani o’tkazmay turib biror sayozmi – chuqurmi yuridik statistik kuzatuv olib borish ma’nosizdir. Rasmiy davlat hisobi va hisoboti barcha sohalarda, tashkil etiladi. Respublikamizda O‘zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va statistika vazirligi, Respublika viloyatlari va Toshkent shahar iqtisodiyot va statistika bosh boshqarmalari, Respublika shaharlari va tumanlari iqtisodiyot va statistika bo‘linmalari tomonidan olib boriladi. Bu organlar davlat statistik hisobotining barcha shakllarini majburiy tarzda tasdiqlaydi. Bundan tashqari idoralar rahbariyati tomonidan tasdiqlanadigan idoraviy hisobotlar ham bor.

Mamlakatdagi hisob yuritish va hisobotning markazlashgan tizimi – davlat boshqaruvining hamda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy tartibga solishning eng muhim dastaklaridan biridir. Aynan shuning uchun ham hisob va hisobot umumiy tamoyillar asosida, yagona uslub va usullar bo‘yicha tashkil etiladi. Bu masalalarga bepisand qarash miqdorlarni taqqoslab bo‘lmaslikka, kompleks statistik (iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, yuridik) tekshiruvlarning imkoni bo‘lmasligiga, miqdor va sifat voqeiklari buzilishiga olib kelishi mumkin.

Ma’lumotlar mos kelmasligiga oddiy misol keltiraman. Oldingi va amaldagi Jinoyat Kodeksiga muvofiq 16 ga to‘lgan shaxslar jinoyiy javobgar bo‘ladi, ijtimoiy xavfliligini idrok eta olishgan o‘smirlar o‘rtasida tarqalgan ayrim jinoyatlar uchun esa 14 yoshga to‘lganlar ham. 14,15,16 va 17 yoshga to‘lgan voyaga yetmaganlarning jinoyatchiligi koeffitsientini (100 ming aholiga jinoyatlar soni) hisoblab chiqish uchun jinoyatlar statistikasi kuzatib boradigan ular sodir etgan jinoyatlarnigina emas, balki ayni shu yoshdagi o‘smirlar sonini ham bilmok kerak, SSSR ning rasman e’lon qilingan demografik statistikasida aholii yoshi 10 – 14 va 15 – 19 yoshlilar sifatida yig‘indi shaklida hisoblanardi<sup>1</sup>. Ushbu demografik ma’lumotlar asosida turli yoshdagi voyaga yetmaganlar jinoyatlari koeffitsientini faqat taxminiy hisoblash mumkin, negaki, jinoyat-huquqiy va demografik ma’lumotlarni bu holda bir-biriga qiyoslash imkoni yo‘q.

2. Maxsus tashkil etilgan statistik o‘rganishning – SK ning ikkinchi shaklidir. U rasmiy statistika hisoboti qamrab olmagan miqdorlarni yuridik statistik kuzatuv maqsad va vazifalari talab qilganida qo‘llanadi. Misol

<sup>1</sup> См.: Демографический ежегодник СССР. М., 1990. С.27.



uchun, ayrim hudud subyekti yoki shaharda jinoyatchilik va sabablarini o'rganish chog'ida bir tomondan aholining huquq – tartibot idoralariga ishonchi va munosabati darajasini, ikkinchi tomondan, ayni organlarning aholi yordamiga tayanishi xarakterini aniqlash zarurati tug'ilishi mumkin. Jinoyatchilar shaxsini o'rganishda ularning qonunni bilishi, yunformlik darajasini, ehtiyojlari xarakteri, qiziqish va qadriyatlarini, psixofiziologik xususiyatlari va boshqalarni o'rganish ehtiyoji tug'ilishi mumkin. Bu ma'lumotlar jinoyat ishlarini maxsus o'rganish, boshqa hujjatlar bilan tanishish, anketa so'rovlari fuqarolar, huquq – tartibot organlari xodimlari, qoidabuzarlar bilan suhbatlashish chog'ida va hisob hisobotda aks etmagan axborotni yig'ishning boshqa usullari yordamida yig'iladi. Bunday axborotlarni yig'ish uslubiyati turlicha. U sotsiologiya, psixologiya va boshqa fanlarda to'la ishlab chiqilgan va anchadan beri yuridik tadqiqotlarda qo'llanadi.<sup>1</sup>

3.SKning turlari va usullari SKni turlarga bo'lish asosida ikki mezon yotadi: 1) Yig'indi birliklarini qamrab olishi to'liqligi; 2) Faktlarning vaqtida hisobini yuritish uzluksizligi.

1. Faktlarni vaqtida uzluksiz hisobga olish bo'yicha SK lar joriy, davriy va bir vaqtlik bo'lishi mumkin. Kuzatuvning ko'rsatilgan turlari kriminologik va ijtimoiy – huquqiy o'rganishlarda katta Amaliy ahamiyat kasb etmaydi, negaki, ularni o'tkazish, odatda, jinoyatchilik, ma'muriy qoida buzish, fuqarolik – huquqiy sud yoki xo'jalik sudi qarorlarini uzoq vaqt davomida aholi o'sishi, qonunchilik o'zgarishi, sud amaliyoti, hisob va hisobot shakllarini hisobga olgan holda joriy kuzatishni taqozo etadi. Jinoyatchilikni, masalan, bir vaqtlik yoki davriy kuzatuv jarayonida o'rganib bo'lmaydi, aholini ro'yxatga olish yoki aholi tarkibini aniqlash, huquq – tartibot organlari shaxsiy tarkibini o'rganishda shunday qilish mumkin. Chuqur kriminologik va depektologik tadqiqotlar prokuratura, Ichki ishlar, soliq va valutaga oid jinoyatlar va qoida buzish hamda jinoyatlar vaqtida ro'yxatga olinishi tamoyili asosida hisob yuritiladigan boshqa huquq – tartibot organlarining rasmiy statistik ma'lumotlari asosida olib borilishi kerak. Garchi bu bir vaqtlik, qolaversa, davriy statistik kuzatuvlarni istisno etmasada, ular goh – gohida qo'llanadi. Masalan, "Qamoq tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash masalasida prokurorlarning mas'uliyati oshirilishi natijasida ayblanuvchilarning 22,7 foiziga mazkur chora qo'llanilgan, xolos. Tergov va surishtiruv faoliyati ustidan nazorat chog'ida 6189 ta protsessual qarorlar asossiz deb topilib bekor qilindi, 17740 ta yozma ko'rsatmalar berildi.(2004 yilda). Prokuratura organlari

<sup>1</sup> См.: Ратинев А.Р., Ефремова Г.Х. Правовая психология и преступное поведение. Красноярск, 1998;

tomonidan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashga oid qonunlar ijrosiga jiddiy e'tibor berilib, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda bunday jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar izchillik bilan amalga oshirildi. O'z navbatida bir qancha murakkab, o'ta og'ir jinoyatlar, jumladan, O'zbekiston mustaqilligiga va xavfsizligiga, mavjud konstitutsiyaviy tuzumga tajovuz qilgan terrorizm, diniy ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov ishlari olib borildi.

Mamlakatimizda shu yilning bahorida va iyul' oyida sodir etilgan terrorchilik harakatlarining barcha ishtirokchilarini aniqlash hamda jazoning muqarrarligini ta'minlash maqsadida keng qamrovli tergov va tezkor-qidiruv tadbirlari qo'llanildi.

Jinoyat ishining tergovi jarayonida 1,5 ming nafardan ortiq fuqarolar guvoh va jabrlanuvchi tariqasida so'roq qilindi, 474 ta turli ekspertizalar o'tkazildi, 700 tadan ziyod tintuvlar chog'ida ko'plab taqiqlangan adabiyotlar, portlovchi moddalar, qurol-aslahalar ashyoviy dalil sifatida olindi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida qo'poruvchilik harakatlarida qatnashgan 108 nafar fuqarolarning jinoiy qilmishlari fosh etildi, 85 nafari qamoqqa olinib, 23 nafari qidiruv e'lon qilindi. Ularning aksariyati jinoiy qilmishlariga yarasha odil sudlov tomonidan jazoga tortildi.

Prokuratura organlari hokimiyat, davlat idoralari va xalq xo'jaligining turli sohalaridagi mansabdor shaxslar tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzilishlarni bartaraf etish, ularning suiste'molchiliklariga qarshi kurash borasida ham tegishli chora-tadbirlarni ko'rdilar.

Joriy yilning 9 oyida 3920 nafar mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortildi. Jinoyati fosh qilingan mansabdor shaxslarning 53 nafari respublika, 425 nafari viloyat va 4076 nafari tuman-shaharlar miqyosidagi idora, korxonalar va tashkilotlarda rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatishgan, shundan 409 nafari esa hokimiyat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlaridir. Ularning jinoyatlari tufayli iqtisodiyotga yetkazilgan 35,3 milliard so'mlik moddiy zarar 23,8 milliard so'mi, shuningdek, 421,3 ming AQSh dollari undirildi.

«Istiqlolbank», «Xalq banki», «Milliy bank» va «Tadbirkorbank»ning mansabdor shaxslari «UzDEUavto» qo'shma korxonasining dilerlari bilan jinoiy til biriktirib sodir etgan jinoyatlar, ham fosh etildi. 1374 ta avtomashina sotilishida 12 milliard so'm naqd pullarning bankdan tashqari noqonuniy aylanmasini amalga oshirib, davlat va jamiyat manfaatlariga 907,6 million so'mlik zarar yetkazgan bu shaxslar qilmishlariga yarasha jazoga tortildilar. Bu borada qo'zg'atilgan jinoyat ishlarining tergovi

jarayonida aybdorlardan 362,3 million so`m va 148 ming AQSh dollari undirib olindi<sup>1</sup>”.

2. Yig`indi birliklarini qamrab olish to`liqligi bo`yicha kuzatuv **sidirg`a va nosidirg`a** bo`lishi mumkin (**Uzluqli va uzluksiz**)

**Statistikada sidirg`a kuzatuv** yig`indi birliklarini to`liq hisobga olishdir. Misol uchun, shaharda, tumanda, respublikada sodir etilgan barcha ma`lum jinoyatlar va ma`muriy qoida buzishlarning; jinoyat sodir etgani aniqlangan shaxslarning; jinoyatchilik yoki qoida buzish bilan bog`liq boshqa ijtimoiy hodisa va jarayonlarning to`liq hisobi.

**Uzluksiz kuzatishda** voqea (hodisa) sodir bo`lishi bilanoq, o`sha paytning o`zidayoq qayd qilinadi. Misol uchun insonning tug`ilishi, o`lishi, nikohdan o`tishi va ajralishlarini fuqarolik holatlarini qayd qilish organlarida (ZAGS) qayd qilishni olsak bo`ladi. To`liq kuzatuv ancha haqqoniy va ishonchli, ammo uni faqat cheklangan sonli alomatlar bo`yicha amalga oshirish mumkin. **Uzluqli kuzatish** voqea sodir bo`lgandan keyin ma`lum vaqt oralig`ida kuzatish takrorlanib turadi. Masalan, aholini ro`yxatini har o`n yilda olib borishni misol qilsak bo`ladi.

Jinoyatlarga qarshi va qoida buzishlarga qarshi kurashni tashkil etish uchun qisqa muddatda rasmiy hisobotda mavjud emas ma`lumotlar kerak bo`ladi, ularni sidirg`a usulda olish qimmatga tushadi, uzoq vaqtni talab etadi, murakkab yoki amalda imkoni yo`q. Bunday hollarda nosidirg`a kuzatuv qo`llanadi. Unda zarur ma`lumotlarni mamlakat, hudud, shahar bo`yicha batafsil o`rganish vazifasi qo`yilmaydi. **Nosidirg`a usulda** – nisbatan ishonchli va haqqoniy ma`lumot beruvchi biror-bir qism o`rganiladi. Aks holda yig`ilgan ma`lumotlar xato va hatto zararli qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin.

Statistik kuzatishning uzluqli turi **davriy va fursatli kuzatishga** bo`linadi.

**Davriy kuzatish** ma`lum bir teng muddat o`tishi bilan takrorlanadi.( aholi ro`yxatini har 10 yilda takrorlanib turishini yana misol qilsak bo`ladi).

**Fursatli bir yo`la kuzatish** qandaydir masalani yechish maqsadida zaruriyat tug`ilgan hollarda turlicha muddatlarda qayta amalga oshirib turilishi mumkin (Masalan, zaruriyati tug`ilib, ma`lum bir turdagi jinoyatchilikning ahvoli tekshirilishi mumkin.)

#### **Statistik kuzatish usullari:**

**Hujjatli usul** yordamida zarur bo`lgan ma`lumotlar tegishli hujjatlardan olinadi. Bu usulni odatda hisobot usuli deb ataladi. Masalan,

<sup>1</sup> Қодиров Р.Х. Конституция ва қонунлар устунлиги-тараққиёт кафолати. // Қонун ҳимоясида. Т.: 12(108) 2004.- Б.1-4.

tuman, shahar prokuraturalarining viloyat prokuraturalariga topshiradigan hisoboti.

**Savol-javob usuli** yordamida kuzatilayotgan shaxslarga savollar berilib, olingan javoblar asosida kuzatish varaqalari to'ldiriladi. Bu usulda hujjat talab qilinmaydi.

**Savol-javob usuli uchga bo'linadi:**

- 1) **og'zaki usul;**
- 2) **o'z-o'zini qayd qilish usuli;**
- 3) **korrespondensiya usuli.**

**Og'zaki usul** yordamida kuzatishni amalga oshiruvchi shaxslar kuzatilayotgan shaxslarga savollarni kuzatish varaqalari orqali berib javoblarni o'zlari varaqalarga qayd etadilar. Varaqalarni kuzatishni olib borayotgan shaxslarni o'zlari to'ldiradilar.

**O'z-o'zini qayd qilish usuli** yordamida kuzatish o'tkazilayotgan shaxslarga varaqalar tarqatiladi va kuzatilayotgan shaxslar savollarga javobni yozib beradilar. Misol qilib, anketa tarqatilishi va o'zlari haqidagi ma'lumotlarni so'raluvchilar tomonidan qayd qilib berilishini olsak bo'ladi.

**Korrespondensiya usuli** yordamida kerakli bo'lgan ma'lumotlar ixtiyoriy korrespondentlar tomonidan statistik ma'lumot kerak bo'lgan tashkilotga yuborib turiladi.

**3.8. Kuzatish yig`indisi qamrab olish darajasiga qarab kuzatish turlari: yoppasiga kuzatish, qisman kuzatish, monografiya, anketali yoki sotsiologik, tanlama usullari**

**Yoppasiga kuzatish-** yordamida to`plamdagi barcha birliklar haqidagi kerakli ma`lumotlar to`planadi. Statistik hisobot shu yo`sinda tashkil etiladi. Jinoyatchilikning yoki qonuniylikning umumiy ahvoli haqidagi ma`lumotlarni hisobot orqali olinishini misol qilsak bo`ladi.

Nosidirg`a (qisman) kuzatuv: A) monografik; B) asosiy massivni o`rganish; C) anketali yoki sotsiologik; D) tanlanma bo`ladi. Ularning har biri o`z ijobiy va salbiy jihatlariga ega.

Nosidirg`a (qisman) statistik kuzatuvning anchayin oddiy turi – **monografik yozish usulidir. Tipik hodisalarni har taraflama chuqur va sinchiklab o`rganishni- “Monografik tasvirlash” deyiladi.** U yakka, ammo kriminologik yoki ijtimoiy – huquqiy sohada tipik bo`lgan obyektlarni chuqur o`rganish uchun qo`llanadi. Misol uchun, shaharda jinoyatchilikni o`rganish chog`ida iqtisodiy jinoyatlar, qoida buzish yuqori darajasi kuzatilayotgan yoki aksincha qonunga itoat etishning yuqori darajasi o`rnatilgan korxonada kriminologik tadqiq etiladi. **Monografik yozish (tavsif) ommaviy kuzatuvlar chog`ida hamda kuch va mablag` cheklanganida o`rganish mumkin bo`lmagan masalalarga nisbatan qo`llanadi.** Bu tur tor ko`lamda ma`lumot beradi va o`rganish obyektlarining tipikligi (atipikligi) yoki xarakterlilikida bu xususiyatlar sababini aniqlashda qo`llanadi.

Nosidirg`a (qisman) kuzatuvning keyingi usuli – **asosiy massivni o`rganish** bo`lib, o`rganish uchun tadqiqotchi tomonidan kuzatuvning anchayin kompleks yoki yirikroq birliklari yig`iladi. Asosiy massivni kuzatishda o`rganilayotgan belgining umumiy hajmida eng salmoqli o`rin tutgan to`planning asosiy qismi ajratib olinadi. Misol uchun, hududdagi kriminologik vaziyatni o`rganish chog`ida chuqur statistik kuzatuv uchun ma`lum miqdorlar (aholi soni, sanoat va madaniy rivoji, jinoyatchilik va qoida buzish darajasi, huquq – tartibot organlari va sudlar faoliyati) bo`yicha anchayin xarakterli va muhim bo`lgan 2 – 3 shahar (tuman) tanlab olinadi. Ularni o`rganish asosida kuch va mablag`ni tejagan holda hudud bo`yicha umumiy xulosa yasash mumkin.

Bunday yondashuv biror tuman, shahar va okrugda real vaziyatni bilish uchun ayrim korxonada, muassasa, hududlarni o`rganish asosida tatbiq etilishi mumkin. Bunday amaliyot shahar va tumanlar huquq – tartibot organlarida va ayniqsa Bosh prokuratura, IIV organlari xizmatida keng tarqalganki, ular joylarda tanlanma tekshiruvlar o`tkazadi. Bu usul asosiy massiv to`g`ri tanlangan taqdirda ayniqsa samarali va tejamlidir. Bunday

kuzatuvlarni o`tkaza turib shuni esda tutish kerakki, asosiy massiv(hujjatlar-ma'lumotlar to'plami) shahar yoki butun mamlakat miqyosida so'z yuritish uchun ayrim xulosalar uchun yetarli ma'lumot berolmasligi mumkin.


Nosidirg`a (qisman) kuzatuvning yana bir usuli – **anketali**, yoki (sotsiologik) ijtimoiy kuzatuv. **Anketali kuzatish orqali** kuzatuv o`tkazayotgan shaxslar tomonidan kuzatilayotgan shaxslarga oldindan maxsus tayyorlangan varaqalar tarqatiladi. U, qoidaga ko`ra, maxsus tashkillashtirilgan statistik o`rganishlar shaklida hamda tegishli muassasalar va ularning rasmiy hujjatlarida yo`q ma'lumotlarni yig`ish maqsadida o`tkaziladi. Fuqarolarning huquqiy savodxonligi, ijtimoiy fikri, qiziqishlari va boshqa muhim ma'lumotlarni anketani qo`llamay turib olib bo`lmaydi. Ko`pincha yurisprudensiya sohasi bo`yicha ilmiy ishlarni, tadqiqotlarni olib borilayotganda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudyalardan qonunlarga kiritilishi kerak bo`lgan o`zgartirishlar yoki tadqiqotning samaradorligi xususida aniq savol va javoblarni nazarda tutuvchi anketalardan foydalaniladi. Texnik jihatdan ijtimoiy usul maxsus ishlab chiqilgan anketalarni to`ldirishdan iborat. Ular so`ralayotgan shaxslar tomonidan suhbat chog`ida yoki zarur hujjatlarni o`rganish asosida (jinoyat ishlari, ma`muriy qoida buzishlar haqidagi materiallar, fuqarolik ishlari va boshqalari) to`ldiriladi.

Fuqarolar, qoidabuzarlar, hukm etilganlar, mahbuslar, davoglarlar, javobgarlar, sudyalar, tergovchilar va boshqa shaxslarni sidirg`a anketali so`rovdan o`tkazish qiyin: ayrim respondentlar anketa to`ldirish chog`ida bo`lmasligi, boshqalari anketani qaytarmasligi, yana boshqasi javob berishdan umuman bosh tortishi mumkin. Baribir nosidirg`a kuzatuvning bu turi tegishli me`yorlarga amal qilinganda ancha ishonchli bo`lishi, uni o`tkazish chog`ida sidirg`adan farqli o`laroq nosidirg`a so`rovda yuzaga keladigan xatoni aniq hisoblash mumkin.

Nosidirg`a (qisman) kuzatuvning so`nggi usuli **tanlanma usuldir**. U nosidirg`a kuzatuvning boshqa usullaridan ko`proq ishonchlilik bilan o`rganish o`tkazish, aniqlikning zarur chegaralarini hisoblab chiqish va olingan natijalarga tegishli o`zgartirishlar kiritish imkonini beradi.

Tanlanma kuzatuv muhim ekani va kriminologik hamda ijtimoiy – huquqiy tadqiqotlarda keng tarqalgani nazarda tutilib 5 bobda mufassal ko`rib chiqiladi. Konkret ijtimoiy – huquqiy va kriminologik tadqiqotlarda SK ning tashkiliy shakllari (rasmiy hisobot va maxsus tashkillashtirilgan o`rganish), turlari (sidirg`a va nosidirg`a) va usullari (tanlanma, asosiy massivni o`rganish, anketali, monografik), qoidaga ko`ra, birgalikda qo`llanadi va kompleks SK ni hosil qiladi.

## SK ning tarkibiy chizmasi



## STATISTIKA USLUBLARI

1. Statistika, boshqa fanlarning tadqiqot predmeti sifatida namoyon bo'lmaydigan, ijtimoiy hayotning miqdoriy o'rganishini nazarda tutib, uning uslublarini aniqlashga harakat qilamiz. Statistika uslublari haqida fikr yuritar ekanmiz, biz u o'rganadigan ijtimoiy jarayonlar ko'magida maxsus usullarini ko'ra olamiz.

Statistika fanining xarakterli uslublaridan biri **ommaviy kuzatuv** hisoblanadi.

Statistika va uning o'ziga xos xususiyati, ayrim hodisalarni (aytaylik, alohida jinoyatlarni) sinchiklab kuzatib ommada, keng doirada (butun tuman, viloyat, respublika bo'yicha) ularning kelajagini o'rganadi. Faqat ommaviy tarzda, ya'ni statistik kuzatuvda o'rganilayotgan faktlarning qonuniyligini oz bo'lsa-da, o'rnatish mumkin. Jinsiy muvozanat qonuniyatining klassik misolini keltiramiz. Kim ko'proq tug'ilyapti – qiz bolalar yoki o'g'il bolalar? Har bir oilada turlicha bo'lishi mumkin: ayrim oilalarda faqat qiz farzandlar, boshqalarda – o'g'il farzandlar, uchinchisida – ham o'g'il va qiz farzandlar tug'ilishyapti, ya'ni bir qarashda hech qanday to'g'rilikni aytishga o'rin yo'q. Bularning hammasi go'yoki sof tasodif. Va albatta, hech bir oila uchun oldindan o'g'il yoki qiz, kim tug'ilishini aytish mumkin emas. Bu umuman boshqa masala, agar tug'ilishlar jamini keng hudud bo'yicha olsak. Ma'lumki, bu faqat ommada o'rnatish mumkin bo'lgan ichki yashirin qonunlarga bo'ysunadigan hodisalarning tashqi ko'rinishi bo'yicha sof tasodifdir. Tug'ilishlar sonini hisoblashda ma'lum bir vaqt ichida hudud, viloyat yoki respublika bo'yicha aniqlangan qonuniylik to'liq namoyon bo'ladi: 100 tug'ilishga 51 o'g'il bola va 49 qiz bola to'g'ri keladi, shu bilan birga, bu o'zaro nisbat barcha mamlakatlarda uncha katta bo'lmagan farqlar bilan kuzatiladi.

Biroq bundan aholi umumiy tarkibida ayollarga nisbatan erkaklar ko'p degan xulosaga kelmaslik kerak. jinslarning o'zaro nisbatining to'g'ri ifodasini ya'na faqat ommaviy kuzatuv natijalari – turli mamlakatlarda aholini ro'yxatga olish yakunlari berishi mumkin. Shunday ekan, 1959-yil aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari bo'yicha bizning mamlakatda erkaklar 45%, ayollar esa 55% tashkil qilgan, ya'ni 100 erkakga 122 ayol to'g'ri kelgan, 11 yildan so'ng, 1975-yil aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari bo'yicha ayollar foizi 53,9%ga qisqardi yoki 100 erkakka 117 ayol to'g'ri kelgan.

1973-yilda ayollar soni 53,7% ni tashkil qilgan, erkaklar esa o'rganilganda 46,3%. Erkaklar va ayollar soni o'rtasidagi bunday o'zaro nisbat bosh o'rinda urush oqibatlaridan keyin chaqirilgan katta



yoshdagilarning hisobiga tuzilgan. Shuni ta'kidlash joizki, 1970-yilda 44 yoshdan yuqori 1000 ayolga 547 erkak to'g'ri kelgan. 43 yoshgacha bo'lganlar, 1970-yilga kelganda 1000 ayolga 1002 erkak to'g'ri kelgan, ya'ni jinslar soni deyarli tenglashgan, 40 yoshdan kichik aholining tarkibida esa ayni paytda erkaklar soni ayollar sonidan sezilarli o'syapti. Ta'kidlash joizki, ayollar sonining erkaklardan o'sishi boshqa davrlarda ham o'rin egallaydi. Rasmiy matbuot ma'lumotlariga ko'ra erkaklar jami aholi tarkibining: GDRda – 45,2%ni; FRGda – 47,3%ni; Buyuk Britaniyada 48,4%ni; Fransiyada 48,7%ni; AQShda 49,4%ni tashkil qiladi.

“O'zbekiston Respublikasida so'nggi besh yillikda prokuratura organlarining qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyati birmuncha takomillashdi hamda bu borada katta ishlar amalga oshirildi. Fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish ustidan nazorat tartibida 81 mingdan ortiq tekshirishlar o'tkazilib, ularning natijasi asosida salkam 680 mingta prokuror nazorati hujjatlari qo'llanildi. Prokurorlarning qarorlari va taqdimnomalari asosida 425 ming nafardan ziyod shaxs intizomiy, ma'muriy va moddiy javobgarlikka tortildi. Jiddiy qonunbuzilishlari yuzasidan 21716 ta jinoyat ishi qo'zg'atilib, yetkazilgan 6,8 milliard so'mlik zararining ixtiyoriy qoplanishi ta'minlandi, 100 milliard so'mga yaqin zararlarni undirish yuzasidan sudlarga davo arizalari kiritildi. Shu bilan bir qatorda sudlarda ishlarni ko'rishda prokuror vakolati ta'sirchanligini ta'minlash, prokurorlik nazorat hujjatlarini qo'llash samaradorligini oshirish masalalari doimiy diqqat markazida bo'ldi. Jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha chiqarilgan sud hukmlari va qarorlarining qonuniyligini ta'minlash yuzasidan bir qator ishlar qilindi. 1999-2003-yillar va 2004-yilning 10 oyida sudlarda ko'rilgan 313927 ta jinoyat ishining 287069 tasida davlat ayblovi quvvatlangan bo'lsa, 791173 ta fuqarolik ishlarining 337164 tasida hamda 178281 ta xo'jalik ishlarining 108040 tasida prokuror ishtiroki ta'minlandi<sup>1</sup>”.

Ko'rinib turganidek, faqat ko'p sonli kuzatuvlarga o'rganilayotgan ijtimoiy hodisalar to'g'risida to'g'ri xulosalar qilish, ularning turiga xos belgilarini va o'zaro nisbatini o'rnatish imkonini beradi. Bu masalalarni hal qilish uchun statistika ko'p sonli qonunlarga, faqatgina ommaviy kuzatuv natijasida aniqlangan haqiqat va qonuniylik mazmuniga tayanadi.

Masalan, qotillik motivlari har bir alohida subyekti uchun tasodif. Biroq ko'p sonli kuzatuvlarda bu motivlarni maishiy, o'zaro qasd

<sup>1</sup> Кодиоров Р.Х. Конституция ва қонунлар устуности-тараққийет кафолати. // Қонун ҳимоясида. Т.: 12(108) 2004.- Б.1-4.

natijasida o`ch olish, ma'lum bir jinoyatni yashirish yoki osonlantirish va boshqalarga bo`lish mumkin.

Statistika birgina o`rtacha miqdorlar, ommaviy kuzatuv natijalari bilangina qanoatlanmasligi mumkin. O`rta miqdorlar ortida ko`pincha qoloq ko`ringan, taraqqiyparvar, oldingi hodisalar, tezkor faoliyat uchun zarur sinchiklab o`rganish turadi. (masalan, fosh qilinadigan jinoyatlarning ijobiy o`rtacha miqdori to`laliligi, qator fosh etilmagan og`ir jinoyatlar hisobi ichida ko`zga ko`rinmay qolib ketishi mumkin).

Shu sababli ommaviy statistik kuzatuv har bir individual hodisani o`rganish (alohida fakti, masalan, jinoyatni aniq ro`yxatga olish) singari hodisalarning barcha yig`indisini o`rganish ham, bir turdagi kategoriyalar bo`yicha navbatdagi ularning guruhlanishini talab qiladi (masalan, ijtimoiy xavfliligi darajasi bo`yicha jinoyatlar klassifikatsiyasi).

**Faktlar, hech qanday o`zgartirishsiz, qanday bo`lsa, shunday holatda, to`laligicha olinsa, rad etib bo`lmas va albatta, isbotlangan dalildir.** Jinoyatchilikka qarshi kurash va jamiyatni sog`lomlashtirish samarali bo`lishi uchun amalga oshirmoqchi bo`lgan loyihalar poydevoriga tayanish mumkin bo`lgan aniq va shubhasiz faktlardan foydalanishga intilish lozim. Faktlar yig`indisini tashkil etgan ma'lumotlar to`liq bo`lishi, alohida uzib-uzib olingan bo`lishi kerak emas. Chunki poydevor ostiga uyni ko`tarib turishi uchun teriladigan g`isht pishiq bo`lishi kerak. Pishiq g`isht deb, pishmagan kesakni o`rnatib ketilsa, hech vaqt o`tmay poydevorning bu yeri nurab to`kilib ketadi va qurilgan uyning tik turishiga katta zarar yetkazishi mumkin.

Shuni nazarda tutish kerakki, har qanday fanning uslubi, jumladan, statistikani ham, uning predmetini o`rganish bilan uzviy bog`liq. Shunday ekan, **ommaviy kuzatuv – statistika uslublarining yig`indisiga**, ya`ni hodisalarni kuzatuv ta`siri ostida olinadigan o`lchovga ega bo`ladi (masalan, mamlakat bo`yicha jinoyatlarning umumiy soni). Yetarlicha tushunarliki, bu kabi yig`indilar turli xil, farqli hodisalarning sifatini mujassamlaydi (masalan, jinoyatlarning turli kategoriyalari). Kuzatilayotgan jarayonlarni chuqur o`rganish uchun, eng avvalo, bu yig`indini bir turdagi sifat kategoriyalari va guruhlarga ajratish lozim (masalan, JK Maxsus qismi boblariga tegishli jinoyatlarning barcha o`lchovlarini alohida turlarda ajratish kerak).

**Guruhlash** statistikaning eng muhim uslublaridan biri hisoblanadi. Guruhlashni qo`llashning zaruriyati vaqt va makon shartlariga asoslangan ijtimoiy hodisalarni o`rganishda, aniq yo`naltirilgan prinsiplardan kelib chiqadi. Guruhlash-bu faqatgina aniq ma'lumotlarni o`zida

mujassamlashtirgan, va ijtimoiy jarayonlarni o`rganishda hal qiluvchi rolni o`ynaydigan, har tomonlama sifatli tahlil (analiz) ga asoslanadi.

Har qanday hodisa doim qaysidir guruhga mansub bo`ladi. Shuni nazarda tutgan holda biz ularni guruhlarga ajratmasdan turib, na ijtimoiy jarayonlarni o`rgana olamiz, na ularda namoyon bo`ladigan qonuniylik va o`zaro bog`liqlikni o`rnata olamiz. Bu guruhlarni statistika aniqlangan umumlashma miqdorlar bilan tavsiflaydi (masalan, jinoyatlarning guruhlari bo`yicha fosh qilinganlik koeffitsienti, sanoatsozlikning alohida tarmoqlari bo`yicha bajarilgan rejalar foizi, alohida jinoyat turlarining umumiy yakuni bo`yicha solishtirma hajmi va h.k.). Faraz qilaylik, butun respublikada jinoyatchilikni o`rganishni istab biz, eng avvalo, alohida jinoyatni kuzatamiz (ro`yxatga olamiz), ularning kelajagini bir turga mansub guruhlarga tegishlicha JK Maxsus qismi bilan birlashtirgan holda (davlat jinoyatlari, burchlarga oid jinoyatlar, mulkka qarshi jinoyatlar, shaxsga qarshi jinoyatlar va b.). Har bir mana shunday guruhni hamma ijtimoiy munosabatlarda bir turga mansub deb hisoblashga shu o`rinda biz haqlimiz. Negaki, barcha jinoyatlar, guruh ichida ularning farqiga qaramasdan (masalan, o`g`rilik, bosqinchilik, talon-taroj va boshqa mulkchilikka qarshi jinoyatlar guruhi ichida, tajovuz obyektlari bo`yicha bir turga mansub (mulkchilik, shaxs va h.k). Endi bir tur, bir guruhga mansub bo`lgan ijtimoiy munosabatlarga bo`lib, qiyoslashni voyaga yetmaganlarga oid qonunlar ijrosida ham ko`rsak bo`ladi. "Voyaga yetmaganlar to`g`risidagi qonunlar ijrosi yuzasidan bu davrda o`tkazilgan tekshirishlar yakunida 68399 ta prokuror nazorat hujjatlari qo`llanildi, 43358 nafar shaxs intizomiy, ma`muriy va moddiy javobgarlikka tortildi, yetkazilgan 440,8 million so`mlik zararining ixtiyoriy undirilishi ta`minlandi, 1,7 milliard so`mlik zararni undirish haqida sudga davo arizalari kiritildi. Jiddiy qonun buzilishlari yuzasidan esa 1626 ta jinoyat ishi qo`zg`atildi. Asosiy e`tibor voyaga yetmaganlarning ijtimoiy muhofazasi, mehnati va bandligini ta`minlash, sog`lig`ini himoya qilish, ta`lim-tarbiyasi masalalariga qaratilib, Vazirlar Mahkamasining yuqoridagi qarori talablarining bajarilishiga erishildi.

Voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish, ular o`rtasida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish choralari ko`rilishi natijasida joriy yilning 10 oyida respublikada ularning jinoyati 6,4 foizga kamaygan<sup>1</sup>. Barcha bu kabi guruhlarning keyinini umumlashtirilgan miqdorlar bilan tavsiflashimiz mumkin, masalan, jinoyatchilik tuzilishini aniqlash (qiyosiy hajmi), 100 ming aholiga alohida shaharlar bo`yicha

<sup>1</sup> Қодиров Р.Х. Конституция ва қонунлар устулиги-тараққийет қафолати. // Қонун ҳимоясида. Т.: 12(108) 2004.- Б.1-4

jinoyatchilar sonini jinoyatchiliklarni qiyoslab ko'rish uchun hisoblash (jinoyatchilik koeffitsienti) aniqlangan vaqt mavsumi ortidan jinoyatlar dinamikasini o'rnatish va h.k.

Bu materialning har tomonlama analizi negizida, guruhlariga ajratilgan va ishlov berilgan statistikaga tegishli, adliya organlari jinoyatchilikka qarshi asosiy e'tiborni shunga yoki jinoyatlarning boshqa turlariga, ularning intensivligiga, dinamikasiga, hududiy bo'linishiga va shu kabilarga qaratgan holda nisbatan samarali kurash olib borish imkoniga ega bo'ladi.

**3. Statiskaning uchinchi o'ziga xos uslubi** ijtimoiy hodisalarning turli hududlarda o'zaro aloqasi va qonuniyligini o'rnatish va o'lchash imkonini beradigan, to'plangan va guruhlariga ajratilgan materiallarning **ilmiy ishlov berish**, umumlashgan miqdorlarining – **o'rtacha va nisbiy o'sishini hisoblash**. Umumlashtirilgan miqdorlar bir son bilan ommaviy jarayonlarning turli, nisbatan tarqalgan tomonlarini tavsiflaydi, masalan, jinoyatchilik holatini tavsiflaydi. Ular aniqlangan belgilari bo'yicha hodisalarning barcha yig'indisini to'laligicha, xususiylik, individuallik va tasodifdan abstrakt holda in'ikos etadi. Bizning ijtimoiy hodisalar qonuniyligi rivojlanishi xalq hayotining moddiy va madaniy tengligining uzluksiz o'sishi, bu o'rinda o'limning kamayishi va umr ko'rishning uzayishida namoyon bo'ladi. Umumlashtirilgan miqdorlar bu qonuniyatlarga ham shubhasiz aniq ifoda beradi. Haqiqatdan ham, agar 1913-yilda vafot etganlar soni 1000 aholiga bizning mamlakatda 29.1 odam to'g'ri kelgan bo'lsa, unda 1972-yilda u taxminan uch yarim barobarga qisqardi, 8,6 to'g'ri keldi. O'lim o'tgan asrning 90- yillarida AQShda – 9,5 odam, Angliyada – 11,5; GFRda – 11,2 va h.k). Agar revolyutsiyaga qadar 43 % tug'ilganlar 5 yoshgacha vafot etgan bo'lsalar, o'sha paytda bu yoshda 3,3 % tug'ilganlar vafot etishgan, ya'ni 13 barobar kam. O'limning sezilarli kamayishi sathini kuzatishda aholining barcha yoshdagi guruhlarining o'rtacha umr ko'rishini SSSRda 1970-1971-yillar o'rtasida 70 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 1900-yillarda o'rtacha yosh 32 yoshni tashkil etgan.

Shuni nazarda tutish kerakki, faqat umumlashtirilgan miqdorlariga o'rganilayotgan barcha ijtimoiy hodisalar yig'indisining taraqqiyot qonuniyatlari, tendensiyalari va o'zaro nisbatlari haqida aniq tasavvur olish imkonini beradi. Bu esa fan va amaliyot uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Alohida shahar, viloyat va respublika bo'yicha jinoyatchilik turlicha o'zgaradi. Uning taraqqiy etishining ahamiyatli belgilarini topish uchun biz to'la tarzda mamlakat bo'yicha materiallarni umumlashtirishimiz

lozim, shundagina tasodifiy tebranish tegishlicha umumlashtirilgan miqdorlar ko`rinishida ifodalangan qonuniylik ko`rinadi va parallellashadi.

Jizzax viloyati prokurori Ravshan Muhiddinovning "Qonun himoyasi" jurnaliga bergan intervyusida".

- "Ma'lumki, sud hujjatlarining ijrosini ta'minlash uchun Adliya vazirligi qoshida maxsus departament tashkil etilgan. 2003-yilda sud ijrochilarining tumanlar va Jizzax shahar bo`linmasiga jami 10.566.783.000 so`mlik 70.429 ta ijro hujjati kelib tushgan bo`lsa, ulardan 12.384 tasining (5.403.638.000 so`mlik) ijrosi ta'minlangan.

2004-yilning olti oyi davomida sud ijrochilarining tuman va shahar bo`linmalariga 9.333.500.000 so`mlik 15.760 ijro hujjati kelib tushgan Shundan 3.777.000.000 so`mlik 7863 ta hujjatning ijrosi ta'minlangan. Shuning ham 748 ta qonunda belgilangan ikki oylik muddat buzilgan holda ijro etilgan.

Sud qarorlarini ijro etishga mas'uliyatsizlik bilan yondashish bunday qonunbuzilishlar sabab bo`layotganini aytish mumkin. Birgina misol sud ijrochilarining Jizzax shahar bo`linmasi tomonidan 124 ta, Jizzax tuman bo`linmasidan 12 ta, G`allaorol bo`linmasidan 251 ta ijro ishi tugatilishi to`g`risida qabul qilingan qaror nusxalari tomonlarga yuborilmagan<sup>1</sup>», deb ko`rsatilgan. «1971-yilda 1946-yil urushdan so`ng jinoyatchilik koeffitsienti bilan qiyoslash bo`yicha (ya'ni 100 000 aholi hisobida jinoyat sodir qilgan shaxslar soni) 2 barobar qisqardi. Agar nisbatan qisqa vaqtni oladigan bo`lsak, bunda nisbatan xavfli jinoyatlar soni 4,6 %ga kamaydi, jumladan, qasddan odam o`ldirish, talon-taroj, bosqinchilik, davlat, jamoat va shaxsiy mulkni o`g`irlash».

4. Shunday qilib, statistika fanining asosiy uslublari sifatida ijtimoiy hodisalarni ommaviy miqdoriy miqdorini, ularning keyingi guruhlanishini va tavsifini o`rnatilgan sifatli bir turga mansub guruhlarning umumlashtiradigan miqdorlarini hisoblash mumkin. Biroq statistikaning bu kabi oddiy hisoblab chiqishi hali yetarli emas.

Har qanday ijtimoiy hodisalarning miqdoriy jihatlarini o`rganish uchun statistikadan foydalaniladi, jumladan, huquqiy hodisalarning miqdoriy jihatini o`rganish uchun ham statistikadan foydalaniladi. Faqatgina, ularning mohiyati, aniq tarkibi aniqlangandan keyingina, ularning o`lchami, miqdoriy ifodasi va miqdoriy nisbati to`g`risida savol qo`yish mumkin (masalan, alkogolizm ma'lumoti va jinoyatchilik bilan aloqasi). Shunday ekan, eng avvalo, hodisani tushunib yetish, ularning ichki sifat xususiyatlarini aniqlab olish kerak, so`ngra statistik tarzda

<sup>1</sup> Muhiddinov P. Ишдаги жиддий нуқсон. // Қонун ҳимоясида. 12(108) 2004.-Б. 24-25.

o`rganish lozim. Bu esa o`z navbatida faqat aniq fanlarning nazariy ahvoli bazasida amalga oshirilishi mumkin. Masalan, iqtisodiy statistika – iqtisodiyot juda ham keng qamrovli ijtimoiy munosabatlarini o`zida aks ettiruvchi ma'lumotlarga, jinoiy statistika – kriminologiya, jinoyat huquqi va protsessi ko`rsatmalariga va h.k.larga asoslanishi shart.

Darhaqiqat, statistika – jamiyatda o`rnatilgan ijtimoiy iqtisodiy munosabatlarni o`rganib, hech qanday bo`rttirish yoki chalg`itishlarsiz jamiyatning asl ahvolini o`zining har tomonlama tahlili bilan ko`rsatib berishi lozim. Demak, mamlakatdagi jinoyatchilik ahvolini statistik tavsifini berish uchun, jinoyatchilik mohiyati haqida, uning jamiyatdagi har qanday ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog`liqligi haqida aniq bir tasavvurni yaratib berishi lozim. Bularsiz jinoyatchilik haqida statistik ma'lumotlarni ilmiy tushuntirib bo`lmaydi, bularsiz statistik ma'lumotlar jonsizdir. Kriminologiya ahvolining negizida jinoyatchilikning moddiy tabiatini va muhosasiz ijtimoiy munosabatlar zamirida uning sabablarini bilib, jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi shart-sharoitlarni bartaraf qilish va tegishli chora-tadbirlar belgilash maqsadi yotadi. Jinoiy statistikaning muhim vazifasi – uning materiallarini jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini yaxshilash uchun, jinoyatchilikka qarshi kurash hisoblanadi. Bu borada kriminologiya, jinoyat huquqi va protsessi fani negizida biz mamlakatimizda jinoyatchilik mohiyati va uning sabablarini, alohida turdagi jinoyatlarning sifatli xususiyatlarini JPning alohida bosqichlari – dastlabki tergov, sud muhokamasi, hukmlar ijrosi chog`ida statistika ma'lumotlaridan foydalanib, jinoyatchilikka qarshi faoliyatni tashkillashtirilsa, ishning natijasi faqat shunda samarali hal bo`lishi mumkin.

Shuni nazarda tutish kerakki, statistikaning o`ziga xos xususiyati sifatida kuzatilayotgan ijtimoiy protsesslarning (masalan, tadqiq qilinayotgan ijtimoiy hodisotning turli ko`rinishlarini) ilmiy asoslangan sifatli tahlilini mensimaslik va soxta o`rtacha miqdor va tartibsiz guruhlash jamiyatda vujudga kelgan kasallikni atayin yashirishga olib keladi. Bu esa, o`z o`rnida kelgusida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Zero, xalqimizda qadimdan qolgan bir naql bor: “kasalini yashirsang, isitmasi oshkor qiladi” yoki “kasalni davolagandan ko`ra, uni oldini olish osonroq” hisoblanadi. Shuning uchun jinoyatchilik haqidagi statistikani sifatli bir turga mansub bo`lmagan umumlashtiriladigan (o`rtacha va nisbiy) miqdorlarga, ya`ni guruhlarga ajratilmagan yig`indisi tavsifi sifatidagi turga bo`lish bilan chegaralanib qolmaslik lozim.

Shunday ekan, statistika bilan shug`ullanishdan avval, sifatli tahlil zarur, ko`rib turganimizdek, e`tiborga olinmaydigan, statistik ma'lumotlar

bo`lmasligi kerak, har qanday ijtimoiy hodisolarni ilmiy guruhlashtirish lozim. Faqat mana shu shartlar jamiyat hayotini to`g`ri o`rganish imkonini beradi.

Shunday ekan, **har qanday statistik tadqiqotning negizi – sifatli analiz (tahlil) hisoblanadi.** Ushbu analizni statistika, o`rganiladigan hodisalarning (masalan, jinoyatchilikning) ahamiyatli, sifatli xususiyatlarini yuzaga chiqaradigan boshqa fanlarga tayangan holda amalga oshiradi. Statistika boshqa fanlarning xulosalariga tayanar ekan, ularning qaysidir «ikkinchi darajali» faniga aylanib qolmaydi. Aksincha, kriminologiya, jinoyat, jinoyat protsessi, fuqarolik huquqi, fuqarolik protsessi va boshqa shunga o`xshash huquq fanlari sud statistikasi fani bilan uzviy bog`liq hisoblanib, bu fanlar bir-birining ahamiyatini kamaytirmaydi. Sud statistikasi konkret faktlarning salohiyati bilan ko`rsatib o`tilgan huquqiy fanlarni boyitadi, u qayerda, qanday va qaysi shartlar bo`yicha o`rganilayotgan huquqiy hodisalarda aniqlangan qonuniyatlar va ichki bog`liqlik namoyon bo`lishini ko`rsatib beradi. (masalan, jinoyatchilik va alkogolizm bilan to`g`ridan-to`g`ri aloqasi yoki aksi, ta`lim va jinoyatchilik o`rtasida). Statistika ijtimoiy fanlarga uzoqni ko`zlagan nazariy umumlashtirish uchun amaliyot bilan doimiy aloqasi zarur materiallarni taqdim qiladi. Boshqacha qilib aytganda, statistika nazariya va amaliyot o`rtasida ko`prik soladi, modomiki, har qanday ilmiy holat statistikada umumlashtirishda o`z ifodasini topadigan faktlarga tayanadi.

Ijtimoiy fanlar (masalan, jinoyat huquqi va kriminologiya) o`rganilayotgan hodisalarning sifatli moddiy tabiati (masalan, jinoyat va jinoyatchilik tushunchasi)ni, statistika zudlik bilan beradigan miqdoriy tavsifini (jinoyatchilik tuzilishi va dinamikasi) o`rnatadi. «Ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomoni, - deydi V.S.Nemchikov, - odatda o`rganish predmeti sifatida xizmat qiladi, ammo bunda har doim ularning sifatli tabiati bilan uzluksiz aloqada bo`ladi. Tarix, iqtisod nazariyasi, huquq va boshqa ijtimoiy fanlar tegishlicha ijtimoiy hodisalarning sifatli tabiatini o`zlarining predmeti deb biladilar. Miqdoriy ifodasini topadigan, ommaviy ijtimoiy jarayonlarning bu tomonlari, ijtimoiy fanlar – statistika va uning sohalari – iqtisodiy statistika, demografik statistika, madaniy statistika va boshqalar predmeti hisoblanadi. Bunda statistika va boshqa ijtimoiy fanlar bilan yaqin aloqa bo`lishi shart. Statistika o`sha yoki boshqa ilmiy holatlarni asoslab beradi yoki noto`g`riligini isbotlab beradi, modomiki, statistika ma`lumotlari har qanday nazariyani haqiqatlik kriteriyasi bilan, bilimni tekshirish vositalari bilan namoyon bo`ladigan amaliyotni umumlashtiradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, statistika predmetiga 2 asosiy nuqtai nazar amal qiladi. Ayrim mualliflarning fikricha, statistika ijtimoiy hodisalarning faqatgina miqdoriy tomonini o`rganadi. Boshqalari, statistika ijtimoiy hodisasi singari tabiat hodisasini ham tadqiq qiladi, deb hisoblashadi. Mana, masalan, O.O.Yaxotning tasdiqlashicha, «Negiziy dalilning asossizligi, shunga binoan... statistika – faqat ijtimoiy fan va tabiat hodisalariga haqli bo`lmagan munosabatdir»<sup>1</sup>. O.O.Yaxotning nuqtai nazariga ko`ra, statistika ijtimoiy hodisalar va tabiat hodisalari bilan tartibni tadqiq qilishi shart. Aksariyat mualliflar o`xshash nuqtai nazarlarni inkor qiladilar. Masalan, T.I.Kozlov, V.E.Ovsienkol va V.I.Smirinskiy statistikaga ham tabiat, ham jamiyatni o`rganuvchi «universal fan» sifatida qaraydigan yuqoridagi mualliflarning fikrlarini noto`g`ri hisoblashadi, ularning fikricha, «Statistika ommaviy ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonini o`rganadi». Bu vaqtda ular, «statistika, shuningdek, jamiyat hayotidagi hodisalarning miqdoriy tomoniga tabiiy va texnik faktorlarning ta`sirini ham o`rganadi», deb hisoblashadi.

**Bizningcha, statistika ijtimoiy fan hisoblanadi, modomiki, barcha uning uslublari – ommaviy kuzatuv, guruhlantirishlar – uning predmetining spetsifik xususiyatlari - ijtimoiy hayot hodisalari bilan bog`liq.** Shu bilan birga, tarixiy statistika, eng avval, ijtimoiy fan sifatida taraqqiy etgan. Ammo turli fanlar o`rtasida aniqlangan ichki aloqa qilganligi sababli, aksariyat fanlar shubhasiz tabiat hodisalarini o`rganish uchun ayrim statistika uslublarni qo`llashadi<sup>2</sup> deb ko`rsatib o`tganlar. Bizningcha ham, statistika ijtimoiy fan hisoblanadi. Sud statistikasi esa statistikaning bir bo`lagidir.

Statistika boshqa ilm-fan sharoitlariga asoslangan holda, ommaviy ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonlari uzluksiz aloqasining sifatli tomonlarini o`rganadi. Statistika ijtimoiy taraqqiyotning ma`lum bir hudud va vaqtdagi qonunchiligining miqdoriy ahamiyati borasidagi izlanishlarni olib borsa, sud statistikasi yordamida jinoyatchilik va qonuniylik jamiyatda qanday ahvoldaligini bilish mumkin. (bu o`rinda sud statistikasi haqida so`z ketganda umumiy mamlakatimizdagi huquqiy statistika haqida fikr bildirilmoqda).

Har tomonlama to`liq sifatli tahlil asosida o`tkaziladigan uslublar statistikaning muhim uslublari hisoblanadi:

- 1) ijtimoiy hodisalarning miqdoriy tomonlarini ommaviy kuzatish;

<sup>1</sup> Яхот О.О. Философские проблемы статистики и их значение для анализа общественных явлений. Автореф. докт дисс. М. 1963, С.32. С.С. Остроумов Советская судебная статистика. Изд. Московского Университета 1976. -С.24.

<sup>2</sup> С.С. Остроумов Советская судебная статистика. Изд. Московского Университета 1976. -С.24.



- 2) ularning o`lchami va turi bo`yicha guruhlashtirish;
- 3) umumiy miqdorli sifatli guruhlarning o`rnatilgan tavsifi (nisbiy va o`rtacha).

Statistikaning oxir maqsadi – qonunchilikni, umumiy miqdorlarda o`lchash va hosil qilishni o`rganilayotgan iqtisodiy, demografik va boshqa hodisalarning o`zaro aloqadorligini va munosabatlarini vujudga keltirib, o`zida demokratik jamiyat qurishning ilmiy va amaliy ahamiyatini keltirib chiqaradi. Statistikaning barcha uslublari uning predmeti – ijtimoiy hodisalar bo`lib, o`zining tabiatiga ko`ra ular muayyan guruhlarga bog`liq bo`lgan ommaviy hodisalar bilan bog`liq. Bu ommaviy hodisalar qonuniyatlarini o`lchash va o`rnatish uchun unga umumiy miqdorlarning uslubini qo`llash lozim.

Jinoiy jazolarni liberallashtirish maqsadida JQ, JPK va MJTKga o`zgartishlar kiritish to`g`risidagi qonunning qabul qilinganligi mamlakatimizda demokratiya asoslarini chuqurlashtirishga, qonun ustuvorligi prinsipini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Liberallashtirish natijasida 87 xil jinoyatning sanksiyasi yyengillashtirilib, shularning 26 xilidan qamoq va ozodlikdan mahrum qilish jazosi olib tashlandi.

Ehtiyot chorasini qo`llash amaliyoti tubdan o`zgardi. Natijada tergov jarayonida qamoqqa olinganlar soni keskin kamaydi. Masalan, 2001-yilning 6 oyida 44,2 foiz ayblanuvchiga nisbatan qamoqda ushlab turish ehtiyot chorasi qo`llangan bo`lsa, 2004-yilning birinchi yarmida bu miqdor 27,2 foizni tashkil qildi.

Respublika sudlarida ham yuqoridagi kabi miqdorlar kuzatilmoqda. Agar 2001-yilning 1-yarim yilligida 44,2 foiz sudlanuvchiga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo`lsa, 2004-yilning shu davrida mazkur jazo turi qo`llangan shaxslar 27,6 foizni tashkil qildi.

JPKni isloh qilishda qo`yilgan muhim qadamlardan yana biri jinoyat ishlarini yangicha, ya`ni yarashtirish tartibida hal qilish usulining qo`llanishidir.

2002-yilning 1-yarim yilligida 11 foiz ayblanuvchi jabrlanuvchi bilan yarashganligi sababli jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan bo`lsa, 2004-yilning shu davrida mazkur institut 13 foiz ayblanuvchiga nisbatan qo`llandi.

Statistika bevosita hisob bilan bog`liq. Shuning uchun, hisobning o`zi nimaligini, uning sinfiy ahamiyatini aniqlashtirib olish kerak. Statistikani ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, shuningdek, uning turli ko`rinishlariga qisqacha tavsifnoma bildirilishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

## HISOB VA IJTIMOY HODISALAR STATISTIKASI

1. Jamiyatda ishlab chiqarish va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishini hisoblash uchun jiddiy zaruriyatlar tugʻiladi, yaʼni faktlar va hodisalarning miqdorda, sonlarda qayd etilishi va yakuniy maʼlumotlarni hisoblashda namoyon boʻladi, hatto qadimda ham (masalan, eramizgacha 29 asrdagi Xitoy) biz aholi va mulkning roʻyxatdan oʻtkazishda hisoblarni davlat tomonidan harbiy va fiskal maqsadlarda ishlatilgan material hisob kabilarni kuzatishimiz mumkin.

Kuzatuv – aks ettirayotgan oʻlchashning roʻyxatdan oʻtkazishni jarayon va hodisalarning tizimlashtirilishi (umumlashtirilgan)ning hisob-kitoblarisiz nazoratni, boshqaruvchilikni va faol taʼsirlarni bu jarayonga oʻtkazib boʻlmaydi. Hisob – axborotlarning muhim bir turi hisoblanib, tahlil qilish va boshqarishning asosi hisoblanadi.

Dastlabki hisob ishlari juda sodda va original tarzda kechgan. Masalan, grek tarixchisi Gerodot (eramizgacha 484-420-yillar Fors qiroli Doro (eramizgacha 5-asr) oʻzining qoʻshinlarining oʻtkazgan hisobotini keltiradi: har bir askar, koʻrsatilgan joydan oʻtayotib, u yerga tosh qoʻyishi kerak boʻlgan. Doro qoʻshinlari oʻtib boʻlganlaridan soʻng, oʻzlaridan keyin bir toʻda tosh qoldirishgan.

Arastu (eramizgacha 384-322-yillar) oʻzining asarlaridan birida afinaliklarning urf-odatlarini keltiradi va Afina maʼbudasiga har bir yangi tugʻilgan chaqaloq uchun maʼlum miqdorda bugʻdoy keltirishadi va har bir oʻlgan odam uchun – arpa keltirishgan, bu esa kohinlarga oʻlgan va tugʻilganlarning sonini bilishga yordam bergan.

Ishlab chiqaruvchi kuchlarning oʻsishi natijasida hisob uslublari va hisobga muhtoj boʻlgan hodisalar doirasi ham kengaya borgan. Alohida koʻrinishlarning hisob spetsifikatsiyasi sodir boʻldi, (buxgalteriya, statistika), uning texnikasi qiyinlasha bordi va, shuningdek, hisobning rivojlanishi jamiyat ishlab chiqarish xarakteri bilan bogʻliq boʻldi.

Qanchalik ishlab chiqarish jarayoni jamoat xarakteriga kirsa, shunchalik hisob zaruriyat boʻlib qoladi va shunchalik uning ahamiyati hamda vazifalari kengaya boradi. Hisob ishlarini umumlashtirish, ijtimoiy hodisalarning sonli maʼlumotlarini aniqlash, ularning toʻgʻriligini oʻlchash va aniqlash kabi usullar hamda aloqalar statistik ilmlarni vujudga keltirib, boshqa ilmlar singari odamlarning ehtiyojidan kelib chiqadi.

Har qaysi ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda hisob va statistika oʻzining spetsifik vazifasi va shakl tizimiga ega boʻlgan.

2. Hisob va statistikaning davlatni iqtisodiy boshqarishdagi ahamiyatini aytganda, iqtisodiyotdagi ishlarning rivojlanishidagi muhim ahamiyatga ega boʻlgan rejalashtirish bilan bogʻliqligini ham aytish kerak.

Xalq xo'jaligini rejalashtirish xalq xo'jaligining rejali o'lgangan, proporsional rivojlanish qonuni talablarini to'g'ri namoyon bo'lishi shartlarida ijobiy natijalarni berishi mumkin. Eng umumiy ko'rinishda ushbu qonunning mohiyati shunga olib boradiki, ishlab chiqarishning alohida qismlari o'zining rivojlanishida doim bir-biriga muvofiq kelsa jamiyat ehtiyojlarini qondirishi mumkin, (masalan, ehtiyoj mollarini ishlab chiqarish bilan ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish o'rtasida, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan sanoat mahsulotlari o'rtasida va h.k).

Xalq xo'jaligining taraqqiyoti rejali o'lchovli qonuniy ijtimoiy ishlab chiqarishni rejalashtirish imkonini beradi. Bu imkoniyat ro'yobga chiqishi uchun rejali o'lchov qonuni harakatini, statistikaning muhim vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'ladigan, xalq xo'jaligining proporsional rivojlanishini muntazam o'rganish lozim.

Statistika aniq sharoitlarda shu yoki boshqa mavsum vaqtida asosiy iqtisodiy qonuni va rejali o'lchov qonunining, proporsional rivojlanishining harakati qanday namoyon bo'lishini ham ko'rsatib beradi, u davlat rejalarini bajarish yo'llarini, ijtimoiy xalq xo'jaligi va madaniyatining o'sish darajasini, mehnat, moddiy va moliyaviy resurslarning hisobini va ularning foydalanilishini, rejani oldindan bajarish uchun zahiralarni tavsiflaydi.

Statistika, asosan iqtisodiy islohotlar sharoitida, ularning sabablarini ochishni va zahiralarni ma'lum qilishni, davlat rejasini bajarishni va oldindan bajarilishini ta'minlaydigan o'sha yoki boshqa nomuvofiqliklar xalq xo'jaligida o'z vaqtida besabrlikka undagan.

Hisob va statistika aniqlangan kamchiliklarni qayd qilishni chegaralamaydi, ular ishning samarali bo'lishiga faol ko'maklashishga chorlaydi. Hisob va statistika miqdorlari nafaqat rejali topshiriklarni bajarilishi ustidan kontrol uchun, balki bizning xalq xo'jaligimizning keyingi rivojini rejalashtirish uchun ham muhimdir. Bundan hisob, statistika va rejalashtirishning chambarchas aloqasi oydin: hisob va statistikasiz davlat rejasini to'ldirish va uning bajarilishi ustidan doimiy kontrol qilish aqlga sig'maydi.

Bozor munosabatlari davrida, ishlab chiqarish o'lchamlarining o'sishi, fan va texnikaning shiddat bilan taraqqiy etishi, hisob va statistikaning loyihalashtirish, rejalashtirishning ilmiy darajasi o'sishini taqozo etadi. Statistik organlarga bular bilan aloqada terimni, ishlov berishni, analiz va rejali komissiyalarga, davlat rejalarini bajarish yo'llarini tavsiflaydigan statistik ma'lumotlar bilan o'z vaqtida hokimiyatni tanishtirish, ilmiy-texnik jarayonlarning va ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining,

mehnat unumdorligining o`shirishini, mehnat va moddiy resurslarning ishlab chiqarishga oid qulayliklaridan foydalanishni va mavjudligini, jamiyat ishlab chiqarish taraqqiyotining boshqa masalalarini ta'minlash vazifasini amalga oshirishi kerak.

Ijtimoiy jamiyatda quyi tashkilot umumiy respublikadagi o`zining yuqori turuvchi tizimining bir-biri bilan chambarchas bog`langan va yagona davlat rejasiga yo`naltirilgan zvenolarini o`zida ifodalaydi. Bu ham umumiy metodologiya bo`yicha quyidan yuqoriga qarab (tashkilotdan umumdavlat rejasigacha, quyi turuvchi suddan yuqori sudgacha va h.k.) amalga oshiriladigan va yagona birlamchi hujjatda asoslanadigan, o`zining miqdorlari bilan qamrab oladigan umumiy ijtimoiy hisob uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi.

Shuningdek, jinoyatchilikka va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash borasida ham hisobning nihoyatda muhim rol o`ynashini nazarda tutish kerak.

Hisob va statistika mulkchilikning harakati va hisobi haqida muhim ma'lumotlar beradi.

3. Xalq xo`jaligi hisobi umumiy tizimda ajralib turadi: buxgalteriya hisobi, o`zaro bog`langan va ichki kelishilgan, operativ hisob va statistika, modomiki, ular hammasi xalq xo`jaligi ijtimoiy tizimining obykti hisoblanadi.

Hisobning har bir turi nimalardan iborat? Statistikaning aholi, biz birinchi bo`limda bergan tavsifni va barcha kitoblarda bildirilganlarni o`rganish uchun buxgalteriya va operativ hisob to`g`risida qisqacha to`xtalamiz. Buxgalteriya hisobi xo`jalik vositalarining uzluksiz (kundan kunga), butun (hech qanday tushirib qoldirishsiz), hujjatli (tasdiqlaydigan hujjatlarga asoslangan) aksini, ularning manbalarini va xo`jalik jarayonlarini, pul ko`rinishida umumlashadigan holda namoyon qiladi. Bu barcha xo`jalik operatsiyalari aks eta turib, buxgalteriya hisobi o`zgalar mulkini talon-taroj qilishga qarshi kurash faoliyatida, «ishning borishini moliya organlari tomonidan nazorat qilish» faoliyatida, xo`jalik hisob-kitobida moliyaviy smeta intizomiga rioya qilishda, har bir tashkilotning moliyaviy rejani bajarishida katta ahamiyatga ega.

**Huquqshunoslar uchun buxgalteriya hisobini bilish shuning uchun muhimki, uning negizida jinoyat va fuqarolik protsessida katta ahamiyat kasb etadigan, sud-buxgalteriya ekspertizasi o`tkaziladi.**

Operativ hisob har kunlik tezkor boshqaruvning ehtiyoji uchun zarur alohida faktlarning hisobini va ro`yxatdan o`tkazilishini o`zida ifodalaydi. Operativ hisob xo`jalik va boshqa operatsiyalar va jarayonlarning ustidan kontrol qilish maqsadida ularning amalga oshirilganidan so`ng birdaniga

yoki amalga oshirish paytida ro'yxatga olish va bevosita kuzatuv orqali o'tkaziladi. Operativ hisobning namunasi sifatida zavodga keladigan ishchilarning har kunlik hisobi, avtotransport yoqilg'i xarajatlarining miqdorlari, ishlab chiqarishda xom ashyolarning har kunlik xarajatlari ma'lumotlari va shu kabilarni keltirish mumkin. Oydek ravshanki, bu kabi materiallar shubhasiz tegishli operativ xulosalar uchun muhim, aytaylik, alohida mashinalarning yoqilg'isining ortiqcha sarfi yoki o'tkazib yuborish va kechikib kelish sabablarini tushuntirish uchun va h.k. Operativ hisob sud va prokuratura organlari faoliyatida keng qo'llaniladi.

Buxgalteriya hisobida ham, operativ hisobda ham o'rganish predmeti sifatida har bir aniq operatsiya, har bir yaxlit fakt namoyon bo'ladi; uning diqqat markazida har bir tashkilot va muassasa faoliyati o'rin oladi. Statistika, o'zaro munosabatlarni va qonuniylikni o'lchash va o'rnatish vazifalariga ega bo'lib, o'rganiladigan yig'indini muhim jihatlari singari yaxlit faktlarni ko'rib chiqadi (masalan, aholini ro'yxatga olishda statistika uchun muhimi o'zi uchun o'zi emas, balki ma'lum mamlakatda aholining ko'p millionli hajmini olishi muhim, negaki, faqat shunday ommada aholining qonuniyligi yuzaga chiqishi mumkin).

Statistika, hisobning dastlabki miqdorlarini uning o'ziga xos spetsifik usullari bilan ishlab chiqadi va qonuniylik va aloqada amal qiladigan sifatli miqdoriy tavsifini berishni tezlashtiradi (aytaylik, jinoyatchilik harakatiga ijtimoiy-iqtisodiy shartlar tartibida ta'sir qilish). Ta'kidlanganidek, statistika ko'magida ommaviy jarayonlarda namoyon bo'ladigan haqiqatni o'lchash va ma'lum qilish, bizni qiziqtirgan hodisalar yig'indisi bilan o'zaro bog'liqlik o'rtasida aloqa o'rnatish mumkin. Masalan, tashkilot, muassasa, vazirlik va, nihoyat, birgina xalq xo'jaligi doirasida muhim iqtisodiy masalalarning miqdoriy umumlashma tavsifini olish uchun buxgalteriya va operativ hisob ma'lumotlariga statistik ishlov berish lozim. Biz biz tannarxning tushishiga, mehnat unumdorligining o'sishiga, mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish rejasini bajarishga iqtisodiy sifatlarning ta'sirini, xalq xo'jaligining alohida tarmoqlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'rnatish va hokazolarga ta'sir etuvchi omilni aniqlay olmaymiz.

Hisob shu qadar statistik tashkillashtirilgan bo'lishi shartki, uning ma'lumotlari bo'yicha xalq xo'jaligining nafaqat alohida qismlarining, balki butun xo'jalikning to'laligicha faoliyat natijalarini ma'lum qilish va qayta analiz qilish mumkin bo'lsin. Shunday qilib, hisob miqdorlarining statistik ishlov berilishi yo'li bilan, har tomonlama sifatli analizga tayanib, bizni o'rab turgan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni va demokratik rivojlangan jamiyat qurish maqsadida unga faol ta'sirini chuqur o'rganish mumkin.

Ishonchli raqamlar uchun, narsalarning haqiqiy holatini statistika va hisobda real aks etishi uchun kurashish katta davlat ahamiyatiga ega. Yolg'on ma'lumotlarni taqdim qilganlik uchun, hisobotda ro'yxatga qo'shib yozganlik va ko'zbo'yamachilik uchun, ya'ni davlatni aldagani uchun, aybdorlar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Shunday ekan, hisob va statistika respublikamiz ijtimoiy hayotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. To'g'ri hisobsiz hech qanday ko'rish ishlari, hech qanday davlat ishlari, hech qanday rejali ish aqlga sig'maydi. Hisob esa statistikasiz aqlga sig'maydi. Hisob statistikasiz oldinga bir qadam ham tashlay olmaydi. Statistika nafaqat xo'jalik hayotni hamda ijtimoiy munosabatlarni bir yoqlama o'rganish uchun, balki mamlakatimizning turli xil hodisa va jarayonlarini har tomonlama o'rganish uchun ham qo'llanadi. Statistika ko'magida masalan, aholi tarkibi va harakatini, uning sog'lig'i holatini, jinoyat-huquqiy va fuqarolik huquqiy hodisalar doirasida yuz berayotgan jarayonlarni va shu kabilarni o'rganamiz.

Sud statistikasini – huquqiy statistika sifatida mamlakatimizning ijtimoiy iqtisodiy hayotining eng ajralib turadigan tomonlarini o'z miqdorlarida qamrab oladigan quyidagi asosiy sohalarga ajratish mumkin:

I. Xalq xo'jaligi statistikasi yoki iqtisodiy statistika, sanoat, savdo, transport, qishloq xo'jaligi, kapital qurilish va shu kabi statistikalarni o'z ichiga oladi.

II. Madaniyat statistikasi, statistikani ta'lim, nashr, fan, san'at va shu kabilar bilan biriktiradi.

III. Demografik statistika, aniq tarixiy sharoitlarda jamiyat taraqqiyotining aholi tarkibi, zichligi, soni, tug'ilish, o'lim, nikohlarning qaydini, shuningdek, aholi ko'chishini yoki migratsiyasini o'rganadi.

IV. Sanitar statistika yoki sog'liqni saqlash statistikasi, aholi sog'lig'i holatini o'rganadi.

V. Davlat boshqaruv statistikasi, saylov statistikasi, davlat qurilish statistikasi, siyosiy statistika, kasaba uyushmalari statistikasini qamrab oladi.

VI. Huquqbuzarliklar va g'ayriaxloqiy hodisalar statistikasi 2 guruhga ajratiladi:

**A.) Axloqiy statistika**, aholining axloqiy holati haqida fikr yuritish imkonini beradigan ijtimoiy hayot faktlarini o'rganadi. Bu maqsadda axloqiy statistika jinoiy huquqbuzarliklarni o'rganadi, ya'ni jinoyat, jinoyat statistikasi predmetini ma'muriy va intizomiy huquqbuzarliklar, shuningdek, g'ayriaxloqiy harakatlar tashkil qiladi.

**B.) Fuqarolik-huquqiy statistika**, sud va xo'jalik sudlarida hal qilishda uchraydigan, fuqarolik-huquqiy nizolarning hisobini yuritadi.

Shunday qilib, huquqbuzarliklar va g`ayriaxloqiy hodisalar statistikasi quyidagi sohalardan iborat: 1) jinoyat-huquqiy statistika: a) jinoyatchilik statistikasi, b) dastlabki tergov statistikasi, v) jinoiy sud protsessi statistikasi, g) hukmlarning ijrosi statistikasi; 2) ma`muriy huquqbuzarliklar statistikasi; 3) intizomiy huquqbuzarliklar statistikasi; 4) fuqarolik-huquqiy nizolar va huquqbuzarliklar statistikasi (fuqarolik-huquqiy statistika); 5) prokuror nazorati statistikasi; 6) g`ayriaxloqiy harakatlar statistikasi. Shunday qilib, Sud statistikasi jamiyatimizning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, huquqiy va axloqiy holatini o`z miqdorlarida har tomonlama va xolis aks ettirishi lozim.

Adliya organlarida statistik ishlarning bosqichlari.

Har qanday tugallangan statistik ish umuman adliya organlarida xususan uchta asosiy bosqichga bo`linadi: 1) statistik nazorat; 2) to`plangan materiallar guruhi va svodkasi; va nihoyat statistik miqdorlar ma`lumotining tahlili va ishlab chiqilishi, Statistik ishlarning ushbu uchta bosqichi bir biri bilan uzviy bog`liq va barcha statistik tadqiqotlar taxminiy rejasining muhim bo`limlarini o`z ichiga olib, tuzishni talab qiladi.

Statistik kuzatish – statistik tadqiqotning birinchi bosqichi – bizni qiziqtirayotgan belgilarning ma`lum yakka holatlarining miqdoriy ro`yxatini namoyon etadi. Birinchi bosqichning vazifasi obyektiv aniq ma`lumotlarni to`liq yig`ish hisoblanadi. Masalan, ma`lum vaqt oralig`ida jinoyatning o`zgarishi va hajmini aniqlash zarur, uni oldini olishning aniq chora-tadbirlarini aniq belgilash va uning sabablarini aniqlash kerak. Avvalambor, qo`yilgan savollarga javob berishdan avval, o`zining rejasida aniq statistik materiallar bo`lishi kerak va o`zining shunday miqdorlari bilan holatning miqdoriy aniq tarafiga, jinoyat kabi materialga ega bo`lishi kerak. Ushbu materialga ega bo`lish uchun biz, avvalambor, statistik kuzatuvni olib borishimiz kerak, ya`ni davlat organlariga yetib kelgan jinoyatlarning har birini ma`lum vaqt oralig`ida ro`yxatga olish (militsiya, prokuratura, tergov va h.k.), ushbu jinoyatni oldindan belgilangan elementlari, masalan, jinoyat kodeksining moddalari, jinoyatning sodir etilgan joyi va vaqti, unga jinoiy javobgarlik choralari va b. ro`yxatga olinishi kerak.

IIB, sud va tergov organlarida, amaliyotda va har bir ro`yxatga olingan jinoyat va shaxsga maxsus statistik kartochkalar to`ldiriladi. (IIB, prokuratura) - prokuraturada, sudlanuvchi – sudda, sudlanganlar –Jazoni ijro etish muassasalari(ITU)da to`ldiriladi. Statistik kuzatishlar natijasida bunday kartochkalarining bir qancha nusxalari terib olinadi, ularning har biri alohida jinoyat va jinoyatchini, turli xildagi xususiyatlariga qarab

(masalan, jinsi, yoshi, sudlanganlik, guruhda ichkilik oqibatida jinoyat sodir etish va b.) to'ldiriladi. Albatta, bunday kartochkalar xuddi xom materialga o'xshaydi, ularni qayta ishlab, umumlashtirish kerak, ularni hajmga yoki majmualarga qo'shish kerak, o'z-o'zidan ma'lum bir qonuniyat paydo bo'ladi va unda mos keladigan o'zaro bir-biriga tegishli material paydo bo'ladi va o'rganiladi.

Statistik kuzatish natijasida olingan materialni taxlab qo'yilgan g'ishtga o'xshatish mumkin va ulardan statistik inshootlarni qu'rish kerak bo'ladi. Statistik tadqiqotning ikkinchi bosqichi vazifalari berilgan statistik kuzatishlarni sifatli bir xil majmuaga guruhlash va ayrim guruhlarining xulosasini keltirib chiqarishdir, shuningdek, kuzatilayotgan faktlarning barcha hajmini xulosalab umumlashtirishdir.

Bizning misolda biz barcha ro'yxatga olingan jinoyatlarni bitta bir xil qandaydir belgilari tufayli majmuaga guruhlashtiramiz. ( masalan: jinoyat kodeksini Asosiy qismdagi moddalar va bo'limlariga qarab) va ushbu xususiy majmualarni sanab chiqamiz.

IV, sud va prokuratura organlaridagi svodkalar va guruhlar mos keladigan birinchi hujjatlarni ma'lum bir kategoriyalarga bo'lish va sanashni keltirib chiqaruvchi hisobotni amalga oshiradi, ya'ni jinoyat va tergov ishlari uchun kartochka, sudlanuvchiga kartochka va b. Shundan keyin olingan hisoblar mutlaq miqdorlarda jinoyatchilikning umumiy hajmi to'g'risidagi ayrim tasavvurlarni beradi. Ma'lum vaqt mobaynida jinoyatchilikni o'zgartirish to'g'risidagi masalalarga javob topish zarurdir. Lekin bu ham yetarli emas. Ushbu savolga javob berish uchun yillar bo'yicha jinoyatlar soni haqida ma'lumotlarni taqqoslash kerak, jinoyatchilikning qaysi turi ko'payib ketdi, qaysilari kamayadi, qaysi shahar, tuman, viloyatlarda jinoyatchilik ko'payib ketdi, jinoyatchilikning boshqa holatlari bilan aloqalari qanday, masalan, ichkilikbozlik bilan va h.k. Bularning hammasi statistik miqdorlarning ma'lumotini talab qiladi, kelgusida jinoyatchilikning koeffitsientini ajratish, ya'ni jinoyatlar soniga 100% munosabati, shahar, o'lka, viloyat va respublikalar bo'yicha hududlarda jinoyatchilikni taqqoslash uchun, jinoyatni sodir etgan shaxslarning foizini belgilash va b. Masalan, 96% bezorilik, 85% o'ldirish, 67% zo'rlash, ichkilik oqibatida sodir bo'lgan jinoyatning sodir etilishi asosiy holat hisoblanadi. Bu uchinchi bosqichning tugallangan mazmunini tashkil qiladi. Bunday qayta ishlab chiqish va statistik berilganlarni tahlil qilish, o'rganilayotgan ijtimoiy jarayonda qonunchilik va to'g'rilikni, ularning o'zaro aloqasini ko'rishga imkon beradi, bu esa uchinchi bosqichning asosiy vazifasi hisoblanadi.



### **3-BOB. HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR, SUDLAR VA BOSHQA MUASSASALARNING HISOB VA HISOBDORLIGI**

#### **1-§. *Jinoyatchilarning yagona hisobi tushunchasi, jinoyatlarni ro'yxatga olish tizimi, ro'yxatga olishni yurituvchi organlar, statistik kartochkalar***

Jinoiy hisob o'zining vujudga kelgan davridan boshlab tez-tez mavzu tarkibini, kuzatuv birliklarini va o'lchovlarini o'zgartirib kelmoqda. Rossiyada revolyutsiyaga qadar asosiy o'lchov birliklari bo'lib, sud hodisalarini, sudlarda ko'rilgan jinoiy ishlar va sudlanganlar hisoblangan. Sovet hokimiyati paydo bo'lgan davrda ham jinoiy hisobga bunday yondashish saqlanib qolgan. Shu bilan birga, muassasalarning tezkor ishini aks ettiruvchi, militsiyada, jinoyat qidiruvda, prokuratura va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarda hisoblar vujudga keldi.

Statistik hisobotlarning turli ko'rinishlari ichida sudlanganlar hisobi ko'proq jinoiy hisobga yaqinroq edi. Sudlanganlar bo'yicha birinchi hisob varaqalari 1918-y. yuritila boshlagan. Keyingi yillarda bu varaqalarning mohiyati tinimsiz o'zgarib borgan. Ular quyi sudlarda to'ldirilib MSBga bevosita yuborilar edi. Quyi sudlar faqatgina sudlanganlik va sud siyosati to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritar edi. Shu bois sudlanganlar hisobi to'liq bo'lmas edi. Hisob varaqalari ba'zan to'ldirilmaz yoki yo'lda yo'qolar edi. Ularda sodir etilgan qilmishning faktik holatlari ko'rsatilmaz edi.

1930-yillarga kelib statistik hisobga turli huquqni muhofaza qiluvchi organlar qiziqishining ortishi va ulardagi kamchiliklar tufayli yagona jinoiy hisobga o'tishni taqozo qila boshladi. Shuning uchun 30-yilning boshlarida SSSR markaziy statistika boshqarmasi Moskvada yagona jinoiyatchilik hisobi varaqalari tizimini joriy etdi. Uning umumiy tamoyillari maxsus yo'riqnomada ko'rsatilgan edi. Varaqalar tergovni tugatilgan jinoiy ishlarga va qo'shimcha tergovga yuborilmasdan kelib tushgan jinoiy ishlarga yuritilar edi. Varaqalarda boshqa savollar bilan bir qatorda sodir etilgan jinoyatning joyi, vaqti, xususiyati va boshqa belgilari ko'rsatilar edi. Biroq, bu tizimning ilmiy-amaliy va tashkiliy tartiblari to'liq mavjud bo'lsa ham uni butun jinoiy yustitsiya tizimiga joriy qilib bo'lmadi.

50-yillarnig o'rtalariga kelib yanada mukammalroq tizim, ya'ni faqatgina jinoiy ishlar va sudlanganlar ro'yxati emas, balki jinoiyatchilik hisobi ham yuritila boshladi. Bu hisob 1961-y. butun ittifoq va ittifoqdosh respublikalar jinoyat qonunchiligi qabul qilinishi bilan rasmiy ravishda tasdiqlandi. 1965-y. jinoiyatchilikning yagona hisobi to'g'risida birinchi

yo`riqnoma qabul qilindi. 1985-yilda SSSR bosh prokurori tomonidan uning ikkinchi nashri tasdiqlandi. O`zbekiston Respublikasidagi yagona jinoiy hisob tizimining asosiy mohiyati saqlanib qolmoqda.

Jinoyatchilikning yagona hisobi, avvalo, birlamchi hisob va aniqlangan jinoyatlar, shaxslar, sodir etganlarni, jinoiy ishlarni ro`yxatga olishdan iborat. Hisob tizimi qo`zg`atilgan jinoiy ish va prokurorning ayblov xulosasi bo`yicha jinoyat sodir etgan shaxslarni ro`yxatga olishdan iboratdir. Yagona hisob tizimi qoidalari jinoyat ishini qo`zg`atish vakolatiga ega bo`lgan barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar: prokuratura organlari, Ichki ishlar, soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy yo`l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti, bojxona xizmati va boshqa bir necha maxsus faoliyat bilan bog`liq organlar uchun umumiydir. Bular MXX, harbiy prokuratura va sud.

Surishtiruv va dastlabki tergov harakatlari o`tkazilayotgan jinoyatlar bo`yicha birlamchi hisob va ro`yxatga olish umumiy tamoyillarga asoslangan holda faqatgina yuqoridagi organlar tomonidan amalga oshiriladi (jinoyatchilik to`g`risidagi ma`lumotlar chetga chiqishi mumkin emas). Shunday qilib konstitutsion tizim va davlat tizimiga qarshi jinoyatlar hisobi faqat MXX tomonidan, harbiy xizmatchilar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar hisobi Harbiy Prokuratura tomonidan, sodir etilgan ham sud muhokamasida ko`rilgan jinoyatlar to`g`risidagi ma`lumotlar hisobi sudlar tomonidan yuritiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, bu ma`lumotlarni yagona hisobga kelib tushmasligi uning to`liq bo`lmasligiga olib kelishi mumkin.

Jinoyatchilikning birlamchi hisobi statistik varaqalarni to`ldirish yo`li bilan quyidagicha amalga oshiriladi:

- jinoyatni aniqlash (F.1);
- jinoyatning tergov natijalari to`g`risida (F.1.1);
- jinoyatni sodir etgan shaxs aniqlangan ishlar bo`yicha (F.1.2);
- jinoyatni sodir etgan shaxslar bo`yicha (F.2);
- jinoyat ishining harakati bo`yicha (F.3);
- moddiy zararni qoplash va jinoyat qurolini olib qo`yish bo`yicha (F.4);
- ishni sudda ko`rish natijalari bo`yicha (F.6).

Bu varaqalardagi miqdorlar ro`yxati O`zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va O`zbekiston Respublikasi IIV tomonidan, (F.6) varaqasi bo`yicha esa, O`zbekiston Respublikasi Oliy Sudi bilan kelishilgan holda o`rnatiladi. Varaqalarni to`ldirish ( yoki ma`lumotlarni magnit tasmaiga yozish) jinoyat ishi qo`zg`atilgan, tergov va surishtiruv harakatlari

o`tkazilayotgan joyda amalga oshiriladi. Jinoyatchilikni, ularni sodir etgan shaxslarni va jinoyatlarni ro`yxatga olish hamda umumiy statistik hisobdorlikni amalga oshirish faqat shahar, viloyat Ichki ishlariga yuklatilgan. Ular bir sutka davomida jinoyatchilik hisobi jinoiy ishlar va jinoyatlarni sodir etgan shaxslar to`g`risidagi varaqalarni hisobot jurnaliga kiritishadi. Shundan so`ng ro`yxatdan o`tkazilgan birlamchi hisob hujjatlari darhol viloyat IIBoshqarmasidagi axborot markazlari, ular esa o`z o`rnida respublika IIVning axborot markazlariga yuborishadi. Varaqalarni qayta ishlash orqali axborot markazlarida birlamchi hisobotlarning barcha ko`rinishlari, jinoyatchilik to`g`risida statistik hisobdorlik shakliga keltiriladi.

Jinoyat uni sodir etgan shaxs, jinoiy ish birlamchi hisob varaqasiga kiritilganda (yoki magnit tashuvchiga) jinoyatchilik hisobini ro`yxatga olish jurnaliga kiritilganda va markazlashtirilgan axborot markaziga yuborilganda hisobga olingan hisoblanadi.

Jinoyatchilik hisobi prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan aniqlangan jinoyatlar bo`yicha varaqa (F.1) to`ldirish orqali amalga oshiriladi. Bu varaqalar jinoyat ishi qo`zg`atilganda, bayonnoma bilan materialni sudga yuborganda yoki shaxsni jinoiy javobgarlikdan jamoa ta`sirini qo`llagan holda ozod qilish to`g`risida prokuror sanksiyasi mavjud bo`lganda darhol to`ldiriladi.

Jinoyatchilik hisobi ko`pgina o`ziga xos xususiyatlarga ega. Qilmish bitta jinoyat sifatida olinadi, agar bir necha shaxslar tomonidan birgalikda yoki uyushgan guruh tomonidan, agar bir nechta jinoiy harakatlardan iborat bo`lsa, agar bitta harakat bo`lsa-yu va zarar bir necha jabrlanuvchiga yetkazilgan bo`lsa, agar ikki bog`liq jinoyat sodir etilsa, M: zo`rlash va OITS yuqtirish amalga oshirilgan bo`lsa. Bu va boshqa xususiyatlari jinoyatchilik hisobida o`z aksini topadi. Bir qilmish bilan bir necha odamni o`ldirish (portlatish, yong`in) JK bo`yicha bitta qasddan sodir etilgan jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi. Bizningcha, bu unchalik to`g`ri emas. AQShda bunday qilmishlar hisobi harakat bilan emas, balki jabrlanuvchilar soni bilan belgilanadi. M: qasddan uy yoqib yuborilsa va buning natijasida 6ta odam vafot etsa, ro`yxatga olishda Ita yong`in va 6ta qasddan odam o`ldirish deb olinadi.

Agar jinoyat reabilitatsiya asoslari bo`yicha tugatilsa yoki u bo`yicha oqlov hukm chiqsa, ro`yxatga olingan jinoyat o`chiriladi. Aniqlangan jinoyatchilik bo`yicha statistik kartochna (F1) va jinoyatning tergov natijalari bo`yicha kartochnasi (F.1.1) 300 dan ortiq ijtimoiy, kriminalistik, kriminologik, jinoiy-huquqiy, jinoiy-protsessual, tashkiliy va boshqa yuridik belgilarni matnli ko`rinishda, shuningdek, EHMLarda foydalanish

uchun kodlar shaklida ifodalanadi. Bundan tashqari varaqada ma'lumotlarni qisqartirish uslublari qo'llaniladi. M: 19 (kod) F.1 kartochkasida bitta belgini "jinoyat sodir etilgan joy". Bu №2 ma'lumotnomasida ko'rsatilgan. Bu ma'lumotnomada jinoyat sodir etilgan joyni ifodalovchi 105ta belgili kod mavjud (m: dacha, kassa, poyezd). Jinoyat sodir etilgan joyni kodlashtirishda, m: "valuta ayirboshlash shahobchasi", varaqada 19 kodidan tashqari 115 kodi ham ko'rsatiladi.

Statistik varaqalarda (F.1) va (F.1.1) mavjud 13 ta ma'lumotnomadan 10tasi qo'llaniladi: (№1) – xo'jalik sohaslarining turkumi, 286ta belgiga ega; (№2) – jinoyat sodir etilgan joy – 105 ta belgi; (№3) – jinoiy ta'sir obyekti 103 ta belgi; (№4) – qurol, o'q-dori va portlovchi moddalar 60 ta belgi; (№5) – millat 130 ta belgi (№6) – mamlakatlar 208ta belgi; (№7) – valuta 50 ta belgi; (№8) – narkotik va boshqa kuchli ta'sir etuvchi narsalar 96 ta belgi; (№9) – ijtimoiy holat 22 ta belgi; (№10) – jabrlanuvchi va jinoyat sodir etgan shaxslarning lavozimi 48 ta belgi; (№11) – xo'jalik subyekting tashkiliy huquqiy shakli 54 ta belgi; (№12) – jinoyat sodir etish usuli 29 ta belgi; (№13) – ma'lumot manbai 29 ta belgi.

Statistik ma'lumotlar bundan tashqari kodlar qo'shish orqali kengaytirilishi mumkin. M: 3 - ma'lumotnomada "iste'mol tovarlari" kodi 1000, insonparvarlik maqsadidagi tovarlar kodi 0300, yuklar kodi 0090. Agar transport vositasida tashilayotgan insonparvarlik maqsadidagi iste'mol tovarlari yuki kodlanadigan bo'lsa, u 1390 kodi bilan ifodalanadi.

Shunday qilib (F.1) va (F.1.1) statistik kartochkalariga matnli va elektron hisoblash mashinalarida foydalanish mumkin bo'lgan 1500 ga yaqin belgini kiritish mumkin. Bu kartochkalar orqali biz jinoyatchilikning qisqacha mazmunini, uning kvalifikatsiyasi va kategoriyasini, jinoyat sodir etilgan joy, vaqt, usul va jinoyat quroli, jinoyat motivi, moddiy zarar, ishning holati va h.k. ma'lumotlarni olishimiz mumkin.

**2. Jinoyat sodir etgan shaxslarning hisobi.** Bu hisobga ayblov xulosasi chiqqan yoki materiallar bilan sudga yuborish to'g'risida sanksiyalangan yoxud jinoyat ishi qo'zg'amasdan jamoat ta'siri choralari qo'llash uchun yuborilgan jinoyat ishlaridagi jinoyat sodir etgan shaxslar kiritiladi. Shuningdek, bu hisobga ayblovi tugatilgan jinoiy ishlar bo'yicha shaxslar, muddati o'tib ketganligi bois rad etilgan jinoiy ishlardagi shaxslar, amnistiya akti yoki afv orqali ozod bo'lgan shaxslar kiritiladi.

Jinoyatchi shaxsning statistik kartochkasi (F.2) tergov yoki surishtiruvni amalga oshiruvchi tergovchi yoxud surishtiruvchi tomonidan ishni prokurorga yuborishda yoki tugatishda to'ldiriladi. Kartochka shahar yoki tuman IIBga shaxs haqidagi ma'lumotlarni hisob jurnaliga kiritish va ro'yxatdan o'tkazish uchun yuboriladi.

**3. Jinoiy ishlar hisobi.** Tergov jarayonida jinoiy ishlarning harakati aniqlangan jinoyat kartochkasi (F.1) va jinoiy ishlar harakati (F.3) kartochkalari bo'yicha yuritiladi. Jinoyat ishi bo'yicha (F.3) kartochkasi prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchi tomonidan ish bo'yicha quyidagi qarorlardan birini qabul qilgan holda to'ldiriladi: jinoyat ishini qo'zg'atish, ayblov xulosasini tasdiqlash, ishni tugatish va boshq. (F3) kartochkasini to'ldirish tartibi yuqorida belgilanganidek amalga oshirilib, unda 60 ta belgi ishtirok etadi.

**4. Moddiy zararni undirish va jinoiy harakat qurolini olib qo'yish natijalari to'g'risidagi statistik kartochkalari (F.4) ni yuritish.** Bu kartochkalarda zarar miqdori va xususiyati, uning qoplanishi, mol-mulkni olib qo'yish kabi ma'lumotlar kiritiladi. Bu formaning axborot hajmi 600 ga yaqin belgini o'z ichiga oladi.

Natijada huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida sodir etilgan jinoyatlar, jinoyatchi, jinoyat ishining harakati va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyati haqida ulkan hajmdagi birlamchi hisobot yig'iladi. Axborotning umumiy hajmi 3500 yaqin belgini tashkil etadi.

Birlamchi hisobotlar va boshqa materiallar asosida to'planadigan ma'lumotlar 70 ga yaqin shakldagi davlat va idoraviy statistik hisobdorlikka umumlashtiriladi. Ular muhim kriminologik, jinoiy-huquqiy, jinoyat-protsessual, tashkiliy-boshqaruv ahamiyatiga ega. Bu faktik baza ko'pgina ilmiy-amaliy masalalarni yechishga yordam beradi.

## **2-§. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rasmiy statistik hisobdorligi**

Birlamchi hisob hujjatlar (statistik varaqalar, hisobot jurnallari va boshqa materiallar)i Ichki ishlar organlari, Prokuratura, Soliq, Valutaga oid jinoyatlar va jinoiy yo`l bilan topilgan daromodlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti, Bojxona xizmati, MXX kabilarning rasmiy hisobdorligi (oylik, yarim yillik, yillik)ning asosini tashkil etadi.

Mavjud huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisobdorligi ichida bizga muhimrog`i bo`lgan Ichki ishlar organlari va prokuraturalarning idoraviy statistik hisobdorligini ko`rib chiqamiz.

Ichki ishlar organlaridagi hisobdorlik bevosita quyidagilarni, birinchidan, ro`yxatga olingan jinoiy harakatlarni 80% ni, ikkinchidan, Prokuratura organlari, Bojxona xizmati, Soliq, Valutaga oid jinoyatlar va jinoiy yo`l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti organlarining birlamchi jinoyatchilik to`g`risidagi hisobotlari IIV ni axborot markazida statistik shakllantiriladi, uchinchidan, aynan Ichki ishlar organlari 4 xil formadagi davlat statistik hisobdorligini amalga oshiradi, shuningdek, 20 yaqin formadagi Ichki ishlar organlarini mamlakatdagi huquq tartibotni ta`minlash, jinoyatchilikni ochish, jinoyatchilarni qidirish bo`yicha idoraviy hisobdorligini yuritadi.

Davlat va idoraviy hisobdorlik formalaridan tashqari birlamchi hisob hujjatlariga asoslangan holda IIV da operativ va xizmat faoliyatini turli tomonlari 50 ga yaqin hisobdorlikda to`planadi. IIV idoraviy hisobdorlik masalalarini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi bosh organ, bu Respublika axborot markazidir (RAM). (viloyatlarda Axborot markazi- I S, respublikada Respublika axborot markazi-RIS.)

Prokuratura to`g`risidagi qonunga ko`ra Bosh prokurorga jinoyatchilikka qarshi kurash samaradroligini ta`minlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan. O`zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy Xavfsizlik Xizmati idoralari bilan birgalikda jinoyatchilik holati, jinoyatchilikning ochilishi borasida prokuror nazorati va tergov harakatlari to`g`risida yagona hisob metodikasi va tizimini, shuningdek, prokuratura organlarida yagona hisobdorlikni taqdim etish qoidalarini o`rnatadi.

Jinoyatchilikning yagona hisobi tamoyillariga muvofiq davlat statistik hisobdorligi IIVda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga (o`zlarining vakolat doiralarida) Bosh prokuratura bilan kelishib ishlab chiqiladi va Davlatstatqo`m qarori bilan tasdiqlanadi. Davlat statistik

hisobdorligi organlari, prokuratura, Soliq, Valutaga oid jinoyatlar va jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti va bojxona xizmati organlarining jinoyatchilik to'g'risida 95%dan ko'proq hisobga olingan kriminologik holatlari asosida jamlanadi va O'zbekiston Respublikasi IIVning Axborot Markazi –(IS) da umumlashtiriladi.

Hozirgi vaqtda dolzarb axborotlardan biri bu iqtisodiy huquqbuzarliklar hisoblanadi.

Umumlashtirilgan davlat statistik hisobdorligiga MXX va Harbiy prokuratura ma'lumotlari kiritilmaydi. Bizga yaqin qo'shni bo'lgan RFning amaliyotiga nazar tashlasak, 1993-y " Davlat sirlari to'g'risida"gi qonunga muvofiq jinoyat haqidagi ma'lumotlar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakatlar, davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonuniylikni buzish holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar davlat sirlariga kirmasligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasida hali bunday qonun ishlab chiqilmagan. Jinoyatchilik haqidagi ma'lumotlarni to'liq oshkora qilib bo'lmaydi. Shuning uchun bu ma'lumotlar konfidensial hisoblanadi va davlat statistika hisobdorligiga kiritilmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat statistik hisobdorligi 5 formadan iborat.

1). Ro'yxatga olingan, ochilgan va ochilmay qolgan jinoyatlar bo'yicha hisobot (F.№1, yarim yillik, IIV va Davstatqo'mga taqdim etiladi).

2). Jinoyatchilik to'g'risida yagona hisob (F.№1-G, yillik, IIV va Davstatqo'mga taqdim etiladi).

3). Jinoyat sodir etgan shaxslar bo'yicha hisob (F.№2, yarim yillik, IIV va Davstatqo'mga taqdim etiladi). Bunda jinoyatchi shaxsi to'g'risida to'liq ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

4). Tergov harakatlari bo'yicha hisob (F.№1-E, yarim yillik, Bosh prokuratura va Davstatqo'mga taqdim etiladi).

5). Prokuror faoliyatining hisobi (F.P. yarim yillik, Bosh prokuratura va Davstatqo'mga taqdim etiladi). Bunda qonunlarga rioya qilish va huquqiy hujjatlarning qonuniyligi, dastlabki tergov va surishtiruvning qonuniyligi, ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi qonunlarga rioya qilinishi ustidan prokuror nazorati natijalari, shuningdek, prokurorning jinoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rishda ishtiroki natijalari ko'rsatiladi.

3. Bundan tashqari Ichki ishlar organlarida davlat statistik hisobdorlikni 60dan ziyodroq idoraviy hisobdorlik formalari mavjuddir. Ulardan bir nechtasini keltirib o'tamiz:

1) jinoyatchilik holati va jinoyatlarni tergov qilish natijalari hisobi (F.1-A, har oy, o`sb boruvchi natijalar bilan). Bunda mavjud 89 federatsiya subyektlaridagi jinoyatchilik holati to`g`risidagi ma`lumotlari keltiriladi.

2) jinoyatlar to`g`risidagi ariza va xabarlarini ko`rib chiqilishi bo`yicha hisob (F.2-E, yarim yillik).

3) narkotik vositalardan noqonuniy foydalanish, ishlab chiqarish va muomalasi bo`yicha hisob (Interpol uchun), (F.1- NON).

4) uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash natijalari bo`yicha Ichki ishlar organlarining hisobi (F.1-OP).

5) o`qotar qurollar yordamida sodir etilgan jinoyatlar bo`yicha (F.1-OR).

6) transport vositalaridagi jinoyatchilik holati bo`yicha hisobot (F1-TR).

7) dastlabki tergov organlari faoliyat natijalari bo`yicha hisobot (F.3-E).

8) shaxsi aniqlangan jinoyatlar bo`yicha hisob (F.4-2) va boshqalar.



### **3-§. Ma'muriy huquqbuzarliklar hisobi**

1. Savol tarixi hisobi 1920-yillardayoq ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risida yagona hisob tizimini yaratish harakatlari amalga oshirilgan bo'lsa ham, biroq SSSR, Rossiya va boshqa postijtimoiyistik davlatlarda ma'muriy huquqbuzarlikning hamma ko'rinishlari bo'yicha yagona hisob bo'lmagan va hozirgi vaqtda ham mavjud emas. Ular yopiq holda faqat joylarda sohaviy idoralarda mavjud, ko'proq tizimlashtirilgan ro'yxat olish militsiya, DAN va Yong'inga qarshi kurash idoralarida mavjud.

Ma'muriy huquqbuzarlik amalga oshiriluvchi sohalarning umumiy soni 35tadan ko'proq, biroq sobiq SSSRning huquqiy vorisi RSFSR ning ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida (1984-y. amalda) ularning soni 25 qilib ko'rsatilgan. Bu holat boshqa postijtimoiyistik davlatlarda ham kuzatiladi.

80-yillar ikkinchi yarmiga kelib, statistikaning o'sishi va ijtimoiy muammolarni yechishni o'zagiga aylanishi natijasida SSSR Davlat statistika qo'mitasi ochilgan, ma'muriy huquqbuzarliklar va ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxslarning miqdoriy yagona hisob formasini (F.1 - AP) amalga oshirish bo'limi tashkil etilgan. Bu ma'lumotlarni turli sohalar bevosita SSSR Davlat qo'mitasiga topshirishi lozim edi.

1990-yillar SSSRda birinchi marta ma'muriy huquqbuzarliklarning to'laroq ma'lumot hisobi jamlangan. Sohaviy idoralar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar tuzulishi quyidagicha edi: Ichki ishlar organlari tomonidan (umumiy huquqbuzarliklarning 76 %), yong'inga qarshi kurash boshqarmasi (1.8%), temir yo'l transporti (4.2%), yo'lovchi elektr transporti (10.9%) va boshq. Umumiy 45.4 mln. ma'muriy huquqbuzarliklar hisobga olingan (Rossiyada 26.6, Ukrainada 7.3, O'zbekistonda 3.0, Qozoqistonda 2.4, Belorussiyada 1.9 va h.k.)

Bu to'plangan ma'lumotlar to'liq emas edi, shunga qaramay, to'plangan ma'lumotlar mamlakatlardagi ma'muriy huquqbuzarlik holati, ularning turlari, ularni sodir etganlar, ma'muriy choralar to'g'risida umumiy xulosa berar edi. Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, SSSRdagi har bir to'rttadan bir faol yoshdagi (16-60) fuqaro hukumat tomonidan aniqlangan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan. Agar ma'muriy huquqbuzarliklarning latentligini hisobga olsak, ular davlat aholisi soniga yetib qoladi.

Ro'yxatga olingan jinoyatlar va ma'muriy huquqbuzarliklarning 1990-yil SSSRdagi o'zaro aloqasini ko'radigan bo'lsak, 1:16 ni tashkil etgan.

So'nggi yillarda Rossiyada jami ma'muriy huquqbuzarliklarni umumlashtirishdan voz kechildi. Ular faqat Ichki ishlar organlari

(militsiya, DAN, yong`inga qarshi kurash boshqarmasi)da va sudlarni ma'muriy yurisdiksiyasi natijasi sifatida Adliya vazirligida saqlanib qoldi.

2. Hisobga olishning hozirgi holati. Militsiya tomonidan aniqlangan ma'muriy huquqbuzarliklar hududiy va federal doirada ro`yxatga olinadi. Yo'l harakati xavfsizligi qoidalarini buzish DAN tomonidan ro`yxatga olinadi. 1995-yildan boshlab davlat hisobdorligiga faqat yo'l harakatlari tufayli inson o`limi va jarohatlanishi holatlari kiritiladi. Bular jinoyat, ma'muriy huquqbuzarlik yoki aybsizlik natijasida sodir etilishi mumkin.

Sudlarda faqat ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxslar hisobi yuritiladi. Ayniqsa, yo'l harakati qoidalarini buzish natijasida ma'muriy javobgarlikka tortilgan shaxslarning ro`yxati doimiy ravishda yangilanib turadi. Sudlar tomonidan ko`riladigan huquqbuzarliklarning asosiy qismi MJTKning moddalarida belgilangan.

Ma'muriy yurisdiksiya organlari ma'muriy huquqbuzarliklarni hisobga olishning mukammal tizimiga ega emas. Shunday bo`lsa ham, mamlakatda ma'muriy huquqbuzarliklar to`g`risida statistik materiallarni idoraviy organlardan va o`z - o`zini boshqarish organlaridan olishi mumkin.

#### **4-§. Sud va Adliya organlarining hisob va hisobdorligi**

Sudlar jinoiy huquqiy, ma'muriy huquqiy va fuqarolik huquqiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa va jarayonlarning yuridik hisobini amalga oshirishadi. Sud hisobining o'lchov birligi bo'lib, jinoiy ish, jinoyat, sudlanuvchi, jinoiy jazo turi, ma'muriy ish, huquqbuzarlik, fuqarolik ishi, fuqarolik ishida taraflar va boshq. hisoblanadi. Barcha sud bo'g'inlarida birlamchi hisob qoida bo'yicha statistik kartochka va tegishli hisob jurnallari orqali shakllantiriladi.

1. Birinchi instansiya sudlaridagi statistik kartochkalar jinoyat ishiga, sudlanuvchiga, fuqarolik ishiga va ijro harakatlariga yuritiladi. Kassatsiya va nazorat instansiyalardagi ishlar bo'yicha ham tegishli katochkalar yuritiladi. Bundan tashqari sudlarda birlamchi hisob hujjati hisoblanmish jinoiy, ma'muriy va fuqarolik ishlarini ro'yxatga olish jurnallari yuritiladi.

Jinoyat ishi bo'yicha hisob va ro'yxatga olish kartochkasi uning ro'yxati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Birlamchi hisobning asosiy hujjati – har bir sudlanuvchining statistik kartochkasi bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) sudlanuvchi bo'yicha ma'lumotlar (familiya, ism, jins, yosh, fuqarolik va boshqalar);

2) jinoyat bo'yicha ma'lumotlar (xususiyati, ishtirokchilar ro'yxati, jinoiy guruh tarkibi, sodir etilgan joyi va boshq.);

3) hukm, ajrim, qarorlar bo'yicha ma'lumotlar (ishni ko'rib chiqish natijasi, qilmishni asosiy va qo'shimcha kvalifikatsiyasi, asosiy va qo'shimcha jazoning turi va choralari va boshqalar);

4) ishni kassatsiya tartibida ko'rish bo'yicha ma'lumotlar (kassatsiya instansiyasining qarori).

Sudlanuvchi haqida kartochka birinchi va ikkinchi instansiya sudyalari tomonidan to'ldiriladi. Umumiy jihatdan bu kartochkada 800 dan ko'proq yuridik ahamiyatga ega bo'lgan belgilar mavjud. Ular matnli va kodlashtirilgan shaklda kiritiladi.

Fuqarolik ishi bo'yicha hisob statistik kartochkasi fuqarolik davo arizasi kelib tushgan kuni to'ldiriladi va unda sudni ish bo'yicha quyidagi protsessual harakatlari ko'rsatiladi: davo talabi, uni ko'rish muddati va natijasi, yuqori sudga shikoyat qilish, davogar va javobgar haqida ma'lumotlar.

Ijro harakatlari bo'yicha hisob statistik kartochka sud ijrochisi tomonidan fuqarolik ishi qarorlarini va jinoyat ishlari bo'yicha moddiy zararlarni undirish to'g'risida qarorlar ijrosi bo'yicha to'ldiriladi.

Zarar miqdorini belgilash kartochkasida iqtisodiy yo'nalishdagi jinoyatlar tufayli yetkazilgan moddiy zarar belgilanadi va kiritiladi. U har

bir ishga to'ldiriladi va unda zararni dastlabki tergov jarayonida, ungacha yoki hukmning qonuniy kuchga kirganidan so'ng qoplanganlik to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

2. Birinchi instansiya sudlarining davlat statistika hisobdorligi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi tomonidan ishlab chiqiladi va sud idoralarida foydalanish uchun tatbiq etiladi. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) birinchi instansiya sudlarining jinoyat ishlarini ko'rish bo'yicha hisoboti (F №1, yarim yillik);

2) ma'muriy huquqbuzarliklarni ko'rish bo'yicha hisoboti (F.1 – AP, yarim yillik);

3) birinchi instansiya sudlarining fuqarolik ishlarini ko'rish bo'yicha hisoboti (F №2, yarim yillik);

4) hukm va qarorlarni ijrosi bo'yicha sud ishlarining hisoboti (F №4, yarim yillik);

5) (F №10, yarim yillik) Bu hisob uch qismdan iborat: jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslar hisoboti (F №10.1), jinoiy javobgarlikka tortishning xususiyatlari (F №10.2), o'ta og'ir jinoyatlar bo'yicha jazo choralari hisoboti (F №10.3);

6) sudlanganlar tarkibi va jinoyat sodir etilgan joy bo'yicha hisoboti (F №11, yarim yillik);

7) voyaga etmay jinoyat sodir etgan sudlanganlar hisoboti (F №12).

10, 11 va 12 formadagi hisoblar sudlanganlik va sudlanganlar to'g'risida ma'lumot olish uchun alohida ahamiyatga ega.

3. Jinoyat ishlarini kassatsiya va nazorat tartibida ko'rish bo'yicha hisobdorlik. U o'z ichiga quyidagilarni oladi:

1) jinoyat ishlarini kassatsiya tartibida ko'rish bo'yicha hisobot (F №6);

2) fuqarolik ishlarini kassatsiya tartibida ko'rish bo'yicha hisobot (F №7);

3) jinoiy ishlarni nazorat tartibida ko'rish bo'yicha hisobot (F № 8);

4) fuqarolik ishlarini nazorat tartibida ko'rish bo'yicha hisobot (F №9).

4. Adliya vazirligi notarial idoralarning (ishonchnomalar, vasiyatlar, hujjatning qonuniyligi bo'yicha guvohlik va boshq.); fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari (tug'ilish, o'lim, nikoh, ajrashish va boshq.); advokatlar kollegiyasi bo'yicha (yuridik yordam ko'rsatish, fuqarolarni huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish va boshqalar); sud ekspertiza muassasalarining ishlari bo'yicha (sud ekspertiza turlari va ularni o'tkazish muddatlari va boshqa.) hisobdorligi ham mavjuddir.

## **5-§. Huquqiy statistik ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan qayta ishlash tizimi va ularni nashr etish**

Har bir faoliyatdagi ish unumdorligi, sifatli axborotlarni ta'minlash va ularni olish tezligiga bog'liq. Shuning uchun turli xil yuridik faoliyatlarda axborotlarni informatizatsiyalashga alohida e'tibor berilmoqda. Bular asosan jinoiy yustitsiya tizimini kompyuterlashtirishga qaratilgandir. BMTning jinoyatchilik to'g'risida ogohlantirish va huquqbuzarlar bilan muomalada bo'lish to'g'risidagi 1990-yil Gavanadagi 8-Kongressida maxsus rezolutsiya "Jinoiy odil sudlovni kompyuterlashtirish" ni qabul qildi.

Yuridik faoliyatni kompyuterlashtirish jarayonini shartli ravishda uchta tizimlashgan guruhga ajratish mumkin:

1) bank qonunchiligi, hukumat va idoraviy aktlarni, Konstitutsiyaviy sud qarorlarini, Oliy sud Plenum qarorlarini, sud va ho'jalik sudi amaliyoti materiallarining avtomatlashtirilgan informatsion tizimi;

2) tezkor qidiruv faoliyatini, jinoyatlarni tergov qilishni, jamoa tartibini saqlashni, fuqarolarni, qidirilayotgan va xabarsiz yo'qolgan shaxslarni va qidirilayotgan qurollarning avtomatlashtirilgan axborot tizimi;

3) jinoyatlarni ro'yxatga olish va hisobi, ularni sodir etgan shaxslarni, sudlanganlarni, mahkumlarni va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning boshqa statistik axborotlarini birlashtiruvchi avtomatlashtirilgan informatsion tizim.

Bu tizimlarning barchasi o'zaro uzviy bog'liqdir. Ular Ichki ishlar, Soliq, Valutaga oid jinoyatlar va jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti, bojxona xizmati, prokuratura va sudlarni yagona axborot va hisoblash tarmog'ini shakllantirishi mumkin. Bitta avtomatlashtirilgan informatsion tizim axboroti boshqa tizim uchun muhim bo'lishi mumkin va aksinchadir. Shuning uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini axborotlashtirishning strategik maqsadi zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llagan holda integratsiyalashlan statistik va analitik xarakterdagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Ularni barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun o'z ish joylarida turib yagona informatsion baza tarmog'idan foydalanish imkoniyati yaratildi.

1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning avtomatlashtirilgan informatsion tizimda (AIT) statistik hisob va hisobdorligi. Bularni shakllantirish 70-yillardan buyon davom etmoqda. O'sha vaqtlarda informatsion markazlar milliy EHMlar bilan jihozlangan bo'lib, asosan jinoyatchilik to'g'risidagi ma'lumotlarni, jinoyatchilar va Ichki ishlar organlarining faoliyat natijalari to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni qayta ishlashga moslashgan. Texnik bazalarning mukammal bo'lmaganligi va

maxsus programmalar mavjud bo'lmaganligi uchun yagona ma'lumotlar bazasini yaratish konsepsiyasini amalga oshirib bo'lmagan.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasida Ichki ishlar organlari va boshqa barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining informatsion tizimini yaratish jadal amalga oshirilmoqda. IIVda lokal hisoblash tarmoqlari va hududiy informatsion tizimlar orqali umumiy ma'lumotlar bazasiga chiqishi mumkin bo'lgan avtomatlashtirilgan ish joylari tashkil qilinmoqda. Har yili umuman olganda juda katta miqdorda hujjat qayta ishlanadi. Har bir viloyat IIBda Axborot Markazlari (I.S.)lar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan Axborot Markazlaridan tashqari shahar, rayon, Ichki ishlar bo'limlarini ham hisoblash texnikalari bilan jihozlash amalga oshirilmoqda. Ichki ishlar organlarini kompyuterlashtirish statistik ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini ham takomillashtirdi. Huquqiy jihatdan bu yagona jinoyatchilik hisobi nizomida mustahkamlangan.

Mutaxassislarning fikricha, statistik axborotlarning asosiy qismi shahar va tumanlardagi navbatchi qismlarida, tezkor xodimlarida surishtiruvchilarda, hisob jurnallarida va boshqa birlamchi materiallarda to'planadi. Aynan shahar, tuman xodimlariga hisob ro'yxatga olish va statistik ishlar yuklatilgan.

**Sudlarda statistik axborotni to'plash va qayta ishlash tartibi.** Bu ko'p pog'onali tizim, ya'ni tuman, viloyat va respublika darajasidagi sudlarni tashkil etadi. Ularning har birida statistik miqdorlarni jamlash amalga oshiriladi. Statistik axborotlarni mashinada qayta ishlash birlamchi hujjatlar hisobi kabi statistik hisobdorlikning unifikatsiyasini talab etadi. Bunday unifikatsiya oxirgi yillarda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudida jinoiy javobgarlikka tortilganlar va jazo choralari bo'yicha (F.10.1,10.2, 10.3) sudlanganlar tarkibi, jinoyat sodir etilgan joy (F.11, 11a, 12) bo'yicha ma'lumotlar mashinada shakllantiriladi va matnli va kodlashtirilgan ko'rinishda ifodalanadi. Shunday tartibda jinoiy ishlarni, fuqarolik ishlarini ijro harakatlarining statistik kartochkalari qayta ishlanishi mumkin.

Sudlardagi hisob va hisobdorlikning asosiy bosqichlari – birinchi va kassatsiya instansiyasi sudlari tomonidan statistik kartochkalarini to'ldirish, ularni kompyuterlarga kiritish, hisob ma'lumotlarni kompyuter hisobini amalga oshirish va statistik hisobotlarni berish hisoblanadi.

Statistik ma'lumotlarni nashr etish. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarni davlat va idoraviy hisobotlari 30 – yillarning boshlaridan to 80 – yillarga qadar mahfiylashtirilgan edi. 1987-yil birinchi marotaba xavfli jinoyatlarning hajmi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni nashr etishga bo'lgan ta'qiq bekor qilindi. 1989-yil sudlanganlarning umumiy soni va

ro`yxatga olingan ma'lumotlarni nashr etishga ruxsat etildi. 1990- va 91-yillarda SSSRda 1961-1990-yillar oralig`idagi jinoyatchilik va huquqbuzarliklar statistik to`plamining birinchi va ikkinchi nashrlari chop etilgan.

## **6-§. Huquqiy statistikadagi statistik miqdorlarning ishonchligi**

1. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, boshqa yuridik muassasalarning faoliyatini ochib beruvchi statistik hisobotlar qoida bo'yicha, nisbatan faktik reallikni to'liq aks ettiradi. Shunga qaramay, bu hisobotlardagi ma'lumotlar ishonchliroqdir.

Statistik miqdorlarning ishonchligi mavjud jinoyatchilik holati aksi va uning ustidan nazoratni huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan amalga oshirilishi natijasida susayishi mumkin. Bunga asosiy sabab jinoyatchilik holati va unga qarshi kurash bo'yicha yetarli darajada ishonchli miqdorlar tahlilining oshkora emasligi va jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishda juda ham aniq bo'lmagan shu miqdorlardan foydalanilishidir. Ba'zi bir mas'ul mansabdor shaxslar tomonidan jinoyatchilik to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni sun'iy ravishda kamaytirilishi yoki ko'paytirilishi jinoyatchilikka qarshi kurash yo'nalishining noto'g'ri tomonga burilishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun bu masalada qat'iy intizom, to'g'rilik talab etiladi.

Ba'zi joylarda jinoyatchilikning faktik miqdorlari jinoyatchilikdan bir necha barobar ko'p bo'lishi mumkin. Ochilgan jinoiy harakatlar jinoiy javobgarlikka tortilganlarning sonidan ko'paytirib ko'rsatilishiga yo'l qo'yilishi mumkin.

Jinoyatchilik holati va unga qarshi kurash holatining "Pozitiv" statistik ko'satkichlari, avvalo, jinoyatchilikda latentlikning o'sishi, tanlab hisobotga olinishi va ularni ochilishining murakkablashishiga bog'liqdir. Mustahkam jinoyatchilik to'g'risidagi ro'yxatni amalga oshirish jinoyatchilikni sekinlatishi yoki kamaytirishi mumkin. Agar tanlab ro'yxatga olinadigan jinoyatchilik ustidan nazoratni ham amalga oshiradigan bo'lsak, bu narsa jinoyatchilik to'g'risidagi noreal ma'lumotlarning taqdim etilishiga va aholi o'rtasida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga bo'lgan ishonch susayadi va ularning ongida salbiy (baribir hech narsa qilishmaydi) fikrlar paydo bo'ladi.

**Latent (yashirin) jinoyatchilik.** Bunday jinoyatlar sodir etilgan jinoyatlar haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan jabrlanuvchi, guvohlar, mansabdor shaxslar va boshqa fuqarolar tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga xabar berilmaganda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kelib tushgan ma'lumotlarning ro'yxatga olinmasligi va tergov o'tkazilmasligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan kelib tushgan jinoyatlarning ochilmasligi yoki noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishi natijasida yashirin holatda qolib ketadi.

Masalan, bizga qo'shni bo'lgan Rossiya Federasiyasida jinoyatchilikning latent holati oxirigi yillarda kuchayib bormoqda. Mutaxassislarining bahosi bo'yicha, 1993-y mamlakatda 8 mln. jinoyat sodir etilib ularning faqat



2,8 mln. ro`yxatga olingan. Bundan ko`rinib turibdiki, bunday ma'lumotlar bilan jinoyatchilikni kamaygan deb xulosa chiqarib bo`lmaydi.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki jinoyatchilikka qancha ko`proq etibor berilsagina undagi latentlik holatlari shuncha kamayadi. AQShda jinoyatchilikning latentligini aniqlash maqsadida 1972 yildan boshlab har yilda ikki marta ularning viktimologiyasi bo`yicha (ular jinoyat qurboni bo`lishganmi) fuqarolar va oilalar so`rab chiqilgan. Olingan ma'lumotlar shundan dalolat bermoqdaki, faktik jinoyatlar ro`yxatga olingan jinoyatlar-dan bir necha barobar yuqoridir. Bunday tartibdagi so`roqlar boshqa mamlakatlarda ham o`tkazilmoqda. Lekin hech bir mamlakatda shu vaqtgacha real jinoyatchilikning miqdorini aniqlaydigan tizim yaratilmagan.

## 4-BOB. HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLARDA STATISTIK KUZATUVNING TANLAMA USULI

### 1-§. *Statistik kuzatishning tanlama usuli nazariy asoslari*

**Tanlama kuzatish** –deyilganda statistikada o`rganilishi lozim bo`lgan to`plamdan zaruriy miqdordagi birliklarning maxsus usullar bilan tanlab olinishi va ularning butun(bosh) to`plamga tarqatilishi tushuniladi<sup>1</sup>. Masalan, bitta shahar yoki tumandagi bir yil mobaynida jinoyat ishlari bo`yicha sudlar tomonidan ko`rilgan ishlarning qonuniyligi va ular tomonidan chiqarilgan sud qarorlarini qonuniy, asoslantirilgan va adolatligini tekshirish uchun o`sha shahar sudida bir yil mobaynida jami ko`rilgan ishlarni birma bir tekshirib chiqishning o`ziga yarasha uzoq vaqtni talab etishdek salbiy tomoni bor. Bu ishni yengillatish uchun albatta tanlama kuzatishdan foydalaniladi. Tasodifiy tanlov uslubida masalan, jinoyiy ishlar bo`yicha Farg`ona shahar sudida bir yilda taxminan 800-850 ta jinoyat ishi ko`riladi deb nazarda tutsak. Shu jami ko`rilgan ishlar ichidan tanlab olish uslubi bilan 100-160 tasini tekshirilganida jami ko`rilgan ishlarning sifatiga baho berish imkoniyati paydo bo`ladi. Mana shu maxsus usul bilan tanlab olingan jinoyat ishlarining sifatiga qarab, jami ko`rilgan ishlarning sifatiga, ya`ni ularning butun ( bosh) to`plamiga baho berish imkoniyati vujudga keladi. Tanlama kuzatishni qo`llashdan maqsad vaqt va moddiy-moliyaviy mablag`larni tejash; kuzatish obyektini to`laroq, chuqurroq o`rganish hisoblanadi.

Kriminologik va ijtimoiy huquqiy ma`lumotlarni to`plashning asosiy shakli bu huquqni muhofaza qiluvchi organlarning hamda boshqa yuridik tashkilotlarning statistik hisobdorligidir. Lekin ularning, ya`ni huquqni muhofaza qiluvchi organlarning statistik hisoboti faqatgina muhim miqdorlarni aks ettirish orqali hajm jihatdan chegaralangan, ya`ni hisobotdagi ma`lumotlarni xohlagan tarzda o`zgartirish, ularga qo`shimchalar kiritish hamda bu ma`lumotlarni belgilanmagan muddatlarda talab qilib olish mumkin emas.

Yuridik soha real mavjud bo`lgan ijtimoiy hodisalarga nisbatan informatsiyaga muhtojdir. Shuning uchun ayrim dolzarb va muhim masalalar yuzasidan yetarli ma`lumot bo`lmaganda, bizga aniq va ishonchli informatsiyani olishga yordam beruvchi maxsus tashkillashtirilgan jarayon ya`ni umumiy bo`lmagan (nesploshnoe) kuzatuvni amalga oshirish lozim. Ushbu holatga tanlama kuzatuvni orqali erishiladi. Ushbu uslub boshqa uslublardan farqli o`laroq aniq va ishonchli natijalarga erishishni ta`minlaydi.

<sup>1</sup> Ё.Абдуллаев. Статистика назарияси. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2002. Б.200.

Tanlama kuzatuv uslubi aniq tarzda matematik statistika tomonidan ishlab chiqilgan. Tanlama uslub o`zining oddiyligi, arzonligi, tez fursatda amalga oshirilishi, ishonchliligi va muayyan bir aniqlikka egaligi bilan karakterlanadi.

Ommaviy axborot vositalari deyarli har kuni siyosatshunoslarning mavqei, saylovlardagi natijalar yoki insonlarning u yoki bu hodisalarga bo`lgan munosabatlari to`g`risida ma`lumot beradilar.

Ushbu ma`lumotning zamirida odatda insonlarning tanlama so`rovi yotadi.

Tanlama ma`lumotlardan asosan kriminologiya, yuridik psixologiya va sotsiologiyada foydalaniladi. Shunday bo`lsa-da, haligacha tanlama uslub yuridik tashkilotlarning amaliy faoliyatida o`z ifodasini topgani yo`q.

Tanlama kuzatuv uslubiga tushunish uchun yosh huquqshunoslar yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari ma`lum bir matematik va statistik tayyorgarlikka ega bo`lishlari talab etiladi. Bunday tayyorgarlikning asosini o`rta miqdorlar (o`rtacha miqdor) hamda variatsiya miqdorlari (o`zgaruvchan miqdorlar) tashkil etadi.

Agar shaxsda talab etilgan tayyorgarlik bo`lmasa, u tanlama kuzatuvga tushunmasligi mumkin. Chunki bu mavzular bir-biri bilan bog`liq, bo`lib bir mavzuga tushunmay turib, ikkinchisini o`qish bilan tushunish qiyin.

Tanlama kuzatuvning nazariy jihatlari ommaviy borliq va jarayonlarda shakllanadigan statistik qonuniyatlarga asoslanadi. Qonuniyatning bu qatlami "Katta sonlar qonuni" (закон больших чисел) nomini oldi. Katta sonlar qonunining matematik asosi bu ehtimollar nazariyasidir.

## 2-§. Tanlama miqdordagi xatolarni aniqlash

Statistik xatolarni aniqlash uchun statistik xatolarni tekshirish usullari mavjud. Statistik materiallarni tekshirish usullari uchta bo'lib, ular : Tashqi nazorat; mantiqiy tekshirish; arifmetik tekshirishga bo'linadi. **Tashqi nazoratda** asosan hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirilishi, ya'ni yo'riqnoma talabiga javob berish darajasi va ma'lumotlarning to'raligi tekshiriladi. **Mantiqiy tekshirish** – deyilganda statistik ma'lumotlarning mazmunini tekshirish tushuniladi. Bunda rekvizitlarga berilgan javoblar ko'zdan kechiriladi va ularda qarama-qarshiliklar bor-yo'qligi aniqlanadi. Masalan, viloyat prokuraturasiga voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar haqida hisobot berilganida voyaga yetmagan jinoyat sodir etgan shaxsning anketa ma'lumotlari to'ldirilgan rekvizitlarda 14 yoshli voyaga yetmagan shaxsning oilali ekanligi va qaramog'ida farzandlari borligi yoxud uni oliy ma'lumotga ega ekanligi yoinki, o'z yoshiga nomutanosib ish stajiga ega ekanligi haqidagi ma'lumotni qayd etilganligi bu ma'lumotni qayd qilishda xatoga yo'l qo'yilganligini bildiradi. Bunday xato esa aynan mantiqiy tekshirish natijasida qayd etilgan ma'lumotning mantiqqa to'g'ri kelmasligini aniqlanadi. **Arifmetik tekshirish** – deb o'zaro bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni son(raqam) jihatdan tekshirishga aytiladi. Masalan, tuman, shahardagi sodir etilgan jinoyatlarning yillik miqdori har oylik hisobot miqdoriga to'g'ri kelishi kerak. Arifmetik tarzda solishtirish orqali ma'lumotlarni tekshirilganida agar balans kelib chiqmasa, demak, ma'lumotlarda qayerdadir qandaydir xatoga yo'l qo'yilgan bo'ladi.

Tanlama kuzatuvni amalga oshirishda muayyan bir jarayon tanlab olinadi. Tanlama kuzatuvda ijtimoiy munosabatlarning shunday bir qismi olinishi kerakki, kuzatuv natijasida olingan ma'lumotlar o'sha holatda ijtimoiy muhitni va qonuniylikni to'liq va aniq, darajada mavjud yoki mavjud emasligini aks ettira olishi lozim.

Xatolar 3 xil bo'lishi mumkin:

1. An'anaviy (Tendensioz)
2. Muntazam(sistematicheskij)
3. Tasodifiy (sluchayniy)

Tendensioz xatolar - kuzatuvni amalga oshirish jarayonida uni amalga oshirayotgan shaxs tomonidan tanlovni noto'g'ri shakllantirishdan hamda tanlama kuzatuvda ilmiy qoidalarni bilmaslikdan yuzaga kelishi mumkin. Masalan, fuqarolarning huquqiy ongini tekshirish maqsadida anketa o'tkazuvchi shaxs vaqtdan yutishni ko'zlab bir guruh, huquqshunos talabalardan foydalanadi. Ushbu anketa xulosalari fuqarolarning huquqiy ongi darajasini to'liq aks ettira olmaydi, chunki anketa so'rovlari faqat bir

toifadagi fuqarolarga nisbatan amalga oshirilgan, vaholanki, jamiyatda turli xil bilimga ega bo'lgan fuqarolar mavjud, ularning qarashlari ham turli xil. Biz bunday tarzda amalga oshiriladigan kuzatuvni to'laonli darajada deb e'tirof eta olmaymiz.

Tanlama kuzatuv qoidalariga amal qilmaslik natijasida yo'l qo'yilgan xatoga misol qilib 1936-yilda AQShdagi Prezident saylovlarini keltirishimiz mumkin.

Bunda "Literari Dayjest" jurnali xodimlari telefon kitobidan foydalangan holda 2 milliondan ortiq, shaxsni so'rovdan o'tkazadi. So'rov natijalari bo'yicha shubhasiz London prezidentlikka saylanishi lozim edi. Sotsiologiya sohasida Gellan va boshqalar tomonidan 4000 shaxs so'rovdan o'tkazildi va Ruzvel't saylovda g'alaba qozonadi degan qarorga kelishdi va ularning taxmini o'zini oqladi. Ruzvel't prezident bo'ldi.

Bu yerda yo'l qo'yilgan asosiy xato jurnalistlar tomonidan amalga oshirilgan so'rovda telefonga ega bo'lgan boy-badavlat konservatorlar fikri olindi. Bular esa aholi qatlamining faqat bir toifasidagi shaxslaridir. 2-so'rovda birinchi so'rovga nisbatan 500 baravar kam shaxs ishtirok etgan bo'lsa-da, aholining barcha qatlamlari ishtirok etgan.

**Tasodifiy xatolar** - bu real mavjud bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni to'liq, o'rganmaslik natijasida kelib chiqadi. Tasodifiy xatolar statistik kuzatuv natijasida olingan noaniqliklardir. Bunda olingan natijalar yo yuqori darajada yoki o'ta past darajadagi miqdorlarni ko'rsatishi mumkin.

**Tasodifiy xatolar** har xil ko'rinishda bo'lib, yozuvdan tushirib qoldirish va sanashda xatolikka yo'l qo'yish, kuzatuvchining toliqishi, charchashi natijasida yuzaga chiqadi. Bunday xatolar kuzatuvni amalga oshirayotgan shaxsning faqat o'zi tomonidagina emas, balki so'roqni bevosita amalga oshirgan shaxs tomonidan ham yo'l qo'yilishi mumkin. Albatta bu xatolar o'rganilayotgan hodisaning miqdoriga ta'sir qiladi. Hodisani yo ko'p yoki oz qilib ko'rsatadi. Tasodifiy xato odatda umumiy miqdorga nisbatan nihoyatda kam sodir bo'lishi uchun yakuniy natijaga unchalik ta'sir etmaydi. Chunki tasodif bilan bir yoki ikki marta yoinki juda kam sanoqli tarzda xatoga yo'l qo'yiladi. Atayin qilingan va atayin yo'l qo'yilgan xatolar esa, maxsus to'plam natijasiga ta'sir qilish maqsadida ko'p sodir qilinadi. Shu bilan ular bir biri bilan farq qiladi.

**Muntazam xatolar** har doim bir yo'nalishda bo'ladi va umumiy miqdorlarga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi. Natijada ular haqiqatdan yi roqlashadi. Shunisi bilan bu xatolar, ya'ni muntazam xatolar xavfli hisoblanadi. Masalan, hisobotlarga qo'shib yozish yoki kam yozish oqibatida mansabdor shaxslar o'z manfaatlari yo'lida mansabni suiiste'mol qilishlari mumkin.

**Muntazam xatolar ham o`z o`rnida “bilib turib qilingan muntazam xato” ga va “bilmay turib qilingan muntazam xato” ga bo`linadi.**

**Reprezentativ xato** – deb bosh to`plam bilan tanlama to`plam natijalari o`rtasidagi tafovutga aytiladi. Bu xato tanlama kuzatishga xos hisoblanadi.

### **3.§. Tanlama yig`indisi**

Tanlama kuzatishni loyihalashtirishda oldindan berilgan tanlamadagi yo`l qo`yilishi mumkin bo`lgan xatosida tanlama to`plamning soni (hajmi)ni to`g`ri aniqlash juda muhimdir, chunki bu kuzatishning natijalarini ma`lum ehtimollik bilan aniq bo`lishini ta`minlaydi. Tanlamaning zaruriy miqdorini aniqlash formulalarini bevosita tanlamaning xatosi formulasidan osonlik bilan topsa bo`ladi.

Shunday qilib, takrorlanuvchi tanlama uchun tanlamaning zaruriy xatosi formulasidan qiyinchiliksiz (oldindan tenglikning ikki tomonini kvadratga oshirib) tanlamaning zaruriy sonini ifodalash mumkin.

#### 4-§. *Tanlash turlari*

Tanlama miqdorlarning ishonchliligi kuzatiladigan holatlar majmuini tanlash qoidalariga rioya etishga bog'liqdir. Tanlamaning tasodifiy (sluchayniy) uslubida uni tashkil etish va o'tkazish jarayonida juda katta ehtiyotkorlikni talab etadi.

Shaxsiy tasodifiy tanlovga (Собственно случайный отбор) lotoreya, jerebyovka yoki tasodifiy sonlar ro'yxatidan foydalanishini misol qilib keltirishimiz mumkin. Masalan, tanlama anketa so'rovlarini o'tkazish jarayonida fuqarolarning raqamlangan ro'yxati olinadi va alohida qogozlarga ular ro'yxatda turgan raqam yoziladi. Jerebevka jarayonida aniqlangan sonlar kimga tegishli bo'lsa, shu shaxslar tanlama anketa so'rovidan o'tkaziladi.

**Mexanik tanlov** (Механический отбор) - mexanik tanlovda asosan ma'lum bir munosabat yoki munosabat majmui olinadi va ularni bo'lish natijasida hosil bo'lgan sonning oxirgisi olinadi. Masalan, umumiy holatlar bo'yicha 5000 ta statkarta mavjud. Tanlama uslubda esa 250 ta birlik bo'yicha tanlov o'tkazilishi kerak. Bunday holatda 5000:250h20. Hosil bo'lgan son, ya'ni 20-statkarta olinadi.

**Tipik tanlov** (Типический отбор) - bunda asosan tanlovni amalga oshirish jarayonida tanlov o'tkazilayotgan x,olatlarning alohida belgilariga nisbatan tanlov o'tkazilishi nazarda tutiladi. Masalan, sodir etilgan jinoyatlarni oladigan bo'lsak, har bir jinoyatchi qaysi sohada jinoyat sodir etgan bo'lsa, ya'ni o'g'rilik, odam o'ldirish yoki nomusga tegish, ularni alohida guruhlaymiz va uni guruhdan tasodifiy yoki mexanik tanlov uslubi yordamida shaxs tanlaydi. **Tipik tanlov** ba'zan **qatlamli** (rassloenniy) yoki **stratifik** (стратифицированный) deb nomlanishi mumkin.

Tanlama kuzatuv butun dunyo bo'ylab tarqalgan. Kriminologik, deliktologik, ijtimoiy-huquqiy hamda boshqa yuridik faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar tomonidan tanlama kuzatuv uslublarining o'zlashtirilishi bu - biz uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Ushbu uslublarni namunali va oqilona qo'llagan holda biz kam kuch va vositalardan foydalanib, qisqa vaqt ichida ishonchli ma'lumotlar olishimiz mumkin.



## 5-BOB. HUQUQIY MA'LUMOTLARNI TO'PLASHNING IJTIMOIY USULLARI

### 1-§. *Statistik kuzatish usullari va ulardan huquqiy tekshirishlarda Joydalanish. Yuridik ma'lumotlarni olishning sotsiologik metodlari*

Statistik kuzatuv usullari tizimida sotsiologik metodlar alohida ahamiyat kasb etadi. Sotsiologik metodlar asosan huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa yuridik muassasalarning rasmiy hisobotlarida mavjud bo'lmagan yuridik ahamiyat kasb etuvchi axborotlarni maxsus tashkiliy usullarda o'rganish va olishdir.

Sotsiologik metodlar jamiyat hayoti taraqqiyot tendensiyalarini va qonuniyligini tanlanma usullarda tahlil etadi. Keyingi yillarda sotsiologik fan sohasidagi bilimlarni rivojlanishi va to'planishi natijasida ayniqsa, jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida, avvalo, mamlakatda keng doiradagi tadqiqotlar o'tkazishning sotsiologik metodlari bilan bog'liqdir. Yuridik va kriminologiya sohaslarida qo'llaniladigan sotsiologik metodlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- turli shakllardagi so'roqlar o'tkazish;
- sotsiologik kuzatuvlar;
- sotsiologik eksperimentlar va boshqalar.

Statistik kuzatuvning vazifasi o'rganilayotgan faktlarning (alohida faktlarning) yig'indisini qayd qilish (masalan, jinoyatlarni) va ularning tavsiflovchi belgilarni qayd qilish (jinoyat kvalifikatsiyasini jinoyat sodir etilgan vaqti va joyi keltirilgan zarar va h.k.)

Bularning barchasi statistik tadqiqotning aniq maqsadini belgilab beradi. Ma'lumki, har qanday sana turli xil nuqtai nazardan o'rganishi turli xil maqsadlarda tekshirilishi mumkin. Masalan, jinoyatchilikni o'rgana turib o'z oldiga jinoyatchiga tavsif berishini uning shaxsini tekshirishni yoki jinoyatlarni keltirib chiqargan sabab va shart- sharoitlarni o'rganishni yoxud ayrim jinoyatlarni sodir etishi usulini aniqlashni maqsad qilib qo'yadi.

Deylik, talon-taroj va uning natijasida yetkazilgan zarar miqdori va boshqalar. Ma'lumki qo'yilgan maqsadlardan kelib chiqib birinchi holatda qayd qilish boshqasida jinoyat belgilarini qayd qilish lozim bo'ladi.

Kuzatuv maqsadi aniqlanganda uning shakl va usullari masalalari kelib chiqadi. Statistik kuzatuvning quyidagi shakllari mavjud:

- hisobdorlik
- maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuv.

Statistik kuzatuvning hisobdorlik shaklida har bir quyi bo'g'in yagona tasdiqlangan shaklda va qat'iy belgilangan muddatda yuqori turuvchi

organga tegishli hujjatli asoslantirilgan ma'lumotlarni taqdim etishi shart hisoblanadi. (quyi turuvchi sud, prokuratura idoralari yuqori turuvchi sud, prokuratura idoralari hisobot berishi).

Hisobdorlik o'z ichiga qator statistik miqdorlarni qamrab olib reja va topshiriqlarni doimiy nazorat qilishda, kundalik tezkor rahbarlikni amaga oshirishda turli xil tadqiqotlarda katta ahamiyatga ega. (masalan sud, prokuratura faoliyatining samaradorligi).

Statistik kuzatuvning ikkinchi shakli, ya'ni maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuv yordamida turli xil ro'yxatga olishni tekshirish, masalan, jami jinoyatlar ichida maxsus tashkil etilgan statistik kuzatuv orqali voyaga yetmaganlar tomonidan sodir bo'lgan huquqbuzarliklarni tekshirish hisoblanadi. Bunda ro'yxatga olish natijasida olingan hujjatlar kuzatilgan jarayonlarni chuqur o'rganish, shuningdek, hisobdorlik miqdorlarini oydinlashtirish uchun foydalaniladi (masalan, aholi tarkibidagi o'zgarishlar)

Maxsus tashkil etilgan shakldan tashqari statistik kuzatuvning ikkita turini ajrata bilish lozim. Bular:

- mulksiz yoki joriy;
- mulkli yoki bir yo'la.

Birinchi holatda ko'rsatilayotgan hodisalar ularning vujudga kelishiga qarab uzluksiz qayd qilinadi.

Ikkinchi holatda esa hodisalarning holati muayyan sana bo'yicha hisobga olinadi. Masalan, har bir jinoyat prokuratura, sud, Ichki ishlar organlari tomonidan aniqlangan zahotiy oq o'rnatilgan tartibda darhol hisobga olinadi.

Kuzatuv qandaydir hodisalarning muayyan sanaga nisbatan holatini aks ettiradigan kuzatuvlar vaqti- bilan takrorlanib turadigan qator misollarni keltirish mumkin.

Misol tariqasida aholini ro'yxatga olishda aholi sonini muayyan sanaga qayd qilish (masalan, 1970-yil 14-yanvardan 15-yanvarga o'tar kechasi soat 12.00 ga butun ittifoq aholisini ro'yxatga olish).

Bunday statistik kuzatuv turi bir yo'la kuzatish deyiladi. Agarda u vaqti-vaqti bilan takrorlansa, uni davriy bir yo'la kuzatuv deb atash mumkin.

Statistik hujjatlarni olish 3 usul bilan o'tkaziladi:

A) bevosita kuzatuv. B) so'rov o'tkazish. C) hujjatli usul.

Bevosita kuzatuv o'z nomidan kelib chiqib bevosita kuzatuv asosida o'zimizni qiziqtirgan belgilarni qayd qilish, ya'ni tortib ko'rish; o'lchash, sanab chiqish va boshqalar hisoblanadi.

Masalan, har qanday ishlab chiqarish korxonasida tayyor mahsulotlar hisobi bevosita kuzatuv natijasida olib boriladi, o'lanadi tortiladi, sanab chiqiladi.

Albatta, har qanday kuzatuvni bevosita amalga oshirib bo'lmaydi. Shuning uchun o'rganilayotgan masalalar so'rov o'tkazish usuli orqali ham amalga oshiriladi.

So'rov o'tkazish korrespondentlik uslubi orqali kuzatuv obyeksi va subyekti o'rtasidagi aloqalarni yozma ravishda tekshirishlari orqali amalga oshiriladi.

Maxsus shaxslar (korrespondentlar) belgilangan muddat ichida zaruriy ma'lumotlarni statistik tashkilotlarga yuborishadi. Ushbu uslub qator ilmiy muassasalarda qo'llaniladi.

Hujjatli uslubda statistik hujjatlar, yozuv hujjatlar, kartochkalar, formulalar, varaqalar asosida amalga oshiriladi. Hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan bu uslub tariqasida natijalarni aniqroq bo'lishini kafolatlaydi. Statistik kuzatuvlar birgalikda o'rganilayotgan birliklarni qamrab olishi bo'yicha yoki boshqacha aytganda, u yoki bu hodisalar tekshirishining to'liqligi bo'yicha kuzatuvni quyidagicha bo'lishi mumkin.

I To'liq

II Qisman. Qisman kuzatish quyidagi turlarga bo'linadi.

1- tanlash

2- anketalash

3- asosiy massivni tekshirish

4- monografik

To'liq kuzatuv birlikda o'rganilayotgan tarkibga kiruvchi barcha birliklarni mukammal 100% istisnosiz qayd qilishdan iboratdir. To'liq kuzatuvga surishtiruv va prokuratura organlariga ma'lum bo'lgan jinoyatlarni qayd qilish misol bo'la oladi. Bu jinoyatlarni to'liq 100% qayd qilinishi lozim. Bir qancha sabablarga ko'ra (vaqtni, mablag'ni tejash) to'liq kuzatuvning imkoni bo'imaganligi uchun tez tanlov kuzatuvni o'tkaziladi. Uning mohiyati shundan iboratki, bizni qiziqtirayotgan biron bir belgining bir qismi qayd qilinadi. Statistika nazariyasi va tajribasi shuni ko'rsatadiki, tanlov ko'rsatuvni to'g'ri tashkil etilsa, ilmiy va ommaviy ishlarda foydalanishga to'liq yarakli, ishonchli ma'lumotlar beriladi. Qisman (nesplashnoy) kuzatuvga kamdan kam uchraydigan asosiy massivni tekshirishi kiradi. Masalan, biron bir vazirlik bo'yicha ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini aniqlashda shu vazirlik tasarrufida yirik korxonalarni qayd qilish (hisobiga olish) kichiklarini hisobga olmaslikni umumiy natijaga katta darajada ta'sir qilmaslikni hisobga olib uni qayd qilmaslikni misol qilsak bo'ladi.

## **2-§. So`roq. So`roq metodlari va ularning yuridik izlanishlarda qo`llanilishi**

**So`roq** bu empirik ma'lumotlarni olishning keng tarqalgan maxsus sotsiologik metodidir. U keng doiradagi fuqarolar, saylovchilar, yuridik muassasalar xodimlari, huquqbuzarlar, jabrlanuvchilar, sudlanganlar, mahkumlar va boshqalardan kriminologik va ijtimoiy - huquqiy izlanishlarda foydalaniluvchi jamoatchilik fikrini olishdir. Bu metod orqali:

1) rasmiy hisobot va boshqa hujjatlarda mavjud bo`lmagan ma'lumotlarni olish;

2) qisqa muddat va kam xarajat qilgan holda o`rganilayotgan shaxslarni so`roq qilib olish mumkin;

3) olinadigan ma'lumotlarning analizi va umumlashtirishni osonlashtirish uchun uni o`tkazishning turli shakllarini qo`llash mumkin.

So`roq orqali quyidagilar aniqlanishi mumkin: jinoyatchilik va huquqbuzarliklar haqida jamoatchilik fikri, latent jinoyatchilik profilaktik tadbirlarni samaradorligi va jinoiy jazo usullari haqida, so`roq, qilinayotganlarning axloqiy normalarga, huquqqa, o`rnatilgan huquq tartibotga, xizmat vazifalariga munosabati; huquqbuzarlar, davoglarlar, javobgarlar va jabrlanuvchilarning kayfiyati, huquqiy ongi, maqsadi va sodir etish motivlari haqida. So`roqda har qanday aqli raso shaxs jalb qilinishi mumkin. So`roqlar odatda suhbat, intervyu va anketalar shaklida o`tkaziladi.

So`roq qilish usuli orqali ma'lumot to`plashning savol-javob usuli deb ham ataladi. Savol-javob usulida kuzatilayotgan shaxslarga savollar berilib, olingan javoblar asosida kuzatish varaqalari to`ldiriladi. Bu holda hech qanday hujjat talab qilinmaydi. 1989-yilga aholi ruyhatini o`tkazishda hisobchilar har bir oilaga kirib ro`yxat varaqasini yashovchilardan so`rab to`ldirganlar.

### **3-§. Suhbat**

Suhbat orqali ma'lumot to'plashda savollar ilgaridan bir tartibga keltirilib, mujassamlashtirilmagan bo'ladi. Bemalol so'zlashish orqali fikrlar olinadi. Suhbat ham og'zaki o'tkaziladi. Suhbat orqali ma'lumot to'plash bu erkin fikr orqali hali yakuniy bir to'xtamga kelinmagan va umuman yangi bo'lgan fikrlarni ham aniqlanishi mumkin.

1. Suhbat metodi. Bunda suhbat o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach o'tkazadi. Bu metod so'roq o'tkazuvchidan so'roq, qilinuvchilar bilan psixologik munosabatga kirishish uchun maxsus bilim talab qiladi. Bu metod orqali olingan ma'lumotlar har doim ham samarali bo'lavermaydi, chunki so'roq; o'tkazuvchi ayrim hollarda suhbatdoshini shaxsiy hayotiga doir savollar berishga majbur bo'ladi, bu esa har doim ham ular tomonidan ijobiy qabul qilinmaydi. Lekin mohir so'rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Suhbat metodining afzalligi shundaki, uning yordamida o'rganilayotgan savol bo'yicha aniqlashtirilgan va chuqurroq javoblar olish mumkin. Amaliyotda suhbat ma'lumotlar olishning norasmiy shakli sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlarda, sudlarda, advokaturada va boshqa yuridik muassasalarda keng doirada qo'llaniladi. Bu o'rinda suhbat, avvalo, bizni qiziqtirayotgan savol bo'yicha axborotlar olish maqsadiga qaratilgan bo'ladi.

#### 4-§. Intervyu

Intervyuda aniq savollar ilgari tayyorlangan bo`ladi va bu tayyorlangan savollarga javoblar yozib olinadi. Intervyuda aniq savollarga aniq javoblar beriladi. Suhbat chog`ida erkin mulohaza bo`lib, o`rtaga tashlangan masala yuzasidan turli tomondan yondashilsa va yana shunga o`xshash boshqa masalalar haqida ham so`zlashilsa, intervyyuda, respondent oldiga aniq savollar qo`yilishi va shu savollar mazmunidagi masaladan nariga o`ta olmasligi bilan farqlanadi.

Intervyu - bu ham yuqorida keltirilgan maqsadlar yo`lida qat`iy ishlab chiqilgan savollar bo`yicha o`tkaziladi. Jamoatchilik fikrini shakllantirish borasida suhbat va intervyyu o`rtasidagi farq shartlidir. Intervyyu suhbatdan farqli ravishda o`zining qisqa muddatligi, qat`iy programmalashtirilganligi va chegaralangan savollardan iboratligi bilan ajralib turadi. So`roq qilishning bu metodi orqali qisqa muddat ichida keng doiradagi so`roq qilinuvchilarni qamrab olish va bir-biriga solishtirib analiz qilishni osonlashtiruvchi ma`lumotlarga ega bo`lish mumkin. Bu metodning yana bir afzalligi shundaki unda so`roq qilinuvchilar bilan psixologik aloqa bo`lmaydi va ular erkin fikr bildirishadi.

Intervyyuni bir necha turlarga bo`lishadi. Bular:

- a) erkin;
- b) standartlashtirilgan;
- v) panelli;
- g) guruhlashtirilgan.

**Erkin intervyyu** - muayyan maqsadli so`roqning qisqartirilgan shakli bo`lib, o`tkazuvchi tomonidan beriladigan savollarga erkin ravishda ixtiyoriy javoblarni berishidir. Bunda nimalarni so`ralishi oldindan qat`iy belgilab olinmaydi.

**Standartlashtirilgan intervyyu** bunda muayyan maqsadga yo`naltirilgan so`rov usuli qat`iy tartibda belgilangan va barcha uchun bir xil shaklda bo`ladi. Ularga javoblar aniq va to`liq bo`lishi kerak. Ularning javoblari quyidagi ko`rinishlarda bo`lishi mumkin: "ha", "yo`q;" so`zlari orqali, ball shaklida (1,2,3,4,5 va h.k.) yoki belgilar (+ -) tizimida.

**Panelli intervyyu** - bu bir shaxs bilan bir yo`nalishdagi savollar bo`yicha takroran bir necha marotaba, uni vaqt bo`yicha fikr va qarashlari o`zgarishini tekshirish maqsadida o`tkaziladi. Bu metod jinoiy javobgarlikka tortilgan shaxslardan ularni sodir etgan ijtimoiy xavfli qilmishiga nisbatan munosabatini bilish uchun o`tkazilishi mumkin.

**Guruhlashtirilgan intervyyu** - bunda so`roq o`tkazuvchi muayyan bir guruh vakillarining fikrini oladi. Bu metodda asosan guruh liderlarining

ijtimoiy-psixologik ta'sirlari yordamida muayyan bir guruh qarashlari va intilishlari aks ettiriladi.

22

## 5-§. Anketa

Anketa orqali kuzatishda kuzatilayotgan kishilarga oldindan aniqlanishi lozim bo'lgan savollar to'ldirilgan maxsus tayyorlangan varaqalar tarqatiladi. Masalan: Sudyalar va prokurorlar o'rtasida jinoyat ishlarining sudda ko'rilishida prokuror ishtirokining shartligi va albatta ishtirok etishi kerakmi yoki yo'qmi degan savolga, anketaga qarab javob beruvchi ha yoki yo'q deb javob berishi mumkin. Yuridik institut yoinki huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha tadqiqot olib borayotgan olimlar ham amaliyotchilar va nazariyotchilarga anketa uslubida o'zi muhokama qilmoqchi bo'lgan masalasiga oydinlik kiritib olishi mumkin.

**Anketa.** Uning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Anketa so'rov va intervyuga nisbatan o'ta qat'iy programmalashtirilganligi bilan ajralib turadi. Sud, prokuratura, militsiya organlari faoliyatida viktimologiya va jinoyatchilik sabablarini aniqlash maqsadida o'zoro bog'liq bo'lgan yuridik ahamiyatga ega savollarni o'z ichiga oladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa) yoki o'z erkin fikrini bayon etish imkonini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajdasiga monand tuzilishi kerak. Anketa tuzilishi shartli ravishda kirish, status, asosiy va xulosa qismlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Kirishda, so'roq, qilinuvchilarga tushuntirishlar, javob berish tartiblari keltiriladi. Status qismida so'roq qilinuvchi to'g'risida to'liqroq, ma'lumot olish va uning jamiyatda tutgan mavqeini bilish uchun qo'shimcha ijtimoiy-demografik savollar kiritiladi. Asosiy qismda o'rganiluvchi savollar joylashtiriladi. Xulosa qismida so'roq qilinuvchiga ushbu savollar yuzasidan qo'shimcha fikrlar bildirish imkoniyati beriladi.

Anketaning status qismi majburiy emas. Ijtimoiy-demografik savollar so'roq qilinuvchi bilan aloqani murakkablashtirib, erkin fikr bildirish imkoniyatini cheklaydi. Shundan kelib chiqib ko'pincha ushbu qism anketada mavjud bo'lmaydi.

**Asosiy qism savollari uch turga bo'linadi:**

- a) **dixotomik**
- b) **ochiq;**
- c) **yopiq.**

Sudlarda, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda o'tkaziladigan anketali so'rovlar asosan yopiq, savollarni, ya'ni savollarga muayyan javob variantlari beriladi. Masalan: yosh sudyalar anketa tarzida so'roq qilinganda "quyidagilardan qaysi birlari sud xodimlari uchun to'g'ri



kelmaydigan xarakterlardir". Ketma-ket joylashgan 10 ta xarakter javob tariqasida ko`rsatilgan. Ular: qat'iyatsizlik, qo`pollik, harakatsizlik bog`liqlik o`z-o`ziga ishonch kabi savollar tarzida bo`lgan. Bunday savollar, shuningdek, huquqbuzarlarga ularning qarashlari va fikrlarini bilish uchun ham o`tkaziladi.

Anketa savollari o`zining shakli va funksiyalariga qarab to`g`ri va egri, shaxsiy va noshaxsiy, asosiy, nazorat va qo`shimcha bo`lishi mumkin. Ularning barchasi qat'iy shakllantirilganlik va tushunarli bo`lishlikni talab etadi. Yuqoridagi talablarga rioya qilmaslik noto`g`ri javoblar berilishiga va nihoyat obyektiv bo`lmagan ma'lumotlarni keltirib chiqaradi.

Ko`rilayotgan so`roq turi o`tkazilish jarayoni bo`yicha og`zaki va yozma, to`liq va tanlanma, ochiq hamda anonim turlariga bo`linadi. Ularning har biri o`z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Masalan: og`zaki so`rov juda samarali bo`lishi mumkin, biroq juda ko`p vaqt va kuch talab qilinadi. Yozma turi keng doiradagi respondentlarni qamrab olishi mumkin, biroq anketalarning ko`pligi va ba`zi hollarda noaniqliklar umumiy xulosa chiqarishni qiyinlashtiradi. Anonim shakldagilari esa (so`roq, qiluvchining ma'lumotlari bo`lmaganligi uchun) savollar bo`yicha aniq, lekin javoblar berilishida ularning doirasini aniqlashga imkoniyat bermaydi.

Tanlanma so`roq; eng keng tarqalgan anketa usulidir. Bu metod vaqt, kuch va xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi va sifatli, aniq; javoblar olishga imkoniyat yaratadi. Masalan: shahardagi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining darajasini aniqlaydigan bo`lsak. Ularni sonini 10 mingta deb olamiz (N), qonunlarga rioya qiluvchilar miqdori (R) 10% yoki 0,1 ga teng. Shundan kelib chiqib tanlab o`tkaziladigan so`rovga 0,954 tasini tanlab olamiz.

Tanlanma so`rov latent jinoyatchilikni va aholining viktimologiyasini anshlashda keng tarqalgan. Anketa usuli huquqda va kriminologiyada boshqa so`roq usullariga nisbatan bir necha afzalliklarga egadir. Uning yordamida: 1) qisqa vaqt, kam xarajat va kam kuch sarf qilgan holda keng doiradagi shaxslar so`roq qilinishi mumkin; 2) yaxshi shakllangan, konkret bo`lgan va EHMlarda natijalarini tahlil qilish imkonini beradigan javoblar olish; 3) so`roqni jamoaviy shaklda maktablar va kollektivlarda o`tkazish imkoniyati. Uning asosiy kamchiligi javoblarni subyektiv xarakterga egaligida.

Quyida Toshkent davlat yuridik institutida "Birinci instansiya sudlarida jinoyat ishlari ko`rilishida prokuror ishtiroki" mavzusida yuridik

fanlari nomzodligi dissertatsiyasini yoqlagan O.M.Madaliyevning o'z dissertatsiya ishi yuzasidan olib borgan tadqiqot anketa jadvalini misol qilib keltiramiz:

2001-2003-yillar va 2004-yilning 9 oyi mobaynida 258 ta huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari (5 ta viloyat prokurorlari va ularning o'rinbosarlari, 42 ta tuman va shahar prokurorlari, 65 ta mahkama prokurorlari, 27 ta prokuratura tergovchilari, 38 ta prokuror yordamchilari, 43 ta sudyalari, 28 ta IIB tergovchilari, 10 ta sud maslahatchilari)ning so'rov (miqdor miqdorlari % hisobida)

### NATIJASI

№	Savollar mazmuni	Prokuratura xodimlari										Sud xodimlari				IIB tergovchilari	
		Viloyat prokurorlari va ularning o'rinbosarlari		Tuman va shahar prokurorlari		Mahkama prokurorlari		Prokuror yordamchilari		Prokuratura tergovchilari		Sudyalar		Sud maslahatchilari		Ha	Yo'q
		Ha	Yo'q	Ha	Yo'q	Ha	Yo'q	Ha	Yo'q	Ha	Yo'q	Ha	Yo'q	Ha	Yo'q		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
1	Sudlarda ko'rilayotgan barcha jinoyat ishlarida prokuror ishti-ropi majburiy bo'li-shi kerakmi?	4 80%	1 20%	37 87%	5 13%	59 90%	6 10%	35 92%	3 8%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	28 100%	0 0%
2	Sudda qatnashadigan "davlat ayblovchisi" terminini "ayblov-chi" deb o'zgarishi maqsadga muvofiq bo'ladimi?	3 65%	2 35%	32 75%	10 25%	57 87%	8 13%	36 94%	2 6%	25 93%	2 7%	43 100%	0 0%	10 100%	0 0%	28 100%	0 0%
3	Ish hajmi ko'pligi sababli barcha ishlar-da prokuror qatnasha olmasligini nazarga olib, surishtiruvchi yoki tergovchi o'zi tugatgan jinoyat ishi bo'yicha sudda davlat ayblovini quvvatla-shi maqsadga muvofiq bo'ladimi?	0 0%	5 100%	0 0%	42 100%	1 2%	64 98%	0 0%	38 100%	0 0%	27 100%	1 1%	42 99%	0 0%	10 100%	10 35%	18 65%

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
4	Davlat ayblovini to'liq ta'minlash uchun qo'shimcha davlat ayblovchilari korpusini tashkil etishi kerakmi?	4 80%	1 20%	38 90%	4 10%	57 87%	8 13%	36 94%	6 2%	23 85%	4 15%	38 87%	5 13%	10 100%	0 0%	26 92%	2 8%
5	Faqatgina davlat ayblov bilan shug'ul-lanuvchi alohida shtat bilan prokuror yordamchisi joriy qilinishi kerakmi?	4 80%	1 20%	38 90%	4 10%	57 87%	8 13%	36 94%	6 2%	23 85%	4 15%	38 87%	5 13%	10 100%	0 0%	26 92%	2 8%
6	Bevosita jinoyat ishida ayblovchi sifatida qatnashgan prokurorga protest kiritish huquqi berilsa to'g'ri bo'ladimi?	4 80%	1 20%	37 87%	5 13%	59 90%	6 10%	35 92%	3 8%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	28 100%	0 0%
7	Ayblov nutqining shaklini qonun bilan mustahkamlash kerakmi?	5 100%	0 0%	42 100%	0 0%	59 90%	6 10%	36 95%	2 5%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	26 95%	2 5%
8	Sud muhokamasining tayyorlov qismida ayblov xulosasini prokuror o'qib eshittirsa maqsadga muvofiq bo'ladimi?	5 100%	0 0%	42 100%	0 0%	65 100%	0 0%	38 100%	0 0%	27 100%	0 0%	43 100%	0 0%	10 100%	0 0%	28 100%	0 0%
9	Sud majlisi bayonnomasiga mulohaza bil-dirish amaliyotda erkin tarzda yoziladi, mulohaza bildirishning ma'lum bir shaklini qonun bilan belgilash kerakmi?	4 80%	1 20%	38 90%	4 10%	59 90%	6 10%	36 95%	2 5%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	28 100%	0 0%
10	Prokuror sudlanuvchiga o'z muzokarasida tayinlanishi lozim bo'lgan jazo turi.	4 80%	1 20%	37 87%	5 13%	59 90%	6 10%	35 92%	3 8%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	26 90%	2 10%

	muddati, jazoni o'tash joyini ko'rsatib o'tishi yoki suddan talab qilishi kerakmi? Yoki aybdor deb topilishiga erishishni o'zi zararli?																
11	Birinci instansiya sudlarida jinoyat ishlari ko'rilishida videoyozuvdan albatta foydalanishni joriy qilish kerakmi?	5 100%	0 0%	42 100%	0 0%	59 90%	6 10%	36 95%	2 5%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	26 95%	2 5%
12	Birinci instansiya sudlarida og'ir va o'ta og'ir toifadagi jinoyat ishlarini ko'rilishida videoyozuvdan albatta foydalanishni joriy qilish kerakmi?	5 100%	0 0%	42 100%	0 0%	59 90%	6 10%	36 95%	2 5%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	26 95%	2 5%
13	Yoki boshqa ovoz yozish qurilmalaridan foydalanish kerakmi?	5 100%	0 0%	42 100%	0 0%	59 90%	6 10%	36 95%	2 5%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	26 95%	2 5%
13	Suddan ayblovni isbotlash funksiyasini olib tashlash kerakmi?	4 80%	1 20%	38 90%	4 10%	59 90%	6 10%	36 95%	2 5%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	28 100%	0 0%
14	Ayblov xulosasi jabrlanuvchi yoki uning qonuniy vakili yoxud himoyachisiga berilishini ta'minlash yuzasidan JPKga o'zgartirish kiritish kerakmi?	4 80%	1 20%	37 87%	5 13%	59 90%	6 10%	35 92%	3 8%	26 95%	1 5%	42 98%	1 2%	9 90%	1 10%	26 90%	
15	G'ayriqonuniy, asoslanmagan va adolatsiz sud qaroriga nisbatan kiritiladigan "protest" so'zini "norozilik arizasi" deb o'zgartirsa bo'ladimi?	3 65%	2 35%	32 75%	10 25%	57 87%	8 13%	36 94%	2 6%	25 93%	2 7%	43 100%	0 0%	10 100%	0 0%	28 100%	0 0%

## **6-§. Tanlama so`roq**

Tanlama kuzatish deyilganda umumiy bosh to`plamdan bir qismini ilmiy asoslangan, vakolatlikni to`la ta`minlab beradigan usullar yordamida tanlab olib tekshirish tushuniladi. U to`g`ri tashkil etilsa, olingan natijalar umumiy to`plam haqida to`la-to`kis va aniq fikr yuritish imkoniyatini beradi<sup>1</sup>. Tanlama so`roqda yuridik sohadagi prokurorlik faoliyatining sudda ishtiroki bo`yicha yoinki, aniqroq qilib aytganda, yuqori turuvchi instansiya sudidagi prokurorning protsessual holati muammolari xususida ma`lumot olish (so`roq qilish )zaruriyati paydo bo`lsa, unda so`roq qilinuvchilar albatta tanlab olinishi, ya`ni aynan shu sohani yaxshi biladigan va shu sohaga bog`liq bo`lgan muammolarning echimi to`g`risida fikr yurita oladigan shaxslar toifasini tanlab so`roq qilish lozim. Masalan, ayni holatda, davlat ayblovi bilan shug`ullanuvchi prokuratura xodimlarini va jinoyat ishlarini ko`ruvchi sudyalarni, xalq maslahatchilarini, advokatlarni tanlab so`rash maqsadga muvofiqdir.

---

<sup>1</sup> Абдуллаев Ё. Статистика назарияси Т.: Мехнат 2000. -Б. 48.

### **7-§. *Yurisprudensiyada sotsiologik kuzatish va ijtimoiy tajriba***

Yurisprudensiyada sotsiologik kuzatish jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini jinoyatchilik va qonuniylikni amalga oshirishda paydo bo'lgan muammolarni hal etish uchun amalga oshiriladi. Masalan, fuqaroviy huquqiy munosabatlarni hal etishda, fuqarolarning mulkiy huquqlarini himoya qilish maqsadida shartnoma asosida nikoh tuzish masalasini aholi o'rtasida qanchalik darajada o'zlashtirilganligini sotsiologik tarzda kuzatilsa, bu qonun talablari qanday darajada bajarilayotganligi, qanday samara berayotganligi aniqlanishi mumkin. Bu sotsiologik kuzatish natijasida nikoh tuzishdan maqsad oila qurishmi yoki mol-mulkka ega bo'lish yoki boshqa g'araz maqsad bormi aniqlasa bo'ladi. Shuningdek, "o'lim jazosi qoldirilishi kerakmi yoki yo'qmi" degan savolga javob topish uchun sotsiologik so'rov o'tkazilsa, aholining huquqiy ongi darajisini ham aniqlab olish mumkin. Sotsiologik kuzatish va ijtimoiy tajribada esa, amaliyotdagi aniq bir muammoni hal qilishga qaratiladi. Masalan: jinoyat ishlari bo'yicha birinchi instansiya sudlari jarayonini albatta videokamera orqali videoyozuvga olish va apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiya sudlariga bu videomateriallarni taqdim qilish shartligi holati sotsiologik kuzatilsa va ma'lum bir tuman sudida ijtimoiy tajriba o'tkazilsa, albatta, shu sud tomonidan hujjatlarni sohtalashtirish va adolatsiz jazo tayinlash holatlari keskin kamayishiga olib keladi. Balki, deyarli yuqori bosqich instansiya sudi tomonidan aniqlanishi va adolatli qaror qabul qilinishining poydevorini yaratib berilishi mumkin. Huquqshunoslikda ijtimoiy tajriba o'tkazilayotganda avval, albatta ma'lum bir kichik obyekt doirasida amalga oshiriladi. Samaradorligiga aniq ishonch hosil qilingandan keyingina amaliyotga keng tarzda tatbiq etilishi muhokama etiladi. Jinoyatchilikning oldini olish yuzasidan ham prokurorlar tomonidan shunga o'xshash ijtimoiy tajribalar o'tkazilishi va ijobiy amaliyot tariqasida keng tarqatilishi holatlari mavjuddir.

Sotsiologik kuzatuvlarni eng tabiiy va hayotiy metodlar jumlasiga kiritamiz. Chunki biz hayotda o'rgangan ko'p odatlarimiz, harakatlarimizning asosida o'zining bilib-bilmay kuzatgan, xotiramizda shu tarzda olib qolgan ma'lumotlarimiz yotadi. U ijtimoiy-huquqiy va kriminologik tadqiqotlarning eng samarali empirik usulidir. Huquqiy va kriminologik kuzatuv o'zining tarkibi bo'yichagina ommaviy kuzatuvdan farqlanadi. Huquqiy va kriminologik kuzatuvning maqsadi va predmeti boshqacha bo'ladi. Ularga o'rnatilgan qonunlarga rioya qilinishi ustidan kuzatuv, fuqarolarni huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar, prokuratura va boshqa yuridik muassasalarga nisbatan munosabatini kuzatishlarni kiritish mumkin. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar

tomonidan kuzatuv va boshqa shunga o`xshash metodlarni qo`llash orqali jinoyatchilikni o`rganish, tahlil qilish va unga qarshi kurash choralarini ishlab chiqishga yordam beradi.

Kuzatuvlar to`liq, kiritilgan va kuzatuv ishtiroki kabi shakllarda bo`lishi mumkin. Masalan: fuqarolarning sodir etilgan jinoyatlar haqida prokuratura va ichki ishlar xodimlariga xabar berishlari izchilligini. Kiritilgan shaklda ijtimoiy-huquqiy va kriminologik hodisani ichkaridan aktivdir. Bunday holatda ko`proq jurnalistlar izlanishlar olib borishadi. Kuzatuv ishtirokchisi shaklida esa kuzatuvchi nafaqat shu muhitda yashaydi, balki o`zi ham faol ishtirok etadi.

Kuzatuv natijalarini qayd etish uncha murakkab emas. Ular maxsus ishlab chiqilgan kartochkalar, kundalikda yoki texnik vositalar orqali amalga oshirilishi mumkin. U maxsus matematik hisob vositalarini talab qilmaydi, uni kuzatuv natijalari soni bilan qayd etish kifoyadir.

**Sotsiologik eksperiment.** Uni qo`llanilishi doirasi boshqa umumiy fanlarnikiga nisbatan cheklangandir. Uni faqat muayyan qonuniy ruxsatnoma bo`lganda amalga oshirish mumkin.

Sotsiologik eksperiment qonun ijodkorligi faoliyatida alohida ahamiyat kasb etadi. U muayyan bir huquqiy hujjatni salbiy yoki ijobiy oqibatlar keltirib chiqarishini bilishda qo`llanilishi mumkin. Bunday eksperimentlar fuqarolik-huquqiy, jinoyat-huquqiy, ma`muriy-huquqiy qonunchilikni yaratishda qo`llanilishi mumkin.

## 6-BOB. STATISTIK KUZATISH MATERIALLARINI SVODKALASH VA GURUHLASHTIRISH

### 1-§. *Statistik svodkalash va guruhlash tushunchasi*

Statistik kuzatuvlar natijasida juda ko'p miqdorda har xil blank varaqa va formularlar yig'ilib qoladi, ularning har biri alohida yig'indi birligini va u uchun belgilangan alomatlarni xarakterlaydi. Statistik kuzatuvlar, yuqorida ko'rsatilganidek, bizga hali qayta ishlanishi va guruhlanishi kerak bo'lgan bir talay ishlanmagan, hali xom bo'lgan materiallarni beradi, keyin esa, shu asosda hisob-kitob yo'li bilan o'rganilayotgan yig'indining o'ziga xos bo'lgan tipik ko'rinishi keltirib chiqariladi. Statistik ma'lumot-bu dastlabki statistik ma'lumotlarni hisoblab, alohida birliklarni xulosalash va ularni bir to'plam yoki yig'indi (masalan, respublikada sudlanganlar soni) holiga keltirishdir. Shuni aytish kerakki, statistik ma'lumot, to'g'ri qurilgan guruhlariga asoslanganidagina effektiv tarzda amalga oshirilishi mumkin. **Ma'lumotlarni bir tizimga solish, qayta ishlash - svodkalash deb ataladi.** Gap shundaki, kuzatilayotgan hodisalar qonuniyatini o'rnatish va o'lchash faqat ularning to'plamlarini sifatli bir tomonlama guruhlariga (masalan, sudlanganlar jinsi, yoshi, ma'lumoti, retsedivligi, sodir etgan jinoyati bo'yicha) bo'lib o'rgandagina mumkin. Faqat shunday guruhlarinigina xulosalash va umumlashtiruvchi miqdorlari bilan xarakterlash mumkin (hamma sudlanganlar ichida ayollarning ulushi 7-8 marotaba erkaklar ulushidan kam). Vaholanki, statistik kuzatuv yakunida dastlabki ma'lumotlar yig'iladi va odatda ular sifatiga nisbatan har xil birliklarga tegishli bo'ladi va shu sababli birinchi o'rinda birliklarni bir-biridan chegaralab, bir xil bo'lgan, bir ko'rinishda bo'lgan guruhlariga bo'lish kerak, masalan: jinoyat kodeksining Maxsus qismiga muvofiq bir ko'rinishga ega bo'lgan jinoyatlar birligiga bo'lish.

**Guruhlash – jamiyatda o'rganilayotgan hodisalarni ma'lum alomatlar yig'indisiga ko'ra ularni tipik guruhlariga ho'lishdan iboratdir.** Guruhlashni qandaydir bir hisob-texnik operatsiya deb o'ylash katta xato bo'lardi.

Guruhlashning asosiy masalasi statistik kuzatuv natijasida olingan ma'lumotlarning har tomonlama analizi, tahlili asosida ularni sifatli birtomonlama ko'rinish va turlarga bo'lib tashlashda ifodalanadi.

Maxsus tashkil etilgan va ro'yxatga olingan (statistik kartochka, statistik jurnal va boshqalar) statistik kuzatuvlar jinoyat fuqarolik ishlari boshqa matertallar haqida juda ko'p ma'lumotlar beradi. Barcha ma'lumotlar birlashtirilganda ular «tog'» kabi ko'p ma'lumotlar beradi. Tassavur eting, qo'l ostingizda jinoyat sodir qilgan shaxslar haqida mingta

«1000» statistik kartochka bor. Ushbu kartochkalarda jinoyat sodir etgan shaxs va jinoyat haqida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan ming xil ma'lumot bo'ladi. Kartochkalarga ko'z yugurtirganda biz erkak va ayollar, katta va voyaga yetmaganlar, retsdivistlar va ilk bor sudlanganlar, turli millat, ma'lumot, kasb egalarini uchratamiz. Bu bilan biz yuqoridagi belgilarga ega bo'lgan shaxslarning qancha, qay tezlikda jinoyat sodir etishlarini bir maromga sola olmaymiz. Statistik ma'lumotlar misoli bir «g'isht» bo'lib, agar bu g'ishtlar to'g'ri terilsa, katta uy ko'rish mumkin bo'lganidek, ma'lumotlar ham to'g'ri guruhlashtirilsa, hodisalar haqida to'g'ri natija olish mumkin.

Statistik kuzatuvning II bosqichi statistik kuzatuv ma'lumotlarni tizimlashtirish va ilmiy tahlil qilishdir. Boshqacha qilib aytganda, buni ham **statistik svodkalash** deb aytiladi.

Agar ma'lumotlar noto'g'ri tahlil etilsa, statistik kuzatuv ma'lumotlari o'zining haqiqiy xarakterini yo'qotishi mumkin. Shuning uchun ularni shunday qayta ishlab chiqish kerakki, javob aniq, obyektiv, ommaviy kuzatuv natijalariga asoslangan bo'lishi kerak.

Statistik svodkalash mazmuni bu dastlab statistik kartochka, ro'yxat, anketada mavjud materiallar muayyan tartibga keltiriladi, tizimlashtiriladi, ular bir natija, birlashtirilgan statistik miqdorlar bilan xarakterlanadi (protsent, koeffitsientlar, mutlaq va nisbiy sonlar bilan).

Aynan shu bosqichda jinoyatlarning bir marta sodir etilishi yoki ommaviy tus olganligi, oddiy huquqbuzarlikning jinoyatga aylanishi va boshqa ijtimoiy holatlarga yuridik baho beriladi.

Svodkalash natijasida biz katta faktik, har tomonlama ijtimoiy-huquqiy borliqni tizimlashtirilgan ma'lumotlarni olamiz. Bunga erishish uchun svodkalash muayyan programma asosida o'tkazilishi kerak.

Shakliga ko'ra statistik svodkalash **markazlashtirilmagan** joylarda o'tkazilgan svodkalash, masalan, IIV, Prokuratura, Soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashuvchi organlar va sud idoralarining quyi organlari tomonidan ajratilgan ma'lumotlar kiritiladi. Bunday programmalar jadvalning maketi sifatida bo'lib statistik miqdorlar kuzatuv jarayonida to'ldirib borilishi mumkin. Albatta bu programma mazmuni statistik kuzatuv o'tkazish shakliga, uning vazifalariga, svodkalash texnikasiga mos kelishi kerak.

Statistik kuzatuvlar shakl jihatdan turli mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. M-n: jinoyat alomatlarini, jinoyat sodir etgan shaxslarni, jinoyat ishlarini va boshqa jinoyat-huquqiy statistikani surishtiruvchi, tergovchi, prokuror olib boradi, ushbu ma'lumotlarni esa turli informatsion markaz xodimlari umumlashtiradi.



Shuning uchun svodkalash jarayonida statistik ma'lumotlarning har bir instansiyalarida amalga oshiriladi.

Aralash-svodkalash dastlab tumanda keyin shaharda, markazda amalga oshiriladi.

**Markazlashtirilgan** svodkalash faqat markazda amalga oshiriladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda svodkalashning aralash shakli keng tarqalgan. IIV, Prokuratura, Sudning tuman, shahar instansiya (bo'g'in)larida dastlab qo'llarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar ro'yxatga olinadi, ular viloyatlarda to'planadi, IIV, Bosh prokuratura yoki Adliya vazirligining Bosh informatsion markazlarida ma'lumotlarni svodkalash yakuniga yetkaziladi. Davlat ro'yxatiga olingan ma'lumotlar oxirida boshqa ahamiyatli miqdorlar bilan umumlashtiriladi. Bu ishni Respublika «Statistika markazi»amalga oshiradi.

Svodkalashning tarkibiy elementlari:

A) jinoyat yoki boshqa ijtimoiy - huquqiy holatning butun va alohida guruhlarini aks ettiruvchi miqdorlar tizimini tashkil etish ;

B) olingan ma'lumotlarni tizimli guruhlashtirish;

C) guruh va umumiy natijalarni hisoblash ;

D) natijalarni statistik jadval va grafiklarda ko'rsatish.

Statistik ma'lumotlarni **guruhlashtirish**.

Kuzatuvning maqsad va vazifasi bilan belgilangan, jinoyatlar, ma'muriy huquqbuzarliklar jinoyat va fuqarolik ishlarini yurituvdagi muayyan miqdorlarni o'ziga xos belgilariga qarab guruhlarga bo'lishdir.

Bunday belgilarni to'g'ri ajratib olish juda muhimdir, chunki bitta belgi ikki xil xulosaga olib kelishi mumkin. Shuning uchun hodisa belgisini kriminalistik, kriminologik, jinoyat, fuqarolik huquqi, jinoyat va fuqarolik protsessi fanlari yordamida har tomonlama analiz qilinishi kerak. M-n: **Jinoyat huquqi**: jinoyatlarning turlari va guruhi,og'irlik darajasini;

**Kriminologiya**: kriminologik motiv turi, jinoyat sabab va shart sharoitlarini; **Jinoyat protsessi**: jinoyat ish yurituv bosqichlari, protsessual shaxslar doirasi, gumonlanuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum va oqlangan shaxs; **Kriminalistika**- jinoyatlarning sodir etilish usullarini o'rganadi.

Guruhlovchi alomatlar **sonli va muavvan sifatli** turlarga bo'linadi.

Ma'lumotlarni "Son" alomatlariga qarab ajratishda (huquqbuzarlar yoshi, guruh a'zolari soni, sudlanganlik soni, ozodlikdan mahrum qilish jazosi necha marta qo'llanganligiga qarab) barcha guruhlar miqdorini chiqarib har bir guruhdagi alomatlarining maksimal va minimal oralig'ini belgilash kerak.

O`rtadagi masofalar(interval) ko`r-ko`rona olinishi mumkin emas. Ular holat, protsesslarning muayyan tomonini, sondan sifatga o`tishini ko`rsatib berishi kerak. Masalan, huquqbuzarlarning yoshi.

1) 14 yoshdan 16yoshgacha (voyaga yetmaganlar). Bu yoshdagi shaxslar qilmishi uchun jazosi chegaralangan jinoiy javobgarlikka tortiladilar. Bu yoshdagi fuqarolarning ish yurituvi ham ko`pgina protsessual xususiyatga ega.

2) 16-18 yoshgacha (o`spirin yoshlar). Ular barcha qilmishlari uchun tortiladilar, ular jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual xususiyatlarga ega.

3) 18-25yoshgacha (yoshlar). Bu yoshdagi shaxslar hech qanday jinoyat-huquqiy va jinoyat-protsessual xususiyatlarga ega emaslar. Ammo bu yoshdagi shaxslar kriminal aktiv guruh hisoblanadi. Bu yoshdagilar tomonidan eng ko`p jinoyat sodir etiladi.

4) 25-30 yoshgacha va undan yuqori yosh.

Jinoyatlarni yosh bo`yicha bo`lganda aniq bir ketma-ketlikka rioya etilishi yaxshi natija beradi - 14,15,16,17,18 va boshqalar.

Muayyan SIFAT belgilari (ijtimoiy xavflilik darajasini, jinoyatning og`irlik darajasini, qilmish shakli, jinoiy xulq-atvor, motivatsiya mazmuni, jinoyatchilarning ijtimoiy darajasi, oiladagi muhit, fuqarolik davo xarakteri, fuqarolik-huquqiy majburiyat ko`rinishi)ga qarab statistik guruhlashtirish ijtimoiy-huquqiy izlanishlarda keng tarqalgan.

M-n : shaxsning axloqiy shakllanishidagi sharoit guruhiga oid belgilar ota - onadan birisiz o`sganligi, ko`p bolali oilada o`sganligi, urf odatlarga rioya etmaydigan oilada o`sganligi, og`ir moddiy sharoitda o`sganligi, madaniyati past oilada o`sganligi va boshqalarni olish mumkin. Javob vaziyatning haqiqiy holatini va kuzatuv vazifalarini chuqur o`rganishni talab qiladi.

Agar kuzatuv maqsadi - birinchisi, biologik determinant bo`lsa, - ikkinchisi, iqtisodiy sabab, uchinchisi esa, psixologik sabab hisoblanadi, - shunga o`xshab turli sabablarni davom ettirish mumkin.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning ochiq statistik ma`lumotlari ham sifat, ham son alomatlarini birlashtirib aralash guruhlashtirilgan. Jinoyat - huquqiy: O`zR JKning moddasi, ayb shakli, qilmishning og`irlik darajasi, sodir qilingan qilmish uchun tayinlangan jazo. Kriminologik: shaxsning ijtimoiy ahvoli, jinoyat sabablari, motiv, huquqbuzarning ijtimoiy demografik belgilari bilan xarakterlanadi. IIV, Prokuratura, MXX, Bojxona, Soliq, Valutaga oid jinoyatlar va jinoiy yo`l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashuvchi Departament idoralari va sudlar tomonidan tegishli ma`lumotlar muayyan formaga keltiriladi.

Kriminologik lug`atda «sifat - sonli» yoki yarimsonli belgilar ham mavjud. Bu belgi o`zida ham sifat ham son belgilarni birlashtiradi.

M-n: jinoyatning ijtimoiy xavflilik darajasi va jinoyat uchun jazoning maksimal yoki minimal darajasi. O`zbekiston Respublikasi JKning 15-moddasi bo`yicha jinoyatlarni tasniflash.

Ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan jinoyatlar qasddan sodir etilsa, uch yildan ko`p bo`lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilsa 5 yildan ko`p bo`lmagan muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi :

Uncha og`ir bo`lmagan jinoyatlarga qasddan, 3-5 yilgacha, ehtiyotsizlik oqibatida sodir etilsa, 5 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazo nazarda tutilgan.

Og`ir jinoyatlarga qasddan sodir etilsa 5-10 yil dan ko`p bo`lmagan ozodlikdan mahrum qilish nazarda tutilgan.

O`ta og`ir jinoyatlarga qasddan sodir etilib, qonunda 10 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish yoki o`lim jazosi nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi.

## 2-§. Statistik guruhlashtirish turlari

Guruhlashning tarqalgan turlaridan birinchisi **tipologik guruhlashlar** hisoblanadi. Ular turli xil hodisalar yig'indisini muhim va mavjud alomatlariga ko'ra bo'lib tashlaydi. Iqtisodiy hodisalar sohasida bu guruh o'z oldiga ijtimoiy-iqtisodiy tiplarni ajratib ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi (masalan, shirkat xo'jaliklari, firmalar, kichik korxonalar). Sud statistikasida tipologik guruhlash keng qo'llanadi. Ular adliya organlarining faoliyati analiz qilish uchun jinoyatchilikni o'rganish fuqarolik huquqidagi bahslar va boshqalar uchun zarurdir. Bunday guruhlashga jinoyatlarni JKning maxsus qismi moddalariga muvofiq bir turdagi toifalarga taqsimlash; fuqarolik huquqiy bahslarni ularning ko'rinishlari bo'yicha; sudlanganlar tarkibini - jinsi, ijtimoiy ahvoli, sudlanganlik soni bo'yicha bo'lish; jinoyatlarni xalq xo'jaligining ba'zi sohalari bo'yicha bo'lish, jazoni bir turdagi toifalar bo'yicha ozodlikdan mahrum qilish, axloq tuzatish ishlari, qamoq, ozodlikdan mahrum qilish va boshqalarga bo'lishni misol qilishimiz mumkin. Faraz qilaylik, ma'lum bir yilda taxminan 2002-yilda O'zbekiston Respublikasidagi jami jinoyatchilikning miqdoriy miqdorlarini tipologik guruhlash yordamida jadvalga solib chiqishimiz mumkin (1-jadvalga qarang).

### Jadval №1

Jinoyatlarning barcha turlari bo'yicha jami 2002-yilda sodir etilgan jinoyatlar uchun mutlaq son N . ta. Jami protsentlarda

Davlatga qarshi jinoyatlar.....	N ta .....	0,01 %
Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar.....	N.....	39,2 %
Shaxsga qarshi jinoyatlar.....	N.....	34,6 %
Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar.....	N.....	---
Mansabdorlik jinoyatlari.....	N .....	5,8 %
Boshqa jin.....	N.....	1,0 %
Jami.....	N.....	100,0 %

Shunday qilib, tipologik guruhlar o'z oldiga o'rganilayotgan yig'indini sifat munosabatiga nisbatan bir turdagi guruhlarga bo'lishni maqsad qilib qo'yadi. Statistika ularning roli juda katta, chunki faqat o'ziga mos fanga asoslanadigan tipologik guruhlar yordamidagina bizni qiziqtiruvchi individual hodisalar to'plamini chuqur o'rganish va unda bo'layotgan o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

Guruhlar mazmuni ijtimoiy - huquqiy va kriminologik kuzatuvlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular: A) bir turdagi sifatiy belgilar majmuasini ko'rsatadi B) tip strukturasi ochishga yordam beradi S) yuridik ahamiyatli va turli ijtimoiy hodisalarning o'zaro bog'liqligini o'rganishga yordam beradi.

Yuqoridagi vazifalarga muvofiq yuridik statistikada 3 xil guruhlashtirish turi uchraydi: **Tipologik, Tuzilmaviy, Analitik.**

**Tipologik guruhlashtirish** - Yuridik ahamiyatga ega bo`lgan va o`rganilayotgan jinoyatlar, jinoyatchi va boshqa hodisalarni sifatliy belgilariga ko`ra bir turdagi guruhga yig`ib va yana ularning o`zini alohida sifatliy belgilariga ko`ra bir turdagi guruhlarga bo`lish tushuniladi.

### **3-§. Tipologik guruhlashtirish**

Krimiinologik sohada **tipologik guruhlashtirishning** keng tarqalgan turlari bu jinoyatlarni aybning shakli bo'yicha bo'linishidir (qasddan yoki ehtiyotsizlikdan, ular o'z navbatida to'g'ri qasd, egri qasd; beparvolik va o'z-o'ziga ishonish. O'zR JK 21-22-moddalar), og'irlik darajasiga ko'ra (ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan. uncha og'ir bo'lmagan, og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar O'zR JK 15-modda) Motivning mazmuniga ko'ra (g'arazli maqsad, tamagirlik niyatida, nomusga tegish bilan bog'liq, zo'rlash maqsadida), aybdorlarning shaxsi (erkaklar va ayollar, voyaga yetmaganlar, oldin sudlanganlar va sudlanmaganlar, mahkum va oqlanganlar; gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, mahkum va qamoqda saqlanuvchilar), faoliyat turi (iqtisodiy, diniy, ijtimoiy sohada Davlat organlarida ishlovchilar tomonidan ) va boshqa sifatiiy belgilar ko'p hollarda o'zaro chatishib ketadi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlarni jinoyat-huquqiy tipini sifatiiy belgilariga ko'ra bir xildagi turlarga bo'lganligi haqida rasmiy hisobotni ko'rib o'tsak. O'zR JKning maxsus qismi 7 bo'limga bo'lingan:

I bo'lim - Shaxsga qarshi jinoyatlar.

II bo'lim - Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar.

III bo'lim - Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar.

IV bo'lim - Ekologiya sohasidagi jinoyatlar.

V bo'lim - Hokimiyat, Boshqaruv va Jamoat birlashmari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar.

VI bo'lim - Jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi jinoyatlar.

VII bo'lim - Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. III bo'limdan tashqari, ko'pchilik bo'limlar o'zida 2-4 gacha bobga bo'linadi. Umuman Maxsus qism 24 bob 206 moddadan iborat bo'lib, ularning har biri sifatiiy belgilariga ko'ra jinoyatlar guruhlariga bo'lingan. Jinoyatlarning jinoyat-huquqiy turlari, murakkab tuzilmaviy strukturasi faqat IIVning forma 1-g va qisman Adliya Vazirligining forma - 10, forma - 11 hisobotlarda uchraydi. Qolgan hisobotlarda, rasmiy va jinoyatlar haqidagi operativ axborot - to'plamlarida ulardan tanlanganlari kiritiladi. Tanlab olish ikki mezon asosida olib boriladi. Qilmishlarning xavfliligi va keng tarqalganligi. Bularga bir marta sodir etiladigan ammo juda xavfli bo'lgan jinoyatlar (terrorizm, agressiya, genotsid ) yoki kam ahamiyatli, lekin keng tarqalgan qilmishlar (badanga shikast yetkazish) kiritilmaydi. Ular «boshqa jinoyatlar» deb nomlanuvchi qatorga kiritiladi. Qanday bo'lmasin, ammo tipologik guruhlashtirish 2-3 belgilariga qarab amalga oshiriladi, bu esa uni murakkab va bir-biriga qo'shib bir butunlik hosil qiladi (kombinatsiyalaydi).

Fuqarolik-huquqiy statistikada ham tipologik guruhlashtirish o`sha vazifalarini bajaradi. Fuqarolik ishlarni guruhlashtirmasdan analiz qilish mumkin emas. Ularni sohalar va kategoriyalar bo`yicha guruhlashtiramiz: Mehnat , uy-joy, oila, ashyoviy, moliyaviy, meros, mualliflik yoki saylov huquqi va boshqalar. Keyin ular davogar va javobgar shakli, kategoriyasi hal qiluv qarorlari xarakteri (mazmuni) bo`yicha klassifikatsiya qilinadi.

Mehnat huquqiga oid ishlar ko`pincha mehnat vazifasini bajarish jarayonida xodimga yetkazilgan zarar, g`ayriqonuniy mehnat shartnomasini bekor qilish, ishga tiklash va bekor yurganlik uchun ish haqi undirish bilan bog`liq mazmundagi ishlar bo`ladi. Uy-joy nizolariga oid ishlar nizo xarakteriga (uydan chiqarish, uyga majburiy kiritib qo`yish, uy-joyni bo`lish), uy-joy shakliga ko`ra (xususiylashtirilgan, xususiylashtirilmagan, xo`jalik, alohida, shirkat uylari ) guruhlashtiriladi. Oila ishlari - nikohni bekor qilish. Oila buzilishi sabablari, otalikka (qizlikka )olish, otalikni tan olish va boshqalarga ko`ra guruhlashtiradi. Fuqarolik ishlaridan ko`rib chiqilganlari (sud majlisida ko`rilib, hal qiluv qarori chiqarilganlari), ish yuritish tugatilgan, ko`rmasdan qoldirilgan, mazmunan ko`rish uchun boshqa sudga o`tkazilgan ishlar shkalasi kabi klassifikatsiya qilinadi.

#### 4-§. Tuzilmaviy yoki variatsiyali guruhlashtirish

Bu bir turdagi jinoyatlar, huquqbuzarlar fuqarolik da'volari va boshqa belgilarning tizimidagi o'zgarishlarni o'rganishda statistik ma'lumotlar guruhlashidir. **Tuzilmaviy guruhlash yordamida bir xil tipdagi, sifat jihatidan bir xil bo'lgan guruhlarning (birliklarning) salmog'i hisoblanadi va shu tariqa to'plam tarkibi o'rganiladi. Masalan, sudlanganlarning ichidan muqaddam sudlanganlar va alohida xavfli retsidevistlar haqidagi ma'lumotlarni jamlanishini olsak bo'ladi.** Ma'lumotni strukturaviy guruhlashtirish uchun bir turdagi, bo'linadigan, hajm bo'yicha o'zgaruvchan belgilar majmui kerak bo'ladi.

Agar tipologik guruhlashtirish asosida sifatiy belgilar yotsa, **tuzilmaviy (variatsion) guruhlashtirish asosida sonli belgilar (jinoyatlar o'rtacha og'irligi, shaxslar, ishlar, soni, huquqbuzarlar yoshi, jazo muddati sudlanganlik soni, umumiy o'rta ta'limni nechanchi sinfgacha o'qiganligi, zarar miqdori, tergov muddatlari, jinoyat, fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish muddatlari va boshqalar) yotadi.**

**Variatsion guruhlarlarning maqsadi bir turdagi tipik guruhlar tizimini aniqlashdir.** Bunda statistik kuzatuvlar natijasida olingan materialni qandaydir bir o'zgarib turuvchi (variatsiyalashuvchi) alomat hajmi bo'yicha guruhlaydilar. Ba'zida dastlabki bir turdagi yig'indilarni olgandayoq ularning ichida u yoki bu miqdoriy alomatni taqsimlashga asoslanib guruhlash amalga oshiriladi, bu esa yig'indining tarkibi va tizimini aniqlashga imkoniyat beradi (masalan, aholini yosh bo'yicha bo'lish, sudlanganlarni –jazo muddati bo'yicha, jinoiy ishlarni –tergov va ishni sudda ko'rish muddatlari bo'yicha bo'lish va boshqalar). Miqdoriy alomatlar bo'yicha bunday guruhlash variatsion deb nomlanadi. To'la tasavvurga ega bo'lish uchun ba'zi jinoyatlar turlari bo'yicha sudlanganlarning yosh miqdorlarini keltiramiz.

Jadval №2

Faraz qilaylik N viloyatida 2005-yilda ba'zi jinoyatlar uchun sudlanganlar yoshi (jami % larda).

Jinoyat nomi	Yoshi									
	14-17 yosh	18-19 yosh	20-24 yosh	25-29 yosh	30-39 yosh	40-49 yosh	50-59 yosh	60 va yuqor	aniq mas	jami
Barcha jinoyatlar	6,3	6,9	25,9	18,4	22,3	11,0	4,5	1,8	2,9	100
Talonchilik,	17,z	13,3	28,6	21,6	16,3	4,3	1,0	0,2	0,4	100
Bosqinchilik										
O'g'rilik	19,8	12,9	22,9	16,3	15,9	8,0	2,9	0,9	0,4	100



Odam o'ldirish	4,9	10,3	27,7	20,8	22,1	7,5	4,5	1,4	0,8	100
Bezoriilik	5,0	10,3	33,0	21,4	20,1	7,3	1,8	0,5	0,6	100
Mansabdorlik jinoyatlari(o'zlashtirish, rastrata)	0,5	2,5	17,7	23,9	34,9	15,2	4,0	0,8	0,5	100

Miqdoriy o'zgarishlar o'rganilayotgan hodisa tizimidagi qonuniyatlar va tendensiyalarning, tergov sud amaliyoti, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati haqida guvohlik va baho beradi. M-n: sudlanganlikning ko'p yillarda son o'zgarishini olsak, biz, sud amaliyotining tendensiyasini haqiqiy real jinoyatchilik bilan bog'lanib, haqiqiy holatini e'tiborga olayotganligini ko'ramiz. Bir jinoyatning mutlaq son dinamikasini ko'rib chiqsak, uning jinoyatchilik tizimida dinamikasini, qilmishning rivojlanish tendensiyasini yoki pasayib, asta-sekin yo'qolib borayotganligini ko'ramiz. Hozir odam o'ldirish yoki unga suiqasd jinoyatining tuzilmaviy guruhlashtirishdagi dinamikasini ko'rib chiqamiz.

### **Qasddan odam o'ldirish va unga suiqasd jinoyatining 1960-1990 yillardagi dinamikasi.**

Yil	Qasddan odam o'l. va unga suiqasd qilish suiqasdnining birgalikdagi soni %	Qasddan odam o'ldirish %	Suiqasd %
1960	N ta (100,0)	55,7	44,3
1970	N ta (100,0)	69,2	30,8
1980	N ta (100,0)	79,9	20,1
1990	N ta (100,0)	87,8	12,2

«Jadval»da aniq ko'rinib turganidek, suiqasdlar soni qasddan odam o'ldirish jinoyatiga qaraganda ancha kamaygan. Miqdorlar aniq va haqiqiy. Qasddan sodir etiladigan qotilliklarda o'q otar quroldan foydalanish soni ko'paygan. Agar oxirgi 30 yil ichida qasddan odam o'ldirish 75%ga ortgan, hozir ushbu miqdorlarni tahlil qilib, qo'rqmasdan, ushbu tuzilmaviy guruhlashtirish qasddan odam o'ldirishning tendensiyasi rivojlanib, o'sib borishini bashorat qilish mumkin.

Tuzilmaviy guruhlashtirish jinoyatlarning sohasi va obyektiga ko'ra hissali qilib tuzilishi mumkin. Hissalar tuman, shahar, viloyatlar bo'yicha taqsimlanishi mumkin.

Jadval №3 Faraz qilaylik:

**Viloyatlar bo'yicha aholi soniga qarab jinoyatchilikning mutanosibli (Ma'lum bir yil).**

}

<b>Viloyatlar nomi</b>	<b>Aholisi %</b>	<b>Jinoyatlar %</b>	<b>Bitta jinoyatga nechta huquqbuzarning to'g'ri kelishi %</b>
A	<b>0.5</b>	<b>0.9</b>	<b>Ma'lumot yo`q</b>
B	<b>1.2</b>	<b>1.2</b>	<b>13.2</b>
C	<b>0.9</b>	<b>0.4</b>	<b>13.3</b>
D	<b>1.3</b>	<b>1.3</b>	<b>13.6</b>
F	<b>1.3</b>	<b>0.7</b>	<b>26.9</b>
G	<b>1.5</b>	<b>1.1</b>	<b>16.1</b>
H	<b>1.5</b>	<b>1.5</b>	<b>16.9</b>
J	<b>1.8</b>	<b>0.6</b>	<b>40.6</b>
K	<b>1.9</b>	<b>0.7</b>	<b>20.4</b>
L	<b>2.5</b>	<b>0.5</b>	<b>10.6.</b>
M	<b>3.6</b>	<b>2.7</b>	<b>25.1</b>
N	<b>5.8</b>	<b>5.3</b>	<b>16.5</b>
O	<b>7.0</b>	<b>3.2</b>	<b>34.3</b>
P	<b>17.9</b>	<b>13.3</b>	<b>26.9</b>
R	<b>51.3</b>	<b>66.0</b>	<b>14.5</b>

### 5-§. Tahliliy (analitik) guruhlashtirish

**Tahliliy (analitik) guruhlashtirish** - yuridik ahamiyatga ega bo'lgan miqdorlarni analitik guruhlashtirish o'rganilayotgan hodisa va protsesslarning o'zaro bog'liqligi va bo'linmasligini ko'rsatadi. Qisman bu vazifalar strukturaviy va tipologik guruhlashtirib bajariladi. Ammo analitik guruhlashtirish ushbu vazifani bajarish uchun maxsus ishlab chiqilgan.

**Analitik guruhlash** o'z oldiga o'rganilayotgan hodisalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rnatishni maqsad qilib qo'yadi. Bu guruhlashga misol qilib jinoyatchilik va bir qator hodisalar –ichkilikbozlik, maishiy ahvol xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatuvchi ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Namoyish uchun quyidagi guruhlashni keltiramiz: Jadval №3. Faraz qilaylik:

Jinoyatlarni mastlik holatida sodir etish( Respublika bo'yicha Ma'lum bir yil)

Miqdorlar	jami	Qasddan odam o'ldirish	Bezorilik (jinoiy jazolanadigan)	Nomus-ga tegish
Mastlik holatida jinoyat sodir etgan shaxslar (prosent miqdorida)...	53,3 % mast	73,9 % mast holda	80,9 % mast holda	56,4 % mast holda

Alkogolizm va jinoyatchilik o'rtasidagi bog'liqlik yaqqol ko'rinib turibdi.

Analitik guruhlash barcha statistika sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi: iqtisodiy sohada –xo'jalik faoliyatini tahlil qilish uchun, yashirin rezervlarni aniqlash uchun, demografik sohada –masalan, jins, yosh va o'lim o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, jinoiy sohada –turli xil ijtimoiy-maishiy ahvolni jinoyatchilikka ta'sirini aniqlashda va h.k. Lekin, shuni nazarda tutish kerakki, aslida har qanday guruh ma'lum darajada analitik bo'lib hisoblanadi, chunki o'rganilayotgan hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashda yordam beradi, masalan, yuqorida berilgan variatsion guruhlar alohida jinoyatlar va yosh o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib bergan edi.

Shu o'rinda, jinoyat ishlarining bir yilda apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rilishi va hukmlarning o'zgarish yoki bekor bo'lish sabablarini ham tahlil qilib ko'rib chiqish mumkin. Masalan: izlanishning maqsadlaridan kelib chiqib statistik guruhlarning u yoki bu turini qo'llash

lozim, har tomonlama tahlil qilishda esa har uchala guruhlash turini birga olgan holda ish yuritishimiz kerak. Masalan, sodir etilgan jinoyatlarni ijtimoiy xavflilik xarakterini aniqlash uchun biz ularni sifatli bir turdagi guruhlarga bo'lib tashlashimiz, ya'ni tipologik guruhlashni qo'llashimiz kerak. Tergov organlarining jinoyatchiligiga qarshi muvaffaqiyatli qarshi kurash olib borish uchun esa, biz bu organlar bo'yicha alohida jinoyatlar ochilishidagi o'zgarishlar (variatsiyalashuv) koeffitsientini o'rganamiz, ya'ni variatsion guruhlashni qo'llaymiz; oilaviy ahvoli, ma'lumoti, ichkilikbozlik va jinoyat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun analitik guruhlashni qo'llaymiz.

Statistikada hodisalarga ta'sir ko'rsatuvchi hodisani-faktorial, faktorial ta'sir natijasida o'zgaruvchi hodisalar-natijaviy (rezultativ) deyiladi. Bu turdagi guruhlashtirish jinoyatchilikka sabab bo'luvchi ko'plab ma'lumotlar (tarbiya, oilada ota-ona, ichkilikbozlik, ishsizlik va boshqalar)ni ko'rsatib beradi.

Buni tasdiqlash uchun quyidagi jadvalni (faraz qilgan holda) misol qilib ko'rsatsak:

Faktorlar	Qasddan odam uldirish	Nomusga tegish	Bezori lik	Bosqin chilik	Talon chilik	O'g'ri lik	Tama girlik	Bosh-qalari
Doimiy daromad manbaining yo'qligi	54.3	46.4	40.7	63.4	54.1	50.5	11.4	47.2
Ichkilikbozlik	73.5	77.6	69.8	59.7	57.0	37.7	00	39.0
Narkotik iste'mol qilgan holda	0.5	0.4	0.1	0.6	0.4	0.2	00	0.4

### JADVAL № 5

**Ayrim kriminogen faktorlar va jinoyat turlarning o'zaro bog'liqligi Ma'lum bir yil % hisobida.**

Statistik o'zaro bog'liqlik faqat faktorial hodisalarda emas balki rezultativ hodisalarda ham uchraydi. Natijaviy hodisa ichidagi holat, m-n : sudlanganlik ta'siri. Buning uchun jinoyatchilik va sudlanganlik dinamikasi o'zaro bog'liqligi haqidagi analitik guruhlashtirishni faraz qilib hisoblab chiqsa ham bo'ladi.

### **6-§. Korrelatsion guruhlashtirish**

Bajaradigan vazifalariga ko`ra analitik guruhlashtirishga yaqin turadigan guruh bu **KORRELATSION guruhlashtirish**dir. Korrelatsion guruhlashtirishda o`rganilayotgan hodisalar va protsesslar o`rtasidagi tobelik nisbattan to`g`ri o`lchanishi mumkin.

Ijtimoiy-huquqiy, kriminologik jihatlarini analiz qilganda yuqorida ko`rib chiqilgan barcha guruhlashtirish turlari ishlatiladi. M-n: Sodir etilayotgan jinoyatlarning ijtimoiy xavfiligi va og`irligini aniqlash uchun -- tipologik guruhlashtirish;

Turli huquqni muhofaza qiluvchi organlar (Ichki ishlar, prokuratura, Soliq qo`mitasi, bojxona xizmati, milliy xavfsizlik xizmati)ning jinoyatchilikka qarshi kurashish natijasini --variatsion guruhlashtirishda;

Tuman, shahar. davlatda jinoyatchilikning o`sishi va pasayishi sharoitini o`rganishda — analitik guruhlashtirish yordam beradi.

### **7-§. Murakkab, ko`p o`lchamli, ikkilamchi guruhlashtirish**

Ko`rib chiqilgan guruhlashtirish tarkibida **murakkab, ko`p o`lchamli, ikkilamchi guruhlashtirish** shakllanishi mumkin.

**Murakkab guruhlashtirish** - odatda hodisalar taqsimlanishi va dinamikasi tendensiyasi bir-biriga qarama-qarshi bo`lganda hodisalarning turli tumanlilikini aks ettiradi. Murakkab guruhlashtirishning eng ko`p tarqalgan ko`rinishi bu-kombinatsiyalangan (qo`shilgan) guruhlashtirish bo`lib, bu guruhga bitta belgi bilan emas, balki ko`p belgilarga qarab yuritiladi. Belgilar iyerarxiyasi mavjud bo`ladi. **Kombinatsiyalangan guruhlashtirish** tipini aniqlash tuzulmaviy harakatlarning o`zaro bog`liqliligini o`rganishga yordam beradi.

**Ko`p o`lchovli guruhlashtirish** statistik nazariya uslublaridan biri KLAUSTER analizi (inglizcha slaster - bir joyda to`planish, umumiy xususiyatga ega bo`lgan bir guruh elementlarning yig`ilishi). Klaster analizi o`zida juda ko`p hisob-kitoblarni olib bu EHM xizmatidan foydalanishga zarurat tug`diradi. Belgilarni hisoblash bir belgi doirasida va shu bilan bir vaqtda juda ko`p belgilar doirasida amalga oshiriladi, bularning barchasi yig`ilib "Belgilar makoni" ni tashkil qiladi.

**Ko`p o`lchovli guruhlashtirishning vazifasi bir joyda jamlangan belgilarni bir biriga yaqin xususiyatlariga qarab bir turdagi guruhlarga ajratishdir.** Bir hodisaga oid belgilar shunday guruhlanadiki, birinchi guruhdagi belgilar orasidagi farqlar ikkinchi guruhdagi belgilarga qaraganda ahamiyatsizdir.

**Ikkilamchi guruhlashtirish, bu mavjud bo`lgan guruhlar asosida yangi guruhlashtirishning paydo bo`lishidir.** Boshqacha qilib aytganda, **dastlabki guruhlangan ma`lumotlarga asoslanib, yangi guruhlarni hosil qilishni ikkilamchi guruhlashtirish deb ataymiz.** Bunga variatsion guruhlashtirishdagi intervallarni o`zgartirish yoki tipologik va analitik guruhlashtirishdagi mavjud miqdorlarni hissali qayta guruhlantirish orqali erishish mumkin.

Bunga zarurat quyidagi hollarda vujudga keladi:

1. Son belgilariga qarab guruhlashtirilganlarni sifatii belgilariga qarab bir turdagi qayta guruhlashtirish amalga oshirilganda;

2. Ikki yoki undan ortiq turli intervalli guruhlarni bitta, yagona guruhlashtirilganda;

1. Real tendensiyalar aniq ko`rinadigan kattaroq guruhlarni tashkil qilishda.

## 8-§. Statistik jadval elementlari

O'rganilayotgan hodisalar va uning sifatli bir turdagi qismlarining ko'rgazmali xarakteristikasini beruvchi statistik jadvallar, bu xabarlash va quruhlash natijasidir. **Jadvallar bu statistik ma'lumotlarni bayon etishning asosiy usullaridan biridir.** Svodkalash va guruhlash natijalari jadval ko'rinishida ifodalanadi.

Amaliyotda ko'pincha hisoblashadiki, tegishli sarlavxasi bo'lgan vertikal va gorizontal kesiluvchi qatorlar bu jadvallardir. Bu, albatta, noto'g'ri. Bu jadvalning faqat, maketi, uning shaklidir. Statistik jadvalning asl mag'zini esa so'z bilan emas, son bilan ifodalangan fikrlar yig'indisi tashkil etadi. Statistik jadval bizni qiziqtiruvchi hodisalarni u yoki bu son miqdorlari yordamida tasvirlab beradi.

**Shunday qilib, statistik jadvallar, hisobot va guruhlash natijalarini bayon etishning ko'rgazmali, ixcham va tizimlashtirilgan usulidir.**

Statistik jadval ikki elementdan iborat. Bular: statistik ega, ya'ni jadvalda gap ketayotgan yig'indi va statistik kesim, ya'ni tasvirlanayotgan hamma alomatlar.

Statistik jadvallar logarifmik, karra va boshqa jadvallardan albatta farq qiladi. Statistik jadvallar tuzilishi jihatidan tikka va yotiq chiziqlarning kesishmasidan tashkil topadi. Jadvalda svodkalash natijalari o'zining ixcham, ko'rimli va muntazam ifodasini topadi.

Jadval qatorlar (yotiq chiziqlar) va ustunlar (tikka chiziqlar)dan tashkil topgan. Bundan tashqari, har bir statistik jadvalning ega va kesimi bo'ladi. Jadvalda gap nima ustida ketayotgan bo'lsa, o'sha - **jadvalning egasi**, tavsiflovchi miqdorlar esa, - **jadvalning kesimi** deyiladi.

Jadvalning egasi odatda yotiq qatorlarga, jadvalning kesimi esa tik ustunlarga joylashtiriladi.

Alohida jinoyatlar turi bo'yicha jinoiy javobgarlikka tortilganlar va jinoiy ishlar soni haqidagi jadvalga misol keltiramiz. Bu jadvalda nima haqida gapiriladi, unda qanday yig'indi xarakterlanadi. Bu jadvalda alohida bir turli kategoriyalarga guruhlangan jinoyatlar yig'indisi haqida gap boryapti, ko'rish mumkin (grafa A). Jinoyatlar yig'indisi va uning alohida qismlarining ro'yxati (mulkka qarshi jinoyatlar, shaxsga qarshi, mansabdorlik jinoyatlari) bu - ega. Ega nima bilan xarakterlanadi? Bir qator miqdorlar bo'yicha, ya'ni sud tomonidan tamomlangan ishlar soni bilan, shaxslarga nisbatan tamomlangan ishlar soni, oqlangan, hukm qilinganlar soni bilan, oldin sudlanganlik soni va jinoyat sodir etish joyi ko'rinishidagi kesim bilan xarakterlanadi (1-va 9-grafalar). Odatda ega jadval qatorlarida ko'rsatiladi. Lekin bu shart emas. Kesim esa vertikal ustunlarda ko'rsatiladi. Jadval elementlarini har doim ularning joylashgan

joyi bilan emas, balki ma'nosi bo'yicha ajratish kerak, ya'ni yig'indi yoki uning kesimlari qayerda joylashmasin, u ega bo'ladi. Tasvirlovchi alomatlar chap yoki o'ng taraflarda bo'lishidan qat'i nazar u kesim bo'ladi.

Statistik kuzatuv ma'lumotlarini umumlashtirish usuli bo'lib, hisoblanuvchi jadvallar amaliyotda juda keng tarqalgan.

Statistika barcha jadvallarni oddiy, guruhiy va kombinatsion jadvallarga bo'ladi. Ular bir-birovidan ega tuzilishi bo'yicha farqlanadi. Oddiy jadvalda ega hech qanaqa guruhlarga ega emas, ya'ni hamma yig'indi birliklari ularning sifat yoki miqdor jihatdan farqlanishiga qaramay, bitta umumiy yig'indiga birlashadilar. Boshqacha qilib aytganda, oddiy jadvalda yaxlit yig'indi bo'yicha xulosa beriladi. Oddiy faqat tasvirlovchi xarakterga ega. Oddiy jadvallar amaliyotda juda keng tarqalgan (masalan, egada quyidagilar ko'rsatilishi mumkin: sudlarning nomlari, ma'muriy hududlar ro'yxati, alohida sanalarda aholining soni va boshqalar). Oddiy ro'yxatli jadvalga misol keltiramiz.

**Toshkent shahri sudlarining jinoiy ishlarni ko'rib chiqish bo'yicha ba'zi miqdorlari (1 yil ichida).**

Tumanlar nomi	tomonlanmagan ishlar qoldig'i											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
	Yil boshida ishlar qoldig'i	1 yilda kelib tushgan ishlar	Ko'rib chiqilgan va hukm chiqarilgan	Shu qatorda 1 oy dan ko'prog'iga muddatga	tomonlanmagan	Qayta tergovga qaytarilgan	Sudga taalluqlik bo'yicha qaytarilgan	Jami tomonlangan ishlar	Yil oxiriga qadar tomonlanmagan ishlar	Hukm qilingan	oqlangan	Ishi tugatilgan shaxslar
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Yakkasaroy												
Sobir												
Rahimov												
Uchtepa												
Mirzo												
Ulug'bek												
Hamza												
Yunusobod												
Shayxontohur												
Chilonzor												
Mirobod												



Guruhli jadvalda yig`indi(ega) qandaydir bir alomat bo`yicha alohida guruhlariga bo`linadi (masalan, jinoyatlar turi bo`yicha), kombinatsion jadvalda esa 2 ta va undan ortiq alomatlar bo`yicha. Bu jadvallar bizni qiziqtirayotgan muhitni, alohida hodisalar o`rtasidagi aloqani aniqlashni va boshqalarni chuqur tahlil qilishga imkoniyat beradi.

Shunday qilib, statistik guruhlashlar o`zining konkret ifodasini guruhli va kombinatsion jadvallarda topadi.

### **9-§. Oddiy, guruhlangan, kombinatsiyalangan jadval**

Jadvallar oddiy, guruhlangan va kombinatsiyalangan bo`lishi mumkin.

**Oddiy jadvallar** hududiy va xronologik bo`ladi. Oddiy jadval o`zining «ega» qismida bir turdagi belgilar ro`yxatiga ega bo`lib, ular o`rganilayotgan yagona obyektни tashkil qiladi. M-n: ta`lim bosqichlari ro`yxati beriladi: boshlang`ich, o`rta, o`rta-maxsus, oliy ta`lim.

Territorial yoki hududiy jadval «egasi»da muayyan tuman, shahar, viloyatlar ro`yxati berilib qolgan grafalarda shu hududlardagi miqdorlar ko`rsatiladi. M-n: tug`ilish, o`lim, nikohga kirish va nikohni bekor qilish darajasi hisoblanadi. Oddiy xronologik jadvallar «egasi»da muayyan davr, muddat ko`rsatilishi ham mumkin. M-n: kun, oy, yil, kvartallar. Oddiy jadvallar : oddiy-xronologik yoki hududiy-xronologik qilib tuzilishi mumkin. Barcha oddiy jadvallarda «ega» bitta bo`ladi.

**Guruhlangan jadvallarda** «ega» qaysidir belgilar bo`yicha alohida guruhlanga bo`linadi. M-n: sud tomonidan ko`rib chiqilgan fuqarolik ishlari: mehnat, oila, mol-mulk, moliyaviy munosabatlarga bo`linib, ular ham o`z navbatida natijasiga ko`ra davo qanoatlantirilgan, rad etilgan, davo ko`rilmasdan qoldirilgan va boshqalarga bo`linishi mumkin.

Kombinatsiyalangan jadvallar jadvalning «ega» va «kesimi»dagi belgi va xususiyatlarni hodisalarda aks ettiradi. M-n: iqtisodiy jinoyatlar o`zi ko`rsatilib keyin alohida iqtisodiy jinoyatlar ko`rsatilishi mumkin. Alohida keng tarqalgan guruhlar ko`rsatiladi. Yana shu jadvalning o`zida shu ishlardan qaysilari bo`yicha dastlabki tergov majburiy, og`ir va o`ta og`ir, iste`molchilar bozori bilan, moliya-kredit tizimi va boshqa iqtisodiy faoliyat bilan bog`liqliklari ko`rsatiladi.

Kombinatsiyalangan jadvalga eng oddiy misol bu davlat va tarmoq doirasidagi hisobot tayyorlashdir.

Misol uchun tergov ishi haqidagi Forma 1-E hisobotini olsak. Hisobot har biri alohida kombinatsiyaviy jadvalga kiritilgan 10 ta bo`limdan iborat. I bo`lim «Jinoyatlar turi bo`yicha tugallangan ishlar» «ega»siga JKda ko`rsatilgan juda xavfli keng tarqalgan jinoyatlar ro`yxati berilgan. Jadvalning «kesim» qismida prokuratura va IIV tergovchilarning faoliyatiga doir turli -tuman jihatlar sanab o`tilgan. II bo`limda ham o`sha masalalar joy olgan bo`lib, faqat surishtiruv organlari haqida keyingi bo`limlarda tergovchilarning qo`shimcha tergovga qaytgan ishlar bo`yicha tergov muddatlari, voyaga yetmaganlar ishi, sudlanuvchilarni ushlashga doir jinoyat ishlarini tugatish, yetkazilgan zararni qoplashga qaratilgan harakatlari nazarga tutilgan. Barcha kombinatsion jadvallar mustaqil axborot bersa ham, ammo, o`zaro yagona ma`lumotlar bazasiga ega

ekanligi bilan bog`liq bo`lib, o`nlab kombinatsiyaviy jadvallar yagona murakkab kombinatsion jadvalga qo`yiladi (aylanadi).

Statistik jadvallarni tuzishda bir qator qoidalar ishlab chiqilgan bo`lib, tuzuvchi ularga rioya qilishi kerak. Jadval kattaligi jihatidan qulay bo`lishi kerak. Bir tomondan barcha kerakli miqdorlarni aks ettirgan, ikkinchi tomondan keragidan ortiq statistik ma`lumotlar to`ldirilmagan bo`lishi kerak. Tergov ishi haqidagi hisobot bunga yaqqol misol bo`ladi.

Har bir jadval aniq nomga ega bo`lishi, jadvalning ega va kesimi ham aniq nomga ega bo`lishi kerak. Nomlanmagan jadvallarni tushunish qiyin. Jadval mazmuni bo`lishi, ma`lumotlar, davriylik, hudud va aniq bo`lishi kerak. Ega qatorlari va kesim grafalari umumiy natija tomonga yoki aksincha yo`naltirilgan bo`lishi kerak. Natija miqdorlar oxirgi qatorga yoki grafada ko`rsatiladi. Ammo jadval yechilayotgan masalaga qarab natija birinchi qatorda yoki grafada keltirilishi ham mumkin. M-n: iqtisodiy jinoyatlarning umumiy soni ko`rsatilib, keyin ularning umumiy turi bo`yicha miqdorlar taqsimlanishi mumkin.

Foydalanishda qulaylik tug`dirish uchun jadvallarning qatorlari va grafiklari nomlanishi, harflanishi yoki sonlar bilan belgilanishi mumkin.

Keltirilayotgan barcha statistik ma`lumotlar bir xil aniqlik darajasiga ega bo`lishi kerak (butun sonlar, butun sonlar unli va yuzli hollari bilan ko`rsatilsin). Sonlar :1 000000, 1000, 100,10 liklarda beriladi. Soni aniq bo`lmagan grafaga ko`p nuqta yoki « ma`lumot yo`q » deb yozilishi kerak. Agar ma`lumotlarining yo`qligi obyektiv faktor bo`lsa, uzun tire (-) qo`yiladi.

Shuni aytib o`tish kerakki, amaliyotda va darslik-adabiyotlarda, ko`pchilik hollarda tipologik guruhlash klassifikatsiyalash ham deyiladi bu esa to`g`ri deb tan olinishi mumkin emas. Klassifikatsiya bu hodisalar yig`indisini sifatga nisbatan bir turdagi guruhlarga bo`lib tashlash hisoblanib, bu har bir guruhning o`zining miqdorlar bilan xarakterlamaydi, ya`ni klassifikatsiya bir turdagi guruhlarning oddiy ro`yxatini tashkil etadi. Masalan: jinoyatlarni tajovuz obykti bo`yicha klassifikatsiyalash -bu bir turdagi jinoyatlarning JKga muvofiq oddiy ro`yxati (hokimiyat, davlat boshqaruviga qarshi jinoyatlar, shaxsga qarshi jinoyatlar, mansabdorlik va h.k.)dir. Tipologik guruhlash esa, bir turdagi guruhlarga batafsil miqdoriy xarakteristika beradi, masalan, jinoyatlarning turli xil alomatlarini bo`yicha (ishlar soni, sudlanganlar soni, ularning jinsiy, yosh va ijtimoiy tarkibi, hududiy bo`linishi va h.k.).

Aytilganlardan tushungan bo`lsangiz kerak, guruhlashning biz ko`rib chiqqan uch ko`rinishi, ya`ni tipologik, variatsion va analitik guruhlari

ularning oldiga qanday vazifa qo'yilishiga qarab asoslanadi. Statistika nazariyasidan bizga ma'lum bo'lishicha, bunday vazifalar uchta:

- 1) guruhlarining sifat munosabatiga nisbatan bir turlilarini aniqlash;
- 2) yig'indi tizimini aniqlash;
- 3) o'rganilayotgan hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Bundan tashqari guruhlarini ular bajarayotgan maqsad va vazifalari bo'yicha bo'lish bilan bir qatorda, shuningdek, ularni guruhlash asosiga qo'yilgan alomatlar soni bo'yicha bo'lish kerak.

Shundan kelib chiqqan holda biz oddiy va murakkab (yoki kombinatsion) guruhlarini ajratamiz. Oddiy guruhlar bitta alomat bo'yicha hosil bo'ladi, masalan, aholini erkak va ayollar guruhlariga bo'lish, jinoyatlarni JKning Maxsus qismi bo'yicha bo'lish va boshqalar.

Murakkab yoki kombinatsion guruhlar deb bir vaqtning o'zida bitta yoki undan ortiq alomatlar bo'yicha guruhlash tushuniladi. Qizig'i shundaki, bitta alomat bo'yicha tuzilgan har bir guruh yana boshqa alomatlar bo'yicha guruhosti guruhlarga bo'linadi, masalan, aholini jinsi va yosh alomatlarini bo'yicha bo'lish.

Shunday qilib, statistik guruhlashlar o'zining konkret ifodasini guruhli va kombinatsion jadvallarda topadi.

**Oddiy guruhli va kombinatsion jadvalarga misol keltiramiz.** Oddiy jadvalga 1-jadval misol bo'lishi mumkin.

**Jadval № 1**

jinoyat ishlari soni va jinoiy javobgarlikka tortilganlar soni (1 kvartal uchun)

Sudlar tamomlangan jami ishlar	Shu qatorda hukm chiqarilgan holda	Ishlari tomomlangan shaxslar son	Oqlanganlar soni	Hukm qilinganlar soni	Sudlanganlarning oldingi sudlanganligi		Sudlanganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar joyi	
					Bir turdagi jinoyatlar uchun	Har xil turdagi jinoyatlar uchun	Shaharlar va ishchi tumanlar	Qishloq hududlari
1	2	3	4	5	6	7	8	9

Nima sababdan bu jadval oddiy hisoblanadi? Chunki kesimning keltirilgan hamma miqdorlari (1-9 grafalar) jinoyatlarning yaxlit yig`indisiga tegishli. Haqiqatan ham bu jadvaldan, masalan, qaysi jinoyatlar turi bo`yicha eng ko`p sudlanganlar va oqlanganlar sonini aniqlash mumkin emas.

2-jadval bu, mustasnosiz barcha jinoyatlarning yakuniy xulosasi.

Jadval № 2

Jinoyat ishlari soni va alohida jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilganlar soni (1 kvartal uchun)

Jinoyat turlari	Sudlar tomonidan hamma tugatilgan ishlar	Hukm chiqarilgan ishlar	Tugatilgan ishlar soni	Oqlanganlar soni	Hukm qilinganlar soni	Oldingi sudlanganlik		Jinoyatlarni sodir etish joyi	
						Bir turdagi jinoyatlar	Har xil turdagi jinoyatlar uchun	Shaharlar va ishchi tumanlar	Qishloq hududlari
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9
1. Mulka qarshi jinoyatlar									
2. Shaxsga qarshi jinoyatlar									
3. Mansabdorlik jinoyatlari									
4. Xo`jalik jinoyatlari va h.k(jinoyatlarning boshqa turlari)									
Jami									

keltirilgan 9-jadval guruhli hisoblanadi. Nimaga? Chunki, uning egasi – jinoyatlar yig`indisi – bitta alomat bo`yicha – jinoyatlar turi bo`yicha kategoriyalarga bo`linadi.

Tasavvur qilaylik, biz oqlanganlar, sudlanganlar nisbatini aniqlamoqchimiz. **Qo`yilgan savolga javob berish uchun egani 2 alomat bo`yicha guruhlariga bo`lish kerak:** 1) jinoyatlar turi bo`yicha 2)JKning moddalari bo`yicha.

Bunday guruhlash natijasida olingan jadval kombinatsion hisoblanadi, chunki uning egasi 2 alomat bo'yicha kombinatsiyasi natijasida hosil bo'lgan.

Ba'zida faqat guruhiy kombinatsion jadvallar ko'pincha oddiy jadvallar qo'llanganda mavjud haqiqatni yashirishning oldini olishi mumkin.

### Jadval № 3

Jinoyat ishlari soni va alohida jinoyatlar va JKning moddalar uchun jinoiy javobgarlikka tortilganlar soni (kvartal uchun)

Jinoyat turlari va JKning moddalar	Sudlar tomonidan hamma tugatilgan ishlar	Hukm chiqarilgan ishlar	Tugatilgan ishlar soni	Oqlanganlar soni	Hukm qilinganlar soni	Bir turdagi jinoyatlar	Oldingi sudlanganli	Har xil turdagi jinoyatlar uchun	Shaharlar va jinoiyatlarini sodir etish joyi
	1	2	3	4	5	6	7	8	9
I. O'zgarlar mulkini talon taraj qilish									
1) 164-modda Bosqinchilik									
2) 165-modda Tovlamachilik									
3) 166-modda Talonchilik									
4) 167-modda O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-taraj qilish									
5) 168-modda Firibgarlik									
6) 169-modda O'g'rilik h.k.M-n: O'zgarlar mulkini talon-taraj qilish bilan bog'liq bo'lmagan jinoyatlar- 170, 171, 172, 173, 174-moddalar.									
7) Xo'jalik faoliyati sohasidagi jinoyatlar- 186, 186-1, 188, 189, 190, 191, 192-moddalar.									

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar									
4. Shaxsga qarsh jinoyatlar									
5.Mansabdorlik jinoyatlari									
Jami: h.k (jinoyatlarning boshqa turlari)....									
Hammasi bo`lib.....									

Shunday qilib, guruhlash statistika izlanishlarining asosiy qismi hisoblanadi va bu ishdagi xatolik to`plangan barcha yuqori sifatli dastlabki materiallarni ham yo`qqa chiqarishi mumkin. Quyida yana ikkita jadval O.M.Madaliyevning dissertatsiyasidan ilova qilinayapti:

MA'LUMOTNOMA

2003 yilning 9 oyi yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent viloyati, viloyatlar, tuman, shahar sudlarida ko'rilgan jinoyat ishlari, jazo amaliyoti, yarashilganligi munosabati bilan tugallangan jinoyat ishlari haqida.

№	Viloyatlar	2003-y 9oyda ayblov x.ukmi chikarilgan va ishlari shaxs - lar soni	Shundan			2004-y 9-oyida				2003-y 9	2004-y 9
			Ozodlikdan mahrum kilinganlar soni	%	OME b-n bog'lik, jazo tay-n	%	OME b-n bog'lik, bo'lmagan jazo tayinlang.	%			
1	QQR	1165/1661	733	44,1	1241/1693	580	34,2	1113	65,7	231/161	286/322
2	Andijon viloyati	1909/2900	1067	36,8	1996/2966	970	33	1996	67	438/466	462/486
3	Buxoro viloyati	1589/2049	624	30,5	1560/1964	410	20,8	1554	79,2	210/219	289/302
4	Jizzax viloyati	1194/1585	509	32,2	1078/1423	610	42,8	813	57,2	214/225	189/223
5	Qashqadaryo viloyati	1807/2447	814	33,3	1859/2618	644	24,6	1974	75,4	381/413	540/594
6	Navoiy viloyati	1101/1410	464	32,9	1036/1323	348	26,3	975	73,7	163/177	257/300
7	Namangan viloyati	1759/2483	771	31,1	1839/2585	711	27,5	1874	72,5	446/468	453/482
8	Samarqand viloyati	3138/4091	1446	35,3	3153/4106	1643	40	2463	60	520/544	671/695
9	Surxandaryo viloyati	1707/2644	998	37,0	1534/2059	795	38	1264	62	301/324	330/364
10	Sirdaryo viloyati	1096/1518	419	27,6	1101/1507	364	24,1	1143	75,9	192/207	254/268
11	Xorazm viloyati	1374/1814	602	33,2	1255/1649	462	28	1053	63,8	260/282	281/302
12	Farg'ona viloyati	2602/3629	1290	35,5	2683/3579	1071	29,9	2508	70	898/921	1071/1073
13	Toshkent viloyati	3999/5274	2506	47,5	3768/5082	1455	28,6	3626	71,4	711/711	804/831
14	Toshkent shahar Respublika bo'yicha	5980/8059	3143	38,9	5620/7468	2818	37,8	4650	62,2	815/845	960/1001
		30427/41564	15386	37,0	29723/40022	12881	32,1	27141	67,8	5780/5963	6847/7243

MA'LUMOTNOMA

2004-yilning 9 oyi yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent viloyati, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar tomonidan mahkumlarga nisbatan tayinlangan jazolarni yengillashtirishga keltirilgan protestlar natijalari haqida.

Viloyatlar	Apellatsiya protesti asosida					Kassatsiya protesti asosida					Nazorat protesti asosida 1				
	Hukmni bekor silib		Shu jum.	Hukmni uzgartirishga		Hukmni bekor kilib		Shu jum.	Hukmni uzgartirishga		Hukmni bekor kilib		Shu jum.	Kva-ya o'zgarib, jazo kama y di	Kva-ya o'zgarib, jazo kama y di
	Qo'sh. tergovga	Yangidan ku rishga		jazo sn-gillig i uchun	Kva-ya o'z garmay jazo kama y gan	Kva-ya o'z-garib, jazo kama y gan	Qo'sh. tergovga		yangi-dan ku rishga	jazo yengil-ligi uchun	Kva-ya o'z-gamay jazo kama y gan	Kva-ya o'z-garib, jazo kama y gan			
QQR	-	2	2	47	9	-	-	-	24	-	-	-	-	4	1
Andijon	-	19	7	12	4	6	12	10	2	1	1	16	1	1	-
Buxoro	-	3	3	19	3	2	7	7	20	7	-	6	6	2	2
Jizzax	2	-	-	18	15	1	3	1	-	3	-	3	-	1	-
Qashqadaryo	1	5	5	50	38	1	1	1	12	16	3	-	-	11	121
Navoiy	1	9	3	29	5	-	1	-	18	1	-	4	-	5	-1
Namangan	-	-	-	-	-	-	6	6	1	6	-	11	11	4	41
Samarqand.	3	10	3	48	76	3	9	1	3	12	4	4	-	3	51
Surxondaryo	-	8	4	13	10	-	1	1	8	6	-	2	-	3	61



Sirdaryo	-	14	2	14	6	-	10	1	3	-	-	-	-	-	-	-
Xorazm	-	2	1	7	10	-	2	-	13	4	2	-	-	-	9	-
Fargona	-	7	2	62	6	-	6	-	4	-	-	4	1	7	3	-
Toshkent v.	2	36	20	51	42	6	22	12	11	19	5	6	6	7	7	-
Toshkent sh.	9	43	18	136	82	7	14	12	23	10	4	4	2	8	10	-
Markaziy markami	18	158	70	506	306	28	96	53	142	87	18	23	1	4	22	-
											37	83	28	69	72	1

## **10-§. Jinoyatlarni klassifikatsiyalash tushunchasi.** **Jinoyatlar klassifikatsiyasining sxemasi**

### **I. Sifat alomatlari bo`yicha jinoyatlarni klassifikatsiyalash.**

#### **A. Jinoiy huquqiy (yuridik) alomatlar:**

1) ijtimoiy xavfsizlik darajasi bo`yicha: a) og`ir; b) ijtimoiy xavfi katta bo`lmagan; d) a va b guruhlarga kirmaydigan o`rtacha og`irlikdagi (uncha og`ir bo`lmagan) jinoyatlar;

2) JK maxsus qismining hamma bob va moddalari bo`yicha – jinoyatchilikning to`liq tizimi;

3) eng keng tarqalganligi bo`yicha o`zgalar mulki va shaxsiy mulkni talon-taroj qilish, bezorilik, shaxsga qarshi jinoyatlar va h.k.lar;

4) ayb shakllari bo`yicha: qasddan va ehtiyotsizlikdan;

5) jazolanishi bo`yicha: a) jazo jamoaviy ta`sir choralari bilan almashtirilgan jinoyatlar, b) ozodlikdan mahrum qilish bilan bog`liq bo`lmagan jazo qo`llangan jinoyat subyektlarining jinoyatlari; d) jinoyat subyektlari ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan jinoyatlar; e) oliy jazoga hukm qilingan subyektlarning jinoyatlari.

#### **B. Kriminologik (tasvirlovchi) alomatlar.**

1) davlat boshqaruvi va xalq xo`jaligining sohalari bo`yicha (masalan, talon-taroj va mansabdorlik jinoyatlari);

2) alohida hududlar bo`yicha ( viloyatlar, tuman-shaharlar...);

3) yetkazilgan zarar bo`yicha;

4) jinoyatni sodir etish vaqti va joyi (ko`chada, saylgoh va bog`larda; ertalab, kechqurun; shu yil, o`tgan yil) bo`yicha;

5) alohida motivlar bo`yicha (masalan, qasddan odam o`ldirish: g`araz maqsadlarda, o`ch, rashk va hokazolar);

6) jinoyatni sodir etish usuli va quroli bo`yicha.

### **II. Jinoyatlarni miqdor alomatlari bo`yicha klassifikatsiyalash**

1. Tergov muddatlari (3 oygacha, 5 oygacha, 7 oygacha, 9 oygacha va undan yuqori 1 yilgacha);

2. Sud muhokamasi muddatlari (14 kungacha; 14-20-kun, 20 kundan 30 kungacha; 1 oygacha, 2 oy va undan ko`p - 4 oygacha);

3. Ozodlikdan mahrum qilish muddatlari ( 6 oydan 1 yilgacha; 1 yildan 3 yilgacha, 3-5gacha, 5-8 gacha, 8-10 gacha, 10 yildan ko`p);

4. Oldin sudlanganlik soni (1 ta, 2 ta, 3 dan yuqori-retsivd jinoyatchilikni aniqlash uchun);

5. Jinoyatni sodir etishda ishtirokchilar soni bo`yicha (1 ta, 2 ta, 3 ta, 5 ta va undan ko`p – guruhiy jinoyatchilikni aniqlash uchun);

6. Jinoyatlarni sodir etgan shaxslar yoshi bo`yicha (18 yoshgacha, 18 yoshdan yuqori – voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini aniqlash uchun).

Jinoyatlarning ko`rsatilgan klassifikatsiyasi ularni to`la qamrab olmaydi, faqat jinoyatchilikni statistikada qanday bo`lsa, dinamikada ham turli alomatlar bo`yicha shunday tadqiq qilish imkonini beradi. Boshqa tomondan, bu jinoyatchilikka qarshi kurash ishini tahlil qilishga ko`maklashadi. V.N.Kudryavsev jinoyat klassifikatsiya asosiga jinoiy xulqning ijtimoiy – psixologik xususiyatlari, ayniqsa, huquqbuzarlarning motiv va maqsadlarini qo`yish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi. «Jinoiy xulqning maqsad va motivlarining xarakteri, – yozadi V.N.Kudryavsev, – ma`lum me`yorlarda jamiyat qoloq elementlarining o`ziga xos intilishlari «ko`zgusi» bo`lib xizmat qilishi mumkin».

Shunday qilib, jinoyatlar klassifikatsiyasi bu ular yig`indisining ma`lum alomatlaridan kelib chiqib bo`lib tashlashdir. Keyinchalik dastlabki ro`yxatga olishning yakuniy hisob-kitob qilingan miqdorlarning ajratilgan guruhlarini, ularga mos keluvchi mutlaq miqdorlar bilan xarakterlash zarur. Bunday ish odatda, statistik jadvallar yordamida amalga oshiriladi, ularda guruhlashlar o`zining aniq ifodasini topadi.

### **Hisobotni tashkil etish va uning texnikasi**

1. To`plangan materialni guruhlash ishi o`tkazilgandan so`ng, ya`ni statistik jadvallarda aniqlangan guruhlar va ularni xarakterlovchi miqdorlar o`rnatilgandan so`ng hisobotga kirishish zarur. Hisobot, ya`ni statistik kuzatuvlar natijasini xulosalash, dastlabki materialni shunday qayta ishlashi zarurki, bunda ular bilan loyihalangan statistik jadvallarni to`ldirib bo`lsin.

Hisobot, albatta, oldindan guruhlashni talab etadi, ya`ni bir turli kategoriyalar bo`yicha kerakli ma`lumotni hisoblashni talab etadi.

O`zining tuzilishi bo`yicha hisobot markazlashgan va markazlashmagan tarqoq bo`lishi mumkin. Markazlashgan hisobotda barcha dastlabki materiallar(kartochkalar, blanklar va boshqalar) markazga yo`naltiriladi, u yerda ular qayta ishlanadi. Markazlashmagan hisobotda kuzatuvni olib boruvchi organlar dastlabki statistik hujjatlarning qayta ishlovini o`zi olib boradi va xulosalab bo`lingan materiallarni keyingi umumiy hisobot uchun markazga yuboradi. O`zining bajarilish uslubiga qarab hisobot texnikasi qo`lda ishlangan (katta hajmdagi material bo`lmaganda) va mexanizatsiyalashgan bo`lib, u juda katta ahamiyatga ega bo`ladi.

Hisobotni qo`lda ishlashdan oldin dastlabki hujjatlarni, ularning to`liqligi va sifatini nazoratdan o`tkazish lozim. Nazoratdan o`tkazilgandan so`ng hamma hujjatlarni ularning keyingi guruhlanishi uchun shifrlash yoki belgi qo`yib chiqish lozim. Buning uchun har bir hujjat alohida shartli belgi bilan o`zi tegishli guruhga qo`shish uchun belgilanishi kerak. Masalan, sudlanuvchi shaxslarga nisbatan to`ldirilgan kartochkalarni guruhlashda ularning har biri ma`lum jinoyat kategoriyasiga tegishligini bildiruvchi belgi bilan shifrlanadi. Masalan aytaylik shaxs ga qarshi jinoyatlar “a” harfi bilan, talon-taroj “B” harfi bilan, mansabdorlik jinoyatlari “V” harfi bilan va h.k..

Belgilab chiqilgandan so`ng hujjatlar alohida guruhlarga saralanadi va bevosita hisob kitob boshlanadi. Bu har bir guruh miqdorlari bo`yicha, shuningdek, umumiy xulosa bo`yicha olib boriladi.

Odatda guruhiy xulosalar oldindan tayorlab qo`yilgan jadvallarga kiritiladi va ularda umumiy xulosalanadi. Katta hajmdagi statistik ishlarni o`tkazganda mashinali hisobot qo`llanadi, bu hisob-kitob qilish muddatini juda qisqartiradi va yuqori sifatli material olishni kafolatlaydi. Mashinali hisobot qo`lda ishlangan hisobotdan hamma munosabatlar bo`yicha ustun turib, unda dastlabki hujjatlar miqdorlari alohida karton qog`ozga – perforatsion xaritaga o`tkazish uchun ma`lum sonlar bilan shifrlanadi.

Mashinalarni katta hajmdagi guruhlash va hisobot uchun qo`llash mehnat samaradorligini va sifatini bir necha marotaba oshiradi, ularning bajarilish muddatini qisqartiradi. Hozirda amaliyotda, bunday ishlarni bajarish uchun kompyuter va zamonaviy texnikalardan foydalanilmoqda.

## 7-BOB. MUTLAQ (ABSOLUT) VA NISBIY MIQDORLAR

### 1-§. *Mutlaq va nisbiy miqdorlar tushunchasi*

Statistik kuzatuv natijasida biz o'rganilayotgan holat yoki jarayon haqida ma'lumotlar va to'plangan statistik material orqali har tomonlama ma'lumot olishimiz mumkin. O'rganilayotgan butunligicha qo'shilgan jami ma'lumotlar o'zida umumlashtirilgan miqdorlarni aks ettiradi. Ular mutlaq va nisbiy bo'lishi mumkin. Bu miqdorlar, bir tomondan, ma'lumot va guruh usulidan ajratib bo'lmaydi, boshqa tomondan esa, ularning umumlashgan tushunchasi keyingi guruh metodi statistik analizning boshlanishi hisoblanadi.

Hammaga ma'lumki, birinchi umumlashtirilgan xabar (axborot) odatda mutlaq ma'lumotda bayon etiladi: 2 mln jinoyat, 1000 jinoiy ish, 15 ming hukm qilinganlar va boshqalar. Mutlaq miqdorlar – yig'ilgan miqdorlarki, bu hisoblab chiqilgan yoki o'zgartirishsiz bo'sh statistik hisobotlardan olingan miqdorlardir. **Mutlaq miqdorlar kuzatilayotgan miqdor birliklarini qo'shish yoki ayirish yo'li bilan aniqlanadi.** Statistik kuzatish natijasida dastlab mutlaq sonlar olinadi, so'ngra shu sonlar asosida nisbiy va o'rtacha miqdorlar hisoblab chiqiladi. Ular muhim ahamiyatga ega bo'lgan yuridik mohiyatga ega bo'lgan voqea-hodisalar haqidagi ma'lumotlar va guruh to'plamlari natijasida paydo bo'ladi. Mutlaq miqdorlar – bu nomli son (o'lchov birligi ko'rsatilgan son). Ular aniqlangan ijtimoiy-huquqiy yoki kriminalistik hodisalar (fuqarolik davolari, nikoh, nikohdan ajratish, jinoyat, sabab, voyaga yetmagan huquqbuzarlar va boshqalar)ning o'ziga xos yaxlit o'lchovi (sifat)ni ifoda etadi. Bu yaxlitliklar tabiiy holda bo'lishi mumkin (ayblanuvchilar soni, qo'lga olingan narkotik miqdori) va pul shaklida bo'lishi mumkin.

Mutlaq miqdorlar ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Bular orqali jinoyat paydo bo'lish o'lchovi, hukm qilinganlar soni, ko'rilgan fuqarolik davo ishlarining miqdori va boshqa hodisalar haqida muhokama qilish mumkin.

Ba'zi miqdorlar, ya'ni mutlaq miqdorlarda ifoda etilishida, yetarli ishonchli bo'ladi.

Masalan: 1960-yilda AQShda 2 mln «jiddiy» jinoyatlar sodir etilgan. 1990-yil esa 14,4 mln o'tkazilgan testlar AQShda jinoyatchilik darajasining yuqori darajada ekanligini ochiq-oydin ko'rsatdi.

Mutlaq miqdorlar baza hisoblanadi. Har bir statistik operatsiya mutlaq miqdorlarga tayanadi, asoslanadi, lekin ularning xususiy analitik imkoniyalari cheklangan. Mutlaq ma'lumotlarga ko'ra, masalan, turli

shaharlarda yoki turli viloyatlarda jinoyatchilik darajasi haqida muhokama qilish qiyin va qayerda jinoyatchilik yuqori darajada degan savolga javob berib bo'lmaydi, chunki shaharlar yoki viloyatlar aholi soni, territoriyasi va boshqa sabablarga ko'ra farq qiladi.

Xuddi shunday, bir mutlaq ma'lumotiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarda (militsiya, prokuratura, MXX organlari) jinoyatchilikning o'rganilishi va ochilishi haqida ushbu savolga javob topish qiyin, shu organdan qaysi birida jinoyat ochilishi yuqori darajada ekanligini aniqlash uchun albatta yig'ilgan ma'lumotlarni solishtirib, tahlil qilib chiqilishi zarur.

Aholi soniga qarab jinoyatchilik miqdorlarning qo'llanishi mutlaq miqdorlarning analitik imkoniyat cheklanishlari mavjudligi haqida guvohlik beradi. Shuning uchun, agar faqat ularga tayanilsa, xatoli xulosalarga olib kelishi mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mutlaq nomli son (o'lchov birligi ko'rsatilgan)ga tayanib obyektiv statistik analizni amalga oshirib bo'lmaydi.

**Mutlaq miqdor**, ya'ni boshqa miqdorlar taqqoslanadigan, asos yoki manbali taqqoslash, taqqoslanayotgan miqdor esa – taqqoslash miqdori. Masalan: 1990-1997-yillardagi N davlatidagi jinoyatchilik dinamikasiga bo'lgan munosabat hisoblayotganda, 1990-yildagi ma'lumotlar manbai hisoblanadi. Ular yaxlit ( bunda nisbiy miqdor koeffitsent ko'rinishida aks etadi) 100 (foizda), 1000 (mill), 10 000 (desimillda) holda qabul qilinadi.

Taqqoslanadigan miqdorlarning o'lchov tobeligiga qarab qulay, ko'rsatuvchi va yaqqol ko'rinishdagi nisbiy miqdorlar olinadi. Agar nisbiy miqdor juda yaxshi asosda bo'lsa, olingan munosabatni koeffitsentda yoki karrali aks ettirish yaxshiroq. Masalan: 1956-1990-yillarda jinoyatchilik 5,6 marta o'sgan.

Karrali ifodalash protsentda ifodalashdan ko'ra aniq ko'rsatuvchi bo'ladi. Garchi jinoyatchilik 556,7 % ga o'sgan deyish mumkin. Bu yerda u 556,7 % o'sgan deb bo'lmaydi, chunki haqiqiy o'sish – 456,7% ( 556,7 – 100 %, ya'ni manba ma'lumotlari shunday qabul qilingan).

Jamiyat taraqqiyotini nisbiy miqdorlarsiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, huquqiy statistikani ham nisbatan miqdorlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Aynan nisbiy miqdorlar yordamida jinoyatchilik dinamikasini chuqur o'rganish va solishtirib taqqoslash imkoniyati vujudga keladi. Mutlaq miqdor ichidan nisbiy miqdor ajratib olinadi, ya'ni jami jinoyatlar ichidan ma'lum bir turdagi jinoyatlarni o'zini ajratib olib, jamiga nisbatan qancha foizda ekanligini taqqoslash mumkin.

Payg`ambarimiz Muhammad Mustafo Sallollohu alayhi vassallamdan keltirilgan hadisi shariflarida ham nisbiy miqdorlar keng qo`llanilganligining guvohi bo`lamiz:

- Rizqning o`ntadan to`qqiztasi savdoda, bittasi chorvadadir.

- Alloh yo`lida bir kecha qorovullik qilish 1000 kecha namoz o`qib, kunduzlari ro`za tutgandan afzalroqdir<sup>1</sup>.

Protsentlarda nisbiy miqdorlar qachonki miqdorlar manbaidan unchalik katta farq qilmaganda ifodalanadi. Uncha katta farq bo`lmaganida promill va detsimillarda ifodalash mumkin. Oxirgi ikki ko`rinishdagi nisbiy miqdorlar yuridik statistikada qo`llanilmaydi. Lekin ijtimoiy va demografik statistikada qo`llaniladi.

Yuridik statistikada keyingi quyidagi nisbiy miqdorlar ko`rinishlari qo`llaniladi:

1) munosabat, tizimni jamlash yoki tizimni bo`lish bo`lgan munosabat;

2) munosabat, qismning butunlikka munosabati yoki intensivlik munosabati;

3) dinamikani xarakterlovchi munosabatlar;

4) rejani bajarishni xarakterlovchi munosabatlar;

5) daraja va tenglik munosabati;

Nisbiy miqdorlar – statistikada o`zida muhim umumlashgan miqdorlarni aks ettiradi, ya`ni ikki statistik miqdorning taqqoslangan songa oid o`zaro nisbatni ko`satib ochib beradi. Nisbiy miqdorlarni hisoblaganda 2 mutlaq son taqqoslanadi, lekin o`rtacha va nisbiy miqdorlarni ham taqqoslasa bo`ladi, yangi nisbiy sonni hosil qilib, muhimi shuki, bu miqdorlar o`zaro aloqadorlikda, yaxlit o`lchovda, vaqtinchalik davrda, hudud va boshqa parametrlarga ko`ra taqqoslanishi lozim.

Umuman xohlagan miqdorni taqqoslash mumkin. Ammo bunday taqqoslash o`zaro aloqador bo`lmasa, kam narsa beradi.

Nisbiy miqdorlarga indekslar tutashadi. Umumiy va iqtisodiy statistikada ular muhim mustaqil ma`noga ega va shuning uchun darsliklarda alohida bobda beriladi. Yuridik statistikada indekslarning qabul qilinishi cheklangan bo`lib, ularni nisbiy miqdorlar bilan birga ko`rib chiqamiz.

Munosabat, tizimni jamlash munosabati yoki tizimning bo`linish munosabati – bu ommalashgan nisbiy miqdor bo`lib, o`rganilayotgan holatning alohida qismlarining jamining ularning umumiy jamiga nisbatan foizda ifodalanishi, qabul qilingan.

<sup>1</sup> Ё.Абдуллаев. Статистика назарияси. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2002. Б.110.

Shaxs belgilari	Mutlaq miqdor	Nisbiy miqdor
Aniqlangan shaxslar	1 618 394	100; 0
Voyaga yetmaganlar	192 199	11,9
Ayollar	257 277	15,9
Studentlar, talabalar	103 611	6,4
Ishsizlar	76 278	4,7
Sudlanganlar	313 713	19,4
O`ta xavfli retsivistlar	608 2	0,4

Taqqoslanayotgan ma'lumotlar albatta bir-biri bilan: vaqt, hududga ko'ra yoki boshqa parametrga ko'ra olinayotganda mos bo'lishi kerak. Aytaylik, Qirg'iziston bilan O'zbekistondagi jinoyatchilikni solishtirish mumkin, garchi bu davlatlar hudud va aholi soni jihatdan solishtirib bo'lmaydi, lekin bir yildagi jinoyatchilik haqida solishtirish mumkin; jinoyatchilik yoki sudlanganlikni turli yillarga qarab taqqoslash mumkin, lekin bir hudud va xuddi shu territoriyada miqdorlarning qismma-qism taqqoslanishi talab qilinganda nisbiy miqdorlarning turli ko'rinishlarda muvofiq kelishi ko'rib chiqiladi.

Jinoiy va fuqarolik ishlari jamiyning struktura ta'rifi statistik analizning asosiy qismini tashkil etadi. Bu yerda shuni aniqlash mumkinki, qanday jinoyatlar, ma'muriy va fuqarolik huquqiy huquqbuzarlik mamlakatda butun ustunlik qiladi, davlatning hududiy-ma'muriy taqsimlanuviga oid subyektlar, shahar, rayon, fuqarolik huquqiy nizolarda davogar va javobgar sifatida jismoniy va yuridik shaxslarning qanday taqsimlanishi; huquqbuzarlar yoki sudlanganlarning jinsi, yoshi, oilaviy sharoiti, ma'lumoti va boshqalarga ko'ra aniqlanishining qanday taqsimlanishi va boshqalar.

Bu bilan bog'liq bo'lgan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda va sudlarda jinoyat ro'yxatlarining nisbiy to'liq differensiyalangan, ularni sodir etgan shaxslarni, hukm qilinganlar va ular bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni, yuridik statistikada jinoyatchilik va sudlanganlikning keng ommalashgan strukturali miqdorlarini qo'lga kiritdilar, jinoyatchilik (jinoyatchilar) strukturali guruhning o'zaro nisbati yoki ko'rsatilgan jinoyatchilik umumiy jamida jinoyatchilik ko'rinishlarini ochadi yoki turli kategoriyadagi shaxslarning o'zaro nisbati, jinoyat sodir etganlar, umumiy strukturada huquqbuzarlarning aniqlanishi vaqtning ma'lum davrida, ma'lum bir hududda olinadi. Jinoyatchilik strukturali mutlaq va nisbiy miqdorlarda o'lchanadi, ya'ni nafaqat son jihatdan, balki sifat jihatdan xarakterlaydi.



Jinoyatchilik o`z ichiga quyidagilarni olishi mumkin:

1) jinoyatchilikning turli ko`rinishlardagi solishtirma og`irligi (JK moddalariga ko`ra) va jinoyatchilik guruhi (JKning bobi va bo`limi).

2) kategoriyaga ko`ra jinoyatchilikning o`zaro nisbati (uncha og`ir bo`lmagan, o`rta og`irlik, og`ir, o`ta og`ir).

3) jinoyatchilikning shahar va qishloq, ijtimoiy sferada, iqtisodiy rayonlarda, jinoyat sodir etilgan joyga, yil vaqtlariga qarab taqsimlanishi.

4) qasddan va ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlarning o`zaro nisbati, jinoyatlarning to`g`ri yoki egri qasd bilan sodir etilganligi, yengiltaklik va beparvolik asnosida.

5) jinoyatlarning shuhratparastlik, zo`rluk va boshqa ko`rinishlarga solishtirma o`lchovi.

6) retsdiv, professional, guruh va tashkillashtirishning hissasi;

7) ochilgan va ochilmagan jinoyatlarning solishtirma og`irligi;

8) huquqbuzarlarning aniqlanish strukturasi fuqarolarning erkak va ayol hissasi, voyaga yetmaganlar, erta sudlanganlar, ishsizlar, spirtli ichimlik yoki narkotik iste`mol qilgan holda jinoyat sodir etgan shaxslar va boshqa kategoriyalarga ko`ra;

9) jinoiy javobgarlikdan ozod etilgan, sudlangan, ozodlikdan mahrum etilgan holda va boshqa jazo ko`rinishlaridagi solishtirma og`irligi.

Strukturaviy miqdorlarning mutlaq ko`pchiligi ijtimoiy huquqiy va kriminalistik voqelik analizida muhim ahamiyat kasb etadi.

Barcha davlatlar yoki regionlarda bir tomondan jinoyatchilikning strukturasi o`g`irlik balandda turadi. Ularning solishtirma og`irligi 50-80 % chegarasida turadi.

Ba`zi zo`rluk ishlatiladigan harakatlar haqida shuni aytish mumkinki, turli kriminalistik sharoitlarda ularning solishtirma og`irligi 8-10 % (shu jumladan, qasddan odam o`ldirish 1-3 %) o`ynab turadi, garchi darajadagi farq 15-20 darajaga ham yetishi mumkin.

Qonuniylikning strukturaviy mosligi jinoyatchilikning taqsimlanishi oldidan jinoyatchilik subyektlarining bir qancha belgilariga ko`ra kuzatadi.

Masalan: turli davlatlarda ayollar jinoyatchiligining qismi dunyo vaqtida 15-20% chegarasidan chiqmaydi.

Bu sharoitda strukturaviy miqdorlar dinamika bilan qo`shilishadi. Ba`zi bir strukturaviy miqdorlar bahosi uchun kriminologlar ba`zida aholining turli guruhlari va bo`g`inlaridagi qo`shimcha jinoyatchilikning zarar ko`rish koeffitsientini ishlatadilar.

Qismning butunlikka munosabati yoki intensivlik munosabati, o`zida umumlashgan nisbiy miqdorlarni aks ettiradi, ya`ni kuzatilayotganlarning

barchasini ma'lum belgilarining ommalashganini aniqlashga yo'l ochadi. Aniqlashda, masalan, fuqarolik huquqiy tortishuvlar ommalashgani turli davlatlarning hududlarida, ularning umumiy sonini aytish yetarli emas, chunki ular hudud, aholi soni jihatidan farq qiladi. Lekin fuqarolik davolari soni hisoblanadigan, taqqoslanadigan region yoki shaharlarda butun aholining kelib ketadigan 100 yoki 100 mingga, shunda aniq javob berish mumkin, qayerda davo intensivligi yuqori va past darajada bo'lsa, jinoyatchilikning intensiv sonini o'zida aks etadi, mamlakatda, viloyat, rayon-shaharda yoki aholi punktida kriminologik vaziyatda sifat sonini, jinoyatchilik paydo bo'lishining darajada ko'rsatilishini yoki xavflilik darajasi o'zida aks etadi.

Tablitsa 2. Aliment bo'yicha berilgan davo arizalaring miqdorlari.

Hududning nomlanishi	Aholi soni	Mutlaq miqdor	10 ming aholi uchun
A-viloyati	2 745 040	3117	11,3
B-viloyati	962 084	1642	17,0
C-viloyati	1 792 965	2045	11,4
D-viloyati	3 846 551	3779	9,8

Kriminologik adabiyotlarda jinoyatchilikning tez sur'atlarda o'sib borishini 10, 100 ming kishi boshiga jinoyatlar sonini to'g'ri kelishi bilan hisoblanadi. Jinoyatchilik koeffitsientini «faktlar koeffitsienti» deb atashadi. Aholi soniga qarab jinoyatchilik koeffitsientini hisoblash statistik kriminologik analizning muhim miqdorlaridan biridir. Ayrim mutaxassislar jinoyatchilik koeffitsientini «jinoyatchilik tezligi koeffitsienti» deb nomlashadi.

Turli davlatlar, regionlar yoki aholi punktlaridagi jinoyatchilik koeffitsientlarini solishtirib, qaysi hududda jinoyatchilik tezligi yuqoriligini aniqlash mumkin. 1991-yilda Shvedsiyada 1 045 306 jinoyat, SSSR da 3223 147, ya'ni 3 marta ortiq jinoyat sodir etilgan. Ammo Shvedsiya aholisining soni SSSRga qaraganda 35 marta kam bo'lgan. Jinoyatchilik koeffitsientini hisoblab, biz Shvedsiyada u har 100 ming kishiga 12 154 qilmish, SSSR da 1115 qilmishni yoki 11 marta kamligini ko'ramiz.

Turli davlatlardagi jinoyatchilikning obyektiv solishtirish ko'p rejali va kompleks bo'lishi kerak. Jinoyatchilikka qarshi kurash darajasi sifatii solishtirilishi kerak, jinoyatlarning to'la ro'yxatga olish, politsiyaning ishlashi va boshqalar. Bu bilan biz boshqa fikrga kelamiz. Jinoyatchilik koeffitsienti va alohida jinoyatlarni sodir etilishi koeffitsienti ushbu ishda muhim miqdordir.

Tushuncha bo'lishi uchun faraz qilaylik, ma'lum ikki viloyat ma'lumotlarini tahlil qilsak, masalan, 1995-yil har 100 ming kishiga 2655 jinoyat, uchinchi viloyatda esa, 1198 jinoyat ro'yxatga olingan. Birinchi viloyatlardagi jinoyatchilik jadalligi 2 ga qaraganda 2,2 marta yuqori. Lekin jinoyatchilikning umumiy koeffitsienti uning jadalligini aniqlovchi yagona yo'l emas. Jinoyatlarning alohida guruhlari, ko'rinishlaridagi jinoyatchilik tezligiga e'tibor qaratish kuzatuvchilarni jinoyatchilikning haqiqiy sabablarini topishga yordam beradi. Bir yil davomida jinoyatchilik koeffitsienti har 1,2,3 oyda bir hisoblanishi mumkin. Masalan: yanvar-mart, yanvar-aprel, yanvar-oktabr.

Jinoyatchilik koeffitsientini hisoblashda ayrim xususiyatlarga e'tibor berish kerak:

1) yil davomidagi jinoyatlar, huquqbuzarlar, sudlanganlar, fuqarolik va jinoyat ishlari, kiritilgan davolar va boshqalar «oraliq qatorlar» bo'lib, yil davomida yig'ilib, qilmishlar dinamikasini namoyon etadi. Miqdordagi xatoliklar faqat jinoyat, shaxs va ishlarni to'liq ro'yxatga olmaslikdan vujudga keladi;

2) aholining soni vaziyatli qator bo'lib, muayyan sanalar bilan karakterlanadi (yil boshi yoki oxiri), yil boshida boshqa, o'rtasida boshqa, oxirida ham o'zgaradi.

3) aholining doimiy yashovchi va vaqtincha yashovchiligini hisobga olish. Masalan: N shahrida 2005-yil boshida doimiy yashovchilari 7,5 mln, nelegallar 1,0 mln. Kriminologlar buni hisobga olishlari zarur, chunki jinoyatlarning 1/3 dan birini, ayrim hollarda yarmini chetdan kelganlar sodir qiladi.

4) aholining jinoiy javobgarlik yoshiga yetgan qismini hisobga olish jinoiy javobgarlik 13 (alohida hollarda) yosh va 16 yoshdan boshlanadi. Bular o'rtacha aholining 35 %, tug'ilish yuqori hududlarda 40 %, past hududlarda 20 %ni tashkil etadi. Lekin bu jihatni kriminologik solishtirish juda qiyin, sababi jinoiy javobgarlikka tortish turli davlatlarda 10, 12, 14, 16 yosh. Shu tufayli jinoyatchilik aholi boshiga hisoblanadi.

5) kriminologik izlanishlarda umumiy ro'yxatga olingan jinoyatlar o'rniga faqat ochilgan jinoyat ishlari, ushlangan, aniqlangan huquqbuzarlar, ehtiyot chorasi qo'llanganlar, barcha sudlanganlar, ozodlikdan mahrum etish jazosi qo'llanganlar, jabrlanuvchilar va boshqalar hisobi bilan koeffitsient hisoblash mumkin. Bunda har 100 ming aholiga jinoyatlar ochilishi hisoblanadi. Har 100 ming kishiga huquqbuzarlar, jabrlanuvchilar, qamoqqa olinganlar hisoblanadi.

## 8-BOB. O`RTACHA MIQDOR (MIQDORLAR) VA ULARNING HUQUQIY STATISTIKADA QO`LLANILISHI

### 1-§. O`rtacha miqdorlar tushunchasi

Mutlaq (absolut) va nisbiy ma'lumotlardan keyingi umumlashma miqdorlar – bu o`rtacha miqdorlar va u bilan bog`liq turlanish (variatsiya) miqdorlaridir. O`rtacha miqdor deyilganda -bir turdagi(xildagi) hodisaning o`zgaruvchan belgilari asosida umumlashtirib ta`riflovchi miqdor, ko`rsatkich tushuniladi. O`rtacha miqdorning xususiyati shundaki, u to`plamning umumiy darajasini yoki undagi ayrim birliklarning darajasini tavsiflamasdan, balki o`rganilayotgan belgi umumiy darajasining to`plam birliklariga bo`lgan nisbatini ifodalaydi<sup>1</sup>. Ular iqtisodiy analizda muhim ahamiyatga ega va yuridik statistikada muhim rol uynaydi. Faqat o`rtacha miqdorlar yordamida miqdoriy turlanuvchi belgilar majmuini tasniflash mumkin bo`lib, shu bo`yicha ularni qiyoslash mumkin.

Tasavvur qilaylik, jinoyatchilik darajasi va tarkibi bo`yicha o`xshash ikkita tumanda tayinlangan jinoiy jazolar sud amaliyotini qiyoslash zarur. Bu vazifani muayyan sudlanuvchilarga nisbatan tayinlangan jazo choralarini taqqoslash asosida yechib bo`lmaydi, zero bundan qandaydir qaror chiqarish mumkin, agar tasnifi bo`yicha bir xil qilmishlar uchun mazmunan farq qiluvchi jazo choralari tayinlangan bo`lsa. Ammo biz barcha jazo muddatlarini hisoblab (ularni  $x_1, x_2, x_3$  va h.k. shartli belgilar bilan belgilaymiz) va sudlanuvchilarning umumiy miqdoriga ( $n$ ) bo`lamiz hamda olingan o`rtacha miqdorga ko`ra ikkala suddagi jazo tayinlash amaliyoti qanday holatda ekanligini aytish mumkin va o`rtacha miqdorlar asosida uni qiyoslash mumkin. Ozodlikdan mahrum etish bilan bog`liq bo`lmagan jazolarni umumlashtirishda ularning qo`shish holati paytida qo`llaniladigan tartib va boshqa sudlanganlik indeksini analiz qilish paytida aytilgan qoidalar qo`llanilishi mumkin.

Bunday holatda, u yoki bu suda tayinlangan jazo choralari o`rtacha miqdorlarda umumiy xarakterga ega bo`lib, mavjud individual farqlardan mavhumlashtirish (abstragirovaniya) natijasi hisoblanadi, ammo bunda asosiy tarkibi saqlanib qoladi va individual og`ishlar bir-birini berkitadi.

Shunday qilib, o`rtacha miqdorlar yordamida bizni qiziqtiradigan u yoki bu miqdoriy alomatlar bo`yicha yuridik ahamiyatli hodisalarning majmuini qiyoslash mumkin va bu qiyoslash orqali nafaqat jazo muddatlari to`g`risida, balki huquqbuzarlarning yoshi (mahkumlar,

<sup>1</sup> Ё.Абдуллаев. Статистика назарияси. Дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 2002. Б.142.

mahbuslar), balki tergov va jinoiy hamda fuqarolik ishlarini ko`rish muddatlari to`g`risida va h.k.lar to`g`risida zarur xulosalar qilish mumkin.

***O`rtacha miqdorlar statistikada bir xil hodisalar yig`indisining qandaydir bir miqdoriy o`zgaruvchi belgilari bo`yicha o`zida umumiy xususiyat kasb etadi.*** U doimo belgilarning miqdoriy o`zgarishini umumlashtiradi, masalan, huquqbuzarlarning yoshi 14 yoshdan 60 yoshgacha, jazo choralari 1 oydan 20 yilgacha. Bu belgi har xil darajada bo`lsa-da, umuman barcha birliklarga tegishli. Har qanday huquqbuzar u yoki bu yoshda bo`ladi, shuningdek, har bir sudlanuvchi bevosita yillarda hisoblanadigan u yoki bu jazo chorasini oladi. Shuning uchun har qanday o`rtacha miqdorda o`rganilayotgan belgi bo`yicha birliklar majmuasi taqsimlanishi qatori, ya`ni o`zgaruvchi qator yashirinadi.

Shunga muvofiq o`rtacha miqdorlarni hisoblashning asosiy shartlaridan biri bu o`rtachalashtirilayotgan belgilarga nisbatan umumiy birliklarning sifatli bir xilligidir. Har xil tipdagi hodisalar uchun ajratilgan o`rtacha miqdorlar o`zida yasama vaziyatni aks ettiradi. Ular turli xil majmualarning farqini o`zaro g`alizlashtirishi va xato raqamlarni o`zida ifoda qilishi mumkin. Statistlar bu munosabatda klassik illustratsiya (mumtoz ko`zbo`yamachilik) – o`rtacha daromadni kambag`al va boylarga, ya`ni xalqqa ajratish natijasida haqiqiy holatni bo`yab ko`rsatishga erishish mumkin. Gleb Uspenskiy o`zining «Otlarning to`rtidan bir qismi» ocherkida bir qator sifatli turli xil majmualar birliklari ajratilgan. O`rtacha miqdorlar haqiqatni jiddiy bo`yab (buzib) soxtalashtiradi.

Bunday holatlarda o`rtacha miqdorlar sifatli bir xil guruhlar bo`yicha hisoblanadi. Bizning holatga tatbiq etadigan bo`lsak: kambag`allar uchun o`rtacha daromad va boylar uchun o`rtacha daromad. Ilmiy asoslangan sifatli guruh alomatlariga tayanadigan statistik miqdorlarning guruhlanishi bu o`rinda juda katta rol o`ynaydi.

O`rtacha miqdorlar bilan ishlashda umumiy hamda guruhiy miqdorlar singari individual miqdorlarni asrash maqsadga muvofiq emas. O`rtacha miqdorlar faktlarning butunlay umumlashishiga asoslanib, ularning tipik (oddiy) darajalarini aks ettiradi. Ammo ularda o`rganilayotgan hodisa bo`yicha aniq ma`lumot, ishning aniq miqdorlari va boshqalar bo`lishi kerak. Miqdoriy munosabatda tipik hisoblanmasdan ular analizning sifatli darajasida shunday bo`lishi mumkin, masalan, o`tayotgan yilning qoldiq-lari yoxud kelajakda bo`lishi mumkin bo`lgan o`sishlar bilan hisoblanishi mumkin. O`rtacha miqdorlarning statistikada ilmiy qo`llanilishi umumiy va individual, yalpi va yakka miqdorlarga tayanishi kerak.

O`zimizning misolga qaytamiz: u yoki bu tuman sudida sudlanuvchilarga yil davomida tayinlangan jazolarning o`rtacha muddati masalasini esga olsak. Umuman olganda (bir xil majmuadan kelib chiqqan holda), jazo muddatining o`rtachalashtirilishi faqat bir xil jazolar tayinlangan shaxslarga nisbatan qo`llanilishi mumkin, bunday holatda – ozodlikdan mahrum qilishni misol qilsak bo`ladi. Ozodlikdan mahrum qilish bilan bog`liq bo`lmagan jazo (jarima, axloq tuzatish ishlari, qamoq va boshqalar) tayinlangan mahkumlar boshqa bir xil majmuani tashkil etadi. Ammo bizda ozodlikdan mahrum qilish bilan bog`liq bo`lmagan jazolar muddatlarini aniqlashda qonunchilikda hisoblash qoidasi va barcha jazolarning ballarda hisoblashning asoslangan amaliyoti mavjud. Bunday holatda umuman o`rtacha miqdorlarni hisoblash mumkin.

Umumlashma o`rtacha miqdorlar umumlashma nisbiy miqdorlardan yaqqol farq qiladi. Nisbiy miqdorlarda nisbiy majmualari bir-biriga nisbatan o`zgaruvchi alomatlar bo`lib hisoblanmaydi. Masalan, koeffitsientda 100 ming aholining faktlar miqdori, aytaylik, huquqbuzarlar miqdoriga nisbatan yosh aholining o`zgaruvchi belgisi bo`lib hisoblanmaydi. Shu bilan bog`liq intensivlik miqdori (100 ming aholiga 5 ming jinoyat) har bir fuqaro – jinoyatchi, shunda o`rtacha (huquqbuzarlarning o`rtacha yoshi) har bir huquqbuzar u yoki bu yoshga ega.

O`rtacha miqdorlar faktlarning yalpi umumlashtirilishiga asoslanadi. Faqat shu shart bilan kuzatilayotgan hodisalar asosida yotgan u yoki bu tendensiyalarni (qonuniyat) aniqlashi mumkin. O`rtacha miqdorlar umumiy barcha o`rganilayotgan holatlarga xos eng umumiy tendensiyani namoyon etadi. U oddiy miqdoriy xarakteristikada aks etadi, ya`ni barcha mavjud miqdorlarning o`rtacha miqdorlarida ifodalanadi. Alomatlarning tebranish burchagini eslaylik, barcha variantlarning o`rtacha miqdorlardan og`ishi va ehtimollik nazariyasi hamda katta sonlar qonuniga muvofiq tanlangan kuzatuvni asoslashda ishlatiladi. Yuqorida sanalganlarning oxirgisi yetarlicha katta miqdordagi birliklar majmui mavjudligida shakllanishi va faqat yalpi jarayonda yaqqol namoyon bo`lishi statistika qonunchiligining klassik tarkibini aks ettiradi.

Mazkur holatda, o`rtacha miqdor unda birliklar majmuining tasodifiy individual farqlarning o`zini o`zi yopib ketishi bilan bog`liq holatda barcha yig`indilarning umumiy va oddiy (tipik) xarakteristikasini aks ettiradi.

## 2-§. O`rtacha miqdorlar turlari

O`rtacha statistik miqdorlar bir qancha ko`rinishlarga ega, ammo ularning barchasi darajaviy o`rtacha miqdorlar sinfiga kiradi, ya`ni variantlarning turli xil darajasidan tuzilgan: o`rtacha arifmetik, o`rtacha garmonik, o`rtacha kvadrat, o`rtacha geometrik va boshqalardan.

Darajaviy o`rtacha miqdor formulasining umumiy ko`rinishi quyidagicha:

$x_q$

bunda  $\underline{x}$  - aniqlangan darajaning o`rtachasi («iks chiziqchasi bilan», deb o`qiladi);  $x$  - variantlar (alamatning o`zgarayotgan ma`nosi);  $n$  - variantlar miqdori (birliklarning umumiy miqdori);  $m$  - o`rtacha miqdor darajasining miqdori;  $\sigma$  - jamlashtirish belgisi (katta sigma). Turli xil darajaviy miqdorlarni hisoblashda asos bo`lib xizmat qiladigan asosiy miqdorlar ( $x, n$ ) o`zgarmasdan qoladi. Faqat  $m$  kattaligi va shunga muvofiq  $\underline{x}$  kattaligi o`zgaradi.

Agar  $m = q = 2$ , unda o`rtacha kvadrat hosil bo`ladi. Uning formulasi

Agar  $m = q = 1$ , unda o`rtacha arifmetik hosil bo`ladi. Uning formulasi

Agar  $m = q = -1$ , unda o`rtacha garmonik hosil bo`ladi. Uning formulasi

Agar  $m = q = 0$ , unda o`rtacha geometrik. Uning formulasi

O`rtacha miqdorlarning turli xil ko`rinishlari o`sha dastlabki miqdorlarida ( $x$  variantining mazmuni va ularning  $n$  miqdoriga) har xil darajalarning ahamiyati bilan bog`liq ravishda yuqorida sanalganlardan uncha farqli ahamiyatga ega emas. Ularni aniq bir misollarda ko`rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, N mahallasida 1995-yilda 3 ta avtotransport bilan bog`liq jinoyat qayd etilgan, 1996-yilda esa – 6 ta. Bunday holatda  $x_1 = 3$ ,  $x_2 = 6$ ,  $n$  esa (variantlar miqdori, ya`ni yillar) ikkala holatda ham 2 ga teng

Darajani  $m = q = 2$  ga tenglashtiradigan bo`lsak, o`rtacha kvadrat miqdorni hosil qilamiz:

Darajani  $m = q = 1$  ga tenglashtirsak, o`rtacha arifmetik miqdorni hosil qilamiz:

Darajani  $m = q = 0$  ga tenglashtirsak, o`rtacha geometrik miqdorni hosil qilamiz:

Darajani  $m = q = -1$  ga tenglashtirsak, o`rtacha garmonik miqdorni hosil qilamiz:

Amalga oshirilgan hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, har xil o'rtacha miqdorlar o'zaro quyidagi notenglik zanjirini hosil qiladi:

Qonuniyat oddiy: qanchalik darajaviy o'rtachalar kam bo'lsa ( 2; 1; 0; -1), tegishli o'rtachalarning ahamiyati ham shuncha kam bo'ladi. Shu tarzda har bir o'rtacha keltirilgan ko'pchilik qatorga nisbatan undan o'ngda turadi. Va bu o'rtachalarning ko'pligi qoidasi deb nomlanadi.

Keltirilgan soddalashtirilgan misollarda variantlar ( $x$ ) mazmuni qaytarilmadi, 3 ning mazmuni bir marta qaytarildi hamda 6 ning mazmuni ham bir marta. Statistik voqelik birmuncha qiyinroq. Variantlar mazmuni bir necha marotaba qaytarilishi mumkin. 1 dan 10 gacha raqamlashtirilgan kartochkalarni tadqiqiy chiqarib tashlashga asosan tanlangan usulni asoslanganligini eslaylik. Kartochkalarning ayrim raqamlari 2, 3, 5, 8 marotalab chiqarib tashlanadi. Sudlanganlarning o'rtacha yoshlarini, jazolarning o'rtacha muddatini, tergovning o'rtacha muddatini hisoblashda yoxud o'sha variantning ( $x$ ) jinoiy ishlarini ko'rib chiqishda, masalan, 20 yosh yoki 5 yil jazo chorasi 10 marotaba yoki hatto 100 marotaba qaytarilishi mumkin, ya'ni u yoki bu chastota( $f$ ) bilan qaytariladi. Bunday holatda o'rtachalarni hisoblashning umumiy va maxsus formulasiga  $f$  belgisi – chastota kiritiladi. Chastotalarni bunda statistik tarozilar yoki o'rtacha tarozilar deb nomlaydilar, o'rtachaning o'zi esa **o'lchangan darajaviy o'rtachalar** deb nomlanadi. Bu shuni anglatadiki, har bir variantni (25 yosh) chastota (40 ta odam) bo'yicha tortiladi (o'lchanadi), ya'ni unga ko'paytiriladi.

Oddiy o'rtacha yoki o'lchangan o'rtachani tanlash statistik material bilan aniqlanadi, darajaviyning ko'rinishini tanlash esa (arifmetik, geometrik va b.lar) – tadqiqot maqsadi orqali. Mutlaq miqdorlarning o'rtacha yiliga o'sishini hisoblashda arifmetik miqdorlarni qo'llaganimizni eslaylik, o'rtacha yiliga o'sishning (kamayishning) tempini hisoblashda esa biz o'rtacha geometrik miqdorlarga murojaat qilishimizga to'g'ri keladi, chunki o'rtacha arifmetik miqdorlar xato xulosalarga olib kelganligi uchun bu vazifani bajara olmadi.

Yuridik statistikada o'rtacha miqdorlar keng qo'llaniladi. U tezkor xodimlar, tergovchilar, prokurorlar, sudyalar, advokatlar, yuridik muassasalarning boshqa xodimlari ishlarini baholashda; jinoyatchilik, jinoiy hamda fuqarolik ishlarining va boshqa o'lchov birliklarining aniq o'sishini (kamayishini) hisoblashda; tanlangan kuzatuvni asoslashda va boshqalarda ishlatiladi.

O'rtacha geometrik miqdor yuridik ahamiyatli holatlarning o'rtacha yiliga o'sishini (kamayishi) hisoblashda ishlatiladi.



O`rtacha kvadrat miqdor (og`ishning o`rtacha kvadrati, o`rtacha kvadratik og`ish) o`rganilayotgan holatlar va ularning sabablari orasidagi munosabatni aniqlashda, korrelatsiyaviy bog`liqlikni asoslashda ishlatiladi.

Yuridik statistikada keng qo`llaniladigan o`rtachalardan ayrimlari, shuningdek, moda va mediana keyingi paragraflarda batafsil ko`rib chiqiladi. O`rtacha garmonik, o`rtacha kubik, o`rtacha progressiv yuridik statistikada deyarli ishlatilmaydi. Masalan, oldingi sud statistikasi bo`yicha darsliklarda mavhum misollarda batafsil yoritilgan o`rtacha garmonik miqdorlar ko`zga ko`ringan iqtisodiy statistika olimlari tomonidan tanqid qilingan. Ular o`rtacha garmonik miqdorni o`rtacha arifmetikning teskari kattaligi deb hisoblashadi va shuning uchun u, ularning fikriga ko`ra, mustaqil mazmunga ega emas, vaholanki boshqa statistika olimlari unda muayyan bir foydali tomonni ko`rishadi. Iqtisodiy statistika olimlarining munozaralariga kirishib ketmasdan, shuni aytamizki, o`rtacha garmonik miqdor biz tomondan yuridik analizda qo`llanilmaydigan ko`rinish sifatida batafsil bayon etilmaydi.

O`zgaruvchan qatorda variantning ahamiyati o`rtachalarni xarakterlash uchun oddiy va o`lchangan darajaviy o`rtacha miqdorlardan tashqari hisobiy (miqdoriy) emas, izohiy o`rtachalar olinishi mumkin: **moda** (ancha ko`p uchraydigan variant) va **mediana** (o`zgaruvchan qatorda variantning o`rtachasi). Ular yuridik statistikada keng qo`llaniladi.

### 3-§. O`rtacha arifmetik miqdorlar

**O`rtacha arifmetik** – o`rtacha miqdorlarning eng keng tarqalgan turi. Oddiy arifmetik o`rtacha o`rtachalashtirilayotgan belgi miqdorlari bir yoki teng marta takrorlangan paytda qo`llanadi. Uni aniqlash uchun dastlab o`rtachalashtirilayotgan alohida miqdorlar( $x$ ) yig`indisi ( $\Sigma$ ) aniqlanadi, so`ngra olingan natija ularning soni( $f$ ) ga bo`linadi. Tasodif emaski, uning ko`rinishini ko`rsatmasdan gap o`rtacha miqdorlar to`g`risida ketar ekan, aynan o`rtacha arifmetik nazarda tutiladi. U quyidagi holatlarda qo`llaniladi, o`zgaruvchan alomatning hajmi barcha yig`indilar uchun alohida birliklar yig`indisidagi alomatlar ahamiyati jamisi sifatida namoyon bo`lganda. Uni hisoblash ancha oson hisoblanadi: barcha variantlar miqdorlari qo`shiladi va bu summani varianlar birligining umumiy miqdoriga bo`linadi.

Faraz qilaylik, shahar sudidagi turli xil yo`nalishdagi fuqarolik ishlarini ko`rishga mo`ljallangan 15 ta sudyaning ishi quyidagicha chiqdi: 17, 42, 47, 47, 50, 50, 50, 63, 68, 68, 75, 78, 80, 80, 85. Viloyat sudyasi va respublika Oliy Sudi sudyalari bilan taqqoslash maqsadida o`rtacha yillik ishini hisoblab chiqish kerak. Buning uchun barcha mustaqil ishlar natijalarini qo`shib (ularni  $x_1, x_2, x_3, \dots, x_n$  deb belgilaymiz), sudyalarning umumiy soniga( $n$ ) bo`lish kerak. Shu yo`l bilan biz oddiy o`rtacha arifmetik miqdorni hosil qildik. Ko`rilayotgan misolda 15 variant (15ta mustaqil ishlar), ammo ular faqat 10 ta mazmunga ega, chunki ayrim sudyalarda ishlar bir xil bo`lgan: 47va 47; 50, 50 va 50; 68 va68; 80 va 80. Bunday holatda o`rtacha arifmetikni hisoblab chiqarish oson bo`lishi mumkin: variantlarni ( $x_1, x_2, x_3, \dots$ ) jamlashdan oldin variantlarni tegishli chastotalar ( $f_1, f_2, f_3, \dots$ ) miqdoriga ko`paytirish lozim, so`ngra olingan natijani qo`shish va sudyalarning umumiy miqdoriga bo`lish kerak. Bularning barchasini jadvalda (jad. 1) ravshanroq qilib aks ettiramiz, bunda sudyalar soni ko`rilgan ishlar soniga qarab taqsimlanadi, bu esa o`zida o`zgaruvchan qatorni aks etiradi.

Diskret o`zgaruvchan qator uchun o`rtacha arifmetik o`lchangan formulasi bo`yicha hisoblab chiqariladi. Bizning misolimiz uchun o`rtacha arifmetik o`lchangan oddiy o`rtacha arifmetikdan sezilarli farqi yo`q. Unda bir xil miqdor raqamini jamlash o`rniga bu miqdor raqamini uning chastotasiga ko`paytirish amalga oshiriladi, ya`ni bu holatda har bir miqdor raqami uchrashi chastotasi bo`yicha o`lchanadi. Bizning misol oddiy va o`rtacha o`lchanganlarni tatbiq etishdan hosil bo`lgan texnik foyda unchalik hayratli emas. Ammo chastotalar yuzlab yoki minglab hisoblanganda o`rtacha o`lchanganni tatbiq etish hisoblashni bir oz osonlashtiradi.

Oddiy oʻrtacha arifmetikni hisoblashda koʻpincha har bir mustaqil miqdor raqamlarning kattaligini bilish shart emas. Yuridik muassasalarning rasmiy hisobotida, qoida boʻyicha, koʻpgina jamlangan miqdorlar mavjud. Bu hisoblash bevosita tumanlarda, viloyatlar va markazda dastlabki hisobga olish hujjatlaridan olingan maʼlumotlarni yigʻish va guruhlashtirish paytida amalga oshiriladi.

Prokurorning 1996-yildagi ishi yuzasidan bergan hisobotini tahlil qilamiz. B jadvalning (prokuror davo (ariza)lari) 4-boʻlimida (prokurorning fuqarolik va xoʻjalik ishlarini koʻrishdagi ishtiroki) koʻrsatilishicha, 1996-yil prokurorlar tomonidan 170 882 ta 1 553 497 mln soʻm baholangan davolar keltirilgan. Umumlashtirilgan bu maʼlumotlarga asosan biz tezda har bir keltirilgan (mulkiy va nomulkiy xarakterdagi) davoga toʻgʻri keladigan oʻrtacha arifmetik summani hisoblab chiqarishimiz mumkin:

Umumlashtirilgan boshqa maʼlumotlardan foydalanib, turli koʻrinishdagi davolar boʻyicha oʻrtacha qiymat quyidagicha koʻrinishga ega boʻladi:

- 16 270 728 soʻm (fuqarolarning);
- 10 741 826 soʻm (davlatning mulkiy manfaatlar bilan bogʻliq);
- 5 718 097 soʻm (talon-taroj bilan bogʻliq);
- 4 678 344 soʻm (ishlab chiqarishdagi oqsoqlik bilan bogʻliq);
- 5 840 399 soʻm (noqonuniy ishdan boʻshatish bilan bogʻliq);
- 17 375 765 soʻm (atrof-muhitni muhofaza qilishga aloqador qonunlarni buzish bilan bogʻliq).

Maʼlumotlar hisobotida umumlashtirilganlar asosida oʻrtachalarni hisoblash har bir alohida variantlarning ahamiyati umuman qayd qilinmasagina mumkin. Masalan, bir gektarning oʻrtacha hosildorligi bugʻdoyning jami yigʻimini ekin maydoniga boʻlish yoʻli bilan hisoblab chiqarish mumkin, vaholanki, hech kim har bir gektardagi hosilni hisoblamaydi. Shu usul bilan bir kv. kilometrga yoki 10 ming, 100 ming aholiga toʻgʻri keladigan sodir etilgan jinoyatlar miqdorini hisoblash mumkin. Oxirgi oʻrtacha arifmetik miqdor jinoyatchilik koeffitsientining nisbiy miqdori bilan mushtaraklashadi.

Shunga koʻra, aytish mumkinki, oʻrtacha (ayniksa oʻrtacha arifmetik) va nisbiy miqdorlar orasida baʼzan yaqqol va qatʼiy chegara mavjud boʻlmaydi. Ikkalasi ham yakunlovchi hisoblanadi. Undan tashqari, har qanday oʻrtacha miqdor – bu ikkita absolut miqdorlarning oʻziga xos munosabati, yaʼni u bir vaqtning oʻzida ham muayyan nisbiy miqdorni oʻzida aks ettiradi (bizning oxirgi misolimizda – davolar umumiy

qiymatining ularning miqdoriga munosabati). Boshqa tomondan, har qanday nisbiy miqdor holatning o'ziga xos o'rtacha xarakteristikasini beradi. Masalan, dinamikaning munosabati analiz qilinayotgan yillardagi o'rganilayotgan holatning o'rtacha o'sish yoki kamayish darajasining xarakteristikasini beradi; taqsimlash munosabati – qandaydir miqdorning barcha miqdorlar tuzilishidagi o'rtacha (udel'niy) og'irligini beradi. Biroq bu holatda o'rtachalarning tushunchasida gapirib o'tilgan ularning statistik ahamiyatli farqlarini ko'rmasdan bo'lmaydi.

O'rta arifmetik miqdorlarni hisoblashda ayrim xususiyatlar va qiyinchiliklar statistik miqdorlarning *masofaviy* qatori uchun mavjud, ya'ni sanalgan yakka variantlar masofalarga (intervallarga) guruhlashtirilganda mavjud bo'ladi. Yuridik statistikada masofaviy qatorlar odatda diskret qatorlardan ko'ra ko'p ishlatiladi. Shu yo'l bilan jazo muddatlari, tergov muddatlari, jinoiy va fuqarolik ishlarini ko'rib chiqish muddatlari, huquqbuzarlarning yoshi va b. lar hisoblab chiqariladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining 1996 yildagi jinoiy javobgarlikka tortilganlar miqdori va jinoiy jazo choralari haqidagi hisobotida jazo choralari masofaviy qator ko'rinishida qayd etilgan. Bitta sudlangan shaxsga og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganligi uchun o'rtacha ozodlikdan mahrum qilish muddatini hisoblashga harakat qilamiz.

Agar qator diskret bo'lganda edi, o'rtachalarning hisobini o'rta arifmetik o'lchangan formula bo'yicha chiqarish mumkin. Ammo buni qilib bo'lmaydi, chunki qotillarning aniq jazo muddatlari aniq emas. Ular «dan-gacha» masofasida umumlashtirilgan. Buni faqat bir shart ostida bajarish mumkin, har bir «dan-gacha» guruhida ozodlikdan mahrum etish muddatlari teng taqsimlangan bo'lsa va masofa o'rtasi – bu mazkur guruh uchun o'rta ahamiyat hisoblanadi. Oraliq masofa o'rtasi o'rta arifmetik formula bo'yicha ikki masofa chegaralari miqdorini 2 ga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Misol uchun:

$$\frac{8 \text{ yil} \text{ q } 10 \text{ yil} \text{ q } 18 \text{ yil} \text{ q } 9 \text{ yil}}{2 \quad \quad \quad 2}$$

Haqiqatdan ham oraliq masofalarning o'rtacha arifmetik o'rtalari u yoki bu muddatda ozodlikdan mahrum qilish muddatlari o'rtacha (miqdor raqami) mazmunini namoyon etmasligi ham mumkin. Ammo boshqa yo'l ham yo'q, chunki sudyalarning statistik hisobotida ozodlikdan mahrum qilishning alohida muddatlari qayd etilmaydi. Shuning uchun oraliq

masofalarning o`rtasini shartli ravishda har bir «dan-gacha» guruhining o`rtacha (miqdor raqami) variantiga tatbiq etgan holda, biz o`rtacha o`lchangan formula bo`yicha qotillar uchun ozodlikdan mahrum etish o`rtacha muddatini hisoblab chiqarish mumkin:

Masofaviy qator uchun o`rtacha arifmetikni hisoblashda boshqa qiyinchiliklar ham uchraydi, qachonki, birinchi guruhda oraliq masofaning pastki chegarasi bo`lmasa (bizning misolda – 1 yilgacha, pastki chegarasi esa ko`rsatilmagan), oxirgi guruhda oraliq masofaning yuqori chegarasi bo`lmasa (masalan, 10 yildan ortiq, ammo yuqori chegarasi ham ko`rsatilmagan). Bunday aniqlanmagan oraliq masofalar bo`lganda ularning chegaralari ixtiyoriy o`rnatiladi yoxud ularni qo`shimcha izlanishlar asosida belgilashadi. Bizning misolda UR si JK ning 50-moddasiga murojaat qilishimiz mumkin bo`lib, unda ozodlikdan mahrum qilishning eng kam (olti oy) va eng ko`p (20 yil) muddati belgilangan.

Biz kompyuter har qanday analitik faoliyatning ajralmas kismi bo`lib borayotgan zamonda yashayapmiz. Bunday sharoitlarda har qanday o`rtacha miqdorlarni hisoblash zarur kompyuter dasturlaridan foydalanish orqali osonlashadi. Zero, hisoblash texnikasini batafsil bayon etarkanmiz, o`ylaymizki, har qanday yurist (amaliyotchi yoki olim) bajarilayotgan hisob-kitoblarning mazmunini tushunishi va ularni har qanday mumkin bo`lgan usul bilan amalga oshira olishi kerak. Bunday hisob-kitoblarni soddalashtirish maqsadida biz isbotlarsiz keltira oladigan o`rtacha arifmetik miqdorlarning ayrim xususiyatlaridan foydalanishimiz mumkin.

1. Chastotalar miqdoriga o`rtachalar hosil qilish doimo chastotalarga variantlar hosil qilish summasiga teng. Bizning birinchi misolimizda: 60 ta ish \* 15 ta sudya + 900.

2. Agar har bir variantdan bir xil sonni ayirsak (yoki unga qo`shsak), unda yangi o`rtacha shuncha miqdorga kamayadi (yoki ko`payadi). Bu shuni anglatadiki, hisob-kitoblarni soddalashtirish maqsadida barcha variantlarni ixtiyoriy songa kamaytirish, o`rtachani hisoblash mumkin, va unga o`sha ixtiyoriy sonni qo`shib uning haqiqiy kattaligini hosil qilish mumkin.

3. Agar har bir variantni qandaydir bir ixtiyoriy songa bo`lsak (yoki ko`paytirsak), unda o`rtacha arifmetik shuncha marotaba kamayadi (yoki ko`payadi). Bu qoida, shuningdek, o`rtacha arifmetik hisoblashlar osondashtirish uchun ham qo`llanilishi mumkin.

4. Agar hamma chastotalarni qandaydir bir songa bo`lsak yoki ko`paytirsak, bundan o`rtacha arifmetik o`zgarmaydi. Bu shu bilan izohlanadiki, o`rtacha arifmetiklarni hisoblab chiqarishda chastotalar

absolut ma'lumotlar sifatida emas, balki o'zgaruvchi qatordagi variantlarning natijaviy yuki sifatida ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun o'zgaruvchan qatordagi ularning hissasi bir xil darajada ko'paytirishda yoki kamaytirishda o'zgarmaydi.

5. Variantlarning o'rtacha arifmetik miqdorlardan og'ishi miqdori doimo nolga teng. Yo'qsa bu xossa quyidagi tarzda shakllanadi: o'rtachalardan ijobiy og'ish yig'indisi salbiy og'ishlar yig'indisiga teng, ya'ni o'rtacha arifmetik miqdorda undan ham ijobiy, ham salbiy og'ishlar o'zaro bir-birini berkitadi. Laplas-Gaussaning egri chizig'i, ma'lumotlarni o'rtachalar yonida normal taqsimlash egri chizig'ini eslaylik.

6. Umumiy o'rtachalar yig'indining tegishli qismi miqdor bo'yicha o'lchangan ayrim o'rtachalarga teng. Agar Respublikaning bitta viloyatida bir tergovchiga to'g'ri keladigan jinoiy ishlarning o'rtacha miqdori ma'lum bo'lib, u bir viloyatda - 68, ikkinchisida - 72, boshqa birida - 74 taga teng bo'lsa (birinchisida - 180 ta, ikkinchisida - 160, uchinchisida - 150 ta tergovchi mavjud bo'lsa), butun hudud uchun umumiy o'rtachani quyidagicha hisoblab chiqarish mumkin:

#### **4-§ O`rtacha garmonik miqdor**

O`rtacha garmonik miqdor deganda nimani tushunish lozim.

O`rtacha arifmetik miqdor o`rtacha hisoblanishi lozim bo`lgan belgining alohida variantlari ( $x$ ) va ularning vaznlari ( $G$ ) mavjud bo`lgan taqdirdagina qo`llaniladi. Ammo ayrim hollarda belgining alohida variantlari ( $x$ ) ma`lum bo`la turib, ularning vaznlari ( $g$ ) o`rniga  $x$  bilan  $G$  ning  $G$  ko`paytmasi ( $x$ ) keltirilgan bo`ladi. Bunday hollarda o`rtachani hisoblash uchun o`rtacha garmonik miqdor formulasi qo`llaniladi.

**Statistikada o`rtacha garmonik miqdor o`rtalashtirilayotgan miqdorlarning teskari darajalari asosida hisoblangan o`rtacha arifmetikning teskari darajasiga tengdir.** Garmonik o`rtacha ham oddiy va tortilgan formulalarga ega. Agar  $xf$  ko`paytmasi hamma variantlar uchun bir hil bo`lsa ( yoki  $w=1$  bo`lsa), u holda o`rtachani hisoblash uchun o`rtacha oddiy garmonik formula qo`llaniladi.

Misol. Ikkita tergovchi bir kunda 10 soat tergov harakati o`tkazdi. Birinchi tergovchi har bir jinoyat ishi uchun 30 minut, ikkinchi tergovchi esa 20 minutdan vaqt sarfladi. Har ikkala tergovchi o`rtacha 1 ta jinoyat ishiga qancha vaqt sarflagan?

Agar o`rtacha hisoblash uchun arifmetik formulani qo`llamoqchi bo`lsak, u holda o`rtacha 25 minutni tashkil etadi.

### **5-§. O`rtacha kvadrat miqdor**

**O`rtacha kvadrat miqdor** ni bilish uchun **o`rtacha kvadratik tafovut qanday miqdor**, ekanligini aniqlab olishimiz zarur. Dispersiyani kvadrat ildizdan «o`zgaruvchanlikning haqiqiy darajasi kelib chiqadi. Bu miqdor o`rtacha kvadratik tafovut (miqdor)deb ataladi.

Shuni qayd qilish lozimki, o`rganilayotgan hodisa qanday birliklarda (mutlaq miqdordami, puldami, natura yoki shartli naturadami) ifodalanish bo`lsa, o`rtacha kvadratik tafovut ham shunday birliklarda ifodalanadi. Bu esa turli xillagi hodisalar o`zgaruvchanligini qiyosiy tahlil qilishga imkon bermaydi. Masalan, jami chakana tovar oboroti uchun o`rtacha kvadratik tafovut 20 so`m va realizatsiya qilingan non uchun esa bu tafovut 10 kg bo`lsa, bunday holda variatsiyani qiyosiy tahlil qilish mumkin emas. Chunki tafovutlar turli o`lchov birliklarida keltirilgan. Mana shu sababli o`zgaruvchanlikni qiyosiy jihatdan tahlil qilish maqsadida variatsiya koeffitsienti hisoblanadi.



## 6-§. O`rtacha geometrik miqdor

Dinamikaning nisbiy miqdorlarini ko`rib chiqish paytidayoq biz o`rtacha geometrik miqdorlarga murojaat qilgandik. Mazkur paragrafda uning tizimli tushunchasi va o`sha dinamikaning misollarida hisoblab chiqarish yoritilgan, aynan o`rtacha geometrik dinamika qatorlarini analiz qilish paytida yuridik statistikada keng qo`llaniladi. Ko`rib chiqilayotgan miqdor kuzatilayotgan hodisalarning o`rtacha o`sishi (pasayishi) va o`sish sur`atini hisoblash uchun ishlatiladi. Aniqlangan jinoyatchilar, fosh qilinishlar, sudlanganlar, mahkumlarning, oqlanganlarning, jinoiy javobgarlikdan ozod etilganlarning, ko`rilgan fuqarolik ishlarining, ta`minlangan va ta`minlanmagan davolarning umumiy soni va yuridik ahamiyatli holatlar va jarayonlar paytida o`zgaradigan boshqa miqdorlarning miqdori kabi parametrlarning jinoyatchilik dinamikasida o`rganilishi amaliy hamda nazariy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Yuridik ahamiyatli hodisalarning dinamikasi ko`pgina miqdorlar bilan, shuningdek, o`rtacha arifmetik va geometrik miqdorlar bilan ham xarakterlanadi. O`rtacha arifmetik miqdorlar sonlarda qayd etilgan o`rtacha yillik aniq o`sish(pasayish)ni hisoblash uchun qo`llaniladi. Ular ayniqsa qiyosiy maqsadlarda zarur va buning amalga oshishi uchun foizlarda aks ettirilgan o`sish va kamayish sur`atlari katta ahamiyat kasb etadi. Bu miqdorlarni hisoblash o`rtacha geometrik formula bo`yicha, ammo o`sha absolut miqdorlar asosida bajariladi. Dinamikaning ham absolut, ham nisbiy miqdorlari keltirilgan 3 – jadvalga murojaat qilamiz.

O`rtachalashtirilgan miqdorning olingan natijasini haqiqiy yillik aniq o`sishlar (3 – jad.ning 2 - qatori) bilan taqqoslash shuni ko`rsatadiki, besh yil mobaynida o`sish bir tekis kechmagan. Jinoiy statistikada jinoyatchilik darajasi yoki uning alohida ko`rinishlari geometrik progressga yaqin qonun bo`yicha o`zgaradigan tendensiyalar kam uchraydi, ya`ni qachonki, qatorning har bir keyingi darajasi matematikada o`sish maxraji deb nomlanadigan ayrim o`zgarmas songa ko`paytirilgan oldingisiga taxminan teng bo`lganda. Shuning uchun aniq ko`rinishda yuridik ahamiyatli hodisalarning dinamikada geometrik o`sishi juda kam kuzatiladi.

Barcha notekisliklar vaqtida ma`lum bir jinoyatlik-o`g`irlik 5 yil mobaynida umumiy mutlaq o`sishi quyidagini tashkil etdi:  $5423 - 2534 + 797 + 1166 + 392 + 32 + 532 + 2919$  ta o`g`irlik holatlari kuzatilgan. U o`zida 1996 va 1991-yillar miqdor belgilarini, yoxud ro`yxatga olingan poraxo`rlik holatlarining yillik o`sish miqdorini aks ettiradi. Bu erdan *o`rtacha yillik mutlaq o`sish* yillik o`sishlar miqdoridan uni yillar miqdoriga (asosiy yilni hisobga olmagan holda) bo`lish yo`li bilan o`rtacha arifmetik miqdor sifatida aniqlanadi.

Hisobga olingan o'g'irlikning foizlarda aks ettirilgan o'sishning yillik sur'atlari keltirilgan: 31,5; 35,0; 8,7; 0,7; 10,8, foizlar bo'lib, mutlaq yillik o'sishlar bilan taqqoslanishini faraz qilsak. Ammo ularning negizida *umumiy o'sishning o'rtacha yillik sur'atlari* (% foizlarda) o'rtacha arifmetik qoidalar bo'yicha hisoblab chiqib bo'lmaydi, ya'ni ularning miqdorini (86,7 %) 5 ga bo'lish yo'li bilan. Olingan o'rtacha arifmetikning natijasiga (17,34 %) real o'rtacha yillik o'sish bog'liq. Shuning uchun u foizlarda yoki koeffitsientlarda aks ettirilgan o'rtacha geometrik qoida bo'yicha zanjirli o'sish sur'atlari asosida hisoblanadi.

Shuning o'zi o'g'irlikning yillik o'rtacha o'sish sur'ati bo'lib hisoblanadi. Bunda bu harakatning yillik o'rtacha o'sish sur'ati 16,6 % ga teng bo'ladi (116,6 – 100,0). Hosil qilingan o'rtacha geometrik miqdor (16,6 %) o'rtachalarning ko'pligi qoidasi bo'yicha sezilarli darajada o'rtacha arifmetikdan (17,34 %) kam. Yillik o'sish sur'atlarining ko'paytmasini o'rtacha yillik ko'payish va kamayish sur'atlarini hisoblash uchun ishlatishda jiddiy kamchiliklar mavjud. Mazkur usul aytib o'tilgan miqdorlarni, qachonki, barcha yillik (zanjirli) o'sish sur'atlari agar ham ko'payib o'zgarmasa, ammo ijobiy miqdorni tashkil etsagina hisoblash uchun darkor bo'lishi mumkin. Nolga teng bitta miqdor raqamining o'zi barcha ko'paytmalar nol'ga teng bo'lishi uchun yetarli. Shuningdek, qaysidir yillarda yillik miqdorlar o'smagan, balki kamaygan holatlarda jiddiy qiyinchiliklar paydo bo'ladi, zero bunday holatlar kam uchraydi. Bunday holatlarda yillik o'sish sur'atlari ko'paytmalari umumiy o'sish sur'atiga teng bo'lmaydi. Shuning uchun agar oldingi ma'lumotlar yo'l qo'ysa, yillik tebranishlardan qat'i nazar butun kuzatuv davridagi umumiy o'sish sur'atlari ma'lumotlari asosida ko'riladigan o'rtacha geometrik miqdorlarni hisoblashning boshqa formulasiga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Butun davrdagi o'sish sur'atlarini nafaqat koeffitsientlarda aks ettirilgan yillik o'sish sur'atlarini (bizning misolda 5 yil uchun, 1991-yilni hisoblamagan holda) qayta ko'paytirish yo'li bilan hosil qilish mumkin –  $1,315 * 1,350 * 1,087 * 1,007 * 1,108 + 2,153$ , yoki foizlarda – 215,3 %, balki dinamikaning ma'lum munosabatlari orqali ham hosil qilish mumkin. Olingan natija o'z mazmuniga ko'ra 1991 yil asosiga barcha davr mobaynidagi o'g'irlikning mutlaq miqdorlarining o'sish sur'atlaridan boshqa hech narsa emas. Agar 1996-yildagi o'g'irlikning mutlaq miqdorlarining (5453) va 1991-yildagilarga (2534) nisbatan foizlarda oladigan bo'lsak, unda biz deyarli o'sha natijalarni – 215,2 % yoki 2,152 (koeffitsientlarda) ni hosil qilamiz. Umumiy o'sish sur'atlarining birinchi va ikkinchi hisoblab chiqarilgan natijalar o'rtasidagi 0.1 % da yoki 0,001

koeffitsientdagi farq yillik o'sish sur'atlarini hisoblashda qayta ko'paytirish paytida sonlarning muqarrar yaxlitlanishi bilan izohlanadi, qachonki, oxirgi yildagi mutlaq miqdorlarning dinamikasi munosabatlarini asosiy yil ma'lumotlariga nisbatan hisoblab chiqarishda bunday yaxlitlanishlar yo'q.

Aytilganni inobatga olgan holda, mazkur holatda o'rtacha geometrik miqdor formulasi hosil qilinishi mumkin.

Shunday qilib, shu formulaga solinganida bu holatda ham o'rtacha yillik o'sish sur'ati 16,6 % ni tashkil etadi.

Ildizni chiqarish ikkinchi darajadan ko'ra (yuridik ahamiyatli miqdorlarning o'sish va ko'payishning o'rtacha sur'atlari 50 va undan ortiq yillik davr uchun hisoblanadi) qiyin hisob kitoblarni talab qiladi, ayniqsa, bu jarayon EHMda bajarilsa. Bunday holatda logorifmlar (lg) xossalardan foydalanish mumkin.

O'rtacha geometrik miqdorni hisoblashning yanada sodda usuli bor: statist olimlar tomonidan tayyorlangan hisob jadvallarini qo'llash. Masalan, A.M. Ayrapetov tomonidan ishlab chiqilgan jadvallar 2 yildan 55 yilgacha bo'lgan davr uchun o'rtacha yillik o'sish sur'atlarining miqdorlarini va agar tegishli dastlabki miqdorlar ma'lum bo'lsa, 2 yildan 22 yilgacha bo'lgan davr uchun pasayish sur'atlarini hisoblab chiqarishga imkoniyat yaratadi.

Shu yo'l bilan ishlab chiqilgan jadvalda talab qilingan o'rtacha yillik o'sish, ko'payish yoki kamayish sur'atlari oxirgi chap ustunlarda, dastlabki miqdorlar esa – o'ng tomonda joylashadi.

Bizning misolga murojaat qilamiz. 1991–1996-yillar davomida hisobga olingan o'g'irlik 215,2 % gacha o'sdi Bu o'sish 5 yil davomida ro'y berdi. Oxirgi «5 yil ichida» ustunida bizning 215,2-215,3 ga teng o'sish sur'atini topamiz. Bizning ma'lumotlarga hammasidan yaqin 215,52 miqdori turibdi. Shu qatorning birinchi ustunida o'rtacha yillik o'sish sur'ati – 116,60 % ko'rsatilgan, shu qatorning ikkinchi ustunida esa – o'rtacha yillik ko'payish sur'ati 16,60 % deb ko'rsatilgan (ikkala miqdor ham qalin shrift bilan terilgan). Aynan shu qidirilayotgan natija. Xuddi shu usul bilan kamayishning o'rtacha sur'atlari aniqlanadi.

Shunday qilib, o'sish va ko'payishning o'rtacha yillik sur'atini hisoblash uchun birinchi hamda oxirgi yillarning mutlaq miqdorlari zarur bo'lib, shular asosida foizlarda dinamikaning nisbiy miqdorlari va yillar miqdori (asos yilni hisobga olmagan holda) hisoblab chiqiladi. Statistik to'plamlarda va rasmiy hisobotlarda, qoida bo'yicha, hisoblab chiqarilgan umumiy natijalar va hatto kuzatilayotgan hodisaning o'sish va kamayish

foizlari albatta mavjud bo`ladi. Ular va yillar miqdori asosida biz osongina bizni qiziqtirayotgan hodisalarning kidiralayotgan o`rtacha yillik o`shish va ko`payish sur`atlarini topishimiz mumkin.

## 7-§. Moda va Mediana

O`rtacha arifmetik, o`rtacha geometrik va boshqa o`rtachalar – bu o`ziga xos statistik mavhum tushunchalar hisoblanadi, chunki ular haqiqiy miqdorlardan boshqa tomonga og`ib, o`rganilayotgan birliklarning butunligicha barcha yig`indilariga xos bo`lgan umumiymani namoyon etadi. O`rtacha miqdorlar ko`pincha hayotda bo`lmaydigan kasr sonlar (22,6 ta huquqbuzarlar, 105,8 ta davolar) bilan ifoda etiladi. Statistika mavhum o`rtachalar bilan bir qatorda **aniq** o`rtachalar ham qo`llaniladi. Ularning miqdorlari variantlar miqdor raqamlarining o`shishi yoki pasayishi tartibida ko`rilgan zanjirlangan, ya`ni ko`payib borish yoki kamayib borish bo`yicha tekislangan o`zgaruvchan qatorda joylashadi. Bunday o`rtachalarga moda va mediana kiradi. Bir xil yig`indilarda moda va mediana ba`zan o`z mazmuni bo`yicha bir-biriga mos keladi, ammo bir-biridan qoida bo`yicha uzoq joylashmagan bo`lsa ham ko`pincha bir-biriga mos kelmaydi.

**Moda deyilganda to`plamda eng katta songa yoki salmoqqa ega bo`lgan ko`rsatkich tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, statistikada moda deb eng ko`p mazkur yig`indida uchraydigan alomatning miqdoriga aytiladi. Diskret qatorlarda qaysi bir variantning vazni ko`p uchragan bo`lsa, shu variant moda bo`lib hisoblanadi.** Uni «Mo» belgisi bilan ifodalaymiz va o`zgaruvchan qatorda yuridik ahamiyatli miqdorlarni belgilaymiz. Ushbu misolda moda bo`lib 3 kun varianti hisoblanadi, chunki aynan shu muddat ichida boshqa muddatlarga qaraganda ko`proq ish (85 ta) ko`rib chiqilgan. ( Misol qilib, jinoyat ishlarini ko`rib chiqishning suddagi muddatlarini hisoblanganida eng ko`p 1 oy muddati qayd qilinishi mumkin. Aynan shu 1 oy, demak, moda hisoblanadi.)

Real hayotda shunday taqsimlanishlar bo`lishi mumkinki, unda barcha variantlar taxminan bir xil bo`lib ko`p uchraydilar. Bunday holatlarda moda aniqlanmaydi, chunki u amaliy mavjud bo`lmaydi. Boshqa taqsimlanishlarda moda bitta bo`lmasligi mumkin. Misolimizni o`zgartiramiz. Faraz qilaylik, 5 kun ichida 3 kun ichida qancha ish ko`rilgan bo`lsa, shuncha ish (85 ta) ko`rilsa. Bunday holatda ikkita moda, taqsimlanishning o`zi esa birmodali (bitta modali) deb nomlanadi. Qoida bo`yicha u o`rganilayotgan alomat bo`yicha yig`indining sifatli har xilliligi haqida dalolat beradi.

Moda, qachonki, eng ko`p uchraydigan alomatlar kattaligini tavsiflash kerak bo`lganda qo`llaniladi.

Oraliq masofa qatori uchun modani aniqlash bir oz qiyinroq. Modani topish uchun mazkur qatorlarning modali oraliq masofasini aniqlash kerak.

Jadvalni tasavvur qilaylik va ularga avtoullov hodisasida jarohatlanganlar, o'lganlarni taqsimlab chiqaylik. Undan ko'rinib turibdiki, jarohatlanganlar soni (23917) bo'yicha eng ko'p chastota 21 dan 25 yilgacha bo'lgan oraliq masofaga to'g'ri keladi, o'lganlar miqdori bo'yicha (4112) esa – 31 dan 35 yilgacha bo'lgan oraliq masofaga to'g'ri keladi (bu ikkala holatda ham moda qalin qora shrift bilan terilgan). Aytilgan oraliq masofalar esa modali bo'ladi.

Jadvalga solib chiqilsa, jarohatlanganlar uchun moda 22 yil va 2 oyga tengligi ko'rinadi.

Vafot etganlar uchun esa moda 35 yil-u 11 oyga teng bo'lib chiqdi. Uning miqdor raqami modali oraliq masofaning maksimal chegarasining eng chekka belgisida joylashgan. Bu tasodifiy emas. Modali oraliq masofadan (36-40 yil) keyingi variantga ega bo'lgan (4110), ya'ni modadan 2 ta birlikka kam, xolos (4112).

Modali oraliq masofadagi moda miqdorlarni topishda qo'llaniladigan formula faqat teng oraliq masofali o'zgaruvchan qatorlar uchun kerak bo'ladi. Bizning misolda ayrim o'rta arifmetik hisob-kitoblar orqali ularni besh yillik qilganmiz. IIV YXNB ning statistik hisobotida oraliq masofalarning o'sishi tekis emas. Aniqlik uchun 1995-yildagi yoshi bo'yicha DTP qurbonlar sonini taqsimlash jadvalini ko'rib chiqilganida o'zgaruvchan qator nafaqat notekis oraliq masofali, balki statistik noto'g'ri bo'lib hisoblanadi, zero, oraliq masofalardagi farq shunchalik katta-ki, haqiqiy statistik holatni buzib ko'rsatadi. 11 dan 30 yoshgacha bo'lgan oraliq masofa besh yillik (11-15; 16-20; 21-25; 26-30), 7 dan 10 yoshgacha – to'rt yillik, 31 dan 40 yoshgacha – o'n yillik, va 41 dan 65 yoshgacha – yigirma yillik. Ushbu jadvalga muvofiq, moda orqali 41 dan 65 yoshgacha bo'lgan oraliq masofa aniqlanishi kerak, u 5 va undan ortiq qolgan oraliq masofalar va uning modaligi – nomalakaviy ishlangan statistik hisobotning natijasidir.

Statistikada **mediana** deb ranjirlangan (ko'payib borish yoki kamayib borish bo'yicha tekislangan) qatorning o'rtasida joylashgan variantiga aytiladi. Boshqacha qilib aytganda, mediana deyilganda to'plamni teng ikkiga bo'luvchi ko'rsatkich tushuniladi. Mediana tartibga solingan qatorni teng ikkiga bo'ladi. Undan ikkala tomon bo'yicha yig'indilar birliklarining bir xil sonlari joylashgan bo'ladi. Agar ranjirlangan qator toq sonli bo'lsa, u holda, masalan, 9 ta sonli qatorda 5-qator, 13 ta sonli qatorda 7- qator mediana hisoblanadi. Mediana odatda «Me» belgisi bilan ifodalanadi. Medianani topishning tartibga solingan va shartli misoli bo'lib sudlanganlarning yoshi bo'yicha o'zgaruvchan qatori xizmat qilishi mumkin.

Ushbu diskret, ya'ni oraliq va oraliq bo'lmagan qatorlarda mediana 150 ta sudlanganlar chastotasi «20 yosh» variantda bo'ladi. Uning ikkala tomonida yig'indining teng miqdordagi birliklari turadi. Bu qatorda moda bo'lib 175 ta sudlanganlar chastotasi «22 yosh» varianti hisoblanadi. Agar biz 5 jadvalga murojaat qiladigan bo'lsak, unda mediana – bu ko'rilgan 80 ta ishlar soni bilan ishni ko'rish muddati 4 kunda, moda esa – muddat 3 kunda va chastota 85 ta ish.

Agar har qanday ranjirlangan qatorning birliklariga tartibli raqamlar berib chiqadigan bo'lsak, unda mediananing toq a'zolar soni  $n$  bilan qatordagi raqami  $\frac{n+1}{2}$  orqali aniqlanadi. Bizning misollarda: qatorda 13 ta a'zo bo'lgan

2

birinchi holatda (8 jad.)  $Me + \frac{13+1}{2} + 7$ ,  
 ikkinchi holatda esa (5 jad.)  $Me + \frac{7+1}{2} + 4$

Oxirgi misolda qatordagi a'zolar soni juft. Mediana ikkala markaziy variantlarning o'rtadagisi bo'lib, ularning tartibli raqami  $n: 2$  va  $n: 2q1$ . Masalan, agar qatorda 20 ta birlik bo'lsa, unday holatda markazda tartib raqami 10 va 11 bo'lgan birliklar turadi. Ikkala miqdorlarning o'rtadagisi o'rtta arifmetik formula bo'yicha aniqlanadi. Bunday holatlarda agar yig'indidagi birliklar ko'p bo'lsa va ular o'rtasidagi farq ahamiyatsiz bo'lsa, mediana sifatida bitta variantni aniqlash mumkin.

Oraliq masofali ranjirlangan qatorda mediana modani aniqlash paytidagidek, dastlab medianali oraliq masofa ko'rinishi sifatida aniqlanadi, keyin esa unda tegishli formula bo'yicha mediana topiladi. Medianali oraliq masofa kam ahamiyatli belgining oraliq masofasidan boshlab oldingi chastotalarning izchil miqdori hisoblangan kumulativ chastotalar bo'yicha aniqlanadi. Jarohatlanganlar uchun kumulativ chastota quyidagicha ko'rinish oldi: 1 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan oraliq masofa uchun u shu yoshdagi jarohatlanganlar soniga teng (4626) va keyingi 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan oraliq masofa uchun esa 1 yoshdan 5 yoshgacha bo'lgan (4626) yoshdagi jarohatlanganlarning (chastotalarning) jamiga teng va 6 yoshdan 10 yoshgacha, ya'ni 14530. shu tarzda qator oxiriga qadar.

To'plangan chastotalarning umumiy yig'indisi chastotalarning umumiy yig'indisiga teng, bizning misolda – jarohatlanganlarning umumiy miqdoriga (183 926) teng. Bunday qatorda mediana chastotalarning umumiy (barcha to'planganlarning) yig'indisini ikkiga bo'lish orqali aniqlaymiz. Bizning misolda:  $183\ 926 : 2 = 91\ 963$ . Shunga muvofiq, tahlil qilinayotgan jarohatlanganlarning qatorida medianali oraliq masofa bo'lib,

31 dan 35 yoshgacha bo'lgan o'z ichiga ushbu chastotani oladigan oraliq masofa hisoblanadi. Ushbu oraliq masofaga qadar to'plangan chastotalarning yig'indisi 89 954 ni tashkil etgan. Mediananing aniq miqdor raqamiga erishish uchun  $89\,954$  ga yana  $2009$  ( $91\,963 - 89\,954$  q  $2009$ )ni qo'shish kerak.

Mediananing miqdor raqamini aniqlashda taxmin qilishlaricha, oraliq masofadagi alomatning miqdor raqamiga teng taqsimlanadi, ya'ni 31 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan oraliq masofadagi jarohatlanganlarning soni ( $19\,187$ ) shu besh yil o'rtasida teng taqsimlanadi. Agar bu taklif to'g'ri bo'lsa, unda to'plangan  $91\,963$  va  $89\,954$  chastotalar o'rtasidagi  $2009$  ga teng bo'lgan farqqa quyidagi o'sish kattaligi muvofiq keladi:

$$\underline{5 \text{ yil} * 2009} + 0,524 \text{ yil}$$

$$19\,187$$

Hosil qilingan miqdorni medianali oraliq masofaning ( $31$  dan  $35$  yilgacha) minimal chegarasiga qo'shib, biz mediananing qidirilayotgan miqdor raqamini olamiz:  $31$  yil +  $0,524$  yil + (butunlashtirsak)  $31,5$  yil yoki  $31$  yil-u  $6$  oy. Ushbu mantiqiy fikrlashlar o'zgaruvchan oraliq masofali qatordagi medianani hisoblash uchun qo'llaniladigan tegishli formulasiga joylashtiriladi.

Ushbu formulaga bizning misolimizdagi miqdor raqamini qo'yib, quyidagini hosil qilamiz:

$$\text{Me} + 31 + 5 \underline{91\,963 - 89\,954} + 31 + 5 * 0,1 + 31 + 0,5 + 31,5.$$

$$19\,187$$

Xullas, jarohatlanganlar uchun mediana  $31$  yil-u  $6$  oyga teng, ya'ni mantiqiy-matematik amallar asosida formulani ko'rib chiqish oldidan olgan o'sha miqdor raqamiga teng. Endi shu formula bo'yicha DTP dan vafot etganlar uchun medianani hisoblab chiqaramiz:

$$\text{Me} + 31 + 5 \underline{32\,791 : 2 - 13\,157} + 31 + 5 * 0,8 + 35.$$

$$4112$$

Shunga muvofiq, DTP dan vafot etganlar uchun medianali oraliq masofa jarohatlanganlar uchun ( $31$  dan  $35$  yilgacha) bilan bir xil, ammo mediananing jarohatlanganlarning oraliq masofasi ichidagi miqdor raqami  $31$  yil-u  $6$  oyni tashkil etdi, vafot etganlar uchun esa –  $35$  yil.

Medianani hisoblashning ko'rib chiqilgan formulaga ham teng oraliq masofali, ham noteng oraliq masofali, har qanday oraliq masofali qatorga qo'llaniladi. Buni 7-jadvalda keltirilgan DTP dan vafot etganlar haqidagi ma'lumotlarda tekshiramiz, unda oraliq masofalar miqdor raqami  $5$  va undan ortiq marotaba farq qiladi.



$$\text{Me} + 21 + 4 \frac{32\,791:2 - 2686}{3692} + 21 + 4 * 3,7 + 21 + 14,7 + 35,7 \text{ yil.}$$

Mazmunan farq qiladigan oraliq masofali o`zgaruvchan qator uchun hisoblangan mediana o`sha, ammo teng intervalli (35,0 va 35,7) qator uchun hisoblangan medianadan ancha farq qiladi va bu o`z izohiga ega.

Amaliyotda moda va mediana ba`zan o`rta arifmetik bilan yoki u bilan birga ishlatiladi. Birgalikda ishlatilganda ular bir-birini to`ldiradi, ayniqsa, qachonki, tekshirilayotgan alomatning juda ko`p yoki juda kam miqdor raqami umuman uncha ko`p bo`lmagan soni bo`lganda. O`rta arifmetikka qo`shimcha ravishda modani va ayniqsa o`rtachadan farqli ravishda oxirgilarga bog`liq bo`lmagan va alomatlar miqdor raqamining yig`indisi uchun xos bo`lgan medianani ham hisoblab chiqilsa, maqsadga muvofiq bo`lardi. Medianani, qachonki, yig`indi ranjirlangan va tartiblashtirilganda o`rtacha arifmetikka yaqinlashtirilgan holatda qo`llash mumkin. Bunday holatda mediana variantning o`rta miqdor raqami bo`yicha aniqlanadi. Shu bilan bog`liq holda boshqa variantlarning miqdor raqamlarini o`lchamasa ham bo`ladi.

O`zgaruvchan qatorni medianali teng ikki qismga bo`lishdan tashqari, statistikada kasriy bo`lishlar ham qo`llaniladi: o`zgaruvchan qatorni chastotalar yig`indisi bo`yicha 4 ta teng qismga bo`ladigan *kvartallar*, teng 10 qismga bo`ladigan – *desillar* va teng 100 qismga bo`ladigan – *sentillar*. Ular tekshirilayotgan hodisaning yanada ifodali va ixcham tasviri uchun qo`llaniladi; yuridik statistikada deyarli qo`llanilmaydi.

**8-§. Variatsion miqdor belgilari.**  
**(Alomatning o`zgarish miqdorlari)**  
(Variatsion ko`rsatkich)

O`rtacha miqdor bir-biridan tafovutda bo`lgan alohida miqdorlarni umumlashtirib tavsiflasada, lekin o`ziga nisbatan alohida miqdorlarning qay darajada tafovutda ekanligini, tafovutning qanchalik katta-kichikligini ifodalay olmaydi. Vaholanki, o`rtachaning real qiymatga ega bo`lishi bevosita alohida miqdorlar o`rtasidagi tafovutga bog`liq.

Agar alohida miqdorlar o`rtasidagi tafovut ( o`zgaruvchanlik) qancha kichik bo`lsa, ular asosida hisoblangan o`rtacha shuncha real bo`ladi va aksincha, o`rtachadagi tafovut qancha katta bo`lsa, ular asosida hisoblangan o`rtacha shuncha ishonchsizroq, haqiqatdan uzoqroq bo`ladi.

**Statistikada variatsiya deyilganda to`plam birliklari o`rtasidagi tafovut(farqlanish), o`zgaruvchanlik tushuniladi<sup>1</sup>.**

O`rtacha miqdorlar o`zgaruvchi alomat bo`yicha yig`indining muhim umumlashtiruvchi tavsifini ochib beradi. Ularni hisoblab bo`lib, shuni oydinlashtirish zarurki, ular qanchalik namunali, oddiy yoki bir turli. Bir xil o`rtachalar butunlay har xil yig`indilarni tavsiflashi mumkin. Buni oddiy misolda ko`rsatamiz, o`zgarishning yangi miqdorlarini hisoblash mezoni bo`yicha qiyinlashtiramiz.

Faraz qilaylik, bitta sudda 10 ta sudlanganlarga quyidagicha ozodlikdan mahrum qilish ko`rinishidagi jazolar tayinlandi: 1, 2, 3, 3, 4, 9, 10, 12, 13, 15, boshqasida esa 10 sudlanganlarga quyidagicha muddatlar tayinlandi: 6, 6, 7, 7, 7, 7, 8, 8, 8, 8 yil. Ikkalasida ham o`rtacha arifmetik bir xillik bo`ladi.

O`rtachalar teng, ammo qatorlar moxiyatan o`zaro farq qiladi: birinchi qator ikkinchi qatordan ko`ra bir oz bir xil, shuning uchun birinchi qatorning o`rtadagisi ikkinchining o`rtadagisidan ko`ra kam ifodali va kam ishonchli. Bunday o`zgaruvchan qatorlar farqlari haqidagi fikrlarimiz statistik aniq bo`lishi uchun turli variantlarning o`rtachalardan og`ish miqdorlariga murojaat qilish mumkin. hozirchalik eng oxirgi og`ishni olaylik. Birinchi qatorda birinchi a`zoning (1) o`rtadagidan (7,2) og`ishi – 6,2 ga teng, uninchi a`zoning (15) o`rtadagidan (7,2) og`ishi +7,8 ga teng. Ikkinchi qatorda o`xshash og`ishlar -1,2 va +0,8 ga teng. Olingan natijalarni endi matematik qiyoslash va o`lchash mumkin. Ular bizning oldindan qilgan xulosalarimizni tasdiqlayapti. Endi ikkala o`zgaruvchan qatorlarning alomatlar miqdor raqamlarining o`rtacha arifmetikdan barcha og`ishlarini hisoblab chiqamiz.

<sup>1</sup> Абдуллаев Ё. Статистика назарияси. –Т.: Мехнат. 2000. –Б.138.

O`zgarishning **birinchi** va eng oddiy miqdori – bu **R o`zgarishining ko`lami**. U o`zgarayotgan alomatning eng ko`p va eng kam miqdor raqami orasidagi farq sifatida hisoblanadi:

$$R q x - x$$

*max min*

Birinchi sudda jazolar o`zgarishining ko`lami  $R_1 q_{15} - 1 q_{14}$ , ikkinchisida esa –  $R_2 q_8 - 6 q_2$ . farqlar sezilarli:  $R_1 R_2$  dan 7 marta kata. shunday bo`lishi mumkinki, o`zgarish ko`lami bir xil, teng bo`ladi. Masalan,  $R_1 + 15 - 10 + 5$ ;  $R_2 + 8 - 3 + 5$ , vaxolanki, qatorlar moxiyatan o`zaro farq qilishadi. O`zgarishlar ko`lami faqat eng so`nggi og`ishlarni o`z ichiga oladi, ammo o`zgaruvchan qatordagi alomatlarining barcha miqdor raqamilarining og`ishlarini aks ettirmaydi. Agar barcha variantlarning o`rtadagilardan og`ishini hisoblasak va barcha og`ishlardan o`rtacha arifmetikni hisoblab chiqarsak oxirgisini hosil qilishimiz mumkin.

### **9-§. Variatsion qatorlarni tahlil qilish.**

Variatsiya koeffitsienti ( $v$ ) o`rtacha kvadratik tafovutning ( $\sigma$ ) o`rtacha miqdorga ( $x$ ) bo`lgan nisbat natijasiga teng.

Bu koeffitsient qiymati, agar u foizda ifodalangan bo`lsa  $O$  bilan 100 orasida bo`ladi. U 0 ga qancha yaqin tursa, o`zgaruvchanlik shuncha kuchsizligidan va 100 ga qanchalik yaqinlashsa, o`zgaruvchanlikning shunchalik kuchliligidan dalolat beradi.

Variatsiya koeffitsientini foizda ifodalash yordamida turlicha ifodalangan o`rtacha kvadratik tafovutlar bir xil asosga keltiriladi va ular yordamida turlicha hodisalarning o`zgaruvchanligi qiyosiy tahlil qilinadi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Абдуллаев Ё. Статистика назарияси. –Т.: Мехнат. 2000. –Б.141.

## 9-BOB. HUQUQIY STATISTIKANING DINAMIK QATORLARI

### 1-§. *Dinamik qatorlar tushunchasi va uning turlari*

Sudlar, prokuratura organlari, Ichki ishlar, Soliq, Valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy yo`l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti, MXX, bojxona xizmati, advokatura, notariat va boshqa davlat va jamoa yuridik muassasalarda ko`p yillik jinoyatchilikning, sudlanganlikning, ma`muriy qonunbuzarchilikning, fuqarolik huquqiy munozaralar, tug`ilish, nikoh, o`lim va boshqa yuridik ahamiyatli hodisalarning uzluksiz davlat va hujjatli hisobi o`tkazib boriladi. Bu bir necha o`n yillardan beri yig`ilib kelayotgan o`zgarishlarni kuzatishimizga imkoniyat tug`diradi.

Ijtimoiy hodisa va jarayonlar doimo harakatda, o`zgarishda va rivojlanishda bo`lib, taraqqiyot esa oddiydan murakkabga, quyidan yuqoriga, eskidan yangiga qarab o`zgarib boradi. **Ijtimoiy hodisalarning vaqt ichida o`zgarishi statistikada dinamika deb, shu jarayonni ta`riflovchi ko`rsatkichlar qatori esa dinamika qatorlari deb yuritiladi<sup>1</sup>.**

Har qanday dinamika qatori ikkita unsurdan:

1) xronologik momentlar (sanalar), davrlar (yillar, oylar va hokazo) ro`yxatidan;

2) o`rganilayotgan hodisaning soni, hajmi, miqdorini tavsiflovchi darajalardan tashkil topadi.

Kundalik, oylik va yillik statistik materiallarning to`plami «vertikal» bo`yicha (tuzilishi, holati, aloqadorligi) va «gorizontal» bo`yicha (tendensiya, dinamika, davriyligi), «orti» (retrospektiv, interpolitsiya) va «oldi» (ekstrapolyatsiya, prognoz) bo`yicha har tomonlama analiz qilinmaganida o`zini oqlamagan bo`lar edi. Yuridik ahamiyatga ega bo`lgan dinamika analizi uzoq muddat davomida ularning avvalgi, hozirgi va kelajakdagi rivojlanishini tushuntiradi, yuridik muassasalar faoliyatini baholashning hamda uni istiqbolda rejalashtirishning imkonini yaratadi.

**Hodisalarning zamondagi o`zgarishining asosiy tendensiyasi statistik adabiyotlarda, ayniqsa xorijiy adabiyotlarda *trend* deb nomlanadi.** Dinamik qatorlarning mutlaq miqdorlari bilan tanishib chiqish bilan o`rganilayotgan hodisalar trendining xarakteri kelib chiqadi. Ammo ko`p hollarda hodisalar rivojlanishi tendensiyasi va qonunchiligi turli dinamik qatorlarning shakllantirilishida va o`rtacha miqdorlarni ishlatish yo`li bilan vujudga keladi.

<sup>1</sup> Ё.Абдуллаев. Статистика назарияси. Дарслик. –Т.: Уқитувчи. 2002. Б.276.

Bunga misol keltiramiz. Mamlakatdagi 1966-1995-yillardagi jinoyatchilik dinamikasini tahlil qilib, «Kriminologiya» darsligining mualliflari «to`rtta turdagi tarixiy davrlarning to`rtta tendensiyasi»ni belgilaydilar (1966-1985, 1988-1990, 1991-1995-yillar). Bu davr davomida avval o`sb, keyin kamayib, keyin yana turli tempdagi o`shishlar bilan o`zgargan. Aslida vaqtinchalik va tasodifiy (tarix uchun) tebranishlardan chekinsak, hech qanday to`rtta tendesiya bo`lmagan.

Tahlil qilinayotgan yillarda yagona tendensiya hukm surgan- avval sekin keyin esa total nazoratning SSSRdagi 1970-1980-yillar va 1990-yillardagi jinoyatchilikning intensivligini **trend** kuchaytiradi. Buni mualliflar quyida jinoyatchilik koeffitsientlarining (JK) dinamik qatorlari 1961-1995-yillarning har 5 yili uchun tuzgan jadvali bilan tasdiqlashgan (yuz ming aholiga ). Buni qayta ishlangan holatda ko`rsatamiz.

Yillar	1961- 1966- 1971- 1976- 1981- 1986- 1991- 1965 1970 1975 1980 1985 1990 1995
JK (o`rtacha)	407 480 554 664 901 983 1770
1961-1965 yillardagi o`shishlar,%	- q18 q63 q123 q123 q142 4,4 marta

Shunday qilib, dinamik qatorlar intervallarini yiriklashtirishning o`zi kifoya, chunki ko`rinib turibdiki, o`shishni kuchaytiruvchi yagona tendensiyadir. 1986-1987 yillardagi jinoyatchilikning kamayishi - tendensiya emas, balki uning anomaliyasi qisoblanib, u partiya va davlatning ichkilikbozlikka qarshi shiddatli kurashi bo`lib, u keyinchalik ikki yildan so`ng inqiroz bilan tugagan. Bu trend shuni tasdiqlaydiki, jinoyatchilik «izm»lar bilan bog`liq emas.

## **2-§. Dinamik qatorlarni tahlil qilish**

Dinamik qatorlarning ilmiy statistik tahlili- o`rganilayotgan statistik hodisotlarning obyektiv xulosalari olinishning garovidir. Dinamik qatorlar yoki vaqtinchalik qatorlar o`zida konkret statistik miqdorlarning sonli ko`rinishlarining vaqtdagi bir qismini aks ettiradi (oy, kvartal, 5 yil va h.k.). Dinamik satrda ikkita miqdor mavjud bo`ladi: vaqt miqdori (vaqt shkalasi) va satr darajasi (satr darajasining shkalasi). Satr darajasi, odatda «U» belgisi bilan belgilanib, analitik ishlar jarayonida ko`pchilik ishlab chiqarilgan umumiy, o`rtacha va nisbiy miqdorlarni hisobga olishning asosida avvalo mutlaq miqdorlar ko`rsatiladi.

Dinamik qatorlar, qoida bo`yicha xronologik jadval va grafiklar ko`rinishida bo`ladi. Vaqt shkalasi odatda absissa o`qida, daraja shkalasi esa ordinata o`qida joylashadi. Dinamik qatorlar umumiy miqdorlarining ko`rinishiga ko`ra mutlaq, nisbiy va o`rtacha miqdorlarga bo`linadi. Xarakteriga ko`ra dinamik qatorlar paytli va intervalli dinamik qatorlarga bo`linib, o`z navbatida turli ko`rinishlarga ega bo`lishi mumkin: o`sish sur`ati, ko`payish sur`ati, koeffitsientlar, indekslar, o`rtacha kvadrat og`ish, dispersiyalar va h.k. Bu miqdorlarning ko`pchiligi mutlaq, nisbiy va o`rtacha miqdorlar bobida u yoki bu ma`noda ko`rib chiqilgan. Mazkur bobda maxsus dinamik qatorlarga bag`ishlangan dinamik qatorlarning u yoki bu miqdorlarining integral xususiyatlarini ko`rib chiqish oldimizda turibdi.

Paytli qatorlar yuridik ahamiyatga ega hodisotlarning ma`lum paytgacha bo`lgan vaqtining o`zgarish darajasini xarakterlaydi, masalan, oyning, yilning, kvartalning boshigacha yoki 1-yanvargacha, 30-iyungacha, 31-dekabrgacha va h.k. Tipik paytli qatorlar yuridik statistikada- koloniyalar, turma, tergov izolatorlaridagi mahbuslarning soni yoki sudyalari, prokurorlar, tergovchilar, advokatlar, yuriskonsultlarning hudud bo`yicha, muassasa bo`yicha bir necha yillardagi ma`lum bir vaqt uchun olingan sonini belgilaydi. Paytli qatorlardagi sanalar o`rtasidagi davrlar interval qatorlari deyiladi. U yillik, kvartal, oy bo`yicha bo`lishi mumkin. Paytli satrning o`ziga xos xususiyati shundaki, uning miqdorlari u yoki bu holatni ochgan holda summalashtirilishi yoki yiriklashtirilishi mumkin emas. 1997-yil yanvarda ro`yxatga olingan sudyalari sonini 1 iyulda ro`yxatga olingan sudyalari soni bo`yicha summalashtirilishi mumkin emas (ya`ni mazkur yilning ikkinchi yarim yilligining boshigacha yoki 1998-yilning 1-yanvari bo`yicha).

Interval qatorlar o`rganilayotgan miqdorlarning ma`lum davrgacha olingan miqdorlarini xarakterlaydi. Paytli qatorlardagi interval bu - o`sha joriy vaqt hisoblanadi, lekin unda keltirilgan ma`lumotlarning to`planib

kelishi paytida umumlashtiriladigan joriy vaqtdir. Shuning uchun oylik ma'lumotlarni kvartal bo'yicha, kvartalni yil bo'yicha, yillikni esa 5 yillik bo'yicha summalashtirish mumkin. Paytli qatorlarda miqdor darajasi interval hajmiga bog'liq emas. Har oyning boshida, har yilning boshida ham N shahri prokuratura xodimlarining umumiy soni bir xil bo'lishi mumkin. Interval satrda esa darajaning kattaligi interval hajmiga bog'liq. Bir yillikda qayd etilgan jinoyatlar istalgan oylarda qayd etilgan jinoyatlardan (taxminan) 12 marta ko'p bo'lishi mumkin. Ba'zida aytiladiki, paytli qatorlar bir vaqtning holatini, interval qatorlar esa faoliyatni o'zida aks ettiradi (jinoyat sodir qilish, jinoyatchilik bilan kurash, yuridik faktlarni belgilash va h.k.).

Dinamik qatorlarning analitik imkoniyatlarini ko'p karra ko'paytirish imkonini beruvchi dinamik qatorlar asosida paytli va interval qatorlarining mutlaq miqdorlari orqali dinamik qatorlarining nisbiy va o'rtacha miqdorlari olinishi mumkin. Nisbiy miqdorlarda (foiz, ulush, koeffitsient, indeks) yoki o'rtacha miqdorlarda (o'rtacha arifmetik, o'rtacha geometrik, o'rtacha kvadrat og'ishi, dispersiya) ko'rsatilgan dinamik qatorlar ba'zida dinamik qatorlarning umumlashgan miqdorlari deb nomlanadi. Bu unchalik to'g'ri emas, chunki summali mutlaq miqdorlar asosidagi nisbiy va O'rtacha miqdorlar ham umumlashtirilgan miqdorlar bo'lishi mumkin.

Tahlil qilinayotgan dinamik qatorlarga qo'yiladigan asosiy talab- bu ularning tarkibi darajalari 'bo'yicha, olingan muddat hisobi bo'yicha, qurshab olingan hudud kengligi va boshqa parametrlari bo'yicha to'g'ri kelishidir. To'g'ri kelmaslikning sabablari ham ko'p. Eng asosiylariga to'xtalamiz.

1. Qayd etilgan hodisalar tarkibining o'zgarishi. Bu, avvalo, jinoyatchilik, huquqbuzarlik va boshqa yuridik definitsiya tushunchalarining o'zgarishiga tegishlidir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining uning amal qilishi davomida juda ko'p o'zgarish va qo'shimchalar kiritilgan. Asosiy qismi oldin jinoyat hisoblangan yoki hisoblanmagan harakatlarni kriminallizatsiya qilgan yangi moddalar (yulduzchalari bilan) to'ldirilgan, lekin ko'pgina moddalar chiqarib tashlandi, ya'ni ilgari jinoyat deb hisoblangan ba'zi qilmishlar- harakatlar diskriminalizatsiya qilindi. Analogik o'zgarishlar boshqa qator kodeks va qonunlarning qabul qilinishi bilan yuz bergan. Bunday ko'rinishdagi normativ o'zgarishlar yuridik ahamiyatli miqdorlarga ta'sirini ko'rsatadi. Buni miqdoriy va sifatli tahlillarda hisobga olish zarur.

2. Hudud o'zgarishiga u yoki bu miqdorlarning o'zgarishi to'g'ri keladi. Ma'muriy hududiy o'zgarishlar, qonunchilik o'zgarishlaridan uncha ko'p emas, lekin ular mavjuddir.



3. Jinoyatchilik, sudlanganlik, ma'muriy huquqbuzarlik, fuqarolik huquqiy deliktlarning hisob o'zgarishi dinamik qatorlarning mos kelishiga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin. Dinamik satr miqdorlarining hammasi bir xil o'lchov birliklari va bir xil tipdagi metodik hisob-kitoblarda ko'rsatilishi mumkin. Biroq hayotda hammasi ancha mushkulroqdir. 1950-60-yillargacha, masalan, SSSRdagi sudlangan va jinoiy ishlar faktik hisobga olingandan keyin berilgan jinoyatlar hisobga olinishi boshlangan. 1965-yilda Yagona hisob qoidalarining qabul qilinishidan so'ng bu hisob bir necha marta o'zgargan va to'ldirilgan. Umumiy nashriyot instruksiyasining hisobi esa 1985-yili ham almashgan. Bunday muhim miqdorlar hisobi jinoyatlarning ochilishida jiddiy tebranishlarni o'tkazgan.

4. Yuridik ahamiyatli hodisotlar hisobining to'liqligi turlicha bo'lishi mumkin. 1989 yilgacha, masalan, Ittifoqdagi ma'muriy qonunbuzarliklar Ichki ishlar Vazirligi tomonidan hisobga olingan. 1990-yilda bu hisob markazlashtirilib, unga 35dan ortiq vazirliklar va vedomostlar hisoboti keltirilib, ma'muriy yurisdiksiya huquqiga ega bo'lishgan. 1992-yildan rasmiy hisobotga faqatgina Ichki ishlar (militsiya, DAN, yong'in nazorati organlari) va ma'muriy sud ish yurituvchi ramkasidagi sudlar tomonidan hisobga olingan jinoyatlar hisobotga kiritiladi. Bunday notengliklar boshqa mamlakatlarda ham kuzatiladi. Masalan, AQShda federal masshtabdagi jinoyatlar hisobi faqatgina 8 ta indeks harakatida tarqaladi. 21 ta turdagi qonunga qarshi harakatlarning faqat hibsga olinganlari hisobga olingan. Bundan tashqari, tegishli shtatlar ma'lumotlari Adliya vazirligiga o'z xohishlariga ko'ra topshiriladi. Shuning uchun agentliklar soni turli yillar bo'yicha, turli shtatlar bo'yicha va turli harakatlar bo'yicha sezilarli darajada farqlanishi mumkin. 1978-yildan boshlab yondirib yuborish sakkizinchi standart jinoyati sifatida vujudga kelib, lekin hozirgacha to'liq ko'rinishda jinoyatchilikning yagona hisobotida aks etmagan.

Xalqaro qiyosiy yoki davlatlararo o'zgarishlar farqlarigina emas, balki normativ sistemalar farqlari va boshqa milliy xususiyatlar hisobga olinib, tahlil qilinmasa, qiyosiy o'rganishlar nomutanosib bo'lishi mumkin. Davlat ichidagi yoki davlatlararo nomutanosibliklarning ko'pchilik sabablari o'zining mohiyati bo'yicha bebartarafdir. Ularni faqat statistik minimalizatsiyalash sifatli analiz darajasida hisobga olish mumkin.

### 3-§. *Dinamik tahlil miqdorlari*

Dinamik satr qandaydir «n» sonidan iborat boʻlgan oʻzgaruvchan darajalardan iborat boʻlib, har qanday statistik jamlanmasining u yoki bu miqdorlarida koʻrsatilishi mumkin.

Ancha keng takomillashgan miqdorlar – bu mutlaq oʻsish yoki kamayishi (oldingi va keyingi mutlaq miqdorlar summalarining turlichaligi), oʻsish yoki kamayish surʼati (qatorlarda darajalarning foizlarda oʻzgarishiga nisbatan oʻzgarmas bazaviy miqdorlar yoki keyingi darajalar miqdorlarining oʻzgaruvchanligi. Oʻrtacha yillik oʻsish surʼatlari yoki kamayishi (yillik surʼatlar oʻsishi yoki kamayishining oʻrtacha geometrik kattaligi). Bu miqdorlarning hammasi nisbiy va oʻrtacha miqdorlar bobida toʻxtalib oʻtilgan. Shuning uchun faqatgina baʼzi oxirgi miqdorlar va oldin koʻrilmagan miqdorlar xususiyatlari haqida toʻxtalib oʻtamiz.

Baʼzida kamayishning oʻrtacha koeffitsienti deb ataluvchi oʻrtacha yillik surʼatlarning kamayishini hisoblab chiqarishda uning nozik bir tomonini yodda tutish zarur. Koʻrilayotgan miqdor quyidagi ikki pozisiyada boʻlishi mumkin: bazaviy va nihoyali. 1991-1996-yillarda koʻchalar, maydonlar, parklar va mamlakatning aholi punktlari joylashgan skverlarda sodir etilgan va roʻyxatga olingan real jinoyatlarga murojaat qilamiz.

Koʻrilayotgan jinoyatlar oʻrtacha yillik surʼatlarining kamayishini hisob-kitob ilish uchun 1991-1996-yilgi maʼlumotlardan foydalanishning oʻzi kifoya. Bunday munosabat 89,3%ni tashkil qiladi.

1-jadval

Faraz qilaylik, jinoyatlarning dinamikasi.

Yillar	1991	1992	1993	1994	1995	1996
Jinoyatlar jami	2455	3036	3336	2831	2695	2192
	32	42	82	89	10	11

Oʻrtacha yillik surʼatlarining kamayishi-2,25%. Aslida bu harakatlar 1991-yilga nisbatan 1992-yilda 23,7%ga koʻpaygan, 1993-yilda-35,9%ga, 1994-yilda-15,3%ga, 1995-yilda-9,8%ga va faqatgina 1996-yilda-10,7%ga kamayib, hisobga olingan, ammo kamayish tendensiyasi esa 1994-yildan boshlangan. Bunday hollarda matematik aniq hisob-kitob ishning real holati bilan toʻgʻri kelmaydi. Shuning uchun oʻsish-kamayishning (kamayishning) oʻrtacha qatorlardagi oʻzgarishlar surʼatlarining oʻrtachalashuvi predmetini yaxshilab tahlil qilishimiz zarur. Zarur hollarda

kattaroq davrlarni o`rtacha hisob-kitob qilish uchun qandaydir ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etsa, qismlarga ajratsa bo`ladi. Bizning misolimizda 1991-1993-yillarning o`rtacha yillik o`sinh sur`atlarini hisoblash, 1993-1996-yillar uchun esa o`rtacha yillik kamayish sur`atlarini hisoblash maqsadga muvofiqdir. Birinchisi q16,55%ga teng, ikkinchisi esa -18,95% ga teng. Ularni o`rtacha miqdor-2,25% bilan joylashtiramiz. Farqlar yaqqol namoyon bo`ladi. Obyektiv bo`lishligi uchun bu miqdorlarning hammasini hisoblab chiqish mumkin.

Dinamik satrdagi berilgan miqdorlar bilan bir qatorda satrning o`rtacha darajasi ham hisoblab chiqarilishi mumkin. U intervalli va paytli, mutlaq, nisbiy va o`rtacha miqdorlardagidek istalgan dinamik qatorlarda qo`llanilishi mumkin. O`rtacha miqdordagi istalgan interval qatorlar uchun, interval va paytli qatorlar uchun satrning o`rtacha darajasi, o`rtacha arifmetik qoidasi bo`yicha hisoblanadi. Masalan, ma`lum bir N viloyatida bosqinchilik quyidagicha ro`yxatdan o`tkazilgan: 1991-yilda-48ta, 1992-yilda-64 ta, 1993-yilda-100 ta, 1994-yilda- 111 ta, 1995-yilda-113ta. Agarda yillik darajalarni Yi bilan nomlasak, satrning o`rtacha darajasi Y quyidagi formula orqali hisoblanishi mumkin:

$$U_{\Sigma U_i} / nh (48+64+100+111+113)/5=87,2 \text{ ta bosqinchilik.}$$

Bosqinchiliklarning 5 yildagi darajasi qandaydir etalon sifatida ko`rsatilib, undan real darajasi ham tutilib qoladi. Bundan ko`rinadiki, 1993-yildan boshlab bosqinchiliklarning yillik darajalari o`rtacha darajasidan ancha yuqoridir. Lekin bunday jinoyatlar bo`yicha hisob-kitoblarning tahlili kamdan-kam ishlatiladi. Amaliy maqsadlarda ko`pincha tergovchi (prokuror, sudya, advokat)lar nagruzka (yuklama, ish bilan ta`minlanganlik darajasi) sining o`rtacha darajasini yilning har bir oyi uchun yoki ishchilarning bir necha yillik uchun umumiy o`rtacha nagruzkasi bilan solishtirish kerak. Bunday hollarda yuqoridagi formula bo`yicha o`rtacha nagruzka hisoblanadi, deylik, bir oyda ma`lum bir ishchining, keyin esa muassasa barcha ishchilarining o`rtacha nagruzkasi har qaysi ishning obyektiv baholanishi boshqaruvchilik faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Paytli qatorlarning o`rtacha darajasi esa aksincha hisoblanadi. Avvaliga vaqtning o`rtacha darajasining boshi va oxiri hisoblanib (masalan, yil), keyin esa bir necha yilning o`rtacha arifmetigi hisoblanadi. Bu «o`rtacha» statistikada paytli qatorlarning **xronologik o`rtachasi** nomi bilan mashhur. Buni aniq misolda, ya`ni mamlakatning tergov

izolatorlarida hibsga olinganlarning oʻrtacha darajasini hisoblab chiqarishda koʻramiz. Biz har yilning 31-dekabrda hibsga olinganlar soni boʻyicha maʼlumotlarga egamiz (2-jadvalda oxiri – «o» harfi bilan belgilangan). Xuddi shu maʼlumotlar keyingi yilning 1-yanvaridagi maʼlumotlar bilan toʻgʻri keladi (jadvalda boshi – «b» harfi bilan belgilangan).

2 - jadval

Yillar	1991 b-o	1992 b-o	1993 b-o	1994 b-o	1995 b- o	1996 b-o
Hibsga olinganlar soni	145700 - 158220	195029	226840	246384	2951200	269172
Yillik oʻrtacha daraia	151960	176624,5	210949,5	236327	270792	282186
6 yilning oʻrtacha arifmetigi – 221523 ta hibsga olinganlar.						

6 yilning oʻrtachasi va 1 yilning oʻrtacha darajasi oʻrtacha arifmetik formulasi boʻyicha hisoblanadi. Xuddi shu maʼlumotlarni bir martalik hisob boʻyicha hisoblash mumkin.

$$\frac{145700+158220 + 158220+195029 + 195029+226840}{\text{Uh} \frac{2}{2} \frac{2}{2}} \frac{2}{6}$$

Hisob kitoblarning oʻtmayotgan boshqa usullari mavjud. Dinamik satr oʻrtacha darajasining naqdi ayrim darajalarning umumiy oʻrtacha kvadratlari ( $\sigma$ ), shuningdek, koeffitsient, variatsiyasi (V) chekinishlarini hisobga olishga imkoniyat yaratadi. Uning formulasini eslatib oʻtamiz:

$$\sigma h \sqrt{\frac{\sum (Y_i - \bar{Y})^2}{n}} \text{ Vh } \sigma \text{ } 100\%$$

Bu miqdorlarni tahlil qilib, ayniqsa, tenglamali izlanishlarda, oddiy dinamik qatorlardagi qiyoslarda koʻrinmaydigan alohida xususiyatlarda koʻrishimiz mumkin.

#### **4-§. Dinamik qatorlarni tenglashtirish**

Yuridik statistikada dinamik qatorlarning sekin o`zgaruvchan yoki o`zgarmas darajalarini uchratish mumkin, Ayniqsa, hozirgi murakkab huquqiy munosabatlar vaqtida ko`riladi. Dinamika darajasi sezilarli o`zgarib turishi mumkin, ba`zida «sakrab» ham turadi. Dinamikaning bu o`ta o`zgaruvchan miqdorlari - huquqiy reformalar o`tkazilishining yo`lga qo`yilmaganligi, o`tish davridagi jarayonlarning yetarli bo`lmaganligi, huquqiy sharoitning yaratib berilmaganligi, amaldagi qonunchilikning zidligi yangi yuridik yondashishlarni shakllantirish kabi ko`plab sabablar bilan bog`liq. Shuningdek, ijtimoiy va ijtimoiy-huquqiy statistika o`ziga xos stabiligi bilan ajralmaydi.

Huquqiy munosabatlar harakatchandir, bu asosan siyosiy davrlarda va ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlarda namoyon bo`ladi. Dinamik qatorlar darajalarining katta o`zgaruvchanligi sharoitida dinamikaning uchta komponentini ajratib ko`rsatish mumkin:

1. Asosiy tendensiyalarning uzoq muddatli o`zgarishlari.
2. Sistemali, ammo qisqa muddatli o`zgarishlar.
3. Nosistemali tasodifiy o`zgarishlar, ular ko`pincha subyektiv va boshqa alohida sabablar bilan bog`liq.

Kiritilgan, tasodifiy va vaqtincha dinamik qatorlardan qonuniy va qat`iy dinamik satr darajalarini ajratish zaruriyatining asosiy tendensiyasi va u yoki bu voqealarning qonuniy rivojlanishini o`rganishni keltirib chiqaradi. Shu maqsadda dinamik satr darajalari turli matematik hosilalarni keltirib chiqarib, satr darajalari o`zgarishlarini keltirib chiqaradi. Ikkilamchi guruhlarining shakllantirilishi statistik qatorlar hosil qilishning oddiy usullari sifatida qatorlarni yiriklashtirish va birlashtirilishi qo`llanmaning tegishli boblarida ham berilgan. Ushbu bo`limda taxminlarni kengaytirish va ularni yangilari bilan to`ldirish zarurati mavjud. Dinamik qatorlarning birlashtirilishi to`g`risidagi masala yuridik statistikada asosiy aktualikka ega. Qonunchilikning o`zgarishi, tamoyil va shakl hisobi yagona dinamik qatorlar miqdorlarini ko`rsatishga imkoniyat yaratmaydi. Masalan, Jinoyat Kodeksi ba`zi vaqtda og`ir jinoyatlarning yagona asosi bo`lgan, 1994-yilda uning mavjudligi kengaytirildi, Jinoyat Kodeksining amalga kiritilishi tamoyillarni o`zgartirdi. Bunday sharoitlarda 1991 – 1994-yilgi og`ir jinoyatlar dinamik qatorlarini tuzish mumkin emas edi, chunki mavjud ma`lumotlar nomutanosib bo`lgan.

Analogik qiyinchiliklar hisob birliklarining o`zgarishi, hududiy va boshqa nomutanosibliklar asosida kelib chiqadi. Og`ir jinoyatlar darajalari o`zgarishining umumiy tendensiyasini ajratib ko`rsatish uchun dinamik

qatorlarning birlashtirilishini amalga oshirish mumkin, buni yaqqol misolda ko`rsatamiz.

3-jadval

### N shahridagi og`ir jinoyatlar dinamikasi

miqdorlar	1991	1992	1993	1994	1995	1996
og`ir jinoyatlar soni:	52	60	78	80	155	167
eski hisob bo`yicha:	65	75	97,5	100,0	103,3	111,3
yangi hisob bo`yicha:	100,0	115,4	150,0	153,8	158,5	171,2
ichki qatorlar, foiz:						
1991 yilgacha foizda:						

3 – jadvalda biz ikkita faktik satrga egamiz:

1. (1991-1994-yillar) og`ir jinoyatlarning eski hisobi bo`yicha;
2. (1994-1996-yillar) kengaytirilgan yangi hisob bo`yicha.

Bu nomutanosib qatorlarning birlashuvchi darajaning 1994-yilgi eski va Yangi hisobining 100%i (baza uchun), keyingisi uning chap tomonini foizlashtiramiz – jinoyatlar darajasining eski hisobi va o`ng tomoni darajalarini – jinoyatlarning yangi hisobi bo`yicha joylashtiramiz. Shundan keyin biz 1991-yilgi bazaning (100%) nisbiy miqdorini hosil qilishimiz mumkin. Shu tarzda biz ichki dinamik satrni hosil qildik va og`ir jinoyatlar o`shishining asosiy tendensiyasi aniqroq ochib berildi.

Dinamik qatorlarni to`g`rilash uning asosiy tendensiyasiga, trendga - intervalni o`rtacha sirg`aluvchini yiriklashtirish, to`g`ri chiziq bo`yicha to`g`irlash, parabola bo`yicha, Fure satri yordami bilan va boshqa usullar ishlatish metodi bilan yaqinlashtiradi.

Dinamik qatorlar intervallarini yiriklashtirish yo`li bilan to`g`rilash yiriklashtirilgan intervallar uchun yakuniy yoki o`rtacha miqdorlarini aniqlashda namoyon bo`ladi. Faraz qilaylik:

1996-yilgi o`q – otuv qurollarining Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jinoyatlarning oldini olish uchun qo`llash.

Oy	Mutlaq miqdorlar			Kvartal bo`yicha o`rtacha oylik
	O`shish bo`yicha	Oylar bo`yicha	Kvartal bo`yicha(1-kvartal,%)	
Yanvar	73	73		
Fevral	154	81		
Mart	237	83	237(100%)	79
April	348	111		
May	461	113		
Iyun	555	94	318(134,2%)	106
Iyul	663	108		
Avgust	741	78		
Sentabr	831	90	286(120,7%)	92
Oktabr	922	91		
Noyabr	1002	80		
Dekabr	1069	67	238(100,4%)	79
1 yilgi o`rtacha oylik miqdor – 89				

Ichki ishlar Vazirligi oylik hisobotlarida ma`lumotlar o`shish bo`yicha keltiriladi: yanvar uchun, yanvar – fevral, yanvar – mart va h.k. Bunday (yig`ilib ketgan ma`lumotlar) o`t-otuvchi qurollarning Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan jinoyatlarning oldini olish maqsadida ishlatish bo`yicha yig`ilib kelgan ma`lumotlar 4 – javdalning 2- ustunida berilgan. Bu dinamikani ochmaydi, bu asosini ochadigan oylik ma`lumotlarning (3-ustun) qurollarni qo`llashning goh o`shishini, goh kamayishini ko`rsatadi: bunda tendensiya noaniq. Kvartal bo`yicha oylik ma`lumotlarni yiriklashtirib hamda har kvartal va yilning o`rtacha miqdorlarini hisoblab chiqib, biz to`la, aniq, mavsumiy tendensiyani ko`rishimiz mumkin. 1-kvartalda tahlil qilinayotgan hodisalar minimaldir (100%), 2-sida ularning darajalari eng yuqori nuqtasiga yetadi (134,2%), 3-sida ularning soni kamayadi(120,7%), 4-sida kelib chiqqan darajaga yetadi (100,4%). O`rtacha miqdorlarga murojaat qilish, yiriklashtirilgan ma`lumotlarning analitik tahlilini chuqurlashtiradi. Bunday intervallarni yiriklashtirish faqat dinamik qatorlardagina qo`llaniladi.

Paytli va intervalli yiriklashtirishning o`rtacha miqdor qatorlari o`rtacha arifmetik formulasining o`rtacha darajasini hisoblash asosida vujudga keltiriladi, chunki paytli qatorlar va o`rtacha miqdorlar qatorlari darajasini summalash mumkin emas. 4-jadvalda (5-ustun) kuzatilayotgan

hodisalarning har kvartal bo'yicha o'rtacha oylik miqdorlari keltirilgan bo'lib, har kvartalning umumiy summasi kabi u ham kuzatilayotgan hodisa to'g'risidagi axborotni beradi (4-ustun). O'rtacha arifmetik qoidasi bo'yicha har kvartalning o'rtacha oyligini yiriklashtirish orqali biz bir yillikning o'rtacha oyligini topishimiz mumkin:

$$\frac{79+106+92+79}{4} \text{ h } 89$$

U oylik ma'lumotlarning joylashtirilishi va hosil qilingan summa – 12 oyga bo'linishi yo'li bilan hosil qilingan o'rtacha oylik miqdoriga tengdir.

Keyingi dinamik qatorlar rivojlanishi tendensiyasini ko'rsatish usuli – bu ularning o'rtacha sirg'aluvchisi orqali to'g'rilash. Buning uchun o'rtacha ikkitadan, uchadan, to'rtta, beshta va undan katta darajalardan hisoblab chiqarish lozim. SSSRning 1981 – 1990-yilgi, jinoyatchilik o'zgarishlari «sakrovchan» bo'lgan davrlardagi jinoyatchilik dinamikasiga murojaat qiladi (5-jadval).

Avval birinchi uch yillikning o'rtachasini, keyin esa 1982 yildan boshlab, oxirgi uch yiligacha bo'lganini, so'ng 1983 yildan boshlab keyingi uch yilgacha bo'lganini va h.k. 1981-1983 yillar o'rtachasi quyidagicha :

$$\frac{1609470+1655932+2016515}{3} \text{ h } 1760064$$

5 - jadval

SSSR (1981-1990 yil) ning jinoyatchilik dinamikasi.

yil	Ro'yxatga olingan jinoyatlar	3 yil bo'yicha to'g'rilash
1981	1 609 470	-
1982	1 655 932	1 760 064
1983	2 016 514	1 900 530
1984	2 029 144	2 043 053
1985	2 083 501	2 033 313
1986	1 987 239	1 956 448
1987	1 798 549	1 884 335
1988	1 867 223	2 042 488
1989	2 461 692	2 376 840
1990	2 786 605	-

Analogik tarzda so'nggi uch yilning o'rtachalari hisoblangan (5-jadval, 3-ustun). O'rtachalarning dinamik satri realiga nisbatan ancha to'g'rilandi, ammo boshida bir darajaga va oxirida bir darajaga qisqardi. Agar biz besh yillik bo'yicha o'rtachalashtirganimizda, unda satr boshida



ikki darajaga va oxirida ham ikki darajaga qisqargan bo'lar edi. Qanchalik o'rtachalashtirish intervali katta bo'lsa, shunchalik dinamik satr to'g'rilangan bo'ladi va aksincha interval qanchalik kichik bo'lsa, satr ham shunchalik kamroq to'g'rilanadi.

To'g'ri chiziq tenglamasining quyidagi formulasi Uhaqbx mavjud bo'lib, bunda «U» - hisoblanishi kerak bo'lgan satrning to'g'rilangan darajasi, a va b – to'g'ri chiziq parametrlari, x - vaqt miqdorlari (kun, oy, yil) dir.

Satr darajalarining to'g'ri chiziq bo'yicha to'g'rilanishi faktik satr darajalarini nazariyga almashtirilib, to'g'ri chiziq tenglamasi yordamida hisoblanadi. Bizga noma'lum bo'lgan a va b parametrlari eng kichik kvadrat usulida aniqlanib, o'zida ikkita oddiy tenglamani aks ettiradi ( $\Sigma$  - belgisi; n – darajalar soni): 1)  $\Sigma uhaqbx$ ; 2)  $\Sigma xuhaqbx$ . Bu ikkita tenglamadan a va b aniqlanadi. Bunday tenglamalarning ravshanroq yechimi yaqqol misollarda boshqa boblarda beriladi.

a va b ni aniqlab, biz to'g'ri chiziq tenglamasini har yil uchun alohida holda ( $u_1, u_2, u_3 \dots$ ) yechishimiz mumkin.

Raqamlarning nazariy satrini hosil qilganimizdan so'ng, ularning egri faktik satrini grafik satri ko'rinishida ko'rsatishimiz mumkin.

Dinamik satr darajalarini tenglashtirish usuli bilan birga matematik tayyorgarlikni talab qiladigan boshqa murakkabroq usullar ham mavjud. Ular quyidagilardir:

1. Miqdor funksiyasi bo'yicha tenglashtirish bo'lib, geometrik progressiyasida satr darajalarining o'zgarishida qo'llanadi.

2. Parabola bo'yicha tenglashtirish.

3. Fure satri orqali tenglashtirish.

Bu metodlar faqat dinamik qatorlarning faktik darajalari o'zgaruvchan davriga ega bo'lganda qo'llanishi mumkin, masalan, bu jinoyatchilik dinamik va boshqa yuridik ahamiyatga ega bo'lgan hollarda kuzatilishi mumkin bo'lgan mavsumiy tebranishida ko'rinadi.

Dinamik qatorlarni tenglashtirish yuridik statistikada asosan jinoyatchilik va uning alohida guruhlarining ekstrapelatsiyasi metodi orqali (vujudga kelgan trendning kelajakda davom etishi) qonunbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi dastur va rejalarni ishlab chiqishda, operativ ishchilarning bo'lishi kerak bo'lgan nagruzkasini aniqlashda va boshqa hollarda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Shuningdek, qatorlarning tenglashtirish interpolatsiya (vujudga kelgan trendning oldingi vaqtda davom etishi) metodi orqali yetarli bo'lmagan ma'lumotlarni topishda ham ishlatiladi.

## 5-§. *Dinamika qatorlarida mavsumiylikni o'rganish usullari*

Yuridik fan va amaliyotda mavsumiyini o'rganish yetarli darajada aks etmayapti. Avvalgi yuridik (sud, huquqiy) statistika to'g'risidagi darsliklarda bu haqda eslab ham o'tilmagan. Prokuratura xodimlari uchun qo'llanma mualliflari faqatgina jinoyatchilikning mavsumiy o'zgarishlarini o'rganishnigina tavsiya qilishgan. Mavsumiy o'zgarishlar yuridik ahamiyatga ega bo'lgan hodisalarning mutlaq ko'pchiligiga taalluqlidir. Ba'zi mavsumiy to'lqinlar faza bo'yicha turli siljishlarga ega hamda o'zaro qarshi fazada joylashgan. Faoliyatning avtonom sistemasida bu unchalik ahamiyatga ega emas, lekin mavsumiy tebranishlardagi qaram sistemalarning farqi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bu «jinoyatchilik bu – jinoyatchilik bilan kurash» sistemasiga to'g'ridan – to'g'ri aloqadir. Jinoyatchilikning mavsumiy «cho'qqisi» (ba'zi faoliyat turlari o'zining cho'qqilariga ega). Ko'p hollarda bahor va kuzga, to'g'rirog'i mart va oktabrga to'g'ri keladi, «tushkunlik» esa qishga (dekabr – yanvar)ga to'g'ri keladi, ya'ni hisobot davrining boshi va oxiri yoz oylarida (iyul) jinoyatchilik darajasi, bahor va kuz oylaridagiga nisbatan pastroqdir. Jinoiy harakatlar darajasi iste'foli davrga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi huquqni muhofaza qilish organlar ishini aktivlashtiradi deb tahlil qilishimiz mumkin.

Ba'zi kriminologlar qayd etilgan jinoyatchilik real darajasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari aktivligi darajasidan realroqdir deb bejiz taxmin qilishmagan. U qanchalik yuqori bo'lsa, qayd etilgan harakatlar darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Egri mavsumiy jinoyatchilikka boshqa sharoitlarning mavsumiy dinamik ta'siri o'tadi Jinoiy motivatsiyalar, militsiyaning ishchanligi jinoyatchilikka qarshi kurashishning yillik va yarim yillik «muvaqqiyati», (hisobot davri)ning ko'rsatilishi, huquqni muhofoza qiluvchi organlarning yilning boshida susayishi va hokazo.

Yuridik ahamiyatli hodisalarning mavsumini o'rganish boshqaruvchilik faoliyatidagi tashkilotlar uchun zarur. Statistika mavsumni aniqlashning bir necha usullarini ishlab chiqdi. Mavsumiy tebranishlarni o'lchash va namoyon qilishning oddiyroq uslubi – bu o'rganilayotgan hodisalarni oylar bo'yicha o'rtacha darajasini (o'рта arifmetigini) hisoblash hamda oylik ma'lumotlarni o'rtacha darajasi bilan joylashtirish hisoblanadi.

Bu darajalarni foizda ko'rsatilgan munosabati mavsumiy indeksi (MI) deb nomlanadi. U quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$MIh = \frac{Do}{U} \cdot 100\%$$

MI - mavsumiy indeksi.

Do – oy bo`icha darajasi (real).

U – yillik o`rtacha daraja satri.

**1. Uni N davlati va uning N viloyatidagi jinoyatchilikning real oylik darajasini hisoblab chiqaramiz:**

**N davlati va uning N viloyatidagi jinoyatchilik to`g`risidagi ma`lumot (1996-y)**

Oy	N davlati		N viloyati	
	Jinoyatchilik darajasi (Do)	Mavsumiy indeksi (MI)	Jinoyatchilik darajasi (Do)	Mavsumiy indeksi (MI)
<i>Yanvar</i>	202013	92,3	5486	82,5
<i>Fevral</i>	231917	106,0	7325	110,2
<i>Mart</i>	236772	108,2	7501	112,8
<i>April</i>	217325	99,3	2650	100,0
<i>May</i>	216308	98,9	6384	96,0
<i>Iyun</i>	224342	102,6	6660	100,2
<i>Iyul</i>	210395	96,2	6273	94,3
<i>Avgust</i>	214087	97,9	6604	99,3
<i>Sentabr</i>	227999	104,2	6619	99,5
<i>Oktabr</i>	232266	106,2	6822	102,6
<i>Noyabr</i>	206925	94,6	5929	89,2
<i>Dekabr</i>	204732	93,6	7546	113,5
	Uh218756,8		Uh6650	

Davlatdagi satrning o`rtacha oylik darajasi:

**ΣDo 2625081**

Uh----- h----- h218756,9 jinoyat

12

12

**N viloyatdagi:**

$$U = \frac{79799}{12} = 6650 \text{ jinoyat}$$

Shundan so`ng **N davlati va uning N viloyatidagi** oylar bo`yicha mavsumiy indeksini hisoblab chiqaramiz.

$$MI = \frac{Do\ 202013}{U\ 218756,8} \cdot 100\% = \frac{5486}{218756,8} \cdot 100\% = 9231 \text{ N davlati dagi yanvar uchun.}$$

$$MIh = \frac{5486}{6654} \cdot 100\% = 82,5\% \text{ N viloyatidagi yanvar uchun.}$$

Boshqa oylarning mavsumiy indeksi analogik yo`l bilan hisoblanadi, hisobning natijalari 6-jadvalning 3 va 5 ustunida ko`rsatilgan.

**2. Bir yilning oylik ma'lumotlari ko`p tasodiflar ta'sirida mavsumiy tebranishlarning aniqlash uchun yetarlicha ishonchli emas. Shuning uchun statistikalar bir necha yil asosan 3 yilning oylik ma'lumotlaridan foydalanadi. Mavsumiy indeks hisobi ham xuddi shu formula orqali hisoblanadi, faqat oylik ma'lumot (Do) 1 yil uchun emas, balki aniq oylarning 3 yillik o`rtacha arifmetigi olinadi. Umumiy o`rtacha oylik darajasi (U) uchala yilning (36 oy) ma'lumotlari asosida hisoblanadi. Bu 7-jadvalda ko`rsatilgan.**

N viloyatining jinoyatchilik mavsumi to'g'risidagi ma'lumotlar  
(1994-1996-yy.)

Oy	Qayd etilgan jinoyatlar			Uch yillik jinoyatchilikning o'rtacha darajasi	Mavsumiy indeks (MI), 100 %
	1994	1995	1996		
Yanvar	5449	5078	5486	5371	49,2
Fevral	6948	7062	7325	7112	104,9
Mart	7608	7676	7501	7595	112,0
Aprel	6808	6776	6650	6745	99,5
May	6689	6995	6384	6689	98,6
Iyun	6742	6729	1660	6710	99,0
Iyul	6812	7114	6273	6733	99,3
Avgust	7055	7155	6604	6938	102,3
Sentabr	6916	7263	6619	6933	102,2
Oktabr	6564	7038	6822	6808	100,4
Noyabr	6283	6990	5929	6404	94,9
Dekabr	7243	7215	7546	7338	108,2
Satrnig o'rtacha darajasi	6760	6933	6650	<b>6781</b>	100,0

Avval 3 yil har bir oyning o'rtacha arifmetigini aniqlaymiz.

$$5449+5178+5486$$

Yanvar uchun u:  $Do = \frac{5449+5178+5486}{3} = 5371$  ga teng.

3

Analogik usul bo'yicha har oyning o'rtacha arifmetigini aniqlaymiz (5-jadval). Shundan so'ng satr o'rtacha darajasini (yilning har 1 oyining o'rtacha arifmetigi) va butun 3 yil oylarining o'rtacha arifmetigini hisoblaymiz (6781 - jadvalda ham ajratib ko'rsatilgan). Agar satr o'rtacha darajasi 1 yilning har bir oylari joylashtirilib 12ga bo'lish orqali hisoblangan bo'lsa, unda butun 3 yilning oylarining o'rtacha arifmetigi (uni umumiy o'rtacha oylik -  $Do$  u (5-jadval) yoki 3 yillik satrnig o'rtacha darajasi asosi hisoblanadi (jadvalning oxirgi qatori).

Shunday qilib 3 yil uchun:

$$6760+6933+6650$$

$Dou = \frac{6760+6933+6650}{3} = \frac{5371+7112+7595+6745+6689+6710+6733+6938+6933+6808+6404+2335}{12} = 6781$  ta jinoyat.

3 2

$+6733+6938+6933+6808+6404+2335 = 6781$  ta jinoyat.

## Olingan ma'lumotlar asosida yanvarning mavsum indeksini aniqlaymiz

Do 5771

MIh-----100%=-----100%=79,21

Dou 6081

Analogik yo'l bilan har oy uchun mavsum indeksini hisoblaymiz (7-jadval 6-ustuniga qarang). Uch yil uchun hisoblangan viloyat jinoyatchiligi mavsum indeksi 1 yil uchun hisoblangan ma'lumotlar asosida hisoblangan indekslardan farq qiladi. O'rtacha 3 yillik miqdorlar 1 yillikdan ko'proq ishonchliroqdir, chunki undagi tasodiflarning u yoki bu turi bartaraf qilingan. Ammo dinamikaning umumiy qonuniyalari ma'lum ma'noda saqlanib qolgan.

3.Mavsum o'rtacha indeksini bir necha yillik hisobida ularni oldin har yil uchun hisoblash kerak, keyin esa bu mavsum indekslaridan 2, 3 va undan ortiq yillikning o'rtacha arifmetigi topiladi. Buni yanvar, fevral 1994-1996-yilning aniq bir misolida ko'rib chiqamiz:

1994-yil. MI(yanvar)=54496/6760\*100%=80,6%

MI(fevral)=6948/ 6760\*100%=102,8%

1995-yil MI(yanvar)=5178/6933\*100%=74,7%

MI(fevral)=7062/6933\*100%=101,9%

1996-yil MI(yanvar)=5486/6650\*100%=82,5%

MI(fevral)=7325/6650\*100%=110,2%

3 yillikning o'rta indeksi teng bo'ladi:

MI(yanvar)=80,6+74,7+82,8/3=237,8/3=79,2%

MI(fevral)=102,8+101,9+110,2/3=314,9/3=104,8%

Xuddi shunday qolgan oylar mavsum indeksleri hisoblanishi mumkin. Mazkur katakchalar to'liq oldingi hisob katakchalar bilan mos keladi (7-jadvalning 6-ustunidagi yanvar-fevral ma'lumotlariga qarang).

7 – jadvalga murojaat qilamiz. Agar jinoyatchilikning oy bo'yicha ma'lumotlarni joylashtirsa, unda uning 1994-yilgi summasi 81 127 ga, 1995-yilda 83 191 ga, 1996-yili – 79 799 ta jinoyatga teng bo'ladi.

$U=81\ 127+83\ 191+79\ 799=244\ 117=6781$  ta jinoyat

36

36

Biz 7 – jadvaldagi 5 – ustunining oxirgi qatorida berilgan o'sha o'rtacha sonni hosil qildik, lekin oddiyroq usulda. Bularni hamda bir yilning har oylaridagi jinoyatchilik miqdorlarini qo'llab (yoki har 3 yilning har oylari bo'yicha jinoyat miqdorlarini 7 – jadvalning 5- ustunida hisoblaganimizdek), biz bu miqdorlar chekinishlarini umumiy o'rtachadan hisoblab chiqarishimiz mumkin – 6781. bular 8 – jadvalda ko'rsatilgan:

## Chekinish hisoboti

Oy	3 yilning o`rtacha darajasi (7-jadvalning 5-ustuni)	Umumiy o`rtacha darajasi	O`rtacha darajaning mutlaq chekinishlari MI
Yanvar	5371	6781	-1410
Fevral	7112	«	+331
Mart	7595	«	+814
Aprel	6745	«	-36
May	6689	«	-92
Iyun	6710	«	-71
Iyul	6733	«	-48
Avgust	6938	«	+157
Sentabr	6933	«	+152
Oktabr	6808	«	+27
Noyabr	6404	«	-377
Dekabr	7335	«	+554

Mutlaq chekinishlar jinoyatlarning yil davomida oylar bo`yicha taqqoslanishi to`g`risida muhim axborotni o`z-o`zidan tashiydi. Bundan tashqari, ular asosida chekinishlarning mavsumiy indekslarini foizlarda hisoblash mumkin.

Berilgan indeks quyidagi formula bo`yicha hisoblanadi:

$$MI = \text{Omch} \cdot 100\%$$

U

Bunda Omch – mutlaq chekinish (8-jadvalning 4 – ustuni), U – umumiy o`rtacha (bizning misolimizda 6781). Demak:

$$MI (\text{yanvar}) = -1410 \cdot 100\% = -20,8\%$$

$$6781$$

$$MI (\text{fevral}) = +331 \cdot 100\% = +4,9\%, \text{ va h.k.}$$

$$6781$$



Bu hisob yechimi, oldingi yechimlarga olib keldi. Demak, biz bilamizki, yanvar mavsumiy indeks (oldin hisoblangan) 79,2% ni tashkil qilgan, fevralda esa – 104,9%. Oxirgi ma`lumotlar o`rtachalarining chekinishlarini foizlarda hosil qilgan, ya`ni 100% dan chekinish. Yanvar uchun :  $100 - 20,8 = 79,2\%$ , fevral uchun:  $100 + 4,9 = 104,9\%$ .

Oxirgi hisob bo`yicha MI ning chekinish xususiyatiga (% larda) yo`naltirilishi va chekinish belgisi (q - ) yetarlicha to`g`ridir. Lekin har bir

tergovchi mavsumiy indeks hisobini shunday tanlaydiki, u har tomonlama uning uchun qulay va aniq bo'lishi kerak bo'ladi.

Mavsumiy indekslar hisobi bilan tanishib chiqish uning zaruratida shubha tug'diradi, chunki qatorlar mutlaq miqdorlari hisob – kitoblarida ham u yoki bu oylarining «cho'qqilar»i va «tushkunliklar»i ko'rinadi. Bu to'g'ri, lekin, mutlaq oylik ma'lumotlarni tebranish jarayonlari va aralash hodisalari bilan o'tgan yillar mavsumiy tebranishlari bilan tenglashtirish mumkin emas va nihoyat tebranishlarni va mavjud bo'linib ketishlarni o'lchash mumkin emas. Ma'lumki, barcha jiddiy o'rganishlar o'lchamdan boshlanadi. Tenglashtirish va o'lcham masalalari mavsumiy indeks yordamida osonroq hal etiladi.

### Dinamik qatorlarning strukturaviy sxemasi.





## 10-BOB. O`ZARO ALOQADORLIKNI O`RGANISHNING STATISTIK METODLARI (USLUBIYATLARI)

### 1-§. *Statistik aloqadorlik va sababiylik(sababiyat) tushunchasi*

Ijtimoiy hodisalar, shuningdek, o`zaro aloqador bo`lgan yuridik jihatdan mohiyatli hodisalar bir-biriga bog`liq va bir biriga sabab bo`ladi. U mavjud o`zaro aloqalar sababiyat, funksional aloqalar, holatlararo aloqalar va shakllarda amalga oshiriladi. Ijtimoiy hodisalarning o`zaro aloqalarida asosiy rol xalqaro aloqalarning bo`lagiga-sababiyatga tegishli, subyektiv emas, balki real sababiyatga tegishli. Bu obyektiv muhim bog`lanish bo`lib, unda sababiyat (faktor) deb nomlanuvchi bir yoki bir necha o`zaro bog`liq hodisa(natija) deb nomlanuvchi boshqa hodisani keltirib chiqaradi va u sababiyat deb atalishi mumkin.

Yuridik fan ushbu tushunchani yuridik xarakterga ega bo`lgan jarayonlar va hodisalarga nisbatan aniqlashtiradi, sababiylikni o`rganishda yuridik fanlar ichida kriminalistika oldinga siljidi. Jinoyatchilik haqidagi fan uning sabablari va oldini olish, ya`ni jinoyat huquqi harakat va oqibatlar o`rtasidagi o`zaro sabablarning belgilanishi, jinoiy javobgarlik uchun zarur sharoitdir.

Biroq, sababiy bog`lanishlar masalasi ma`muriy, fuqarolik va huquqning boshqa sohalarida muhimdir.

Kriminologiyada sababiyat va huquq o`rtasida faqatgina umumiylik emas, balki muhim farqlar ham bor. Kriminogen omillar vaqtga ko`ra jinoyatni sodir etish o`rtasidagi sababiy bog`lanishlar, jamiyat uchun xavfli aloqalar o`rtasidagi sababiy bog`lanishlarni oldinga suradi.

So`ngisiga dinamik qonuniyatchilik va funksional aloqalar xos. Kriminogen omillar va jinoiy oqibatlar o`rtasida esa asosan, statistik qonuniyatlar va korrelatsion aloqalar kuchga kiradi.

Har qanday qonuniy aloqalar hodisalarda takrorlanishni, ketma-ketlik va tartibni ko`zlaydi, lekin ko`rilayotgan aloqalar turlicha namoyon bo`ladi:

Funksionallari – har bir alohida holatda, korrelatsionlari ham hodisalarning katta massalaridir. Masalan, pichoq bilan urish (sanchish) va tan jarohati yetkazish o`rtasida sababiy funksional bog`liqlik bor (agar, albatta, tan jarohati yaraning infeksiyalanishiga ta`sir etmasa). Funksional bog`liqlik shu bilan xarakterlanadiki, vazifa bo`lib hisoblanuvchi har qanday belgining o`zgarishi boshqa belgining o`zgarishi bilan bog`liq. Ushbu o`zaro bog`lanish har qanday majmuaning barcha bo`laklarida bir xil bo`ladi.

Agar eslatib o'tilgan pichoq bilan urish tan jarohatini olib kelsa, bu jarohat kimga yetkazilganidan qat'i nazar, ular o'rtasidagi bog'liqlik hamma joyda namoyon bo'ladi. Uning yagonaligini belgilab, biz ushbu bog'liqlik bilan barcha o'xshash holatlarda foydalanishimiz mumkin. Ushbu bog'liqlik bilan bo'lgan bilimda nisbiy va kriminalistik ekspertiza tashkil etiladi. Pichoq bilan urish va jarohat o'rtasidagi bog'liqlik funksional bog'liqlikka kiritilishi kerakli darajada qoniqarlidir. Ma'lum fanda funksional aloqalar formulalar bilan ifodalanadi.

## 2 ShπR

formulasida, masalan, S- aylananing maydoni (natijali belgi).R ga, yaxni uning radiusiga proporsionaldir. R (omillik belgi  $U I = \text{-----} R$  rasshirovkasi murakkabroq I elektor tok kuchi U-bosimga proporsional va R-qarshilikka proporsional. Bunday holatda natijali belgi qarama qarshi harakatlar va ikkita omil bilan aniqlanadi.

Tok kuchi kuchlanish baland yoki qarshilik pastligiga ko'ra ko'proq bo'ladi. Funksional dinamik bog'liqlik aniq muljallanadi, shu sabab u tashqi ta'sirga bog'liq bo'lgan barcha avtonom sistemalarda katta bo'lmagan elementlar soniga muvofiq harakat qiladi.

Yuridik fanlar asosan ijtimoiy huquqiy hodisalar va jarayon bilan, ya'ni aniq va qattiq, bir xil to'liq aloqalarda bo'lmagan jarayonlar va hodisalar bilan ish ko'radi. Ommaviy ijtimoiy holat kabi jinoyatning sababli shartlanishi, aynan jinoyatchilik bir biriga bog'liq bo'lgan katta sharoitlar majmuasi bilan bog'liq va ular harakatning o'zgarishi bilan, hech bo'lmasa, ulardan bittasining o'zaro harakatlarning butun bir xarakterini o'zgartirishi mumkin. Jinoyatni sodir etishga ta'sir etuvchi holatlarning soni 450 ga va undan yuqoriga yetadi.

Har bir omillik belgisi va tergov belgisi o'rtasidagi sababiy bog'liqlik bir xil emasligi bilan xarakterlanadi: u yoki bu tergovning belgisi omillar belgilarining komplekslari ta'siri ostida o'zgaradi. Omillar belgisining har bir mohiyatiga tergov belgilarining bir nechta mohiyati mos keladi. Shuning uchun sabab (sabablar majmuasi) va tergov (jinoyat va jinoyatchilik o'rtasidagi aloqalar ko'p ma'nolik va ehtimolga yaqin bo'lgan xarakterga ega).

Ko'p ma'nolik huquqbuzarlik bu ko'pgina sabablarning harakat natijalari degani emas, balki har bir sabab u boshqa sabablarning o'ziga o'zga to'plami bilan o'zaro harakatlanishi bir emas, bir nechta tergovlarni vujudga keltirishi hamda ularning ichida huquqiy va huquqqa qarshi turli xil xulqlar borligidir. Kriminalistika va sotsiologiya huquqida sababiy

aloqalar ko'p ma'noliligining ehtimolli tomoni shundan iboratki, har qanday holatning o'zgartirilishida, balki bir xil sabablarda ham uzga natija kelib chiqadi. Sababli aloqaning bunday shakli sababi tergovni bir xil belgilamaydi, balki ma'lum bir ehtimollik ulushi bilan to'liqmas hisoblanadi va korrelatsion aloqa deb ataladi. U statistik qonunchilikni aks ettiradi va barcha avtonom bo'lmagan sistemalarda harakat qiladi.

Jinoyatning sababi, masalan, pozitiv tasirning umumiy massada «eritilgan», inson faoliyatining tuzilishida «taqsimlangan» va uning barcha hayoti davomida «cho'zilgan», shuning uchun u yoki bu sababdagi harakatni faqat ko'p massali holatlarda uchratish mumkin. Lekin ko'pchilik statistik darajada, tasodifiy omillarning ta'siri o'zaro yo'q qilish yo'li bilan tenglashadi. Topilgan bog'liqliklar aniq, to'liq bo'lishi mumkin emas, ya'ni funksional bo'lishi mumkin emas. Hisobga olinmagan noma'lum, ko'pincha esa ma'lum bo'lgan, lekin bilib olish qiyin bo'lgan omillarning harakati o'rganilayotgan aloqalar, faqatgina to'liq emas, balki yaqinligi bilan namoyon bo'ladi. Bolaning ota-onasi bilan tarbiyalanishi bu asosli kriminogen omil hisoblanadi. Demak, ushbu sharoitda tarbiya olgan har bir inson kelajakda jinoyat sodir etishi mumkinmi? Mumkin emas. Umumiy omil ichida ota-onasiz tarbiyalash ko'p sonli o'zga omillar yashiringan bo'lishi mumkin. Ya'ni kriminogen va antikriminogen, qaysiki, har bir bola uchun ular har xil bo'lishi mumkin. Lekin ko'pchilik insonlarni o'rganishda ota-onalar bilan birga tarbiyalangan va ota-onalarsiz tarbiyalangan insonlarni o'rganishda jahonning hamma mamlakatlarida qonunchilik bilan statistik buzilish aniqlanadi: Ota-onasiz tarbiya ko'rgan shaxslar ota-onasi bilan tarbiya ko'rgan shaxslarga nisbatan ko'proq jinoyat sodir etishadi.

Kriminogen omillar va jinoyatchilik o'rtasida ochiq korrelatsion bog'liqlik bor («q» belgisi ostida). Masalan, jamiyatda ichkilikbozlik darajasi yuqori bo'lsa, jinoyatchilik yuqori bo'ladi. Biroq, jinoyatchilik o'ziga xos «mast»dir. Antikriminogen va jinoyatchilik o'rtasida teskari korrelatsion aloqa bor (“-“ belgisi ostida) Masalan, jamiyatda ijtimoiy nazorat qancha baland bo'lsa, jinoyatchilik shuncha kam bo'ladi. To'g'ri va teskari aloqalar to'g'ri chiziqli va egri chiziqli bo'lishi mumkin.

To'g'ri chiziqli aloqalar omilli belgilar mohiyatining ko'payishi orqali o'sishi sodir bo'lganda yoki teskarisi tergov belgilarining hajmi ko'payganda namoyon bo'ladi. Matematik bu aloqa to'g'ri tenglama bilan ifodalanadi (Regressiyaning tenglamasi).

$$U=a+vx$$

Bu yerda u-tergov belgisi; a va v-aloqaning mos koeffitsientlari; x-omil belgisi;

Egri chiziqli aloqalar o`zga xarakterga ega. Omillik belgi kattaligining o`shishi natija beradigan belgining kattaligiga notekis ta`sir ko`rsatadi. Boshida bu aloqa to`g`ri bo`lishi mumkin. Keyin esa teskari. Yuridik fanda bunday aloqalar o`rganilmagan.

Huquqbuzarlarning yoshi bilan bog`liq jinoyatlar.

Boshida shaxsning kriminalistik faolligi huquqbuzar yoshining o`shishi bilan to`g`ridan to`g`ri proporsional o`sadi (taxminan 30 yoshgacha), keyin esa yoshning kattalashishi bilan jinoiy faollik pasayadi. Yoshiga qarab huquqbuzarlarning noto`g`ri taqsimlanishining o`rtasidan chapga surilgan (o`spirin yoshi) o`spirin yoshiga assimetriya hisoblanadi.

O`ta murakkab misol: ijtimoiy nazoratning kengayishi bilan huquqqa qarshi xulqning darajasi pasayadi, biroq keyingi nazoratning totalizatsiyasi uni antikriminagen omildan kriminogenga aylantiradi. Shuning uchun jamiyatda gaykalarining buralishi ma`lum bir chegaragacha ijtimoiy tarzda foydalidir. Bunday statistik bog`lanish va egri chiziqlarning tenglamasi bilan tasvirlanadi (giperbola, parabola va boshqa).

Korrelatsion to`g`ri chiziq aloqalar bitta omilli bo`lishi mumkin. Agar omilning bitta belgisi va tergovning bitta belgisi o`rtasidagi aloqa olib borilsa, ular ko`p omilli bo`lishi mumkin, qachonki, tergov belgisiga (ko`p sonli korrelatsiya) o`zaro ta`sir qiluvchi omillarning belgisi ta`sir ko`rsatganda.

Juft korrelatsiya yuridik statistika yangi qo`llanishlarni ko`pdan qidiradi, ko`p sonli korrelatsiya esa amalda qo`llanmaydi. Biroq kriminologiya, delektologiya va sotsiologiyada aloqalar ko`p omilli aloqalar, aytish mumkinki, ular hukmronlik qiladilar. Bu esa qator qiyinchiliklar bilan belgilanadi. Omillik belgilarini hisobga olishning yo`lga qo`yilmaganligi, yuristlarning sotsiologik, statistik, matematik tayyorgarligi yetishmasliki va obyektiv xarakterning boshqa holatlari bilandir.

Ayrim holatlarning korrelatsion aloqalari ma`lumotlarni statistik qayta ishlab chiqishning birinchi bosqichida boshqalar bilan ko`zga tashlanadi. Statistik miqdorlarning guruhli va ma`lumotlari o`rta va tegishli miqdorni hisoblash variatsion, dinamik va parallell qatorlarning tuzilishi o`rganilayotgan holatlarning o`zaro aloqalari borligini belgilashga imkon beradi. Balki uni xarakterini to`g`ri va noto`g`ri. Agar yoshiga qarab jinoyatning arrasion qatori tuzilsa, biz o`spirin yoshda asosiy chastotalar

qilinishini ko`ramiz. Bizlarda asosiy dalillar borki, o`spirin yosh-bu o`rta kriminogen. Biroq yosh «avvalgi bo`limda belgilaganimizdek», o`zining asosiy ma`nosida emas, balki insonning yoshiga qarab, o`zgarishiga mos keladigan o`zaro harakatlarni kriminogen sharoitlarning integral miqdori bo`lib chiqadi.

Mastlik holatiga ahamiyat beramiz. Bu barcha jahon mamlakatlarida kriminogen omil hisoblanadi. Va bu munosabat bilan statistik tarzda kuzatiladi. Faraz qilaylik, 2001-yil N davlatida quyidagilar ro`yxatga olingan:

Mastlik holatida huquqbuzarliklar barcha hisobga olingan jinoyatni 39 %, shulardan 77,6 % zo`rlash, 73,7 % rejalashtirilgan jinoyat, 69,8 foiz bezorilik harakatlari, 59,7 % hujum, 57,0 % talon-tarojlik, 37,7 5 o`g`riлик, 0 % poraxo`rlikdir. Keltirilgan foizlar ichkilik bilan jinoyatning to`g`ridan to`g`ri korrelatsion aloqalari to`g`risida dalolat beradi. Biroq, bu raqamlar yildan yilga takrorlansada, ular ushbu aloqaning borligi haqida emas, balki turli turdagi harakatlarga ichkilikning ta`sir darajasi haqida va ma`lum ta`sir qilishni ko`rsatadi. Statistika aloqalarning o`ta to`liq taqsimlanishi uchun katta tanlov bilan turli usulbiyatlarni joylashtiradi.

## 2-§. Sifat belgilari o`rtasida aloqalarni o`lchash

Turli xulosalarning statistik uslubiyatlari, omil sifatleri va tergov belgilari o`rtasidagi to`g`ri va egri aloqalarning borligini ta`kidlab, aloqalarning choralari haqidagi savollarga javob bermaydi. Uning sifatli ifodasiga ham javob bermaydi. Ushbu yetishmaslik korrelatsion tahlil uslubiyati tomonidan to`ldiriladi. Omillar kompleksidan ko`pgina yoki bitta sharoitning ta`sirini hisoblab chiqarishga imkon beradi. O`zaro aloqalarning xarakterini belgilashga va matematik nuqtai nazardan uni o`lchashga imkon beradi. Bularning hammasi ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar sudlar va boshqa yuridik muassasalarning analitik amaliyotga o`lchash uslubiyatni ketma-ket joriy qilinishi uning keng ilmiy asoslanishiga olib keladi.

Korrelatsion aloqalarni o`rganish uchun statistiklar tomonidan turli uslubiyatlar ishlab chiqilgan. Ularning har biri o`zining aniq vazifalarini hal qiladi. Aloqaning ayrim koeffitsientlari sifatli belgilarning o`zaro aloqasini o`lchash uchun kerak. Boshqalar sifatli va miqdorlilar uchun, uchinchi esa miqdorlilar uchun. Ularning absolut ko`pchiligi ijtimoiy va huquqiy va kriminalistik o`rganishda qo`llaniladi. Shuning uchun ular umumiy ko`rinishda, hech bo`lmasa, tanishishi mumkin. Sifatli belgilar o`rtasidagi aloqalarni o`lchash uchun statistikada A Chuproving bog`liqlik koeffitsienti K. Personning assatsion koeffitsienti, shuningdek, Sipermen va Kendallning korrelatsion daraja koeffitsienti ishlatiladi.

1. K. Personning assatsion koeffitsienti (KP) hisoblash rejasida hajmning bog`langanlik miqdori. U guruh asosida taqsimlangan. Ikkita sifatli belgilar variatsiyasida ishlatiladi. Uning hisobi turtta xoshiyadan iborat bo`lgan 1-jadvalda ishlab chiqariladi.

1-jadval.KPerson assotsiatsiyasi koeffitsientini hisoblash jadvali.

Guruhlar/belgilar	1	2	narxi
1	a	b	aqb
2	c	d	cqd
Narxi	aqc	bqd	-

Ushbu hoshiyalar bo`lib, a,b,c,d katakchalari hisoblanadi. Hisob bog`lanish asosida qatorlar bo`yicha a va b, c va d, shuningdek, ustun bo`yicha a va s, b va d asosida amalga oshiriladi.

$$ad - bc$$

Hisoblash formulasi:  $KPH$  -----

$$\sqrt{(a \ q \ b)(c \ q \ d)(a \ q \ c)(b \ q \ d)}$$

Assotsiyalashgan miqdorlar mutlaq bo'lishi mumkin. Shuningdek, yo'lovchi va haydovchilar aybiga ko'ra yo'l transporti hodisalarida halok bo'lgan va jarohatlanganlar o'rtasidagi miqdorlarni(KP)hisoblab chiqishga harakat qilamiz. 2-jadval.

Shunga ko'ra yig'ilgan mutlaq miqdorlar va KP hisobi va ular asosida faqat kompyuterda qilish mumkin. Mutlaq miqdorlarni foiz asosida hisoblaymiz.

$$15,5 \cdot 286,2 - 84,5 \cdot 13,8 \text{ q170 q170}$$

$$KP = \frac{15,5 \cdot 286,2 - 84,5 \cdot 13,8}{170 \cdot 170} = +0,02$$

$$\sqrt{100 \cdot 100 \cdot 29,3 \cdot 170,7} \sqrt{50015100 7072}$$

Piyoda yuruvchilar va shofyorlar aybi bilan halok bo'lgan yoki tan jarohati olganlarni taqsimlash. 2-jadval.

Bosib ketish sababi	O'ldi	Jarohatlandi	Narxi
Haydovchi aybi	(a) 26807 15,5%	(b) 146685 84,5%	173,492 100%
Piyodalar aybi	(c) 6451 13,8%	(d) 40293 86,2%	46784 100%
Narxi	33258 29,3%	186978 170,7%	-

Mutlaq miqdorlarda KP hisobini tekshirish amaliy o'sha natijani ko'rsatdi.(0188). Hisobning ming miqdorga tafovuti foizlarni hisoblashda aylanalarning borligi bilan tushuntiriladi.

Assotsiatsion koeffitsienti  $-1$  dan to  $=1$  gacha o'lchanadi va quyidagicha tushuntiriladi: koeffitsient  $1$  ga qancha yaqin bo'lsa, shuncha aloqa yaqin bo'ladi, salbiy yoki ijobiy, albatta. Bundan kelib chiqqan holda piyoda va haydovchilarning aybiga ko'ra jarohat olgan va halok bo'lganlarning o'rtasidagi miqdorlar to'g'ri (+), biroq, tasodifiy va ahamiyatsiz. Demak, agar  $kp$   $0,3$  ga erishsa, bu belgilar o'rtasida aloqalarning muhimligidan dalolat beradi.

2. O'zaro bog'liqlik koeffitsienti A.Chuprov tomonidan ishlab chiqilgan.(KCh-chuprov koeffitsienti) Person koeffitsientidan farqli o'laroq 3 ta yoki undan ko'proq guruhlar bo'yicha ikkita atributiv belgilarni o'zaro bog'lanishini o'lchash uchun qo'llaniladi. U quyidagi formula bo'yicha:

$$KCh = \frac{\varphi}{\sqrt{(m1-1)(m2-1)2}}$$

Bu yerda KCh-A.Chuprovning o`zaro bog`lanish koeffitsienti:  $\varphi$  - o`zaro bog`lanish miqdori;  $m1$  va  $m2$  -har bir belgi bo`yicha guruhlar soni; 1- doimiy koeffitsient.

U. Personning koeffitsienti kabi turli aloqalarni topish bilan hisoblanadi. Buni esa aniq misolda qilish mumkin. Shunga o`xshash ayrim jinoyat turlarining o`zaro munosabatini va ularning fosh bo`lishini olamiz. 3-jadval.

Ayrim jinoyatlarning hududlarda turi va ularni fosh qilinishiga qarab taqsimlanishi.

Jinoyat turlari	Fosh qilingan	Fosh qilinmaganlar	Xulosa
Bosqinchilik	110(73,7%) 12100 34,5714	40(26,3%) 1600 10,6667	150(100%) - 45,2381 0,3016
Firibgarlik	180(73,5%) 32400 92,5714	65(26,5%) 4225 28,1667	245(100%) - 1207381 0,4928
Qasddan o`ldirish	50(66,7%) 2500 7,1429	25(33,3%) 625 4,1667	75(100%) - 11,3096 0,1508
O`t qo`yish	10(33,3%) 100 0,2857	20(66,7%) 400 2,6667	30(100%) - 2,9524 0,0984
Jami	350	150	500 1,0436

Ushbu jadvalni tushunish uchun har bir miqdorning ahamiyatini va bosqinchilik misolida ularni olish turlarini ochib chiqamiz.

Birinci qatorning har bir qatorida fosh qilingan va qilinmagan jinoyatlar (xulosadan tashqari)ning mutlaq sonlari va qavs ichida solishtirma og`irligi ko`rsatilgan(bosqinchilik va firibgarlik va boshq).

Bosqinchilikka nisbatan 110 harakat fosh qilingan yoki 73,7 % va 40 ta fosh qilinmagan yoki 26,3 %.

Ikkinchi qatorning har bir katagida (xulosadan tashqari) jinoyatchining chastotali kvadrati ko`rsatilgan. Bosqinchilikka nisbatan



110 fosh qilingan harakatlar kvadratda 12100 ni tashkil qilyapti. 40 ta fosh qilinmagan harakatlar kvadratda 1600.

Uchinchi qatorning har bir katagida jadval bo'yicha chastota summasing chastotali kvadratlaridan bo'lish ko'rsatilgan (ushbu summa umumiyning oxirgi qatorida ko'rsatilgan). Bosqinchilikning fosh qilinishiga nisbatan  $12100:350=34,5714$  va fosh qilinmaganlariga:  $1600:150=10,6667$ .

Har bir katakning umumiy grafasi to'rt qatordan iborat:

Birinchi qatorda chastota narxi va chastotalar berilgan (110 ta fosh qilingan bosqinchilikka 40 ta fosh qilinmaganni qo'shamiz, chiqadi 150 yoki 100 %).

Ikkinchi qatorda chiziqcha, chunki chastotalarning kvadrati qo'shilmaydi.

Uchinchi qatorda bosqinchilikka nisbatan fosh qilingan, fosh qilinmagan chastotalarning summasi berilgan.  $34,5714(\text{fosh qilinmagan}) + 10,6667(\text{fosh qilinmagan}) = 45,2381$  ga teng bo'ladi.

To'rtinchi qatorda bosqinchilikka nisbatan chastotaning umumiy soni berilgan.  $45,2381:150 = 0,316$ .

Xulosa qatorida ikkita son keltiriladi.

Birinchi chastotaning umumiy soni (500 ta jinoyat).

Ikkinchi munosabatlarning umumiy miqdori ( $0,3016 + 0,4928 + 0,1508 + 0,984 = 1,0436$ ).

Natija beruvchi son 1,0436 statistik ahamiyatli munosabatlarni o'z ichiga olgan, birlikni olib tashlashdan tashqari, ya'ni  $1,0436 - 1 = 0,0436$  hisoblanadi. Unga ega bo'la turib biz KCh tavsiya etgan formula orqali oson hisoblaymiz.

$$KCh = \sqrt{\frac{0,0436}{\sqrt{(4-1)(2-1)}}} = \sqrt{\frac{0,0436}{\sqrt{3}}} = \sqrt{0,0252} = 0,16$$

A. Chubrovning koeffitsienti assotsatsiya koeffitsientiga nisbatan 0 dan to 1 gacha o'zgaradi. Agar formuladan kelib chiqsak, uning mohiyati salbiy bo'lishi mumkin emas. Biroq, interpretatsiyaning mohiyati shunday. Aloqa muhim hisoblanadi.  $KCh \leq 0,3$  miqdorda bo'lsa, uning mohiyati birlikka yaqin bo'lsa, aloqa kuchli bo'ladi.  $KCh \leq 0,16$  jinoyat turlari ularni fosh qilish o'rtasidagi sezilarli aloqalar borligidan dalolat beradi:

Aloqalarning muhim rolini ochib berishda sifatli emas, balki miqdorli belgilar o'rtasidagi parallell statik aloqalarga tegishli. Bir tarafdin o'zi bilan korrelatsion bog'liqliklarni ko'rsatishning muhim uslubiyati

hisoblanadi. Boshqa tomondan esa ularning qiyosiy bir omili ko'p omilli va boshqa korrelatsiyalarning hisobi bilan bog'lanadi. Ushbu ma'noda parallell qatorlar miqdorlarning dinamik va version statistik qatorlarning ikki yoki undan ortiq qismlarini o'zi bilan namoyon etadi, o'zaro o'zga usullar bilan yoki sababli bog'langan miqdorlarni namoyon etadi. Ular dinamika va taqsimlash qatoralarida bitta holatning o'zgarishini ko'rishga faqatgina bitta holatni ko'rishga imkon beradilar, balki, ikkiga yoki ortiq hodisalarning o'zaro bog'liq o'zgarishlarini bog'laydi.


Jinoyatchilik bilan bog'liq bo'lgan ichkilik holati haqida mazkur misolga nazar tashlaymiz. Jinoyatning ikki yillik dinamik qatorlari va bir necha yil ichida taqqoslab, ular o'rtasidagi aloqalarning xarakteri va borligini ajratish mumkin. Aloqa to'g'ri va juda yetarli darajada kuchli, biroq turli turdagi jinoyatlarni sodir etishda harakat mexanizmi va kuchi bir xil emas.

Faraz qilaylik jinoyatlar spirtli ichimliklarni olish maqsadida amalga oshiriladi: zo'rlash harakatlari- mastlik holatida bo'lgan subyektlarda ma'naviy-axloqiy tormozlarni olib tashlash natijasi;

Yengiltaklik harakatlarini sodir etish: masalan, yo'l transporti, jinoyat subyektlarining jismoniy holati va ruhiyatiga mastlikning boshga ta'siri reaksiyaning sustlashuviga olib keladi.


Mastlik va jinoyatchilik o'rtasidagi mavjud o'zaro aloqalar bizning mamlakatimizda oxirgi o'n-o'n besh yillarda aniq namoyon bo'ldi, saksoninchi yillar o'rtalarida mastlik holati rivojlangan. 1986-87 yillarda spirtli ichimlik va mastlikka qarshi qattiq kurash kompaniyasi o'tganda ittifoqning tarqalib ketishi jarayonida va sobiq ittifoqdagi o'ylanmagan islohotlar natijasida spirtli ichimliklarni oborot qilish va ishlab chiqarish ustidan nazoratning olib tashlanishida kuchaydi. Bularning hammasi jinoyatchilikka ta'sir qildi va ularning ayrim guruhlari va turlariga ta'sir qildi. 1983-85-yillarda jinoyatchilik o'sa boshladi, 1986-87-yillarda sezilarli darajada pasaydi, 1998-90-yillarda esa jinoyatchilikning o'sishi sanoqsiz edi.

Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va jinoyatchilik o'rtasidagi sababli xarakterdagi kuchli aloqalar mavjud.(1-rasm)



(1-rasmda Spirtli ichimliklarni iste'mol qilish va jinoyatlar dinamikasi 1983-1990-yillar).

Yuridik statistikada parallell qatorlar jinoyatlar dinamikasi va fosh qilish, jinoyatchilik va fosh qilinmagan huquqbuzarliklarni fosh qilish, sudlanganlik va ozodlikdan mahrum etilganlar soni qatorida qiyoslash uchun ishlatiladi. Ushbu qatorlar jinoyatchilik bilan kurashishning natijaviyligi haqida kriminogen tendensiyalar bilan sud amaliyotining moslik darajasi, jinoyatchilikka qarshi kurashishda ozodlikdan mahrum qilinganlarning o'рни va ahamiyati va boshqalar haqida ma'lumot beradi. Ajratilgan huquqbuzarliklar va jinoyatchilik darajasining dinamik qatoriga yana bir bor ahamiyat beramiz (2-jadval).



Jinoyatchilik darajasi bilan fosh qilingan huquqbuzarlar o'rtasida holatlar aloqasi mavjud. Jinoyatchili ham, fosh qilingan huquqbuzarlar ham o'sha bir xil sababga ega.

Fosh qilingan huquqbuzarlar o'zining mohiyatiga ko'ra hisobga olingan jinoyatning fosh qilingan qismi. Fosh qilingan huquqbuzarlarning dinamika darajasiga boshqa omillar ham ta'sir qiladi. Siyosiy jinoyat

aybsizlik prezumpsiyasiga rioya qilish darajasi huquqning muhofaza qilish organlari salohiyati va b.

Ushbu ma'lumotlarga biz murojaat qilganmiz. 1956-yilda fosh qilingan huquqbuzarlar 29 % ga hisobga olingan. Jinoyatga ko'ra ko'proq 1972-yilda ularning darajasi tenglashdi. 1991-yilda esa hisobga olingan jinoyatlar 54 % ga oshdi.

Yuridik ahamiyatli hodisalar haqidagi har qanday miqdorlar dinamika va taqsimlanishning parallel va statistik qatorlarga qo'shgan bo'lishi mumkin. Agar ular o'rtasida o'zga yoki real sababli aloqalar bor bo'lsa, biroq topilgan mosliklar yolg'on va tasodifiy bo'lishi mumkin. 60-yillardagi tadqiqotlarning birida ta'kidlanganki, tug'ilish va yashash maydoni razmeriga bog'liq bo'ladi: kvm. Metr qancha katta bo'lsa, ish shuncha yuqori bo'ladi. Chunki, katta kvm yashash joyini olish bolalar soniga bog'liq. Ikkala holatda ham yolg'on qonuniylik bilan ishni ko'ramiz.


Taniqli va salmoqli kriminolog va statist M.N.Germet, masalan, o'g'irlik uchun va nonning narxi uchun Kalugiya guberniyasida sudlanganlarning parallel qatorlarini ko'rdi. Non uchun narx va o'g'irlik o'rtasidagi sababiy bog'lanishni okrug sudi tomonidan ko'rilgan jinoyat ishlarini tahlil qilish orqali isbotlagan.

Ko'rsatilgan qatorlarning statistik bir-biriga o'xshashi tushunarli. Nonga narxning o'sishi kriminogenlik va iqtisodiy vaziyatning yomonlashuvi qandaydir namoyon etilishi mumkin. Lekin fosh qilingan korrelatsiya birinchi galda nonning narxi va o'g'irlik o'rtasidagi aloqalarni xarakterlamaydi, balki o'g'irlik va ekologik vaziyat aloqasini butun xarakterlaydi. Alohida bir hududda olingan nonning narxi iqtisodiy vaziyatni qandaydir egri indikator bo'lib xizmat qilgan. Bunda korrelatsiyalar ishni haqiqiy holatini buzadi yoki yashirib qo'yadi. To'g'ri kelishning tasodifi yoki yolg'on qonuniyat qonunga ko'ra sifatli tahlil asosida va ilmiy fanning o'sha nazariyasida statistik ma'lumotlari tahlil qilinayotgan nazariyasida oshkor qilinadi. Hozirgi davrga kelib, butun dunyoda benzin va neft mahsulotlarini narxlar intdikatori vazifasini o'tayapti desak, mubolag'a bo'lmaydi.

### 3-§. Juft tarmoqli (chiziqli) korrelatsiya

«Aholi, jinoyatchilik va pauperizm» ishida K.Marks, aholi sonining parallel qatorlarini taqqoslab tugʻilganlar, olamdan oʻtganlar, sudlanganlar va qashshoqlarni taqqoslab, muhim qonuniyatni belgilaydi: aholi soni oshgan sari jinoyatchilik miqdori ham oshib boradi. Ushbu yangilikning ochilishidan bir asrdan oshiq vaqt oʻtdi. Biroq bu qonuniyatning haqiqat ekanligi kundan kunga oshib bormoqda. Jinoyatchilik tendensiyasi haqidagi BMT ning 4 – maʼlumotiga koʻra jinoyatchilik jahonda (1986-1990-yillar) yiliga 5% koʻpaydi. Aholi esa 11,5 % ga koʻpaydi.

Omil belgilari (X) va tergov belgilarining (U) va parallel qatorlarining borligi koordinatlarni toʻgʻri chiziqli sistemada grafikli korrelatsion bogʻliqliklarini tasvirlashga va oshkor qilishga imkon beradi.



Agar X ning mohiyatini apsessisga olib qoʻyilsa, U ning mohiyati esa koordinat O ga hamda X va U bogʻliqlik nuqtasiga olib kelsa, unda biz korrelatsion chiziqni olamiz va nuqtalarni joylashuviga qarab aloqani darajasi va xarakteri haqida hal qilsa boʻladi. (3-rasm)

Agar nuqtalar barcha chiziqlar boʻyicha tartibsiz yoyilgan boʻlsa, unda belgilar oʻrtasida qandaydir aloqalar yoʻq. Agar ular pastdan yuqori yoʻnaltirilgan boʻlsa va chapdan oʻngga (B) boʻlsa, unda toʻgʻri bogʻliqlik bor. Agar nuqtalar tepadan pastga va chapdan oʻngga (V) joylashgan boʻlsa, bogʻliqlik teskari boʻladi.

3-qoʻshaloq chiziqli korrelatsiya. Qoʻshaloq yoki bir omilli korrelatsiya bu bitta tergov belgisi bilan va bitta omil belgilari oʻrtasidagi toʻgʻri yoki egri toʻliq boʻlmagan aloqadir. U adekvantli tarzda oshkor qilingan aloqani oʻlchashga imkon beradi. Statistik tahlillarning boshqa uslubiyati buni bermaydi. Korrelatsion tahlilning mohiyatini maʼlum qoidadan kelib chiqib baholash kerak: fan ilm oʻrganishdan boshlanadi.

Qoidaga koʻra aloqaning korrelatsion oʻzgarishi statistik tahlilining boshqa turidagi jarayonlarning xarakteri va uning borligini keng olib borilishini belgilaydi: maʼlumotlarning guruhi va svodkasi oʻrta va tegishli

miqdorning hisobi variatsion dinamik va ayniqsa parallel qatorlarning tuzilishi.

Jinoiy harakatlar yuqori kompleksli sabab va sharoitlar bilan diterminlashtirilgan. Ular ichida ma'muriy huquqbuzarlik alohida o'rin tutadi. U jinoyat orasida xabar beruvchi sifatida namoyon bo'ladi. Bir tarafdin jinoyat ham ma'muriy huquqbuzarlik, ham asosiy sabablar bilan belgilangan. Boshqa tarafdin ma'muriy huquqbuzarlik o'ziga xos kriminogen omillar bo'lib hisoblanadi. Ushbu o'zaro aloqalar aniq subyektlarning ma'lum bir jinoyatining sababchisi bo'lib, chegaralanmaydi. U yoki bu huquqbuzarlikni sodir etib bog'lanish prinsipiga ko'ra o'zining holatini qonunni qo'pol buzishning imkoniyatlariga yaqinlashadi.

Ma'muriy huquqbuzarlikning latenti jinoyat latentidan o'ta yuqoridir. U real sodir etilgan huquqbuzarlikning 3/4 qismiga berishadi. Masalan, avtoullov hodisalar yoki avtoyo'l hodisalar sodir bo'lgan holatlarda IIVning Yo'l harakati xavfsizligini nazorati qiluvchi xodimlar tomonidan hamma vaqt ham ma'muriy huquqbuzarlik holatini rasmiylashtirmasliklari oqibatida real ravishda aslida avtoyo'l hodisalari bilan bog'liq bo'lgan qancha ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligini bilib bo'lmaydi. Bu toifa ma'muriy huquqbuzarlikning hisobida albatta latentlik mavjud. Ma'muriy huquqbuzarlik jinoyatni sodir etishga ommaviy shart-sharoitdir.

SSSRda va Rossiyada ma'muriy huquqbuzarlikni hisobga olishning yo'qligi sababli dinamikada yillar bo'yicha (1990-va 1991-yillardan tashqari) huquqbuzarlik va jinoyatning 1990-yildagi 14 Ittifoq respublikalar bo'yicha parallel qarorlarga murojaat qilishga majburmiz.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki ma'muriy huquqbuzarlikning eng pasti koeffitsienti Ozarbayjonda (2307), eng yuqorisi Belorussiyada (18630) o'rta hisobda Ittifoq bo'yicha bitta jinoyatga 16,3 huquqbuzarlik to'g'ri keladi. Ma'muriy huquqbuzarliklar (X) va jinoyat koeffitsentlari (U)ning parallel qatorlarini olib va Xni chetga olib apsessiv O siga bo'yicha biz ro'yxatni olamiz.


4-Jadvalda tasvirlangan.

№	Respublikalar	Huquqbuzarlik		Jinoyat		Bitta jinoyat uchun huquqbuzarliklar soni
		Absolut miqdor	100 ming aholiga	Absalyut miqdor	100 ming aholiga	
1	Ozarbayjon	161108	2307	154011	216,6	10,6
2	Armeniya	116223	4870	12110	365,8	13,3

3	Gruziya	402683	7438	19711	364,1	20,4
4	Qirg'iziston	438738	11045	29654	364,1	16,1
5	Tojikiston	686035	13112	16887	322,8	40,6
6	Latviya	503679	13582	37056	99,3	13,6
7	Turkmaniston	501750	13895	18618	515,6	26,9
8	Ukraina	7309204	14170	369809	716,9	19,8
9	Qozog'iston	2447888	14730	148053	890,9	16,5
10	O'zbekiston	3024148	14951	881155	435,8	34,3
11	Litva	459294	17179	34687	1297,4	13,2
12	Moldaviya	726607	16668	43017	986,8	16,9
13	Rossiya	26559817	17987	1839451	1242,5	14,5
14	Belorussiya	1908346	18630	75699	741,3	25,1
15	Estoniya	-	-	23807	1511,1	-
16	SSSR	45387520	15779	2786605	968,8	16,3

Ma'muriy amaliyot va huquqbuzarliklarni hisobga olish yetarli emasligiga qaramay, hisobga olingan jinoyatlar va huquqbuzarliklarning parallel qatorlari jinoyatchilikning o'sishi bilan huquqbuzarliklarning o'sishidagi yaqin aloqani belgilaydi. Biroq har doim ham huquqbuzarlikning o'sishi jinoyatni o'sishi bilan bog'liq bo'lmaydi.

Korrelatsiyaning qo'shaloq koeffitsienti bosqichli hisobga olish tartibini juda oddiy hisoblash nuqtai nazaridan misolida ko'rsatamiz. Taxminlarcha, biz ikkita statistik qatorlarni 7 yil ichida ma'muriy nojo'ya harakatlarni (x) va jinoyatlarni (u), ya'ni qandaydir yirik korxonada sodir etilgan nojo'ya harakatlarni xarakterlaydi.



Korrelatsiyaning qo`shaloq koeffitsientini hisoblash uchun sonlarning mohiyati.

Yillar	1994	1993	1995	1997	1992	1991	1996
Ma'muriy huquqbuzarliklar soni (x)	38	45	59	68	75	79	63
Jinoyatlar soni (u)	6	5	4	8	7	10	12

Ushbu jadvalda yillar xronologik tarzda joylashmagan, ma'muriy huquqbuzarliklar sonining ko`payishi tartibida joylashgan. Parallel qatorlardagi miqdorlarning taqqoslanishi shundan dalolat beradiki, huquqbuzarlik (x) sonining o`shishi bilan korxonada jinoyatlar soni (u) ham o`sadi, biroq hamma holatlarda emas. 1992-, 1993-, 1995-yillarda huquqbuzarliklar soni oshdi, jinoyatning soni kamaydi. Agar x va u miqdorlari o`rtasida to`g`ri koeffitsion aloqa bor bo`lsa, boshqa omillarning cheklanishi bilan belgilanadi, Ularni esa albatta, abstraktlantirish kerak. Korrelatsiya koeffitsientini qo`shishni 3 ta bosqich orqali ko`rib chiqamiz:

1-bosqich: boshqa omillarning ta`sirini bekor qilish uchun va jinoyatning o`shishini ma'muriy huquqbuzarliklarning ko`payishi bilan aloqasini ko`rsatish uchun jinoyatning (u) dalilliy qatorlarini analitik tekislashga to`g`ridan to`g`ri murojaat qilish zarur, natijada amaliy tayyorlangan qator jinoyatlarni (u) olamiz (4 rasmga qarang). Ushbu holatda nazariy qatorlarni olish uchun mashhur bo`lgan to`g`ri chiziqli korrelatsion tenglamani ishlatish mumkin.

$$\hat{y} = a + bx$$

Bu yerda  $\hat{y}$  - bu tergov belgisining to`g`rilangan nazariy qatorlarning mohiyatining (jinoyatlar), x- omil belgisining real mohiyati (huquqbuzarlik), a va b -ham kvadrat usuli orqali hisoblanadi.

2 Bosqichda keltirilgan tenglamaga ko`ra, uning o`ng tomonida bizlarga a va b ning parametrlari noma'lum.

Ular kam kvadratlarining usuli hisoblanadi va narmal tenglamaning ikkita tizimini namoyon etadi. Biz isbotsiz tenglamani keltiramiz ( $\Sigma$ - summa belgisi, n yil raqami boshqa belgilar avvalgidek)

$$1. \Sigma y = na + b\Sigma x_1$$

$$2. \Sigma xy = a\Sigma x + b\Sigma x^2$$

Korrelatsion tenglamaning qayta tuzilishidan keyin va ushbu tenglamalarda shularni topamiz.



$$a = \frac{\sum x^2 \sum y - \sum x \sum xy}{n \sum x^2 - (\sum x)^2};$$

$$b = \frac{n \sum xy - \sum x \sum y}{n \sum x^2 - (\sum x)^2}$$

Belgilangan koeffitsentlar bizning misol uchun quyidagi ahamiyatga ega.

$$\sum x = 38 + 45 + 59 + 68 + 75 + 79 + 93 = 457 \text{ (huquq buzarlilik miqdori)}$$

$$\sum u = 6 + 5 + 4 + 8 + 7 + 10 + 12 = 52 \text{ (jinoyat miqdori)}$$

$$n = 7 \text{ yil soni}$$

$$\sum u^2 = 38^2 + 45^2 + 59^2 + 68^2 + 75^2 + 79^2 + 93^2 = 32089 \quad \text{huquqbuzarliklar}$$

kvadrat miqdori.

$$\sum u = 6^2 + 5^2 + 4^2 + 8^2 + 7^2 + 10^2 + 12^2 = 434 \text{ jinoyat kvadratining miqdori}$$

$$\sum xy = 38 * 6 + 45 * 5 + 59 * 4 + 68 * 8 + 75 * 7 + 79 * 10 + 93 * 12 = 3664$$

(huquqbuzarlar va jinoyatlarning miqdoriy miqdori)

$$(\sum x)^2 = (38 + 45 + 59 + 68 + 75 + 79 + 93)^2 = 208849 \quad \text{(jinoyatlarning kvadrati)}$$

yuqorida ko`rsatilgan formulalarning berilgan ma'lumotlarini qo`yib a va b ning mohiyatini hisoblaymiz.

$$a = \frac{32089 \cdot 52 - 457 \cdot 3664}{7 \cdot 32089 - 208849} = \frac{-5820}{15774} = -0.3689 = -0.37$$

$$b = \frac{7 \cdot 3664 - 457 \cdot 52}{7 \cdot 32089 - 208849} = \frac{1884}{15774} = +0.1194 = 0.12$$

demak,  $a = -0,37$  va  $b = 0,12$ . a va b ning mohiyatiga ega bo`la turib to`g`ri chiziqli korrelatsion tenglamani yechishimiz mumkin.

$$\tilde{y}x_1 = -0,37 + 0,12 * 38 = 4,19,$$

$$\tilde{y}x_2 = -0,37 + 0,12 * 45 = 5,03,$$

$$\tilde{y}x_3 = -0,37 + 0,12 * 59 = 6,71,$$

$$\tilde{y}x_4 = -0,37 + 0,12 * 68 = 7,79,$$


$$\tilde{y}x_5 = -0,37 + 0,12 * 75 = 8,63,$$

$$\tilde{y}x_6 = -0,37 + 0,12 * 79 = 9,11,$$

$$\tilde{y}x_7 = -0,37 + 0,12 * 93 = 10,79$$

jinoyatlarning to`g`rilangan nazariy qatori huquq buzarlilikning haqiqiy qatori bilan kelishilgan qatori paydo bo`ladi.

Jinoyatlarning nazariy va daliliy qatorlar jadvali



■ - bu chiziqcha asil qator ▲ – nazariy qator ..... o`rtacha son

3 – bosqich. Jinoyatning  $\hat{y}$  - to`g`rilangan nazariy qatorini olib, u bilan jinoyatni daliliy qatorini almashtiramiz va quyidagi formulaga ko`ra korrelatsiya koeffitsienti hisobini olamiz

Formula R=

Bu yerda R korrelatsiya koeffitsienti dx o`rta omil belgisidan chetga chiqish (huquqbuzarlik) dy o`rta tenglov belgisidan chetlanish (jinoyat).

Korrelatsiya koeffitsientini hisoblab chiqish uchun dx, dy, dx<sup>2</sup>, dy<sup>2</sup> dx\* dy, shuningdek, x va u ning o`rta arifmetik hajmining ahamiyatlarini topish lozim.

O`rtasini topishdan boshlaymiz:

$$x = \frac{\sum x}{n} = \frac{38 + 4559 + 68 + 75 + 79 + 93}{7} = 65,28.$$

O`rta arifmetika

$$y = \frac{\sum y}{n} = \frac{6 + 5 + 4 + 8 + 7 + 10 + 12}{7} = 7,42.$$

O`rta arifmetika

Boshqa miqdorlar 6 – jadvalda ko`rsatiladi.

Данные для расчета парного коэффициента корреляции (пример)

№ п/п	Количество правонарушений (x) (фактический ряд)	Количество преступлений (y) (теоретический ряд)	Отклонение от средней ряда x: (x - x̄) = d <sub>x</sub>	Отклонение от средней ряда y: (y - ȳ) = d <sub>y</sub>	Квадрат отклонения ряда x: (x - x̄) <sup>2</sup> = d <sub>x</sub> <sup>2</sup>	Квадрат отклонения ряда y: (y - ȳ) <sup>2</sup> = d <sub>y</sub> <sup>2</sup>	Произведение отклонений (x - x̄)(y - ȳ) = d <sub>x</sub> d <sub>y</sub>
1	38	4,2	-27,28	-3,22	744,10	10,37	+87,84
2	45	5,0	-20,28	-2,42	411,28	5,86	+49,07
3	59	6,7	-6,28	-0,72	39,44	0,52	+4,52
4	68	7,8	+2,72	+0,38	7,39	0,14	+1,03
5	75	8,6	+9,72	+1,18	94,48	1,39	+11,47
6	79	9,1	+13,72	+1,68	188,24	2,82	+23,05
7	93	10,8	+27,72	+3,38	768,39	11,42	93,69
n=7	∑ x = 457	∑ y = 52			∑ (d <sub>x</sub> ) <sup>2</sup> = 2253,32	∑ (d <sub>y</sub> ) <sup>2</sup> = 32,52	∑ d <sub>x</sub> d <sub>y</sub> = +270,67

Harfli ifodalashdan farqli raqamliga o`tib korrelatsiya koeffitsientini aniqlaymiz:

$$R = \frac{\sum d, d}{\sqrt{\sum (d,)^2 (d,)^2}} = \frac{+ 270,67}{\sqrt{2253,32 * 32,52}} = \frac{+ 270,67}{270,70} = +0,999.$$

Korrelatsiya koeffitsientining mamuriy huquqbuzarliklar va jinoy harakatlar o`rtasidagi holatlarda muassalarda hozirgi vaziyatda q 0,999ga teng. o`rganilayotgan holatlar o`rtasida to`g`ri aloqalar borligi haqida xabar beradi va bu aloqa vazifaliga yaqin Real kriminologik va ijtimoiy huquqiy sharoitlarda korrelatsiyaning bunday yuqori darajasi amaliyotda uchramaydi.

Juft korrelatsiya koeffitsientini umumqo`shinlar ustavining buzilishi va jinoyatlar o`rtasida muallif tomonidan 70 – yillarga mo`ljallangan real 20 ta okrugli ma`lumotlar bo`yicha+ 0,725 tashkil qildi. Analogik miqdorni (+0,7) biz (1990)yil Ittifoqdagi ma`muriy huquqbuzarliklar o`rtasidagi korrelatsiya koeffitsientining qidirilayotgan koeffitsientini hisoblashda ko`rish mumkin. Bazisli miqdorli paragraf boshida keltirilgan qo`shaloq korrelatsiyaning chiziqli koeffitsientini hisoblash uchun formulalar tez-tez ishlatiladi, ular parametrlarga ega ular, asosida huquq buzarlik dx bo`yicha va jinoyat bo`yicha dy o`rta bo`lganlardan chetlashga mo`ljallangan.

$$R = \frac{n\sum xy - \sum x \sum y}{\sqrt{[n\sum x^2 - (\sum x)^2] ; [n\sum y^2 - (\sum y)^2]}}$$

$$R = \frac{\sum xy - \frac{\sum x \sum y}{n}}{\sqrt{\left[ \sum x^2 - \frac{(\sum x)^2}{n} ; \sum y^2 - \frac{(\sum y)^2}{n} \right]}}$$

Korrelatsion aloqalar zichligi darajasining ahamiyatli bo`lishi ehtimolli, korrelatsiyaning berilgan koeffitsientlar tomonidan o`lchanadigan -1 dan to +1 atrofida yotibdi.

-1 ga teng bo`lgan koeffitsientga to`liq orqa aloqa xos 0 har qanday aloqaning yo`qligi +1 to`liq ochiqdan ochiq aloqa -/drob bilan belgilanganlar to`g`ri yoki qayta aloqaning ma`lum darjasi.

Yuridik ta`limotda korrelatsiyaning sudlanganlik miqdorlari va jazo o`rtasidagi maxsus koeffitsientlarni ishlab chiqarishga urinish bo`lgan, biroq ular hech qanday ovoza qila olmadilar.

Vaholanki, biz ushbu formulani sudlanganlik jazo indeksleri o`rtasidagi o`lchashlarni malakalashtirish uchun keltiramiz

1970 – yillarida juft korrelatsiyaning sudlanganlik indeksi va jazo o`rtasidagi koeffitsientini quyidagi formula bo`yicha hisobga olish taklif etilgan:

$$R_{\alpha} = \frac{\sum n(C - C)(H - H)}{\sqrt{\sum n(C - C)^2 \sum n(H - H)^2}}$$

Bu yerda  $R_{\alpha}$  jazo va sudlanganlik indekslari o'rtasidagi korrelatsiya koeffitsienti;

$S$  – sudlanganlik indeksi  $\bar{C}$  sudlanganlikning o'rtacha indeksi (o'rganiladigan yillar mobaynidagi o'rtacha arifmetik)ni jazo indeksi  $H^{\#}$  jazoni o'rtacha indeksi  $\sum$  miqdor narxi  $p$  **korrelatsiya** koeffitsientining yildagi hisob kitob soni.

4. O'zaro aloqalarni tiklashning o'zgacha (boshqacha) usullari.

Aniq va murakkab korrelatsion o'zgarishlar bilan bir qatorda juda aniqqlari ham bor faqat jahon statistik va sotsiologik adabiyotlarda o'rganiladigan statistik qatorlar o'rtasidagi tarkatilgan aloqalarni belgilash uslubiyotlari. Ularga Fexner koeffitsienti va Spirmenning, Kendalning korrelatsion koeffitsientlari va boshqalarni kiritish mumkin.

1. Fexner koeffitsienti parallel qatorlarni taqqoslashga mo'ljallangan (KF), uning yordamida aloqa yo'nalishini va uning zichligini aniqlash mumkin. Avvalambor, omil belgisi ( $x$ ) tergov belgisining ( $u$ ) o'rtacha arifmetik qatori hisoblanadi. Keyin o'tachadan chiqish belgilari aniqlanadi. (7-jadvaldagi 4- va 5-ustunga qarang). Agar real o'tachadan ko'p bo'lsa, uning oldiga ( $q$ ) belgisi qo'yiladi, kam bo'lsa, (-) belgisi qo'yiladi.  $x$  va  $u$  ning alohidagi belgilariga qarab to'g'ri kelishi moslashgan variatsiyani bildiradi, to'g'ri kelmaganlari moslashuvining buzilishidir. Fexner va Spirmenlar koeffitsientini hisoblashni berilgan ma'lumotlarda ko'rib chiqamiz (mamuriy huquqbuzarliklar va jtnoyatlar). Korrelatsiyaning chiziqli koeffitsienti mo'ljallangan bu esa ularning mohiyatini taqqoslashga imkon beradi.

№ p/p	Huquqbuzarlik (x)	Jinoyat (u)	Fexner bo'yicha		Spirmen bo'yicha			
					Belgi darajasi		Darajalar turi	
			x	u	x	u	d	d <sup>2</sup>
1	38	6	-	-	1	1	2	4
2	45	5	-	-	2	2	0	0
3	59	4	-	-	3	3	2	4
4	68	8	q	q	4	4	1	1
5	75	7	q	-	5	5	1	1
6	79	10	q	q	6	6	0	0

7	93	12	q	q	7	7	0	0
	$X=35,3$	$X=7,4$						$\sum d^2=10$

Chetga chiqishning to`g`ri keladigan belgilarini hisoblaymiz. Ular 6ta (uchta - uchta +++) chetga chiqishning to`g`ri kelmaydigan belgisi bitta.

$$\frac{C-H}{C+H}$$

Fexner koeffitsientining  $KF = \frac{C-H}{C+H}$  bu yerda KF – Fexner koeffitsienti. S to`g`ri keladigan belgilar soni. N to`g`ri kelmaydigan belgilar soni

$$KF_h = \frac{6-1}{6+1} = +0,714$$

Fexner koeffitsienti +1dan to – 1gacha o`zgaradi. +1da to`g`ri to`liq moslashuvi bor. Oda esa o`zgarish hech ham mos kelmaydi. - 1da to`liq qayta moslashmaslik  $KF = 0,714$  to`g`ri moslashuvchining muhimligidan dalolat beradi.

## 11-BOB. KOMPLEKS STATISTIK ANALIZ (TAHLIL) VA UNING YURIDIK STATISTIKADA QO`LLANISHI

### 1-§. Statistika analiz (tahlil) tushunchasi

**Analiz** (tahlil) – (yunoncha “analysis” – qismlarga ajratish) keng ma’nodada narsa, hodisa, jarayonni, keyinchalik alohida holda, boshqa ajratilgan butun qismlar bilan yangi bilimlarga ega bo`lish yoki mavjud ma’lumotlarni tizimlashtirish maqsadida tarkibiy elementlarga, xossalarga va munosabatlarga, xususiyatlarga ajratish, qismlarga bo`lishni bildiradi.

Har bir fanda tahlil o`zining maxsus va aniq mazmuniga ega (masalan, matematik, mantiqiy, huquqiy tahlil). Ilmiy ta’rifdan kelib chiqib statistik tahlil umuman va aynan alohida yuridik o`quv fanlarga nisbatan o`rganib chiqiladi. Bunda yuridik fan va amaliyot bir xil emasligini nazarda tutish lozim. Kriminologiya jinoyatchilik va ular bilan bog`liq boshqa faktik munosabatlarni, fuqarolik va jinoyat huquqi fanlari - har ikkalasi ham huquqiy munosabatlarni o`rganadi, biroq turli xil, bir-biriga o`xshamagan tushunchalar, kategoriyalar, normalar va faktik faoliyatlar orqali o`rganadilar. Bularning barchasi statistik tahlil tabiatida o`z aksini topadi.

**Ijtimoiy-huquqiy tadqiqotlarda statistik tahlil o`z ichiga o`rganilayotgan hodisa (jarayon)ni u yoki bu huquq sohasi bilan belgilanadigan tarkibiy qismlarga, bu tarkibiy qismlarning miqdoriy o`lchovlari, bu qismlar va boshqa ijtimoiy hodisalar o`rtasidagi o`zaro munosabatni aniqlash, hodisa va jarayon shakllanishining mavjud qonuniyatlarini aniqlashni oladi.**

Kriminologik tadqiqotda statistik analiz jinoyatchilik, uning sabablari, oldini olish choralarini va shu kabilarni miqdoriy va sifat jihatidan o`lchovlarni, jinoyatchilik va u bilan bog`liq ijtimoiy hodisa hamda jarayonlarning o`zaro munosabati, qonuniyatlarini belgilab olish maqsadida tarkibiy elementlarga bo`lishni nazarda tutadi.

Yuridik fan va amaliyotda statistik tahlil tushunchasining mazmunini yechib berishda biz umum fan ta’rifidan chetga chiqishga majbur bo`lamiz. O`rganilayotgan hodisaning tarkibiy qismlari o`rtasidagi, ular va boshqa ijtimoiy hodisalar o`rtasidagi o`zaro munosabatni yuzaga chiqarish, shakllanishning umumiy qonuniyatlarini aniqlash, qisqasini aytganda, ko`proq analiz emas, balki sintez (yunoncha “synthesis” – o`zaro bog`lash, qo`shish) elementlaridir. Hodisaning aynan sintezi o`zining yaxlitligi hamda o`zaro bog`liqligida statistik tahlilga analiz orqali olingan statistik ma’lumotlarni umumlashtirish va yaxlit holga keltirish yo`li bilan tegishli ko`pgina vazifalarni yechishda yordam beradi.

**Yuridik ahamiyatga ega miqdorlarning statistik tahlili** yuridik fanning turli sohalariga o`zining 4 ta funksiyasini – **tasvirlovchi, sharhlovchi, prognostik, tashkiliy – amaliy** funksiyalarini bajarishda ijtimoiy voqelik bilan aloqani uzmasligiga yordam beradi.

1. Jinoyat huquqi, fuqarolik huquqi, kriminologiya va boshqa yuridik o`quv fanlarining tasvirlovchi funksiyasida statistik tahlil asosiy rol o`ynaydi. Sababi bu bizga o`rganilayotgan hodisaning miqdor va sifat xossalarini chiqarish, hodisa tarkibiy qismlarini tasvirlab berish, ularning o`zaro aloqalarini o`rgatish, o`ziga xos xususiyatlari va turli xil belgilarini aniqlashga yordam beradi. Statistik tahlil imkoniyatlari jinoyatchilik, ma`muriy huquqbuzarliklar, fuqaroviy - huquqiy deliktlar, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa yuridik organlar, jinoiy va fuqarolik ishlari bo`yicha sudlov, jazoni ijro etish kabilarni tsvirlashda nisbatan to`laroq qo`llaniladi.

Yuridik fanning bu funksiyasini amalga oshirishda statistik tahlil boshqalarga nisbatan kengroq qo`llaniladi. Buni kamchilik sifatida qabul qilish mumkin. Miqdoriy va sifat tasvirlanishi tahlilning birinchi va eng oddiy bosqichidir.

Fanning boshqa funksiyalarini amalga oshirishda statistik tahlilning to`liq qo`llanmasligi ko`p hollarda uning usullarini yaxshi egallanmaganligidan darak beradi. Yuridik hodisalarning statistik tavsifining o`zi ham har doim tizimli va malakali bo`lavermaydi.

2. **Yuridik fan va amaliyotni izohlovchi funksiya uchun qo`llaniladigan statistik tahlil, tadqiq etilayotgan hodisaning mohiyatiga chuqurroq kirib borish, uning tashqi va ichki o`zaro aloqalarini aniqlash, sodir bo`layotgan o`zgarishlarning sababiy asoslari va mavjud tendensiyalarini o`rnatishga imkon beradigan bir qator usul, vosita va metodlarga ega.** Masalan, jinoyatchilik yoki uning alohida turlarining, uning strukturaviy siljishlar o`shishi (kamayishi) jinoiy va fuqaroviy sudlov faoliyati samarasizligi, aholining Ichki ishlar organlariga ishonchning pasayishi sabablarini obyektiv izohlab berish murakkab va sinchkovlikni talab etuvchi muammodir. Amaliyotda bularni izohlashga ko`p hollarda yuzaki va bir tomonlama yondashiladi. Aytaylik, qayd etilgan jinoyatlar darajasining pasayishi zamirida ko`p sonli va turli xil sabablar, jumladan, mamlakatda aholi turmush tarzining yaxshilanishi, huquqqa xilof xatti-harakatlar ustidan nazoratning mukammallashuvi, aholining jinoiy ishlar bo`yicha odilonaligiga ishonmasligi, jinoyatlarni qayd qilishda xolislikning yo`qligi, jinoyat qonunchiligidagi o`zgarishlar kabi sabablar yotishi mumkin.

U yoki bu munosabatni isbotlashda chuqur faktor, korrelatsion va sababiy statistik tahlil talab qilinadi. Mana shu holdagina chiqarilgan xulosalar amaliy va nazariy qarorlarining ishlab chiqilishida real foyda keltirilishi mumkin. Odatda, oson yo'l dan boriladi: jinoyatchilik darajasining pasayishi – Ichki ishlar organlarining faoliyati maxsus sifatida qaraladi. Bu xulosani tasdiqlashda ularning real munosabatlarini o'rganmasdan Ichki ishlar xodimlari sonining, ish haqining oshirilishi, yangi texnika bilan jihozlanishi kabi «ishonchli» ma'lumotlarni va ularni ijobiy natijalarga olib kelgan deb baholashadi. Haqiqatda esa mavjud o'zgarishlarning sabablari umuman boshqa bo'lishi mumkin, biroq ular tahlil etilmaydi. Bunday «taxminiy» tahlilning zararidan boshqa hech bir natija chiqmaydi. Biroq ko'pincha shunday xulosalar hokimiyat vakillariga qo'l keladi. Malakali (professional) statistik tahlil bu kabi zararli xulosa va qarorlardan ozod bo'lishga yordam beradi.

3. Statistik tahlil o'tmish va hozirgi paytning ma'lumotlarida amalga oshiriladi. Ijtimoiy - huquqiy, kriminologik, deliktologik va boshqa yuridik voqelikning o'ziga xos xususiyatlarini eng haqiqiy, eng ishonchli tavsiflash va izohlashda ham bu voqelikning juda o'zgaruvchan va dinamikligini nazarda tutish lozim. Shu sababli, o'tmish va hozirgi paytdagi mavjud ma'lumotlariga asoslangan xulosalar «kechagi kun» xulosalari bo'lib qolishi mumkin. Bunday xatolarni o'rganilayotgan hodisa yaqin kelajakdagi yuz berish mumkin bo'lgan o'zgarishlar ko'p variantli, taxminiy, biroq nisbatan ishonchli prognoz orqaligina chetlab o'tish mumkin. Statistik tahlil fan va amaliy faoliyat u yoki bu sohasining prognostik funksiyasini amalga oshirishi uchun yetarli asoslarni beradi.

Yaqin kelajak uchun prognozlarni amalga oshirishning eng oddiy metodi – statistik tendensiyalarni va qonuniyatlarning yaqin yillardagi ekstrapolyatsiyasidir (bu haqda grafik metodlar va dinamika qatorlarining ko'rib chiqilishida so'z borgan edi). Agar mazkur tendensiya va qonuniyatlar obyektiv tarzda aniqlangan bo'lsa, bu holda ular muayyan taxminlarning nisbatan ishonchli asosini taqdim qilishi mumkin. Bunda faqatgina o'rganilayotgan hodisa va jarayonning tendensiyalarinigina emas, balki ular bilan bog'liq boshqa ijtimoiy hodisalarni ekspolyatsiya qilish zarurdir. Statistik tadqiq asosida, masalan, kriminologiyada nafaqat jinoyatchilik va uning turlari, balki alohida shaxslarning hulq-atvori (individual prognozlashtirish) kabi o'xshash tendensiyalar prognozlashtiriladi.

4. O'rganilayotgan hodisalarni tasvirlash, izohlash va prognoz o'z-o'zidan emas, balki qonunchilik tashabbusini tayyorlash, u yoki bu yuridik faoliyatning optimal tarzda tashkil etilishi, sermahsul ish faoliyati uchun



zarur. Bu shuni anglatadiki, yuridik fan va amaliyotni tavsiflash, tushuntirish va prognostik funksiyalari huquqiy davlat amal qilishi mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim, ya'ni yuridik fanlar tashkiliy – amaliy funksiyasi amalga oshirish lozim. Amaliy chora – tadbirlarni ishlab chiqishda statistik modellashtirish, eksperimental qarorlar metodlari va statistik tahlilning boshqa uslublari qo'llanilishi mumkin.

Mazkur bo'limni nihoyasiga yetkaza turib, shuni qayd etib o'tish o'rinliki, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa yuridik organlar amaliyotida va hattoki, yuridik tadqiqotlarda statistik tahlil uslublari, afsuski, lozim darajada qo'llanilmayapti. Ko'p hollarda operativ maqsadlar yoki illustratsiyalar uchun qiyosiy jadvallarni tuzish bilan cheklanilayapti. Chuqur tahlil uchun «qo'l yetmaydi» yoki zarur statistik tayyorgarlik (malaka) etmaydi. Bu tahlildagi potensial foydani manfaatlashtiradi.

Statistik tahlilni statistik kuzatuv va olingan ma'lumotlarni chuqurlashtirishdan keyingi – uchinchi hamda undan so'ng keladigan sifat tahlilini hisobga olmaganda, miqdoriy tadqiqotlarning oxirgi bosqichi deb nomlashadi. So'nggi tavsif nisbiy xarakterga ega. Chunki har qanday amaliy – tahliliy chora – tadbirlar, ishlar statistik kuzatuvdan boshlanadi, statistik tahlilning turli xil metodlarini kompleks amalga oshirilishi bilan nihoyasiga yetadi.

**Statistik tahlil** keng ma'noda o'z ichiga quyidagi xususiy **metodlarni** qamrab oladi:

- 1) statistik guruhlash;
- 2) umumlashtiruvchi miqdorlar (absolut, nisbiy, o'rta);
- 3) statistik satrlar;
- 4) hodisalar o'rtasidagi aloqalarni tadqiq qilishning korrelatsiya va boshqa shu kabi usullari.

Sanab o'tilgan metodlar statistik tahlil oldiga an'anaviy tarzda qo'yiladigan ko'pgina vazifalarni hal etishga imkon beradi. Miqdoriy tahlilning keyinchalik chuqurlashuvi amalga oshirilishi uchun jiddiy malakani talab etuvchi ko'pgina matematik metodlar asosida berish mumkin.

Mazkur bobning keyingi paragraflarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sud va boshqa yuridik organlar amaliyotida keng qo'llaniladigan statistik analizning ba'zi turlari qarab chiqiladi. Shuni nazarda tutish lozimki, jinoyatchilik, sudlanganlik va boshqa shu kabi faktlarning statistik tahlili kriminologiyaning mazmunini yoki jinoyat huquqini, jinoyat protsessual huquqini, fuqarolik, ma'muriy huquqlari va boshqa yuridik

o`quv fanlarining sotsiologik tomonlarini aks ettiradi. So`nggi paragraflarda asosiy diqqat yuridik fan va amaliyotda u yoki bu sohaning muayyan muammolari atrofida emas (bu statistika doirasidan chetga chiqish bo`lar edi) yoki konkret masalalarni hal qilishda tahlilning statistik metodlari qo`llanishi atrofida ham emas (bu holda darslikning katta qismini xususiy masalalarga nisbatan qayta ko`rib chiqish zarur bo`lar edi), balki ilmiy va amaliy muammolarni hal etishda statistikaning qo`llanishiga doir kamchiliklar atrofida jalb etiladi. Zero, bu kamchiliklar aynan mana shu imkoniyatlar haqidagi bilimlarning yetishmasligidir. Biroq, albatta, tadqiqot metodlari muammosini hal etishda ajratish oson emas. Shu sababli ba`zi hollarda bu imkoniyatlar aniq masalalarni hal etish bilan bog`langan tarzda yoritiladi.

|

## **2-§. Jinoyatchilikni statistik tahlil qilish imkoniyatlari**

Jinoyatchilik - hozirda barcha ijtimoiy tizimlarga xos hamda juda ko'p boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq zamon va makonda taqsimlangan favqulodda salbiy obyektiv va chuqur tizimlashgan ijtimoiy hodisadir. O'zining mazkur holatida u statistik tahlilning ideal obyektini aks ettiradi.

Bir tomondan, uning boshqa keng tarqalgan ijtimoiy hodisalarga nisbatan statistik «jozibadorligi» ko'pgina definitsiya (tushuncha) xossalari va xususiyatlarga nisbatan qonuniy o'rnatilgan va protsessual tarzda hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan mustahkam huquqiy asoslarga egaligi, ommaviy maxsus davlat organlarining professional himoya bilan bellashuvda amalga oshadigan normalardan iborat.

Boshqa tomondan, jinoyatchilikning o'zi, ommaviy ijtimoiy hodisa sifatida, o'zining ko'p tomonlama aks etishi bilan nafaqat sifat, balki miqdoriy analiz darajasida ham, ya'ni statistik tarzda tushunilishi va anglanishi mumkin. Jinoyatchilikni muayyan jinoiy qilmishlar yig'indisiz ko'rib chiqish urinishlari konkret ijtimoiy – jinoiy qilmishlarda aks etsa-da, uni «ushlab ko'rish» mumkin bo'lmagan, mavhumlikka aylantiradi. Shuning uchun jinoyatchilikning miqdoriy tadqiq objekti sifatida o'rganish azaldan yuridik (axloqiy, sudlov, huquqiy) statistikada yetakchiligi ajablanarli hol emas.

Yuridik statistika, jinoyatchilikni o'rganishning asosiy miqdoriy metodi bo'la turib, kriminologiya, jinoyat huquqi va boshqa kriminal yo'nalishdagi fanlarning o'rnini bosmaydi. U faqatgina jinoiy qilmishlarning miqdoriy analizi imkoniyatlarini ochib beradi. Bu imkoniyatlar jinoyatchilikning va u haqidagi ma'lumotlarning statistik hisoboti mavjudligi, jinoyatchilikni yillar va hududlar bo'yicha tahlil etish (qiyoslash), uning sabablari va oqibatlari o'rtasidagi munosabatni o'rganish, u umumiy taxminiy rivojlanishni prognoz qilish imkoniyatini beruvchi katta miqdordagi umumlashtiruvchi tuzilmaviy va dinamik miqdorlarni ishlab chiqish bilan bog'liq markazlashgan hisobotning mavjudligi bilan belgilanadi. Shu ma'noda jinoyatchilikning obyektiv statistik o'rganilishi uning sabablari, huquqbuzarning shaxsi, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlar, jinoyatchilik bilan kurashni rejalashtirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini baholashning asosini tashkil etadi.

Jinoyatchilikning statistik tahlili uning real holatini aniqlashdan iborat. Bu masala murakkab, ko'p qirralidir. Bir tomondan, mukammal ishlab chiqilgan qayd etish va hisobot mavjud; ikkinchi tomondan, hech bir mamlakatda, qayd etilgan jinoyatchilik ahvoli haqidagi raqamli

ma'lumotlar haqiqiy kriminologik vaziyatni aks ettirmaydi. Qayd etilgan jinoyatchilik darajasi o'rtacha sodir etilayotgan jinoyatlarning choragi yoki yarmini tashkil etadi.

Jinoyatlarning alohida guruhi yoki turlari (iqtisod, mansab, korrupsiya, ekologik va boshqa) haqiqiy kriminologik voqealarning o'ndan biri va hattoki yuzdan bir qismi hollarda hisobga olinadi. Bu qayd etilgan jinoyatchilikning jiddiy tuzilmaviy (strukturaviy) o'zgarishlariga olib kelmoqda. Uning qayd etilgan qismi «oqyoqalik» va jiddiy sir tutiladigan qilmishlardan ochiq va qo'pol, intellektualda sodda (primitiv), hokimiyat va kapital jinoyatchiligidan – qo'pollashgan, zaif moslashgan ijtimoiy qatlamlar jinoyatchiligiga tomon siljishlarga jinoiy oqibatlar jihatidan (jismoniy, ma'naviy va moddiy zarar jihatidan) nazar tashlasak, ular yanada yaqqolroq yuzaga chiqadi. Shuning uchun jinoyatchilik real holatini aniqlash - har qanday ma'muriy - hududiy bosqichdagi statistik tahlilning asosiy va fundamental vazifasidir.

Jinoyatchilik haqidagi ma'lumotlarni yig'ishning birinchi bosqichida statistik kuzatuvning asosiy shaklini huquqni muhofaza qilish organlarning rasmiy statistik hisobi qo'llaniladi. Birlamchi hisobot hujjatlari (F1, F1.1, F1.2, F2, F3, F4, F6 statkartalari) 3500 birlikkacha jinoyatchilikning turli xil qirralari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi mumkin.

Biroq bu kartochkalar muntazam ravishda davlat hokimiyati organlarining 60 dan ortiq shakllardagi hisobotlarida umumlashtirilsada, kodlashtirilgan xususiyatlarning ayrimlarigina (ularning soni 2 mln.dan ortiqdir) taqdim etiladigan hisobotlarda o'z aksini topadi. Jinoyatchilikni o'rganishning vazifalaridan kelib chiqib hisobotlarda aks ettirilgan ma'lumotlar talab etilishi mumkin; shunga qaramasdan, birlamchi hisobot hujjatlari ham mavjuddir.

Bunday «harakatsiz» axborotlar olinishining ixchamlashishi shundan iboratki, mutlaq ko'pchilik hududlardan olingan birlamchi hujjatlar hisobi kompyuterlashtirilganligidadir.

### **3-§. Jinoyatchilikning sabablari, qonunbuzarning shaxsi va jinoyi qilmishning motivatsiyasida statistik tahlilning imkoniyatlari**

Kriminologiya nazariyasida jinoyatchilikning sabablari, aniq jinoyatlar va jinoyatchi shaxsi odatda alohida – alohida ko`rilsa-da, lekin ular bir-biriga bog`liq bo`lgan muammolardir. Jinoyi qilmish motivatsiyasi asosan shaxsiy muammolarda uchraydi, lekin ko`p hollarda obyektiv va subyektiv sabablar kompleks strukturasi sifatida ko`riladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar real hayotda va amaliyotda jinoyatchilikning sabablarini, aniq jinoyatlarni, jinoyatchining shaxsi va jinoyi qilmish motivatsiyasini aniq belgilashi oson emas.

Jinoyatchilikning obyektiv sabablari subyektning shaxsi va uning motivatsiyasi orqali aniq nohuquqiy aktlarda amalga oshiriladi. Jinoyi qilmishning sabablari o`tgan, hozirgi va mumkin qadar kelajakdagi ijtimoiy ta`sir qonunbuzarning shaxsi bilan bog`liq. Jinoyat sodir etish paytida ko`pgina sabablar obyektiv mavjudligi yo`qolib ketadi, lekin javobgar shaxsda o`zining «izi»ni qoldiradi. Uning dunyoqarashida, odatlarida va harakatlarida namoyon bo`ladi. Shuning uchun ham jinoyat sodir etish payti sabab va sharoiti anglangan yoki anglanmagan bo`ladi, lekin shaxsan muhim axborot subyekt sifatida saylash yo`li bilan tanlanib, uning ta`siri orqali shakllantirilgan motivatsion muhit konkret motiv, maqsad va istaklar orqali ro`yobga chiqariladi.

Tergov yoki sud jarayonida jinoyatning birmuncha sabablari, ayniqsa, o`tgan, uzoqlashtirilgan va egrilari ko`p hollarda aniqlanmaydi. Olingan ko`rinishda jinoyatchi shaxsi berilayotgan tavsifnomasida ancha ahamiyatga ega. Shu sababdan jinoyi ishda va dastlabki ro`yxat hujjatlarida faqatgina o`rnatilganlari aks ettiriladi.

Jinoyatchilikning sabablari, jinoyatchi shaxsi va jinoyi qilmish motivatsiyaning statistik tahlili masalasi – jinoyi ro`yxatda aks ettirilgan xususiyatlar va qonunbuzarning hayoti va faoliyatida kuzatilgan ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa xususiyatlar orasidagi mavjud aloqani aniqlash va o`lchashdan iborat. Jinoyatchilikning sabablari, jinoyatchi shaxsi va jinoyi qilmish motivatsiyasi statistik o`rganishda tahliliy imkoniyatlarni birlashtirilgan holda bitta paragrafda, ularning obyektiv o`zaro bog`liqligi va dastlabki ro`yxatda va hisobot hujjatlarida uzluksiz aksini ko`rsatadi. Statistik imkoniyatlarning alohida tahlilini o`rganishda mazkur hodisalar tom ma`noda mavjud va zarurdir, lekin darslikda bu ko`pchilikni takrorlanishga olib keladi. Asosiy lashtirilgan statistik imkoniyat jinoyatchilikning sabablari, aniq jinoyatlar, jinoyatchi shaxsi va jinoyi qilmish motivatsiyasi ilmiy va amaliy maqsadlarda metodik to`siqlarga

xizmat qila olmaydi. Mana shu hollarda ham yoddan chiqarish kerak emaski, real mavjud bo`lgan ushbu obyektlarning aloqadorligini o`rganish zarur.

Jinoyatchilik ko`p miqdorda ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, jamoaviy, ideologik va shunga o`xshash sabab va makonda asosiy o`rinni egallaydi. Sharoitlarni determinatsiya qiluvchi sistema fundamental kriminologik izlanishlarda chuqur ishlab chiqilgan va u to`liq empirik o`rganishlarga tatbiq etiladi.

1. Jinoyatchilikning sabablarini tahlil etishda statistik ma'lumotlarning imkoniyatlari jinoiy javobgarlikni talab etadigan ishlarni birma – bir o`rganib chiqilgandagi imkoniyatlardan ancha farqlidir. Bir tarafdin (yuridik statistika doirasida) bu imkoniyatlar statistikaning boshqa sohalaridagi imkoniyatlardan ancha cheklangandir. Aslida, yuridik (jinoiy) statistika jinoiyatchilikning sabablarini bevosita emas, balki shartli ravishda o`rganadi. Ammo jinoiyatchilikni statistika asosida o`rganish faqat jinoiyatchilikka oid ma'lumotlar to`plami bilan cheklanmaydi. Jinoyatchilikka oid statistik ma'lumotlar bilan birga, statistikaning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, tibbiy, demografik va boshqa turdagi ma'lumotlari ham o`rganiladi. Lekin shu ma'lumotlarning barchasini birgalikda o`rganishda statistik tahlilning o`ziga xos metodlaridan foydalanish haqida gapirish mumkin. Barcha hollarda ularning universal xarakterga egaligini ko`rishimiz mumkin.

Jinoyatchilikning sabablarini aniqlashda dastlabki olingan ma'lumotlar ularning dinamikasi, strukturasi, bosqichlari va holatlarini tavsif qilish bilan boshlanadi. Asosiy muhim ahamiyatga ega ma'lumotlar ichiga jinoiyat sodir etishdagi turli holatlar va jinoiyatchilik ko`rinishlarini obyektiv alomatlariga qarab taqsimlashdagi natijalar kiradi:

- Jinoyat sodir etish joylari va usullari;
- Tajovuz obyektlari va predmetlari (noqonuniy oborot);
- Jinoyat sodir etish usullari va qurollari;
- Jinoyatlarni tavsiflash;
- Administrativ - hududiy bo`lim;
- Ijtimoiy sohalar;
- Xo`jalik tarmoqlari;
- Mulkchilik turlari;
- Boshqaruv subyektlarining tashkiliy - huquqiy formalari;
- Qurol – yarog`, portlovchi moddalarni qo`llash.

Bu ma'lumotlar nisbatan aniq tarzda eng kriminogen zona, hudud, sohalarni aniqlashda yordam beradi.

Yuqorida ko'rsatilgan alomatlar bo'yicha olingan ma'lumotlar miqdorlari ancha yuqori: jinoyatni sodir etish usullari bo'yicha – 29 ta alomat, iqtisodiy tajovuz qilishda boshqaruv subyektlarining tashkiliy formalari bo'yicha – 54, tajovuz predmetlari – 103, jinoyat sodir etilgan joylari bo'yicha – 105, xo'jalik sohalari bo'yicha – 286 va h.k.

Yo'naltirilganlikni o'rganishni aniqlash rejali yoki tasodifiy bo'lishi mumkin. Masalan, jinoyatchilikning bo'lingan miqdorini ro'yxatdan o'tkazish ma'lum bir hududda, tumanda, davlatning berilgan o'rta darajasiga qaraganda yoki Federatsiya subyektlari bo'yicha yoxud kelasi yil ma'lumotlarini taqqoslash, o'sha hududdagi o'rganilayotgan sharoitlarni chuqurroq o'rganishda ahamiyat kasb etadi. Shunday hollar ham bo'lishi mumkinki, bo'lingan miqdor holining migratsion o'sishiga bog'liq. 100 ming yoki 10 ming aholining jinoiy javobgarlik darajasi berilgan tuman jinoyatchiligi holati aniq ochilishiga yordam beradi. Agar u koeffitsient jinoyatchilik koeffitsienti bo'yicha salbiy tomonga o'zgarsa, u holda kriminologiyani o'rganishga yetarlicha asos bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyatchilik uning boshqa obyektiv miqdorlari bo'yicha, jinoyatchilikni sodir qilishning joyi va usuli bo'yicha, jinoiy tajovuzlarning obyekti va predmeti bo'yicha qilmishlarning tasniflanishi va kategoriyasi bo'yicha, xo'jalik tarmoqlari bo'yicha va shunga o'xshashlar bo'yicha tahlil qilish, kriminogen sharoitni aniqlashtirishga imkoniyat yaratadi. Masalan, agar jinoyatchilik ko'chalarda va jamoat joylarida tarqalgan bo'lsa, jinoyatchilik sabablari doirasi bitta bo'lishi mumkin, tashkilotlarda boshqa sabab, xonadonlarda – uchinchi sabab bo'ladi. Agar tajovuzning obyekti tadbirkorlik faoliyati bo'lsa, sabablarni kiritish mumkin; xususiylashtirish tartibi – ikkinchisi; ayollarning jinsiy daxlsizligi – uchinchi; davlat boshqaruv tartibi – to'rtinchi. Shu tarzda har bir obyektiv miqdor aniqlanadi.

Jinoyatchilikning dastlabki hujjatli hisobi jinoyatchilikning qo'shimcha xarakteristikasi sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi. Dastlabki hujjatlarda jinoyatchilik hisobotining qo'shimcha jinoyatlar xarakteristikasi qayd etiladi. U yerda quyidagilar ko'rsatiladi: xususiylashtirish bilan, yer munosabatlari bilan, tashqi iqtisodiy yoki moliyaviy, ko'chmas mulk operasialari bilan bog'liq jinoyatlar qanchaligi; yuk va yo'lovchi tashish bilan va yuklarning yetkazib berilishidagi talon – taraj jinoyatlarining qanchaligi; bosqinchilik bilan bog'liq, tamagirlik, asirlikka olish va boshqa shunga o'xshash jinoyatlarning qanchaligi; yordamga muhtoj shaxslar bilan sodir qilingan jinoyatlar, xizmat vazifasini bajarishda sodir qilingan

jinoyatlar qanchaligi; qancha jinoyatlar sog`liqqa qarshi og`ir zarar yoki jabrlanuvchilarning o`limi va boshqalari; jamoa uchun xavfli jinoyatlar oqibatlari; qancha jinoyatlar turli tadbirkorlik yoki bank faoliyatidagi qonunbuzarliklar bilan bog`liq va h.k.

Yuqorida sanab o`tilgan miqdorlarning ko`pchiligini barcha jinoyatlarga nisbatan qo`llash mumkin – ular fosh qilingan yoki qilinmaganidan qat`i nazar, qolganlarini esa faqat fosh qilingan jinoiy ishlar yoki aybdor shaxslarni aniqlashga qo`llash mumkin.

Jinoyatni fosh etish va ularni sodir etgan aybdor shaxslarni aniqlash – jinoyat sodir etishdagi obyektiv holatlar bo`yicha qilingan dastlabki xulosalarni yanada ravshanroq aniqlash hamda qonunbuzarlar va ularni jinoiy harakatlarga majbur qilgan sabablarning umumiy xarakteristikasi bilan tanishishga imkon beradi.

2. Statistika kartalarida jinoyat sodir qilgan shaxs bo`yicha 200 dan ortiq matn va kodlardan iborat shaxsning belgilari qayd qilinadi. Iste`mol qilinishini nazarda tutgan holda, kodlar, ma`lumotnomalar RF JK sining Maxsus qismida – 1500 ga yaqin belgi bor: familiya, ism-sharifi, tug`ilgan yili, jinsi, ma`lumoti, fuqaroligi, turar joyi va davlati, kelishdan maqsadi, ijtimoiy holati, moliyaviy ta`minoti, oilaviy holati, millati, jinoyat sodir etgan vaqtdagi holati (alkogolik, narkotik, toksik mast holati), surunkali alkogolik, narkotik va toksik mast kimsalar toifasiga aloqadorligi, aholining boshqa turli toifalariga aloqadorligi, jinoyat sodir etishdagi ishtirokchilarning turi va ishtirokining formalariga qarab taqsimlash, jinoyatni qayta sodir etishi, avval sudlanganligi, umumiy va maxsus retsidivligiga qarab taqsimlash va boshqalar.

Ko`pgina sabablar faqat jinoyatni sodir etishda ayblanayotgan yoki gumon qilinayotgan shaxslar bo`yicha to`plangan u yoki bu ma`lumotlar orqali aniqlanishi mumkin. 1996-yilda, masalan, aniqlangan tartibbuzarlar strukturasi 11,9 foizni voyaga yetmaganlar, 15,9 foizni ayollar, 48,1 % doimiy daromad manbaiga ega bo`lmaganlar, 22,1 % ni oldin jinoyat sodir etgan shaxslar, 28 % ni uyushib jinoyat sodir etgan paytda alkogolik mast holda bo`lgan shaxslar tashkil qilgan.

Mana ma`lumotlarning o`zigina o`rganayotganlarning e`tiborini yoshlarni oila va maktablarda tarbiya qilishda yo`l qo`yilayotgan nuqsonlarga, doimiy daromad manbaiga ega bo`lmagan shaxslarning kriminogen holatlariga, oldin jinoyat sodir etgan shaxslarning jamiyatda o`z o`rinlarini topishdagi qiyinchiliklari va uyushgan jinoyatchilikni, mastlikning kriminogen ta`siriga qaratadi. 1997-yilda yuqoridagi miqdorlar shu tartibda: 11.8%, 13.6%, 52.4%, 25.9% ni tashkil qildi. Yil davomida oldin jinoyat sodir etgan va sudlangan shaxslar hamda doimiy daromad



manbaiga ega bo'lmagan shaxslar tomonidan jinoyatchilikning ko'payishi – jinoyatchilikning ma'lum sabablari va yo'nalishlarini namoyon qiladi.

Xuddi shu ma'lumotlardan ko'rinadiki, jinoyat sodir etish aholining marginal qatlamlari orasida ko'payib bormoqda, garchi aslida jinoyat aholining turli qatlamlari, jumladan, siyosiy va boshqaruvchi elita tomonidan ham sodir etiladi, ro'yxatga olinadi va hokazo. Fosh qilinmagan yoki latent qilmishlarni sodir etgan shaxslarning xarakteristikasi yuqoridagi belgilarning umumiy soniga sezilarli darajada ta'sir etishi mumkin edi, lekin rasmiy statistikada bunday ma'lumotlar mavjud emas. Bu turdagi ma'lumotlarga faqat maxsus tashkil etilgan statistik kuzatishlar yordamida olish mumkin. Kishining shaxsini o'rganish kabi murakkab jarayonlarda statistikani qo'llashda olingan ma'lumotlarga o'ta tanqidiy munosabatda yondashish lozim bo'ladi va olingan ma'lumotlarni ishonchli ekanligini ta'minlash uchun boshqa turdagi ma'lumotlarga ega bo'lishga to'g'ri keladi. Barchaga ma'lumki, subyektning mast holda ekanligi – jiddiy kriminogen faktor. Fosh qilingan tartibbuzarlar va jinoyatlarning umumiy soni bo'yicha olib qaraganda bu holat 30 – 35% foizni tashkil qiladi. Bu holat mayda tartibbuzarliklarni sodir qilishda ancha yuqori miqdorga ega. 60-yillarda mayda tartibbuzarlik jinoyatchilikning 1/3 qismini tashkil etgan edi. Mast holda jinoyat sodir etish hollari har 10 ta sodir etilgan jinoyatning 6-9tasida namoyon bo'lardi. Bu faktor asosiy edi. Lekin bu faktorga boshqa tarafdin nazar solaylik.

Baza sifatida, ya'ni 100% uchun, mayda tartibbuzarlik sodir etgan shaxslar soni emas, balki spirtli ichimliklar iste'mol qiluvchi fuqarolarning umumiy sonini olamiz va ularning orasidan mayda tartibbuzarlar sonini chiqarib olamiz. 80 – yillarning boshlarida yiliga har 1000 ichuvchi kishi orasidan 2-4 kishi tartibbuzarliklar sodir etgan. Agar tartibbuzarlik holatlarini ichish holatlari soni bilan solishtirsak, chunki kriminogen omil (faktor) sifatida jinoyat sodir etish paytidagi mast holat nazarda tutiladi, biz shuni ko'ramizki, tartibbuzarlik ichuvchilar orasida kam bo'ladi. Shu ichuvchilar uchun eng kam spirtli ichimliklar iste'mol qilish oralig'i sifatida oyiga 1-2 marta yoki yiliga 12-24 marta olinadi.

Shunday yondashgan paytda, mastlik holati ko'p hollarda bevosita tartibbuzarlik yoki «mast» harakatlarni sodir etishga olib bormaydi. Aslida bu masala juda murakkab bo'lgani tufayli, kishining mastlik holati bilan o'zaro ta'sirda bo'luvchi biologik va psixologik xususiyatlarni o'rganmasdan turib, mastlikning kriminogen ta'sirini tushunish qiyin bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, bu omil kriminologiya uchun muhim bo'lib, uni boshqa holatlardan mustaqil ravishda hisobga olib bo'lmaydi. Lekin u

tartibbuzarlar strukturasi ancha keng ulushga ega va azaldan turli xalqlar va mintaqalar uchun turlicha bo`ladi.

Tartibbuzarlarning shaxsiy belgilarining umumiy miqdorini tartibga rioya etuvchi fuqarolarning xuddi shu belgilarining umumiy miqdori bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir. Jinoyatchilarning orasida erkaklarning ulushi 84-87% ni tashkil etganini qayd qilganimizda bu jinsning alohida kriminogen ekanligini davolash mumkin. Lekin 100 000 erkak va ayollar orasidan jinoyatchilarning jins bo`yicha koeffitsientni hisoblasak, erkaklarning kriminogen xususiyatlari yanada yaqqol namoyon bo`ladi. Bu bog`liqlik aniq bo`lib, dunyoning ko`pgina davlatlarida erkaklarning jinoiy faolligi ayollarga qaraganda 6-7-8 marta yuqoridir.

Xuddi shu gaplar doimiy daromad manbaiga ega bo`lmagan shaxslarning kriminogenliklariga ham tegishlidir. Ularning ulushi jinoyatchilar strukturasi ko`pchilikni tashkil etadi. Shu toifadagi fuqarolarning umumiy aholi strukturasi ulushi haqda aniq ma`lumotlarga binoan, u 15-20% ni tashkil etadi. Agar bu to`g`ri bo`lsa, ushbu tahlil etilayotgan omilning kriminogenligi yanada ravshandir. Tartibbuzarlarning shaxsi haqidagi u yoki bu ma`lumotlarning qiyosiy statistik tahlili juda jiddiy kriminologik muammolarni ko`rsatadi. 80 – yillarning oxirida voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikni tahlil etish paytida quyidagi ma`lumotlar yuzaga chiqdi. O`quvchilar orasida 1988-yilda har 278 o`quvchi tomonidan 1 ta jinoyat, kasb - hunar kollejlari o`quvchilari orasida har 77 o`quvchidan 1 jinoyat, ishlayotgan o`smirlarning 24 – 26 o`smir orasidan 1 ta jinoyat va o`qimaydigan hamda ishlamaydigan o`smirlar orasida 5 – 6 o`smirdan 1 ta jinoyat qayd etilgan. Bu shuni anglatadiki, jinoiy faollik o`qishdan va ishdan chetda qolgan o`smirlar orasida ishlaydigan o`smirlardan 4 –6 marta yuqori, kasb - hunar kollejlari o`quvchilaridan 10 – 15 marta yuqori hamda maktab o`quvchilaridan 40 –45 marta yuqoridir.

Voyaga yetmaganlarning turli toifalari o`rtasida kriminogenlik iyerarxiyasini bu holda tabiiy ravishda maktab, kasb - hunar kolleji, ishlab chiqarish korxonasi va ko`chalar o`rtasida ko`rsatib berdi. 90 – yillarda bu holat yanada jiddiy tusga kirdi. Lekin hozir bu masala yuzasidan faqat taxmin qilish mumkin, chunki to`liq va sistematik qaydnoma nafaqat hech qayerda o`qimaydigan va ishlamaydigan bolalar, balki ta`lim oladigan barcha toifadagi bolalarga nisbatan ham yuritilmagan. Bunday ma`lumotlarni faqat maxsus tashkil qilingan tanlab o`tkaziladigan tekshiruvlar yordamida olish mumkin. Xulosalarga kelish mumkin, ya`ni o`smirlar tartibbuzarligining o`sishi kelajakda kattalar o`rtasida jinoyatchilikning o`sishiga zamin yaratadi.

3. Jinoyat sodir etishning ehtimoliy sabablari va holatlari haqida o`ta muhim ma`lumotlar jinoiy harakatning motivlarida aks topadi. Dastlabki qayd etuvchi hujjatlarda o`z shaxsiy g`arazlari tufayli sodir qilingan jinoyatlarni ko`rsatadi, ya`ni narkotik moddalarni psixotrop va qattiq ta`sir qiluvchi moddalarni qo`lga kiritish maqsadida, prekursorlar, spirtli ichimliklar, pul, kreditni qo`lga kiritish maqsadida, qurol – yarog`, o`q – dori, portlovchi moddalar va moslamalar, gruz, transport vositani qo`lga kiritish uchun, sotish va foyda ko`rish, tartibbuzarlik, jinsiy va kundalik hayotidagi turtkilar sababi bilan (janjal, rashk qilish va boshqalar), ko`rolmaslik, nafrat, qasos tufayli (irqiy, milliy, diniy) shaxsiy daxldorligining boshqa formasi – ta`sir doirasini taqsimlash maqsadida, boshqa jinoyatlarni sodir etishni osonlashtirish yoki uni yashirish uchun foydani soliqdan asrash, yashirish uchun, inson organlarini transplantatsiya qilish uchun va boshqa ko`p belgilar.

Motivlarning ro`yxati haqiqatdan, uning sababi, birinchi navbatda, ularning mazmuni sud tajribasi va ilmda yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Yuqorida ko`rsatilgan ro`yxat so`zma – so`z jinoyatni sodir qilgan shaxslarni tergov qilish natijasiga ko`ra statistik kartochkalardan ko`chirilgan. Ularda tamagirlik niyatlar (kod 01), narkotik moddalarini egallash motivlari (kod 02), spirtli ichimliklar (kod 04), pul mablag`lari (kod 05), yuklarni har xil tashish yo`nalishida talon taroj qilish (kod 19,20,21), talonchilik bilan bog`liq bo`lgan hujjatlar motivi to`g`risida (kod 30), tovlamachilik (kod 31), banditizm (kod 32), o`tkazish motivida (kod 10), ishlab chiqarish turi (kod 11), ta`sir ko`rsatish sferasining bo`linishida (kod 20), daromadni yashirish (kod 22). Yuqoridagi ko`rsatilgan barcha motivlarni tamagirlik va g`araz niyatlar xarakterlaydi. Agarda statistik kartochkalarda g`araz niyatlarga nisbatan asosini beradigan bo`lsa, to`g`ri bo`lar edi. Afsuski, bu mavjud emas. Shu sababli jinoyatlarning motivi bo`yicha baza bilan ishlaganda tanqidiy yondashish kerak.

Shunga qaramasdan, kriminal motivatsiyani o`rganish, jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi obyektiv va subyektiv sabablarni chuqur o`rganishga yordam beradi hamda jinoyatlarni sodir etgan shaxsga baho berish va tushunishga, subyekt tomonidan sodir etilgan jinoyatni to`g`ri kvalifikatsiya qilishda, jazoni yakkalashtirish va jinoyatchilarga jazoni muqarrarligini aniqlashga yordam beradi. Jinoyatlikning motiv xarakteristikasi bilan shaxsni hamda jinoyatning obyektiv xarakterini birga ko`rish izlanuvchilarning jinoyatlar sabab va sharoitlarini ilk asoslarga yaqinlashtiradi. Shu ma`lumotlarga asoslanib biz, qanday jinoyatlar qayerda, nima uchun, kim tomonidan sodir etilayotganligini bilamiz.

Shunga o`xshash latent jinoyatlar ma'lumotlarini hisobot bo'yicha yetarli emasligi hamda ochilmagan jinoyatlar bo'yicha yetarli emasligi, mazkur holatlar bo'yicha jinoyatning kelib chiqish sabablarini to'liq hajmda o'rganishga imkoniyat beriladi. Ammo ochilgan jinoyatlar bo'yicha ma'lumot birmuncha jinoyatni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlar yaratmoqda. Yuqori turuvchi kriminal motivlarni kuzatish va ularning sabablari va jamiyatda jinoyatchilikning oldini olishda kriminologik siljishlar haqida ma'lumot bermoqda.

Qasddan odam o'ldirish jinoyatlarining dinamikasi motiviga ahamiyat bersak, 1956 yilda 87,5% bo'lgan.

Quyidagi motivlarga asosan sodir etilgan: rashk, janjal yoki boshqa maishiy sabablarga ko'ra – 52.8%, bezorilik niyatlari – 19.5, ona tomonidan chaqalog'ining o'ldirilishi – 7.5%, tovlamachilik va bosqinchilik – 6.3%, nomusga tegish – 1.4%. 1966 yilda shu miqdorlar quyidagicha bo'lib, 52,5q26,7q3,7q1,8q1,2h91,9%.

1991 yilga kelib, ularning kriminologik ahamiyati (91,9 dan 37,4% gacha) – 2,6 martaga kamaydi. Shu jumladan, rashk va boshqa maishiy harakatlar – 10 martaga, bolalar o'limi – 9 martaga, talonchilikdagi g'araz niyatlar – 9 martaga, nomusga tegishdagi seksual motivatsiya – 5 martaga kamaydi. Bo'lgan o'zgarishlar natijasida odam o'ldirish jinoyatining 3 tasidan 2tasi g'araz niyatlarda, raqobat tufayli, qasd, milliy va siyosiy masalalardir. 60-yillarning motiviga qaraganda, oxirgi yillardagi motivlarning kelib chiqish sabablari boshqacha. Bunda mamlakatdagi o'zgarishlar sabab bo'lmoqda.

4. Yuqoridagi miqdorlarni statistik hisobotlarda o'rganish alohida analitik ahamiyatga ega. Analiz qilinayotgan ko'rsatkichlar sabablarini aniqlash maqsadida ularning dinamikasiga murojaat qilsak, muhim yutuqlarga erishamiz. Aynan ularning dinamikasi, ya'ni salbiy va ijobiy jinoyatlar dinamikasi u yoki bu sistemaga, antikriminogen faktorlarni kiritishga ruxsat beradi. Ular orasida bir xil turdagi jinoyatlar hal bo'lishi mumkin. O'q – otar qurollarni talon-taroj qilish jinoyatlari bilan qo'llash bir-biriga bog'liq.

O't otuvchi qurollarning talon-taroj qilinishining ro'yxatdan o'tkazish bilan o't otuvchi qurollar bilan sodir etilgan jinoyatlarning hisobga olinishi o'rtasida to'g'ri korrelatsion qaramlik mavjud.

Tushuncha bo'lishi uchun taxminiy faraz asosida jadvalga raqamlarni joylab chiqamiz:

**Qurollarni talon – taroj qilish bilan ularni qo'llash jinoyatining bir – biriga bog'liqligi.**

Jinoyatlar ko'rinishlari	1991	1992	1993	1994	1995	1996	jami
Talon tarojlik:							
aniq miqdorlar	773	1138	1396	1352	1336	1130	7125
foizlari	100,0	147,2	180,6	174,9	172,8	146,2	-
Qurollangan jinoyatlar:							
aniq miqdorlar	4481	8873	19 154	18 059	12	9549	72
foizlari	100,1	198,0	427,4	403,0	160 271,4	213,1	276
Qurollangan jinoyatlarning qurollarni talon – taroj qilish jinoyatiga nistaban soni	5,8	7,8	13,7	13,4	9,1	8,5	10

O`q – otar qurollarini talon – taroj qilish jinoyati va ularni qo'llash jinoyati o`zaro bog'liq bo'lib, tajribaga asosan bir xilligi aniqlanmoqda. Ammo o`q – otar qurollarini talon – taroj qilish, keyingi jinoyatlarga tayyorgarlik ko'rishning boshlanishi bo'lib hisoblanadi. Lekin bu sodir etilgan og'ir va o'ta og'ir jinoyatlarni shu yerda o`q – otar qurollari bilan sodir etilgan deyishga asos bo'la olmaydi. Aholida qurollardan foydalanuvchilari ko'p.

1992 – 1995-yillar orasida qurollangan jinoyatlarning oldini olish borasida bir necha choralar amalga oshirildi. Bu esa aholining qurollangan qismi kamayishiga olib keldi. 80 – 90 yillar bu – AQShda kuzatilgan. AQShda qurol erkin sotiladi va sotib olinadi. Hisob bo'yicha har bir yashovchi (yosh boladan qariyagacha) uchun 1 ta stvol to'g'ri keladi.

Yer yuzasida o`q – otar qurollarning tarqatilishi muammosi xalqaro jamiyatni tashvishga soladi. BMTning 9 – kongressida o`q – otar qurollarining tarqatilish jinoyatini va qonun buzilishining oldini olish haqida muhokama qililib, maxsus rezolutsiya loyihasi qabul qilindi. Yuqorida ko'rsatilgan va o'rganilgan jinoyatlarning uzviy bog'liqligi, milliy va transmilliy kriminologik masalalarini keltirib chiqarishi mumkin.

5. Jinoyatlarni keltirib chiqaruvchi sabab va sharoitlarni statistik yo'l bilan aniqlashga qo'yilgan keyingi qadam, bu – kriminalistik statistika bilan ijtimoiy, iqtisodiy, demografik, madaniy, tibbiy, geografik, ma'naviy statistik ma'lumotlarni taqqoslashdir.

Mazkur holatga misol bo'lib, umumiy jinoyatchilik sonidan kelib chiqqan koeffitsienti bilan 100ming yoki 10ming aholini taqqoslaganda kelib chiqadi. Bu taqqoslash juda ko'p jinoyatchilikning obyektiv baho berish bilan bog'liq muammolarini yechishga yordam beradi, hududiy va

yillik taqqoslash analizi hamda u yoki bu kriminogen aholi guruhini aniqlashga yordam beradi. Shu kabi 1kv.km hududda sodir etilgan jinoyatlarni bir-biriga qo`shib statistik aniqlik kiritish mumkin, hududning hajmi bilan jinoyatchilik sodir etish hajmi analogik taqqoslanadi.

Jinoyatchilik sabablarini o`rganishning qimmatliroq ma`lumotlari jinoiy statistikaning jamiyat va davlatning – siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma`naviy va boshqa statistik xarakteristikasida namoyon bo`ladi. Bu ma`lumot Davlat statistika qo`mitasi to`plamida to`planadi va tarqaladi. Bunday holda statistik tahlil tartibli hisoblanadi va hayot faoliyatining turli sohalaridagi barcha tarmoqlarda statistik hisob – kitob va hisobot vujudga keltiriladi. Bunday tarmoqlar statistikasiga murojaat qilish tergovchidan uni qiziqtirayotgan hisob – kitob va hisobot bilan yetarlicha tanish bo`lishini talab qiladi.

**Demografik statistika** vaqt va makon bo`yicha taqsimlangan jinoyatchilik bilan ayollar va erkaklar, turli yoshdagi shaxslar, shahar va qishloq aholisi, aholi ishlab chiqarishining umumiy va xususiy miqdorlari, nikoh va ajralish, tug`ilish va o`shish, tabiiy va migratsion o`shish kabi barcha aholi sonining analogik taqsimlanishini solishtirish imkoniyatini yaratadi. Bularning hammasi jinoyatchilik sabablarini yoki uning asosiy tomonlarini o`rganishga to`g`ri aloqadordir.

Bu o`rganishlardagi asosiy rolni jinoyatchilik darajasining asosiy umumiy iqtisodiy miqdorlari bilan mamlakatning moddiy ishlab chiqarishi va turli xo`jalik shakllarining rivojlanishi bilan (shahar, tuman subyektlari) milliy yalpi mahsulot darajasi va tuzilishi bilan, illiy daromadga, mehnat ishlab – chiqarishi, iste`mol va to`planishi bilan, aholining ishlab chiqarishi va xizmat ko`rsatish tarmoqlari bo`yicha taqsimlanishi, tabiiy resurslar va atrof – muhit muhofazasi, ilmiy – texnik o`shish bilan, alkogol ichimliklarining ishlab chiqarilishi va oboroti bilan va hokazolar bilan o`zaro bog`liqligini bajaradi. Statistika va kriminologiya shunga o`xshash tahlil o`tkazishning boy tajribasiga egadir.

Qiziqarli ma`lumotlar masalan, 1990-yilgi BMTning 4-yig`ilishida jinoyatchilik tendensiyasining odam o`ldirish, odam resurslari rivojlanishining miqdorlari bilan o`zaro bog`liqligi keltiriladi. Bu ushbu miqdorlar o`zida milliy daromadni, uzoq hayot ko`rish va ta`lim olish darajalarini namoyon qiladi.

BMT tomonidan avvalroq o`rnatilgan tendensiyalar keltirilgan xalqaro statistik ma`lumotlarni tasdiqlaydi: zo`rluk va odam o`ldirish jinoyatlari darajasi qashshoq va rivojlanayotgan davlatlarda, rivojlangan va o`ziga to`q davlatlaridagiga qaraganda ancha balanddir, chunki yashash va hayot uchun kurash, inson hayoti qadr-qimmatini tushiradi. Yetarlicha ijtimoiy

ta'minlangan, rivojlangan davlatlarda g'araz niyatlarda qilingan jinoyatlar, asosan o'g'rilik jinoyatlari darajasi ancha yuqori hisoblanadi.

2 – jadval

**Odam o'ldirishning ba'zi miqdorlar bilan o'zaro aloqasi.**

	100ming aholi bo'yicha odam o'ldirish jinoyati darajasi
Odam resurslari rivojlanishi:	
past darajasi	20,59
o'rta darajasi	8,89
yuqori darajasi	4,58
Daromad:	
past darajasi	11,79
o'rta darajasi	10,48
yuqori darajasi	4,24
Davlatlar rivojlanishi:	
rivojlanayotgan	9,94
rivojlangan	4,52

Keltirilgan jadval odam o'ldirishning odam resurslarining past darajasi bilan, aholi daromadining o'rta va past darajasi bilan, mamlakatning tom ma'noda yetarlicha rivojlanmaganligi bilan sababiy bog'liqligini ochib beradi. Rivojlanish darajasi past bo'lgan davlatlarda odam o'ldirish koeffitsienti, rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan davlatlarga nisbatan 4,5 baravar kattadir.

**Ijtimoiy statistika** miqdorlari sistemasini shartli ravishda 4ta katta guruhga bo'lish mumkin.

1. *Jamoat va davlat qurilishi statistikasi*: davlatning iqtisodiy sistemasi, davlatning siyosiy sistemasi, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, jamiyatning tabaqalanishi, jamoat fikri va boshqa parametrlar;

2. *Shaxs, jamiyat, oila statistikasi*: shaxs va oila, mehnat kollektivi, ma'naviy hordiq, bo'sh vaqt va boshqa miqdorlar;

3. *Aholining hayot darajasi statistikasi*: sarf va daromad, mehnat sharoitlari, ijtimoiy yordam, moddiy ta'minot iste'moli va xizmat;

*Aholiga yordam ko'rsatish sohasidagi statistika*: savdo va maishiy xizmat, uy – joy masalalari va kommunal xizmat, transport va aloqa xizmati, sog'liqni saqlash va badan – tarbiya, hayot kechirishning muddati, ta'lim – tarbiya, ommaviy axborot va xizmat ko'rsatishning boshqa ko'plab agentlari.

Statistik va kriminologik adabiyotlarda jinoiy va ijtimoiy – iqtisodiy statistika asosida jinoiy hodisalar sabablarini o`rganish kabi ko`plab masalalar qadimdan beri va muvaffaqiyatli tarzda hal qilinib kelinmoqda.



#### **4-§. Huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini statistik tahlil qilish**

**Huquqni muhofaza qilish idoralariga:** prokuratura, Ichki ishlar idoralari, soliq departamenti, bojxona qo'mitasi, harbiy prokuratura va boshqalar kiradi. Ularning har biriga mamlakatdagi huquq-tartibotni ta'minlashda umumiy qoidalari va vazifalari mavjud bo'lishidan tashqari, har birida o'ziga xos yo'nalishi va shakllari mavjud. Shuning uchun huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini o'rganish bu juda mukammal va ko'p qirrali tizimni tashkil etadi. Shu borada biz faqatgina bir nechta yo'nalish bo'yicha statistik ta'minlanishini ko'rib chiqamiz.

1. Militsiya to'g'risidagi qonun O'zbekistonda shu kunga qadar qabul qilinmagan, lekin harakatdagi «Ichki ishlar idoralarida xizmat o'tash to'g'risida vaqtinchalik nizom») bo'yicha uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

-Fuqarolarning shaxsiy xavfsizligini ta'minlash;

-Huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish va ularga chek qo'yish;

-Jamoat tartibini saqlash va jamiyat xavfsizligini ta'minlash;

-Fuqarolar, mansabdor shaxslar, tashkilot va muassasalarga o'z qonuniy huquq va manfaatlarini amalga oshirishda yordam berish;

Militsiya majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldini olish va ularga chek qo'yish; ushbu jinoyatlarni sodir etilishiga sabab bo'lgan sharoit va vaziyatlarni aniqlab, o'z xizmat vakolatlari doirasida ushbu jinoyatlarning sodir etilishiga sabab bo'lgan sharoit va vaziyatlarni bartaraf etish yuzasidan choralar ko'rish;

- jinoyatlar, huquqbuzarliklar va tabiiy ofatlardan jabr ko'rgan, bundan tashqari hayoti xavf ostida va yordamga muhtoj qolgan holatda bo'lgan fuqarolarga yordam berish;

- jinoyat haqidagi xabarlar, ariza va shikoyatlarni, huquqbuzarliklar va boshqa, shaxs va jamiyat xavfsizligiga qaratilgan xavfliklar haqidagi xabarlarni ro'yxatga olib, qabul qilish, va o'z vaqtida qonuniy chora qo'rish;

- jinoyatlarni aniqlash va ochish;

- jinoyat ishlarini qo'zg'atish, tergov oldi va zaruriy tergov harakatlarini o'tkazish;

- jinoyat sodir etgan, sud va tergovdan bekinib yurgan jinoyatchilarni qidirish, jazoning ijro etilishidan bekingan shaxslarni, bedarak yo'qolgan va qonunda ko'rsatilgan boshqa vaziyatlar bo'yicha qidiralyotganlarni topish.

Mutlaqo ko'p holatlarda militsiyaning o'z huquq va majburiyatlarini bajarishdagi harakatlari bu yuridik, huquqiy maqom darajasiga ega bo'lgan holat hisoblanib, ular tomondan tuzilgan har qanday dalolatnomalar, ro'yxatga olish hujjatlari tegishli dastlabki statistik hisobotlar shakllarida o'z aksini topadi va har bir holat bo'yicha maxsus tayyorlangan varaqalar (statistik kartochkalar) to'ldirilib, **Ichki ishlar Boshqarmalarining Axborot Markazlariga mujassamlashtirish, hisobga qo'yish uchun yuboriladi.**

Shulardan faqat bir nechta statistik hisobotni ko'rib chiqamiz:

1) ichki ishlar idoralari uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to'g'risida;

2) ichki ishlar idoralari jinoyatlarni tergov qilish haqida;

3) jinoyatlarni ochishda ishlatilgan kuch va mablag'lar to'g'risida;

4) ichki ishlar idoralari tomonidan qasddan sodir etilgan jinoyatlarni aniqlash va fosh etish to'g'risida ;

5) iqtisodiy yo'nalish bo'yicha jinoyatlarni aniqlash va fosh etish to'g'risida ;

6) kriminal militsiya bo'limlari iqtisodiy yo'nalish bo'yicha jinoyatlarni aniqlash va fosh etish to'g'risida;

7) jinoyatlarni aniqlash va fosh etishda DAN xodimlarining hissasi to'g'risida;

8) surishtiruv idoralari faoliyati to'g'risida;

9) jinoyat sodir etgan, sud va tergovdan bekinib yurgan jinoyatchilarni qidirish, jazoning ijro etilishidan bekingan shaxslarni, bedarak yo'qolganlar, no'malum shaxslarni va shaxsi aniqlanmagan murdalarni shaxsini aniqlash to'g'risida;

10) ichki ishlar idoralari kuzdan kechirish xizmatining Avia transportdagi xavfsizlikni ta'minlash to'g'risida ;

11) militsiyaning maxsus otryadlarining ish faoliyati to'g'risida;

12) ichki ishlar idoralari tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olish to'g'risida ;

13) ichki ishlar idoralari tomonidan voyaga yetmaganlarning huquqbuzarliklarni oldini olish to'g'risida ;

14) voyaga yetmagan huquqbuzarlarni vaqtinchalik ushlab markazlari ish faoliyatlari to'g'risida ;

15) ichki ishlar idoralari tomonidan qamoqda saqlash bilan bog'liq bo'lmagan jazoga tayinlangan shaxslar bilan ishlash to'g'risida;

16) ekspert-kriminalistik bo'limlari ish faoliyati to'g'risida;

17) litsenziya-ruxsat berish ish faoliyati to'g'risida;

18) axborot markazlari ish faoliyati to'g'risida.

**- va hokazo.**

Ushbu ro'yxatni davom ettirsa bo'lar edi, lekin aytmqchi bo'lgan narsa bu Ichki ishlar idoralarida juda katta hajmda statistik ma'lumotlar yig'iladi, hattoki, ortiqcha ma'lumotlar ham mavjud bo'lishi mumkin. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish katta qiyinchiliklar tug'dirmaydi, chunki mavjud bo'lgan hisobot chegarasidan chiqmagan holda ko'rib chiqiladi.

Misol uchun militsiyaning maxsus otryadlari ish faoliyati to'g'risidagi hisobotlarida, quyidagilar ko'rsatiladi:

- OMON (otryad milisii osobogo naznacheniya)ning shaxsan o'zlari tomonidan yoki OMON bilan birgalikda militsiyaning jinoyat qidiruv xizmati, soliq va bojxona xodimlari tomonidan o'tkazilgan tadbirlar;

-tadbirlarga jalb qilingan shaxsiy tarkib soni;

-tadbir jarayonida ushlangan jinoyatchilarning soni, ulardan olingan o'q otar qurollar, giyohvandlik moddalar va boshqalar.

**Ushbu katta bo'lmagan statistik hisobotdan esa (boshqa hisobotlardagi ma'lumotlar bilan to'ldiriladigan bo'lsa) joylardagi jinoyatlar, huquqbuzarliklar va jamoat tartibini saqlash ahvolini aniqlashda, o'rganishda va yaxshilashda foydalansa bo'ladi.**

Ichki ishlar idoralari tomonidan voyaga yetmaganlar huquqbuzarliklarini oldini olish hisoboti, voyaga yetmagan huquqbuzarlarni vaqtinchalik ushlab markazlari ish faoliyatlari hisoboti, Ichki ishlar idoralari tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olish (profilaktika) hisobotlari va jinoyat sodir qilgan shaxslar to'g'risida hisobot, jumladan, voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir qilingan jinoyatlar, jinoyatlarning turi, jinoyatchilarning jinsi va yoshi bo'yicha statistik hisobotlar, boshqa jinoyat ko'rinishlari bilan birgalikda voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir qilinadigan jinoyatlar va jinoyatchilar to'g'risida to'liq ma'lumot beradi. **Shu yo'nalishdagi aniq statistik tahlil esa joylarda Ichki ishlar idoralari tomonidan voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir qilinadigan qonunbuzarlik holatlarining oldini olish bo'yicha o'tkaziladigan profilaktik ishlari samaradorligini oshiradi.**

Voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir qilinadigan qonunbuzarlik holatlarining oldini olish muassasalarida ro'yxatda turuvchi voyaga yetmagan shaxslarning 60 taga yaqin alohida belgilari ko'rsatilgan bo'ladi, jumladan, ro'yxatda turganlarning umumiy soni, yil davomida ularning xatti-harakatlari, yaxshi xulqi bilan ro'yxatdan o'chirilganlar hamda jinoyat sodir qilganlar yoki maxsus o'quv maskanlariga yuborilganlar va boshqalar. Yoshi, ma'lumoti, nima bilan shug'ullanishi, ota-onasi, boquvchisi to'g'risida ma'lumotlar; alohida Ichki ishlar idoralariga

qonunbuzarligi uchun olib kelingan voyaga yetmaganlar bo'yicha ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

Xuddi shunday, voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir qilinadigan qonunbuzarlik holatlarining oldini olish bo'yicha ishlovchi Ichki ishlar idoralari xodimlarida qonunbuzarlik sodir qilishi mumkin bo'lgan voyaga yetmagan, ro'yxatda turuvchi shaxslarga nisbatan amalga oshirilgan 40 taga yaqin har xil ta'sir choralari to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Jumladan, ular bilan profilaktik maxsus suhbatlar o'tkazish, ta'sir chorasini sifatida o'qish, yashash va ish joylariga tavsiyanomalar yuborish, holatlar bo'yicha dalolatnomalar tuzish, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan tuzilgan hujjatlarni sudga, voyaga yetmaganlar bilan ishlovchi komissiyalarga yuborish va hokozolar.

Hisobotda ayniqsa, jinoiy guruhlar tarkibiga kiruvchi voyaga yetmagan shaxslar bilan ishlashga alohida e'tibor beriladi.

O'tkazilayotgan profilaktik tadbirlar to'g'risida ushbu hisobotda hech narsa ko'rsatilmaydi.

Voyaga yetmagan qonunbuzarlarni jamiyatdan vaqtincha ajratib (izolatsiya) qo'yish markazlari ish natijalari hisoboti ham taxminan, shu hajmda ko'rib chiqiladi.

Voyaga yetmagan qonunbuzarlar bilan ishlovchi militsiya ishi tahlili natijasida shu sohada yuz bergan jinoyatchilikning o'sishi yoki pasayishi dinamikasini ko'rsa bo'ladi, ya'ni tahlil qilinayotgan hududda voyaga yetmagan qonunbuzarlar soni, shu hududdagi barcha voyaga yetmaganlar soni hamda ularning ota-onalarining borligi, ota-onalarining xulqi, o'rta, maxsus o'quv muassasalarida, bolalar uyida, internatlarda, qo'llab quvvatlashga va tarbiyasiga olgan idoralarda, ta'lim idoralari tarbiyaviy ishlarning qanday olib borilayotganligini tahlil qilganda bu sohadagi kamchiliklarni va yaxshi natijalarga erishish imkoniyatlarini aniqlash mumkin bo'ladi.

Yuqorida qayd qilingan misollardan shuni ko'rsa bo'ladi, **statistik holatlar tahlili** Ichki ishlar idoralari barcha sohalarining to'liq faoliyatini ochib beradi.

2. Militsiya faoliyatiga to'liq baho berishda asosiy kriteriy sifatida belgilanadigan vazifalar ham mavjud.

Bu esa shu hududdagi qayd qilingan jinoyatchilikning haqiqiy holatini va ularni fosh qilish darajasini ko'rsatadi. Qayd qilingan jinoyatchilikning haqiqiy holati hudud bo'yicha kriminal vaziyatning asosiy kompleks miqdori hisoblanadi. Bu esa Ichki ishlar idoralariidan quyidagi majburiyatlarni bajarishni talab qiladi:

-jinoyat to`g`risidagi xabarlarni, arizalarni va boshqa ma`lumotlarni qabul qilish va ro`yxatga olib qayd qilish;

-sodir qilingan jinoyatlarni ochish;

-jinoyat ishini qo`zg`atish, dastlabki surishtiruv va tergov ishlarini olib borish.

Jinoyatchilikka qarshi kurash va nazorat jinoyat to`g`risidagi xabarlarni, arizalarni va boshqa ma`lumotlarni qabul qilish va tekshirishdan boshlanadi. Natijalari bo`yicha jinoyat ishi qo`zgatiladi yoki dastlabki tekshiruv ishlari olib boriladi, agar holat tasdiqlansa, o`z navbatida jinoyat ishi qo`zg`atiladi, agar holat tasdiqlanmasa, jinoyat ishini qo`zg`atish bekor qilinadi.

Jinoyat to`g`risida olingan xabarlarni, arizalarni va boshqa ma`lumotlarni qabul qilish va ro`yxatga olib qayd qilish bu nomiga qilinadigan holat bo`lmasdan, balki Ichki ishlar foaliyatining asosiy mohiyatini belgilab beradi.

Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va militsiya foaliyatida jinoyat to`g`risida olingan xabar, ariza va boshqa ma`lumotlarni yashirmasdan qayd qilish asosiy masalalardan biri hisoblanadi.

Chunki bu masala xalq, millat va davlat xavfsizligini hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar manfaatini ifoda qiladi.

Xizmat qilinayotgan hududda jinoyatni yashirib, umumiy jinoyatchilik miqdorlarini falsifikatsiya qilish bu xizmatga va xalqqa xiyonat hisoblanadi, shunday holatlar aniqlanganda, aybdorlarga nisbatan keskin choralar ko`riladi.

3. Militsiyaning yana bir majburiyatlaridan biri **jinoyatlarni aniqlashdan** iboratdir. Davlatga, davlat va jamiyat mulklariga, insonlarning shaxsiga va sog`ligiga, iqtisodiyotga, ekologiyaga, korrupsiyalashgan, rezonans beradigan jinoyatlarga va boshqa jinoyatlarga qarshi qurashda jinoyatlarni aniqlash juda katta ahamiyatga egadir. Ushbu jinoyatlarning aniqlanganligi to`g`risidagi ma`lumotlar ham statistik hisobotlarda bevosita va bilvosita qayd qilinadi. Statistik kartochkalarda ushbu jinoyat qaysi xizmat va kim tomonidan aniqlanganligi, jinoyatning qachon, qayerda, kim tomonidan sodir qilinganligi, jinoyatning obyekt va sub`ektlari, jinoyatchining uslubi, quroli, ashyoviy dalillar, yetkazilgan va undirilgan zarar, jabrlanuvchilar ( yuridik va jismoniy shaxslar) va boshqa jinoiy holatni to`liq ifoda qiluvchi ma`lumotlar o`z aksini topadi.

4. Huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning yana bir asosiy ko`rsatgichlaridan biri bu **sodir qilingan jinoyatni fosh qilishdan** iborat.

Jinoyatning fosh qilinganligi to`g`risidagi ma`lumot tergov yakunlari bo`yicha to`ldiriladigan F.1.1 statistik kartochkada ko`rsatiladi.

Mavjud hisobotga ko`ra, fosh qilingan jinoyatlar soni yuzga ko`paytirilib, tergov qilinayotgan jinoyat ishi soniga bo`linadi va natijada aniq sodir qilingan jinoyatning ochilish foizi (%) aniqlanadi. Jumladan;

$$\% = \frac{\text{ochilish soni}}{\text{tergovdagi jinoyat ishi soni}} \cdot 100$$

Jinoyatlarni birlashtirilgan, yagona hisobga olish tizimi bo`yicha ko`rsatma talablariga ko`ra, quyidagi holatlarda jinoyat ochilgan yoki fosh qilingan deb hisoblanadi:

-jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan jinoyat ishi bo`yicha ayb e`lon qilgan, prokuror sanksiyasi bilan jinoyat ishi tasdiqlanib sudga ko`rib chiqish uchun yuborilganda;

-jamiyat uchun uncha xavfli bo`lmagan jinoyat sodir qilgan, lekin prokurorning roziligi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishdan ozod qilib, unga nisbatan jinoyat ishini qo`zg`atish bekor qilingan holda;

-jinoyat sodir qilgan shaxsga nisbatan to`plangan hujjatlar tergovga oshirilmasdan prokuror sanksiyasi bilan sudga ko`rib chiqish uchun yuborilganda;

- yangi yuzaga kelgan vaziyat bo`yicha, ya`ni aministiya chiqishi, jinoyat ishi bo`yicha belgilangan muddatning tugashi yoki jinoyatchining o`limi natijasida jinoyat ishi bekor qilinganda.

### **Quyidagi holatlarda jinoyat ochilmagan deb hisoblanadi:**

-aybdorning tergovdan, suddan qochib yurganda yoki noma`lum sabablarga ko`ra uning turar joyi aniqlanmaganda;

-jinoyat ishi bo`yicha aybdor deb topilgan shaxsning shaxsi aniqlanmaganda.

Xuddi shunday ochilmagan jinoyatlarga, jinoyat qayd qilingan va qo`zg`atilgan vaqtdan qat`i nazar statistik hisobotga olingandan keyin to`xtatilgan barcha jinoyatlar kiradi.

**Huquqni muhofaza qiluvchi idoralar foaliyatini o`rganishda tergov ishi tahlili alohida o`rinda turadi.**

Tergov tizimiga - Ichki ishlar idoralari, prokuratura, Milliy xavfsizlik xizmati, tergov boshqarmalari kiradi.

Yuqorida qayd qilingan tergov xizmati har bir jinoyat ishi natijalari bo`yicha statistik kartochkalar to`ldiradilar va tergov ishlari bo`yicha hisobot beradilar. Ushbu statistik kartochkalarda jinoyat ishining turlari bo`yicha, surishtiruv va tergov muddatlari, qo`shimcha tergov bo`yicha, gumondorni ushlab, jinoyatni bekor qilish, tugatish va boshqa ma`lumotlar ko`rsatiladi.

Tergov harakatlari faqat qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha va Jinoyat protsessual Kodeksi qonun qoidalariga amal qilgan holda amalga oshirilishi sababli ushbu miqdorlarni statistik hisobotlardan yashirishning hech iloji yo'q.

Axborot markazlarida mavjud bo'lgan ushbu statistik hisobotga qarab, taqqoslash va tahlil qilish natijasida shahar, tuman, viloyat va nihoyat, Respublika bo'yicha jinoyatlarning fosh qilinish darajasini va amalga oshirilgan tergov ishlari bo'yicha to'liq ma'lumotni olish mumkin bo'ladi.

6. Huquq masalalari bo'yicha kundalik statistikada **prokuror faoliyati tahlili** alohida o'rin tutadi. Prokuror faoliyati bo'yicha ham har oyda Axborot Markaziga hamda bevosita o'zining yuqori tashkilotiga davlat statistik hisoboti beriladi. Hisobotda prokuratura qonunida ko'rsatilgan prokurorning barcha vazifalari o'z aksini topadi. Quyidagi statistik hisobotlardagi holatlarga qarab prokurorning qonunlarning ijrosi ustidan qanday nazoratni amalga oshirayotganligiga baho berish mumkin bo'ladi.

-inson huquqlari va erkinligi buzilmayotganligi,

-huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning surishtiruv va tergov harakatlari qonun doirasida amal qilinishligi (jinoyat ishi qo'zg'atilishi asoslari, jinoyat ishining to'xtatilishi, bekor qilinishi, tergov va surishtiruv harakatlarining qonuniy olib borilishi, vaqtincha gumondorni ushlab va hibsga olish va hokazo)

- majburiy ravishda qamoqxona va vaqtincha saqlash xonalarida saqlanayotgan fuqarolarni qonunda belgilangan tartibda saqlanishi,

- prokurorning jinoiy, xo'jalik sudi va fuqoralik ishlarini sudlarda ko'rishda ishtiroki,

-prokurorning korxonalar, tashkilotlar, fuqarolardan kelgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishi,

-prokurorning matbuotda chiqishlari.

7. Huquqni muhofaza qilish idoralarning **ish faoliyati samaradorligini oshirish** masalalarida ham statistik hisobotlar tahlili katta ahamiyatga ega.

Bu esa sohalar bo'yicha muqaddam qilingan ishlarni tahlil qilganda, surishtiruv va tergov harakatlari amalga oshirilayotganda muqaddam shunday ishlarni tergov qilishdagi ijobiy natijalardan foydalanishi va hokazolarni ko'rish mumkin.

Xuddi shunday, huquqni muhofaza qilish idoralarda joriy qilingan bunday statistik hisobotning mavjudligi va holatlarning qayd qilinishi qilinadigan ishlarni rejalashtirishda, yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan kamchiliklarning takrorlanmasligida, tergov harakatlarini qisqa muddatlarda tugatishda va juda ko'p holatlarda samarali foyda beradi.

### **5-§. Sudlanganlikni statistik tahlil qilish**

Sud qarori bilan sudlanganlar, ya'ni jazo muddatini o'taganlar yoki jazodan qamalmasdan boshqa jazo choralarini qo'llash orqali ijro qilganlar statistik tahlili o'z ichiga **jinoyatchilik holati va uning o'sish yoki pasayish darajasini ( dinamikasini)** oladi.

Bu ma'lumotlarni biz tergovchi tomonidan ayb e'lon qilingandan va sud tomonidan jazo berilgandan keyin umumlashtirilib, to'ldiriladigan statistik kartochkalardan olamiz.

Sudlanganlarga nisbatan to'ldirilgan statistik kartochkalarda quyidagilar ko'rsatilgan bo'ladi;

-jazoga tortilgan ayblanuvchilar soni va ularga belgilangan jazo turlari,

- belgilangan jazoning o'ziga xosligi,-

- og'ir turdagi jinoyatlarga belgilangan jazo,

-sohalar bo'yicha sudlanganlar,

-voyaga yetmagan shaxslar tomonidan sodir qilingan jinoyatlar.

Ushbu statistik hisobotlarda sudlanganlar to'g'risida 10 mingdan ortiq har xil ma'lumotlar bo'lib, ular bo'yicha qilingan tahlil mamlakat, viloyatlar, shahar va tumanlar bo'yicha aniq holatni aks ettiradi. Sudlanganlar bo'yicha statistik hisobotlar boshqa hisobotlardan aniqligi va ishonchliligi bilan farq qiladi.

1. Sud qarori bilan jinoyat sodir qilganligi uchun sudlanib jazo tayinlanganlar hamda jazo muddatini o'tib kelganlar - sudlanganlar deyiladi.

Jinoiy javobgarlikka tortilganlik va jazo choralarini o'taganlik bo'yicha tuzilgan hisobotlarda 330 tadan ortiq huquqiy ahamiyatga molik bo'lgan farqlovchi ma'lumotlar mavjud bo'ladi. Xuddi dastlab jinoyatni qayd qilgan davrda ko'rsatilgandek, sudlanganlik guruhlariga, JK ning moddalariga va bandlariga ajratiladi. Jinoyatning to'liq moddalari va bandlari bilan ko'rsatiladi.

Masalan: jinoyat ikki qatorda aks ettirilgan, birinchisida

-oddiy jinoyat, ikkinchisida esa og'irlashtiriladigan holatlarda sodir etilgan jinoyat. Onaning o'z chaqalog'ini o'ldirishi, affekt holatida sodir etilgan jinoyat, ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan shaxsni ushlab turish zarur chegarasidan chetga chiqib odam o'ldirish, ehtiyotsizlik orqasidan odam o'ldirish, o'zini -o'zi o'ldirish darajasiga yetkazish va h.k.

Oxirida keltirilganlar o'zida bir-biriga to'g'ri kelmaydigan qasddan va ehtiyotsizlikdan qilingan harakatlarni birlashtirib, hisobdorlikni umumlashtiradi.



Kerakli ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining barcha viloyatlarida sudlangan shaxslarning statistik kartochkalari, ma'lumotlar bazasiga murojaat qilish bilan to'ldirish mumkin.

Tahlil qilinayotgan hisobot qatorning ikki yonida o'zida 100 ta belgini mujassam qilib, o'zida jinoyatchilikning turli ko'rinishlarini, uning og'irlik darajasi, ayb ko'rinishlari, sudlanganlar jinsini aks ettirib, ular grafalarda, jinoyat jazo va undan ozod etish choralari hamda ko'rinishlari ko'rsatiladi (o'lim jazosi, qamoq, jarima, yillar bo'yicha ozodlikdan mahrum qilish - axloq tuzatish ishlari, muayyan faoliyat bilan shug'ullanish yoki ma'lum mansabni egallashni cheklash, jarima, shartli sudlanganlik, amnistiya va boshqa asoslar bilan jazodan ozod qilish, oqlov, reabilitatsiya va boshqa asoslarda ishlarni tugatish, qo'shimcha jazolar va boshqalar).

2. Forma 11,12,13 shakllari hisoboti asosida ayblanuvchilarni o'rganish mumkin.

Ayblanuvchining tarkibi va jinoyat sodir bo'lgan joy to'g'risidagi hisobot hajm jihatidan kattadir. Uning ikkinchi jadvalida 4300tadan ortiq belgi kuzatiladi. U Forma 10 hisoboti asosida tuzilgan. 1-jadvalda (demografik belgilar) guruhleri, jinoyatning ko'rinishlari va tarkibi, yon qatorlarida berilgan bo'lib, turli belgilar bilan mos keladi. Shuningdek, ayblanuvchilarning shaxsini jinsi bo'yicha, yoshi bo'yicha, fuqaroligi bo'yicha, yashash joyi bo'yicha, maqomi bo'yicha (qochoqlar, majburiy ko'chmanchilar), ma'lumoti bo'yicha, mashg'ulot turi bo'yicha, mehnat layoqati (shuningdek, muayyan kasbga ega bo'lmagan mehnatga layoqatlilar), nafaqaxo'rlar va h.k. lar haqidagi ma'lumotlarni ham belgilar tarzida aks ettiriladi.

Ikkinchi jadvalda, (jinoyatning xarakteri, uning retsivligi va takroriyli) xuddi shunday guruhlar, harakat turlari va tarkibi, sodir etilgan joyi va bosqichi, ishtirokchilikda sodir etilayotgan jinoyatlarda jinoyatchilikning xarakteri, subyektning alkogolik yoki giyohvandlik mastligi, uning sudlanganlik soni, jinoyatning xarakteri (oldingi) muqaddam sudlanganligi bo'yicha, muqaddam sudlanganlik bo'yicha jazoni o'tashdan ozod qilish va jazoni yengilrog'i bilan almashtirish tartibi va h.k. xarakterlari bilan taalluqliligi kuzatiladi.

Sudlanganlar va ular tomonidan sodir etilgan harakatlar xarakteristikasining davomi xo'jalikning alohida sohalarida sudlanganlik to'g'risidagi hisobotda bo'ladi (F № 11 a), har xil sohaga taalluqli alohida turdagi jinoyatlar ( o'g'irlik, poraxo'rlik, tovlamachilik, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soxta tadbirkorlik, mehnat qoidalarini buzish, transport xavfsizligi va ekspluatatsiyasi va b.) va ba'zi turdagi subyektlarga (boshliqlar, mansabdor shaxslar va h.k.) taalluqlidir. Xo'jalik sohasining

ro'yxati amaliy mavjud bo'lgan hamma turdagi ishlab chiqaruvchilar, qishloq xo'jaliklari, transport, aloqa, qurilish, suv va o'rmon xo'jaliklari, moliya-kredit uyushmalari, turar-joy kommunal xo'jaligi, sog'liqni saqlash, madaniyat, ta'lim, jismoniy tarbiya va sport, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar ham kiradi.


Voyaga yetmaganlarni sodir qilgan jinoyatlari to'g'risida, ayblanuvchilar to'g'risida hisobot ko'pgina yuqorida ko'rsatilgan miqdorlarni, voyaga yetmagan ayblanuvchilar miqdorlari asosida to'ldirib boradi.

3. Asosiy amaliy va ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan mavjud sudlanganlik (sud orqali o'tgan), hisobga olingan jinoyatlar to'g'risidagi va sudlanganlar to'g'risidagi ma'lumotlar jinoyat sodir etgan maxsus shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birgalikda solishtiriladi. Misol uchun 1996-yilgi miqdorni olsak. 1996-yilgi qonunbuzarlar va sudlanganlarni xarakterlovchi belgilari

Shaxsiy belgilar	Huquqbuzarlar tizimidagi ulush, %	Ayblanuvchilar tizimidagi ulush, %	Huquqbuzarlar va ayblanuvchilar o'rtasidagi farq, %
Shaxslar soni (mutlaq miqdor) ulardan:	1 361 117	1 111 097	-250 020 yoki -18,4%
erkaklar	84,1	86,8	+2,7
ayollar	15,9	13,2	-2,7
14-29 yoshdagilar	49,7	50,5	+0,8
30 yosh va undan ko'p	50,3	49,5	-0,8
Guruhlar ichida	28,0	38,2	+10,2
Alkogol mastlik holatida	36,4	47,0	+10,6
Narkotik mastlik holatida	0,4	0,4	0,0

Ayrim qonunbuzarlar va sudlanganlar xarakterlovchi belgilarining qarama-qarshi qo'yilishi shuni ko'rsatadiki, ajratilgan qonunbuzarlarning tizimi 81,6 % ni tashkil qilib, erkaklar ayollarga nisbatan aybdorlikda ko'proq ayblanadi, 14-30 yoshdagi shaxslar katta yoshdagilarga nisbatan sudlanganlar tizimida ko'pchilikni tashkil etadi va ko'proq javobgarlikka tortiladilar; mastlik holatida va bir guruh shaxslar tomonidan sodir

qilinadigan jinoyatlar belgilangan huquqbuzarliklar o'rtasida 10 % ko'proqdir.



or bu ... x ... v ... m ...  
...  
chshfrouve ...  
...  
...  
...

## **6-§. Jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud faoliyatini statistik tahlil qilish imkoniyatlari**

Sudlarning faoliyati jinoyat, fuqarolik, ma'muriy, analitik ishlar va boshqalarning ko'rib chiqilishida namoyon bo'ladi.

1. Jinoyat ishlar bo'yicha sudlar faoliyati sudlov faoliyatining asosiy negizidir. Lekin bozor iqtisodiyotini rivojlantirish, fuqarolik huquqiy faoliyatni kattalashtirish va sudlarning ijtimoiy munosabatlarni takomillash-tirish borasida fuqarolik huquqiy va ma'muriy sud ishlab chiqarilishi, jinoyat huquqiy yo'nalishlar sud ishlarida asosiysi bo'lib qoladi.

Qayta qurish va reformalar paytlarida sudlar asosli tarzda "huquqni muhofaza qiluvchi organlar" umumiy tushunchadan chiqarib tashlangan. Shuningdek, uni jinoyatchilik bilan kurash muhitidan ham chiqarib tashlashga harakat qilishgan.

Sudlar jinoyat o'sishning oldini olishga javobgar emaslar, lekin jinoyat sudlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimida asosiy elementlardan hisoblanadi, ular tomonidan jinoyatchilarga chiqarilgan ayblov hukmlari, jinoyatchilikka qarshi kurashda, eng asosiy va yakunlovchi bosqichini o'zida aks ettiradi.

Sudning ayblov hukmlari va jinoiy jazolarda jinoyatchilikka qarshi kurashning qandaydir ma'noda jinoyatlarning oldini olish yuzasidan ahamiyati bor. Shuning uchun jinoyat ishlarini statistik miqdorlar asosida ko'rib o'rganish asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi.

Bu ish asosan:

- jinoyat ishlarini ko'ruvchi birinchi instansiya sudlari hisobotlarida (F № 1),

— qaror va hukmlar ijrosi bo'yicha sudlar faoliyatida (F № 4),

— jinoyat ishlarini kassatsion tartibda ko'rib chiquvchi sudlar faoliyatida (F № 6),

— jazolashni istisno qiluvchi kassatsion va nazorat tartibida ish ko'rish (F № 6 a),

— jinoiy ishlarning nazorat tartibida ko'rilishida o'z aksini topadi.

Jinoyat ishlarini ko'ruvchi birinchi instansiya sudlari hisobotlarida qatorning ikkala boshi jinoyat ishlari turli kategoriyalarining nomlanishi ko'rsatiladi (guruh bo'yicha, jinoyatlarning turli ko'rinishlari va alohida tarkiblari bo'yicha), shuningdek, bayonnoma tarzida kiritilgan voyaga yetmagan shaxslar ishlari, bitta sudya tomonidan, professional sudyalar va sudlar xay'atlari tomonidan ko'rilgan ishlar. Grafalarda jinoyat ishlarining hisobot davridagi faoliyati yoki keyingi hal qiluvlar ko'rsatiladi.

Ishlarni hal qilish mavjudligi bo'yicha ko'rib chiqilib (ayblov hukmining chiqarilishi, ishni tugatish, aqli norasolarga nisbatan majburlov

choralarini ko`rish), qo`shimcha tergovga yoki sudlovga yuboriladi. Keyin esa ish ko`rish muddatlarining buzilishi, sudlash, oqlangan shaxs soni qancha, majburlov choralari qo`llanilgan shaxslar sonining qanchaligi, shuningdek, xususiy ajrim va qarorlarning qanchaligi haqida so`z boradi.

Hisobot qismi bo`limlaridagi 1,5 oy, 3 va 6 oydan ko`p vaqtda ko`rib chiqilgan ishlar soni; jinoyat huquqiy kvalifikatsiya harakatlari o`zgargan ishlar; yaqin orada 2008-yil 1-yanvardan boshlab sud tomonidan hibsga olingan yoki hibsdan ozod etilgan shaxslar soni; hal qilingan ishlarning mavjudligini tahlil qilish, shuningdek, xususiy ajrim chiqarilish asoslari, ular bo`yicha qo`llanilgan choralar va boshqa muhim ma`lumotlar ko`rsatiladi.

Hisobotning navbatdagi bo`limlarida sudlanganlar tarkibi va jazo choralari, o`lim jazosini qo`llash, taqdimnomalarni ko`rish, ariza va shikoyatlar bilan birga 2008-yil 1-yanvardan boshlab hibsga olish shikoyatlari, qamoqda ushlab tutilgan muddatini uzaytirish to`g`risidagi taqdimnomalar ko`rsatib o`tiladi. Jinoyat ishlar bo`yicha sudlarning analitik faoliyati, umumiy sudlov amaliyotini o`tkazish va o`tkazilgan analiz xulosalari bo`yicha taqdimnomalarni chiqarish kabilar ham hisobotda ko`rsatib o`tiladi. Hisobotning umumiy informatsion hajmi 600 dan ortiq belgilardan iboratdir.

Sudlar faoliyatini o`rganishning statistik imkoniyatlari boshqa shakllar hisobiga kengaytirilgan bo`lishi mumkin. Hukm va qarorlarning ijrosi borasidagi sudlar hisobotida (F № 4) ijro varaqasi harakati ma`lumotlarini, ularni ijro turlari bo`yicha taqsimlashni, mulkning turli shakllariga nisbatan (davlat, mahalliy, ommaviy, xususiy, shaxsiy) moddiy zarar miqdorini, davoni qondirish va uning ijrosi ham keltiriladi.

Kassatsiya va nazorat tartibida ko`rilgan ishlar hisobotlariga murojaat qilish, jazolarni istisno qiluvchi hollarni hisobga olgan holda faqatgina jinoyat sudlarining faoliyatini, miqdor tomonlarini baholabgina qolmay, balki sudlov ish ko`rilishining sifatini ham baholashning imkoniyatlarini yaratadi.

Sudlarning faoliyatini baholashda qonuniy va asosli hukmlarni chiqarish yoki noqonuniy va asossiz hukmlarni chiqarish, sudyalarning faoliyati kvalifikatsiyasi, professional tayyorgarligi va hokozolarning sifatli munosabatlari asosiy o`rinni egallaydi.

Kassatsiya instansiyasi hisoboti (F № 6) o`zining asosiy jadvalida kassatsion tartibda qanoatlantirilgan shikoyat va protestlar xulosalarida jinoyatlarning ba`zi guruhlari va ko`rinishlari keltirilgan. Bu xulosalar birinchi instansiya sudlarning muhim xatosidir.

Hisobotda qabul qilingan qarorlar ko`rsatiladi:

1) bekor qilingan ayblov hukmi bo`yicha:

- qo`shimcha tergovga yuborish yoki jazoni yengillashtiruvchi holat ko`rinishida ishni sudga yuborish yoki boshqa asoslar bo`yicha;
- reabilitatsiya va boshqa asoslar bo`yicha ishni tugatish;
- ayblov hukmini qisman bekor qilish yoki ishni yengilroq aybga o`zgartirib, tugatish;

2) o`zgartirilgan ayblov hukmlari bo`yicha:

- faoliyat kvalifikatsiyasini kamaytirishsiz yoki jazo choralari kamaytirish bilan o`zgartirish
- avvalgi kvalifikatsion harakatlarni o`zgartirishsiz qoldirish bilan boshqa o`zgartirishlar kiritish;

3) birinchi instansiya sudlarining bekor qilingan oqlov hukmlari, shuningdek, bekor qilingan ajrim va farmonlari bo`yicha:

- reabilitatsiya qiluvchi ishlarning tugatilishi (ish qo`zg`atishni rad qilish ) to`g`risida;

- boshqa asoslar bo`yicha ishning tugatilishi (ish qo`zg`atishni rad etish) to`g`risida;

- aqli norasolarga nisbatan majburlov choralarning qo`llanilishi;

- ishni qo`shimcha tergovga yuborish to`g`risida.

Analogik pozitsiyalar nazorat tartibidagi jinoyat ishlarini ko`ruvchi sudlar hisobotida aks ettiriladi. (F № 8). Faqat bu xatolar: 1) birinchi instansiya sudlarining hukmlari, ajrimlari va qarorlari; 2) apellatsiya va kassatsiya sudining ajrimlari; 3) oliy, viloyat va ularga tenglashtirilgan nazorat qarorlari; 4) O`zbekiston Respublikasining Oliy sudi sud kollegiyasining nazorat qarorlari.

2. Sudlarning fuqarolik ishlarini ko`rib chiqishini statistik o`rganish asosan fuqarolik ishlarni birinchi instansiya sudida ko`rilishi hisobotlariga va sudlarning qarorlari va hal qiluv qarorlarining ijrosi ishlariga asoslanadi.

1) oila va nikoh munosabatlari: nikohni bekor qilish, voyaga yetmagan farzandlari bor bo`lgan, farzandsiz va katta yoshdagi farzandlariga ega bo`lgan, farzandlarning tarbiyasi uchun aliment undirish, ota-onalikni tan olish, ota-onalik huquqidan mahrum qilish; va oila-nikoh munosabatlari bilan bog`liq bo`lgan boshqa ishlar;

2) mehnat masalalari: ishga tiklash; mehnatga haq to`lash; ish tashlashni noqonuniy deb topish va yetkazilgan zararni undirish haqidagi mehnat munosabatlari;

3) boquvchisini yo`qotganligi va qaramog`iga olganlik to`g`risidagi davolar; mehnat majburiyatlarini bajarganligi bilan yo`l harakati

qoidalarini buzganligi uchun va transport halokati to'g'risidagi va boshqa asoslar bo'yicha;

4) ko'chirib yuborish haqida: ish joyi va yashash joyidan;

5) tabiat muhofazasi qonunchiligini buzganligi uchun zararni qoplash davolari, yerga nisbatan mulkchilik huquqi bo'yicha masalalar va yer bilan bog'liq boshqa masalalar;

6) masalalar, davlat, mahalla va jamoa tashkilotlaridan kelib chiqadigan nizolar; chet el fuqarolarining qo'shma korxonalari; xo'jalik ishtirokidagi, jamoa sherikchiligidagi nizolar;

7) aksionerlarning davlo arizalari: mulkni xatlashdan ozod qilish; huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar tomonidan noqonuniy xatti-harakatlari ustidan zararni undirish; huquq va manfaatlarni himoya qilish; qurbonlar reabilitatsiyasining siyosiy repressiyalari va boshqa davlo ishlari.

Ma'muriy-huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi aktlarni noqonuniy deb tan olish borasidagi tortishuvlar, o'zini-o'zi boshqarish mahalliy organlari bo'yicha tortishuvlar; mansabdorlarning noqonuniy xatti-harakatlari ustidan shikoyatlari; soliq qonunchiligining buzilishi; noqonuniy ma'muriy undirilishni joriy qilish; saylov qonunchiligining buzilishi; va ma'muriy munosabatlardan kelib chiquvchi boshqa davlo.

Asosiy ishlab chiqarish ishlariga: otalik faktini belgilash; yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash; muomala layoqatini cheklash; notarial harakatlar ustidan shikoyatlar va ularni bajarishni rad etish; fuqarolik holati dalolatnomalariga o'zgartirish kiritish va h.k/

Turli kategoriyalardagi fuqarolik, shuningdek, jinoyat harakatlarni kuzatish hisobot davrining oxirida ham, tugallanmagan ishlar ham hisobot davrida tushgan ishlardan boshlanadi. Hisobot davri davomidagi tugallangan ishlar soni, davoni qanoatlantirish yoki rad etish to'g'risidagi qarorlarni chiqarishni ko'rib chiqish soni bilan, tugallangan ishlar soni bilan, ko'rilmay qolgan davlo bilan boshqa sudlarga o'tkazilgan ishlar bilan belgilanadi. Hisobotda, shuningdek, ish ko'rish muddatlari, miqdori undiruvga qaratilgan summalar va davlat daromadiga to'langan davlat boji summalari bilan aks ettiriladi.

Hisobot fuqarolik ishlari bo'yicha analitik faoliyatni kuzatish bilan, umumiy sud amaliyotini o'tkazish soni bilan va taqdimnoma kiritish bilan tugallanadi.

Shuni kuzatish mumkinki, fuqarolik ishlari bo'yicha statistik ma'lumotlar hajmi jinoyat ishlariga qaraganda kamroq. Bir tarafdan, bu yetarlicha rivojlanmagan fuqarolik huquqiy statistika bilan, boshqa tomondan sudlarning faoliyatini kuzatish uchun zarur bo'lgan miqdorlar obyektiv kamligi bilan bog'liq.

Fuqarolik jamiyati keyingi bosqichi va aholining siyosiy iqtisodiy faolligi sezilarli darajada sud faoliyati doirasidagi fuqarolik huquqiy munosabatlarni kengaytirib, u statistik miqdorlar, ko`paytirish va aniqlashtirishga olib kelishi mumkin.

Hozirda amalda bo`lgan statistik asosda oila-nikoh, mehnat, uy-joy va boshqa ko`plab munosabatlarni muvaffaqiyatli o`rganish mumkin. Fuqarolik huquqiy nizolar dinamikasi va hududiy bo`yicha miqdorlarning turli tahlili fuqarolik huquqiy munosabatlarning u yoki bu doirasini ijobiy yoki salbiy tendensiyalarda ko`rsatish mumkin. Bu munosabatlarni chuqur o`rganish fuqarolik, fuqarolik protsessi, konstitutsiyaviy, moliyaviy, bank, mehnat, uy-joy, yer munosabatlarini, meros, tadbirkorlik, ma'muriy, jinoyat, jinoyat protsessi va boshqa huquq tarmoqlariga murojaat qilishni talab qiladi.

)



## STATISTIKA fanidan TEST SAVOLLARI

### 1. Statistika so`zi nimani anglatadi?

A) statistika so`zi “Statistika”- lotincha, s t a t u s – so`zidan olingan bo`lib, “a h v o l”, “h o l a t” degan mazmuni bildiradi. Shu so`z ildizidan s t a t o – “davlat”, s t a t i s t a - “davlat bilimdoni” degan so`zlar kelib chiqqan.

B) statistika so`zi s t a t o – “davlat”, s t a t i s t a - “davlat bilimdoni” degan mazmuni bildiradi, bu so`z lotincha s t a t u s – so`zidan olingan, “a h v o l”, “h o l a t” degan so`zlardan kelib chiqqan.

V) statistika so`zi “hisob kitob, qayd qilish” – so`zidan olingan bo`lib, “ to`g`ri hisobga olib borish ” degan mazmuni bildiradi. Shu so`z ildizidan s t a t o – “lavozim”, s t a t i s t a - “mansabdor shaxs” degan so`zlar kelib chiqqan.

### 2. Statistika fani nimani o`rgatadi?

A) statistika fani – jamiyatdagi geografik o`zgarishlarni, tabiatda yuz beradigan holatlarni matematik hisobga olishni o`rganuvchi fandir.

B) statistika - jamiyatdagi ijtimoiy ishlab chiqarishning miqdor miqdorlarini, ularning o`zgarishi va rivojlanishini o`rganuvchi, qayta ishlovchi, ommaviy ko`rinish-hodisotlarning miqdor hisobini olib boruvchi fandir.

D) statistika fani- buxgalteriya, matematik miqdorlarni, o`zaro hisob-kitoblarni, matematik hisob kitobni to`g`ri amalga oshirishni o`rgatuvchi fandir.

### 3. Statistika fan sifatida qachon vujudga keldi va qayerda o`qitila boshlagan?

A) “Statistika” atamasi XVI asrning ikkinchi yarmida davlatning o`zi, davlatlarni o`ziga xos xususiyatlari, ziyoratgohlari, faxrlansa bo`ladigan tomonlari haqida so`z yuritila boshlagan bir davrda shu munosabat bilan davlatlarni o`rganish chog`ida vujudga keldi. “Statistika” fan sifatida aynan shu davrda Fransiya universitetlarida o`qitila boshlandi.

B) “Statistika” atamasi XVII asrning ikkinchi yarmida davlatning o`zi, davlatlarni o`ziga xos xususiyatlari, ziyoratgohlari, faxrlansa bo`ladigan tomonlari haqida so`z yuritila boshlagan bir davrda shu munosabat bilan davlatlarni o`rganish chog`ida vujudga keldi. “Statistika” fan sifatida aynan shu davrda Angliya universitetlarida o`qitila boshlandi.

D) “Statistika” atamasi XVIII asrning ikkinchi yarmida davlatning o`zi, davlatlarning o`ziga xos xususiyatlari, ziyoratgohlari, faxrlansa

boʻladigan tomonlari haqida soʻz yuritila boshlagan bir davrda shu munosabat bilan davlatlarni oʻrganish chogʻida vujudga keldi. “Statistika” fan sifatida aynan shu davrda Germaniya universitetlarida oʻqitila boshlandi.

**4. Quyidagi qaysi fanlar statistik maʼlumotlarsiz, yaʼni jinoyatchilik haqidagi statistika yoinki huquqiy statistika maʼlumotlarsiz sarmahsul rivojlana olmaydi?**

A) kriminologiya, jinoyat huquqi, jinoyat-protsessual, penitensiar (jinoyat – ijroiya, lotincha - poenitentarius –jinoiy jazolarni ijro etish bilan bogʻliq mazmuni bildiradi), kriminalistika, maʼmuriy-huquq.

B) huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ekologiya, siyosatshunoslik.

D) xorijiy mamlakatlarning davlat va huquqi tarixi, sud meditsinasi, sud psixiatriyasi.

**5. Statistik kuzatuv olib borishning maqsadi nima?**

A) statistik kuzatuv olib borishning maqsadi davlat aholisining maʼlum bir qismini ish bilan taʼminlash.

B) statistik kuzatuv olib borishning maqsadi davlatdagi hisob-kitob ishlarini toʻgʻri yoʻlga qoʻyish.

D) statistik kuzatuv olib borishning maqsadi jamiyatdagi ommaviy koʻrinishlar, holatlar haqida aniq maʼlumotlar toʻplash.

**6. Hodisalarning zamondagi oʻzgarishining asosiy tendensiyasi statistik adabiyotlarda, ayniqsa, xorijiy adabiyotlarda nima deb nomlanadi?**

A) hodisalarning zamondagi oʻzgarishining asosiy tendensiyasi statistik adabiyotlarda, ayniqsa, xorijiy adabiyotlarda **frend** deb nomlanadi.

B) hodisalarning zamondagi oʻzgarishining asosiy tendensiyasi statistik adabiyotlarda, ayniqsa, xorijiy adabiyotlarda **grend** deb nomlanadi.

D) hodisalarning zamondagi oʻzgarishining asosiy tendensiyasi statistik adabiyotlarda, ayniqsa, xorijiy adabiyotlarda **trend** deb nomlanadi.

**7. Dinamik qatorlar qoida boʻyicha qanday koʻrinishda boʻladi?**

A) dinamik qatorlar, qoida boʻyicha xronologik jadval va grafiklar koʻrinishida boʻladi.

B) dinamik qatorlar, qoida boʻyicha matematik hisob va arifmetik shakl koʻrinishida boʻladi.

D) dinamik qatorlar, qoida bo'yicha aniq formula va teoremlar ko'rinishida bo'ladi.

### **8. Statistik to'plam deyilganda nima tushuniladi?**

A) statistik to'plam deyilganda sanoat, ishlab chiqarish yoki boshqa sohalardagi o'zaro hisob kitoblar yig'indisi tushuniladi.

B) statistik to'plam deyilganida hisob-kitoblar yig'indisining o'zaro taqqoslangan natijasi tushuniladi.

D) statistik to'plam deyilganda ma'lum bog'lanishdagi bir xil sifatga ega bo'lgan hodisalar, elementlar, birliklar, dalillar to'plami tushuniladi.

### **9. Sifat deyilganda nima tushuniladi?**

A) sifat deyilganida jismlarg tashqi qiyofasining aniqligi, uning shakllanish qonuni va qonuniyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan tub mohiyati tushuniladi.

B) sifat deyilganida hodisa ichki qiyofasining aniqligi, uning rivojlanish qonuni va qonuniyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan tub mohiyati tushuniladi.

D) sifat deyilganida ijtimoiy hodisaning ichki va tashqi ko'rinishining o'ziga xos xususiyatlari, uning paydo bo'lish qonuni va qonuniyatlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan tub mohiyati tushuniladi.

### **10. Miqdor deyilganida nima tushuniladi?**

A) miqdor deyilganida hodisaning u yoki bu xususiyati hamda belgisining yuzaga chiqish me'yori, soni va darajasida ifodalangan ichki qiyofasi, aniqligi tushuniladi.

B) miqdor deyilganida jismlarning u yoki bu xususiyati hamda belgisining yuzaga chiqish me'yori, soni va darajasida ifodalangan tashqi va ichki hisob-kitobining aniqligi tushuniladi.

D) miqdor deyilganida hodisaning u yoki bu xususiyati hamda belgisining yuzaga chiqish me'yori, soni va darajasida ifodalangan tashqi qiyofasi, aniqligi tushuniladi.

### **11. Moda nima ?**

A) toq sonlar bilan matematik hisob kitob qilish uslubi

B) juft sonlar bilan matematik hisob kitob qilish uslubi

D) to'plamda eng katta songa yoki salmoqqa ega bo'lgan miqdor.

### **12. O'rtacha miqdor nima?**

A) o'rtacha miqdor bir-biridan tafovutda bo'lgan alohida miqdorlarning o'rtachasidir.

B) o`rtacha miqdor bir-biridan tafovutda bo`lmagan miqdorlarning sifat darajasidir.

V) o`rtacha miqdor bir-biridan tafovutda bo`lgan va bo`lmagan bir xil va alohida bo`lgan miqdorlarning o`rtacha sifat darajasidir.

### **13. Mediana deyilganda nima tushuniladi?**

A) mediana deyilganda to`plamni aniq to`rt qismga bo`luvchi miqdor tushuniladi.

B) mediana deyilganda to`plamni teng uch qismga bo`luvchi miqdor tushuniladi.

D) mediana deyilganda to`plamni teng ikkiga bo`luvchi miqdor tushuniladi.

### **14. Moda va Mediana o`rtacha miqdor vazifasini bajara oladimi?**

A) bajara olmaydi

B) bajara oladi.

D) qisman bajaradi.

### **15. Statistika variatsiya nima degani?**

A) o`rtacha miqdorlarni hisoblashda arifmetik miqdorlar bilan geometrik miqdorlarning o`zaro uyg`unlashuvi statistika variatsiya deyiladi.

B) moda bilan Mediana o`rtasidagi miqdorlarning aniq sifat ko`rinishi statistika variatsiya deyiladi.

D) to`plam birliklari o`rtasidagi tafovut, farqlanish, o`zgaruvchanlik statistika variatsiya deyiladi.

### **16. Variatsion kenglik deyilganida nima tushuniladi?**

A) variatsion kenglik (R) deyilganida belgining eng katta va eng kichik darajalari o`rtasidagi farq tushuniladi.

B) variatsion kenglik (R) deyilganida Moda va Mediananing eng katta va eng kichik darajalari o`rtasidagi farq tushuniladi.

D) variatsion kenglik (R) deyilganida o`rtacha miqdorning eng katta va eng kichik darajalari o`rtasidagi nisbiy farq tushuniladi.

### **17. Dispersiya deb nimaga aytiladi?**

A) dispersiya lotincha "dispersio" so`zidan olingan bo`lib, tarqoqlik darajasini, ya`ni to`plamdagi kuzatilayotgan belgi birliklarning o`z o`rtachalaridan o`rtacha qanchalik tafovutda (tarqalishda) ekanligini tavsiflaydi. Shuning uchun ham dispersiya ( $\sigma^2$ ) tafovutning kvadrati deb ataladi.

B) dispersiya lotincha “dispersio” soʻzidan olingan boʻlib, arifmetik oʻrtacha miqdor darajasini, yaʼni toʻplamdagi kuzatilayotgan belgi birliklarning arifmetik miqdori qanchalik tavofutda(tarqalishda) ekanligini tavsiflaydi. Shuning uchun ham dispersiya ( $\sigma^2$ ) tafovutning kvadrati deb ataladi.

D) dispersiya lotincha “dispersio” soʻzidan olingan boʻlib,geometrik shakl darajasini, yaʼni toʻplamdagi kuzatilayotgan grafa shaklidagi miqdorlarni qanchalik tavofutda(tarqalishda) ekanligini tavsiflaydi. Shuning uchun ham dispersiya ( $\sigma^2$ ) tafovutning kvadrati deb ataladi.

### **18. Mutlaq (absolut) miqdor deb nima?**

A) mutlaq miqdorlar kuzatilayotgan miqdor birliklarini qoʻshish yoki ayirish yoʻli bilan aniqlanadi. Bir, ikki, uch, toʻrt va hokazo sanash yoʻli bilan hamda bevosita oʻlchash bilan, masalan, polizdagi mahsulotning miqdori, fabrikadagi ishlab chiqarilgan matoning hajmi oʻlchash yoʻli bilan aniqlanadi.

B) mutlaq miqdor har qanday uslubda hisob kitob qilinsa ham oʻzgarmas hisoblanadi. Asosan sifat darajasi yuqori miqdorlar mutlaq miqdor deyiladi.

D) sifat va son darajalarining arifmetik va geometrik shakllardagi yakuniy natijasi mutlaq miqdor deyiladi.

### **19. Yakka mutlaq miqdorlar nima?**

A) yakka mutlaq miqdorlar statistik kuzatish jarayonida olinib, yakuniy hisob va kuzatish hujjatlarida qayd qilinadi. Bunday miqdorlar kuzatilayotgan toʻplamning oʻrtacha darajasini alohida birlik sifatida tavsiflaydi va statistik tekshirish uchun manba boʻlib hisoblanadi.

B) yakka mutlaq miqdorlar statistik kuzatish jarayonida olinib, boshlangʻich hisob va kuzatish hujjatlarida qayd qilinadi. Bunday miqdorlar kuzatilayotgan toʻplamning alohida birliklarini tavsiflaydi va statistik tekshirish uchun manba boʻlib hisoblanadi.

D) yakka mutlaq miqdorlar statistik tahlil natijasida olinib, boshlangʻich va yakuniy hisob va kuzatish oʻrtasidagi kuzatish hujjatlarida qayd qilinadi. Bunday miqdorlar kuzatilayotgan toʻplamning oʻrtacha birliklarini tavsiflaydi va statistik tekshirish uchun manba boʻlib hisoblanadi.

### **20. Umumiy mutlaq miqdor nima?**

A) umumiy mutlaq miqdor deganda kuzatilayotgan toʻplamning har bir birligini emas, balki uning yigʻindisini taʼriflovchi miqdorlar

tushuniladi. Ular boshlang`ich statistik kuzatish materiallaridan svodkalash natijasida olinadi.

B) umumiy mutlaq miqdor deganda kuzatilayotgan to`planning har bir birligini emas, balki uning yig`indisini ta`riflovchi miqdorlar tushuniladi. Ular yakuniy statistik kuzatish materiallaridan tanlama usul natijasida olinadi.

D) umumiy mutlaq miqdor deganda kuzatilayotgan to`planning har bir birligini emas, balki uning dastlabki va yakuniy yig`indisini ta`riflovchi o`zgarmas miqdorlar tushuniladi. Ular boshlang`ich va yakuniy statistik kuzatish materiallarini taqqoslash yo`li bilan olinadi.

## **21. Svodkalash nima degani?**

A) svodkalash statistik kuzatish materiallaridan olingan ma'lumotlarni bir tizimga solish, qayta ishlash, guruhlashdir.

B) svodkalash statistik materiallar haqida yuqori turuvchi organlarga tegishli tartibda hisobot berishdir.

D) svodkalash statistik kuzatish materiallarining o`rtacha va nisbiy miqdorlarini hisoblab chiqishdir.

## **22. Oddiy svodkalash nima degani ?**

A) oddiy svodkalash deganda ma'lumotlarni mayda-mayda guruhlariga bo`lib, to`plam bo`yicha yakunlarni chiqarish tushuniladi. Masalan, institutda ta`lim olayotgan jami talabalarning sonini hisoblash uchun kunduzgi fakul'tetdagi talabalarning umumiy sonini avval kurslarga, keyin potoklarga, keyin guruhlariga qo`shib chiqishning o`zi kifoya. Shuni oddiy svodkalash deyiladi.

B) oddiy svodkalash deganda ma'lumotlarni guruhlariga bo`lmasdan to`plam bo`yicha yakunlarni chiqarish tushuniladi. Masalan, institutda ta`lim olayotgan jami talabalarning sonini hisoblash uchun kunduzgi, kechki va sirtqi fakul'tetlardagi talabalarning umumiy sonini qo`shib chiqishning o`zi kifoya. Shuni oddiy svodkalash deyiladi.

D) oddiy svodkalash deganda ma'lumotlarni sifat va miqdor darajalari bo`yicha turli guruhlariga bo`lib to`plam bo`yicha yakunlarni chiqarish tushuniladi. Masalan, institutda ta`lim olayotgan jami talabalarning sonini hisoblash uchun kunduzgi, kechki va sirtqi fakultetlardagi talabalarning umumiy sonini -- shundan qanchasi qiz bola, qanchasi o`g`il bola, qanchasi "4" bahoga o`qiydi, qanchasi "5" bahoga o`qiydi va hokazo sifat va miqdor darajalarini qo`shib chiqishning o`zi kifoya. Shuni oddiy svodkalash deyiladi.

### **23. Murakkab svodkalash nima?**

A) murakkab svodkalash deyilganda ma'lumotlarni dasturda ko`zda tutilgan belgilar asosida ayrim guruhlariga bo`lib o`rganish tushuniladi. Jami talabalarni kurslarga va mutaxassisliklarga bo`lib o`rganish bunga misol bo`la oladi.

B) murakkab svodkalash deyilganda ma'lumotlarni dasturda ko`zda tutilmagan belgilar asosida aralash guruhlariga bo`lib o`rganish tushuniladi. Jami talabalarni fakultet va kurslarga va mutaxassisliklarga bo`lmay o`rganish bunga misol bo`la oladi.

D) murakkab svodkalash deyilganda ma'lumotlarni dasturda ko`zda tutilgan belgilar asosida umumiy guruhlariga bo`lib o`rganish tushuniladi. Jami talabalarni kurslarga bo`lmasdan, aralash tarzda va mutaxassisliklarga bo`lmay o`rganish bunga misol bo`la oladi.

### **24. Keng ma'noda svodkalash nima?**

A) keng ma'noda svodkalash deyilganda to`plangan barcha yakuniy ma'lumotlarni ilmiy tekshirishda ko`zlangan maqsad va vazifalar nuqtai nazaridan qayta ishlanishi tushuniladi.

B) keng ma'noda svodkalash deyilganda to`plangan barcha boshlang`ich va yakuniy ma'lumotlarni ilmiy tekshirishda ko`zlangan maqsad va vazifalar nuqtai nazaridan ham kengroq tarzda detallashgan holda qayta ishlanishi tushuniladi.

D) keng ma'noda svodkalash deyilganda to`plangan barcha boshlang`ich ma'lumotlarni ilmiy tekshirishda ko`zlangan maqsad va vazifalar nuqtai nazaridan qayta ishlanishi tushuniladi.

### **25. Statistik guruhlash nima?**

A) statistik guruhlash deb statistik ma'lumotlarni boshlang`ich va yakuniy natijalariga qarab chuqur, har tomonlama o`rganish maqsadida eng umumiy belgilari bo`yicha umumiy guruh hamda guruhchalarga ajratib o`rganishga aytiladi.

B) statistik guruhlash deb ijtimoiy hodisa va jarayonlarni chuqur, har tomonlama o`rganish maqsadida eng muhim, xarakterli belgilar bo`yicha bir xil guruh hamda guruhchalarga ajratib o`rganishga aytiladi.

D) statistik guruhlash deb ijtimoiy hodisa va jarayonlarni chuqur, har tomonlama o`rganish maqsadida o`rtacha miqdor darajasidan kelib chiqib, eng o`rta darajadagi xarakterli belgilar bo`yicha yagona guruh hamda turli bir biriga o`xshash guruhchalarga ajratib o`rganishga aytiladi.

### **26. Guruhlash turlari qaysilar?**

A) matematik, geometrik, grafik jadvalli

- B) geometrik, sotsiologik, arifmetik
- V) tipologik, tuzilmaviy, analitik

### **27. Tipologik guruhlash nima?**

A) tipologik guruhlash yordamida to'plamning turli xildagi birliklari sifat jihatidan bir xil guruhlarga, bir xil tiplarga ajratiladi. Xalq xo'jaligini tarmoqlarga, aholini sinflarga bo'lib o'rganish misol bo'la oladi.

B) tipologik guruhlash yordamida to'plamning bir xildagi birliklari sifat jihatidan bir xil guruhlarga, bir xil tiplarga ajratiladi. Xalq xo'jaligini bir xil tarmoqlar, aholini bir xil sinflar bo'yicha o'rganish misol bo'la oladi.

D) tipologik guruhlash yordamida to'plamning bir xildagi birliklari sifat jihatidan turli xil guruhlarga, turli xil tiplarga ajratiladi. Xalq xo'jaligining bir tarmog'ini boshqaruv mazmuniga qarab turli tomonlarini o'rganish misol bo'la oladi.

### **28. Tuzilmaviy guruhlash nima?**

A) tuzilmaviy guruhlash yordamida turli tipdagi, sifat jihatidan turli xil bo'lgan guruhlarining (birliklarning) salmog'i hisoblanadi va shu tariqa to'plam tarkibi o'rganiladi. Bunday guruhlash yordamida aholining turli millat, turli jins va hokazo tarkibi, ishchilar turli kasbiy tarkibi yoki tuzilmasi kabilar o'rganiladi.

B) tuzilmaviy guruhlash yordamida bir xil tipdagi, sifat jihatidan bir xil bo'lgan guruhlarining (birliklarning) salmog'i hisoblanadi va shu tariqa to'plam tarkibi o'rganiladi. Bunday guruhlash yordamida aholining milliy, jinsiy va hokazo tarkibi, ishchilar kasbiy tarkibi yoki tuzilmasi kabilar o'rganiladi.

D) tuzilmaviy guruhlash yordamida turli xil tipdagi, sifat jihatidan bir xil bo'lgan guruhlarining (birliklarning) salmog'i hisoblanadi va shu tariqa to'plam tarkibi o'rganiladi. Bunday guruhlash yordamida aholi turli tabaqalarining turmush darajasi aynan bir tuzilmadagi holati kabilar o'rganiladi.

### **29. Statistik analiz tushunchasi nima?**

A) **analiz** (tahlil) – (yunoncha analysis – qismlarga ajratish) keng ma'noda narsa, hodisa, jarayonni, keyinchalik alohida holda, boshqa ajratilgan butun qismlar bilan yangi bilimlarga ega bo'lish yoki mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirish maqsadida tarkibiy elementlarga, xossalar va munosabatlarga, xususiyatlarga ajratish, qismlarga bo'lishni bildiradi.

B) **analiz** (tahlil) – (yunoncha analysis – tekshirish, na'muna olish) keng ma'noda narsa, hodisa, jarayonni, keyinchalik alohida holda, boshqa



ajratilgan butun qismlar bilan yangi bilimlarga ega bo'lish yoki mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirish maqsadida tarkibiy elementlarga, xossalar va munosabatlarga, xususiyatlarga bo'lib, namuna olish, tekshirishni bildiradi.

D) **analiz** (tahlil) – (yunoncha analysis – umumlashtirish) keng ma'noda narsa, hodisa, jarayonni, keyinchalik alohida holda, boshqa ajratilgan butun qismlar bilan yangi bilimlarga ega bo'lish yoki mavjud ma'lumotlarni tizimlashtirish maqsadida tarkibiy elementlarni, xossalar va munosabatlarni, xususiyatlaridan qat'i nazar umumlashtirishni bildiradi.

### **30. Demografik statistikaning ahamiyati nimadan iborat?**

A) **demografik statistika** qonunlar qo'llanishining adolatliligi, qonuniyligi va asoslanganligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Qonunlarning liberalizatsiya qilinishi va demokratlashtirilishida muhim rol o'ynaydi. Qabul qilinayotgan amnistiya Farmonlari vaqtida va qonuniy ravishda qo'llanilayotganligini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi.

B) **demografik statistika** vaqt va makon bo'yicha taqsimlangan jinoyatchilik bilan ayollar va erkaklar, turli yoshdagi shaxslar, shahar va qishloq aholisi, aholi ishlab chiqarishining umumiy va xususiy miqdorlari, nikoh va ajralish, tug'ilish va o'sish, tabiiy va migratsion o'sish kabi barcha aholi sonining analogik taqsimlanishini solishtirish imkoniyatini yaratadi.

D) **demografik statistika** huquqiy statistikada alohida o'rin tutib, voyaga yetmaganlarning sodir etgan jinoyatlari va ularga nisbatan qo'llanilayotgan jazolarning adolatliligini nazorat qilish uchun, voyaga yetmaganlar o'rtasidagi jinoyatlarni o'sish dinamikasini aniq kuzatib turish uchun xizmat qiladi.

### **31. Ijtimoiy statistika miqdorlarini shartli ravishda nechtaga bo'lish mumkin va ular qaysilar?**

A) **ijtimoiy statistika** miqdorlari sistemasini shartli ravishda 4ta katta guruhga bo'lish mumkin.

-*Jamoat va davlat qurilishi statistikasi*: davlatning iqtisodiy sistemasi, davlatning siyosiy sistemasi, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, jamiyatning tabaqalanishi, jamoat fikri va boshqa parametrlar;

-*Shaxs, jamiyat, oila statistikasi*: shaxs va oila, mehnat kollektivi, ma'naviy hordiq, bo'sh vaqt va boshqa miqdorlar;

-*Aholining hayot darajasi statistikasi*: sarf va daromad, mehnat sharoitlari, ijtimoiy yordam, moddiy ta'minot iste'moli va xizmat;

-*Aholiga yordam ko'rsatish sohasidagi statistika*: savdo va maishiy xizmat, uy-joy masalalari va kommunal xizmat, transport va aloqa xizmati

sogʻliqni saqlash va badantarbiya, hayot kechirishning muddati, taʼlim-tarbiya, ommaviy axborot va xizmat koʻrsatishning boshqa koʻplab agentlari.

B) **Ijtimoiy statistika** miqdorlari sistemasini shartli ravishda 5 ta katta guruhga boʻlish mumkin.

- *Davlat qurilishi statistikasi*: davlatning iqtisodiy sistemasini, davlatning siyosiy sistemasini, jamiyatning tabaqalanishi, jamoat fikri va boshqa parametrlar;

- *Shaxs, jamiyat, oila statistikasi*: shaxs va oila, mehnat kollektivi, maʼnaviy hordiq, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, boʻsh vaqt va boshqa miqdorlar;

- *Aholining hayot darajasi statistikasi*: sarf va daromad, mehnat sharoitlari, ijtimoiy yordam, moddiy taʼminot isteʼmoli va xizmat;

- *Aholiga yordam koʻrsatish sohasidagi statistika*: savdo va maishiy xizmat, uy-joy masalalari va kommunal xizmat, transport va aloqa xizmati, sogʻliqni saqlash va badantarbiya, hayot kechirishning muddati, taʼlim-tarbiya, ommaviy axborot va xizmat koʻrsatishning boshqa koʻplab agentlari.

- *Huquqiy statistika* jamiyatda sodir boʻlayotgan barcha huquqbuzarliklarni, maʼmuriy, intizomiy va jinoiy javobgarlik miqdorlarini va ularga nisbatan qoʻllanilayotgan jazo turlarining miqdorlari.

D) **Ijtimoiy statistika** miqdorlari sistemasini shartli ravishda 7 ta katta guruhga boʻlish mumkin.

- *Jamoat va davlat qurilishi statistikasi*: davlatning iqtisodiy sistemasini, davlatning siyosiy sistemasini, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, jamiyatning tabaqalanishi, jamoat fikri va boshqa parametrlar;

- *Shaxs, jamiyat, oila statistikasi*: shaxs va oila, mehnat kollektivi, maʼnaviy hordiq, boʻsh vaqt va boshqa miqdorlar;

- *Aholining turmush darajasi statistikasi*: sarf va daromad, mehnat sharoitlar, ijtimoiy yordam, moddiy taʼminot isteʼmoli va xizmat;

- *Aholiga xizmat koʻrsatish sohasidagi statistika*: savdo va maishiy xizmat, uy-joy masalalari va kommunal xizmat, transport va aloqa xizmati, sogʻliqni saqlash va badantarbiya, hayot kechirishning muddati, taʼlim-tarbiya, ommaviy axborot va xizmat koʻrsatishning boshqa koʻplab agentlari.

- *Huquqiy statistika* jamiyatda sodir boʻlayotgan barcha huquqbuzarliklarni, maʼmuriy, intizomiy va jinoiy javobgarlik miqdorlarini va ularga nisbatan qoʻllanilayotgan jazo turlarining miqdorlari.

• *Tadbirkorlik natijalari statistikasi* jamiyatda qancha miqdorda tadbirkorlik subyektlari borligi, paydo bo'layotganligi va berkitilayotganligi, ularning jamiyat uchun foyda va zararlari haqidagi miqdorlar.

**32. Nosidirg`a kuzatuv turlari qaysilar?**

A) nosidirga kuzatuv: A) monografik; B) asosiy massivni o`rganish; D) anketali yoki ijtimoiy; C) tanlanma.

B) nosidirga kuzatuv: A) tipologik; B) Arifmetik; D) Geometrik  
C) Demografik

D) nosidirga kuzatuv: A) Sotsiologik; B) Geografik; D) Aralash  
C) Grafikli.

**33. Statistik Kuzatuvning turlari va usullari, SK ni turlarga bo`lish mezonlari qaysilar?**

A) 1) alohida toifaga bo`lib kuzatish; 2) tanlama uslubida kuzatish

B) yig`indi birliklarini qamrab olishining to`liqligi; 2) faktlarning vaqtida hisobini yuritish uzluksizligi.

D) kuzatuv materiallarining boshlang`ich natijalariga qarab; 2) kuzatuv materiallarining yakuniy natijalariga qarab.

**34. Statistik axborot yig`ishning tashkil etish shakllari qaysilar?**

A) 1) yuridik muassasalarda funksional faoliyat sifatida tashkil etiladigan rasmiy hisob va hisobotlar;

2) mamlakat, hudud, muassasa, ayni usha yuridik idorada o`tkaziladigan maxsus tashkil etilgan statistik tekshiruv.

B) 1) Statistika muassasalarida funksional faoliyat sifatida tashkil etiladigan rasmiy hisob va hisobotlar;

2) har bir korxonaning o`z ish faoliyati yuzasidan olib boradigan tahliliy kuzatuvni yuzasidan tashkil etilgan statistik tekshiruv.

D) 1) huquqni muhofaza qiluvchi organlardan IIB va MXX da funksional faoliyat sifatida tashkil etiladigan rasmiy hisob va hisobotlar;

2) jinoyatlarni qayd qilish, hisob olib borish yuzasidan tashkil etilgan axborot markazlaridagi hisobotlar.

**35. Variatsion qator tushunchasi nima?**

A) variatsion qator biror hodisada miqdor alomati o`zgarishini ko`rsatadi.

B) variatsion qator o`rtacha miqdor va mutlaq miqdorning o`zgarishini ko`rsatadi.

D) variatsion qator biror hodisada sifat alomati o`zgarishini ko`rsatadi.

### **36. Tanlama kuzatish nima degani?**

A) tanlama kuzatish deyilganida statistikada o`rganilishi lozim bo`lgan to`plamdan boshlang`ich va yakuniy miqdor o`rtasidagi birliklarning maxsus usullar bilan tanlab olinishi va ularning bir to`plamga ajratib chiqilishi tushuniladi.

B) tanlama kuzatish deyilganida statistikada o`rganilishi lozim bo`lgan to`plamdan yakuniy miqdordagi birliklarning ba`zi birlari tegishli usullar bilan tanlab olinishi va ularning yagona to`plamga tartib bilan kiritilishi tushuniladi.

D) tanlama kuzatish deyilganida statistikada o`rganilishi lozim bo`lgan to`plamdan zaruriy miqdordagi birliklarning maxsus usullar bilan tanlab olinishi va ularning butun( bosh) to`plamga tarqatilishi tushuniladi.

Test savollarini tuzuvchi TDYI “Huquqni muhofaza qiluvchi organlar” kafedrası o`qituvchisi, yuridik fanlari nomzodi Obidjon Meliqo`ziyevich Madaliyev.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. O`zbekistonda demokratik o`zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo`nalishlari / Xalq so`zi. 2002., 30 avg.
2. Karimov I.A. O`zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O`zbekiston. 1998. –126 b.
3. Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: O`zbekiston. 1997. 94 b.
4. Kokren U. Tanlama izlanishlar uslublari. M., 1997 (ingliz tilidan tarjima.)
5. Shvars G. Tanlama uslub. M., 1978 (nemis tilidan tarjima)
6. Suslov I. P. Amaliy miqdorlar ishonchliligining nazariy asoslari. Novosibirsk, 1978.
7. Luneyev V. V. Kriminologiyada tanlama uslub. M., 1986.
8. Slovar inostrannix slov.M., Russkiy yazik., 1989. S.481.
9. Y. Abdullayev. Statistika nazariyasi. T.: Mehnat.,2000, -B.8.
10. Kimbal G. Kak pravilno polzovatsya statistikoy. M., 1982. S.15.
11. Savyuk L.K. Pravovaya statistika. M., YURIST, 1999. S.15,17-18.
12. Zanimatelnaya statistika / Pod red. Baklanova G.I., Kil`disheva G.S., M., 1980. S.10.
13. Shodiyev X.A., Y. Abdullayev, Z. Toshmatov va boshqalar. Sud statistikasi. Darslik. T.: Toshkent Moliya instituti. 2004. –B.9-10.
14. Abdullayev Y. Statistika nazariyasi. 100 savol va javob. T.: Mehnat.,2000, -B.8-9.
15. Shodiyev X.A., Y. Abdullayev, Z. Toshmatov va boshqalar. Sud statistikasi. Darslik. T.: Toshkent Moliya instituti. 2004. –B.9-14.
16. Savyuk L.K. Pravovaya statistika. M., YURIST'., 1999. S.18.
17. Qodirov R.X. Mustaqillik, qonun va prokuratura. // Qonun himoyasida, 2002. №8. -B. 5.
18. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz –jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. O`z.Res.O.M. Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma`ruza. Toshkent Oqshomi. 31.01.2005. № 20.
19. Abdullayev Y. Statistika nazariyasi.100 savol va javob. T.: Mehnat.,2000, -B.11.
20. Qodirov R.X. Konstitutsiya va qonunlar ustunligi-taraqqiyot kafolati. \ Qonun himoyasida. T.: 12(108) 2004.-B.1-4.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI**

**Tasdiqlayman  
O'quv ishlari bo'yicha  
prorektor  
R.A.Zufarov**

---

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2006-yil

**"SUD STATISTIKASI"**  
fanidan

**ISHCHI O'QUV DASTURI**

**5380100 – "Yurisprudensiya"**  
ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

**Toshkent – 2008**

**Tuzuvchilar:** Madaliyev Obidjon Melikuziyevich – y.f.n.  
Temirov Rashid Kuchkarovich – katta o`qituvchi.  
Achilov Samariddin Mardiyevich – o`qituvchi.

**Taqrizchilar:** Xakberdiyeva Ra'no Toshevna – y.f.n., dotsent Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Universiteti «Jinoyat huquqi va protsessi» kafedrasini mudiri  
Abdullayev Y. – i.f.d., professor Toshkent Moliya instituti prorektori

**Dastur Toshkent davlat yuridik instituti**

---

Ilmiy Kengashida ko`rib chiqilgan va tavsiya qilingan

---

« \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2006-y. № \_\_\_\_ - sonli majlis bayoni

## KIRISH

«Sud statistikasi» o`quv fanida talabalar statistika fanining umumiy asoslari va huquqiy hodisalarni statistik tadqiqot qilish haqida bilimlarga ega bo`ladilar. «Sud statistikasi» fanini o`qitish va o`rganish statistika ilmining umumiy asoslarini o`rganish; huquqiy hodisalar yuzasidan statistik tadqiqotlar o`tkazish; huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlar yig`ishni tashkillashtirish usullari, tamoyillari va ular ustidan huquq tartibot organlari faoliyatida nazoratning olib borilishi; statistik kuzativ natijalarini qayta ishlash usullari va tamoyillari; umumlashtiruvchi ko`rsatkichlar–mutlaq statistik kattaliklarning mohiyati; o`zgaruvchanlik, dinamika va o`zaro bog`liqlik ko`rsatkichlari; statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asoslari haqidagi bilimlarga ega bo`lishga qaratilgan.

“Sud statistikasi” fani ta`lim olayotgan talabalarda statistik hisobotni yuritish yordamida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi va uni bartaraf etishni amalga oshiruvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan chuqur hurmatni uyg`otishdan iborat.

“Sud statistikasi” fanining maqsadi talabalarda sud statistikasi nazariyasi, huquqiy hodisa va jarayonlar, ommaviy ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarni yig`ish va qayta ishlash tartibi, statistika ishini amaliy tashkil etish haqidagi aniq tasavvurlarni shakllantirish, ularni statistik materiallarni tahlil etish uchun amaliy va nazariy bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

“Sud statistikasi” fanining vazifalari quyidagilardan iborat: fanning asosiy nazariy holatlarini mustahkamlashga imkoniyat yaratish; talabalarda huquqiy hodisalarni yoppasiga va qisman kuzatishni o`tkazish va tashkillashtirish; statistik jadvallar tuzish; ko`rsatkichlarni hisoblash; huquqbuzarliklar haqidagi ma'lumotlar, ular ustidan ijtimoiy nazorat o`tkazishni tahlil qilish va tahlil natijasidan kelib chiqib xulosa va takliflar berish bo`yicha amaliy ko`nikmalar hosil qilish.

Ushbu fan huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ma`muriy huquq, fuqarolik protsessi, jinoyat protsessi, prokuror nazorati, soliq huquqi, huquq falsafasi kabi yuridik fanlar bilan o`zaro bog`liq.

Fanni o`rganish ta`lim berishning an`anaviy va ilg`or usullaridan foydalanish bilan amalga oshiriladi: ekspress-so`rovlar, test so`rovlari, dasturiy o`qitish, davra suhbatlarini o`tkazish, kollokvium o`tkazish, muammoli ta`lim, ta`lim berishda texnik vositalaridan foydalanish, klinik ta`lim va boshqa interaktiv ta`lim usullari (yechimlar daraxti, ishbilarmon o`yini, debatlar va h.k.).



## **Sud statistikasining umumiy tushunchasi va tarixi. Sud statistikasining predmeti va usullari**

Statistika atamasi tushunchasi. Statistikaning paydo bo`lishi va rivojlanish tarixi. Sud statistika fanining predmeti, o`rganish obyektlari. I.A. Karimov asarlarida-sud-huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirish, huquqiy statistika ma'lumotlarining sud-huquq islohotlariga bevosita ta'siri. Sud statistika tarmoqlari: jinoyat-huquqiy statistika; ma'muriy-huquqiy statistika; fuqarolik-huquqiy statistika. Sud statistikasining yuridik fan va amaliyot uchun ahamiyati.

### **Sud statistikasida statistik kuzatuvlar**

Statistik kuzatuv tushunchasi va uni o`tkazishni tashkil qilish. Statistik kuzatishning tashkiliy shakllari, rasmiy hisobga olish va hisobot; maxsus uyushtirilgan statistik kuzatishlar. I.A.Karimovning O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisidagi ma'ruzasida keltirilgan huquqiy kuzatuvlar, ulardan xulosa chiqarilishi va undan sud-huquq islohotlarining istiqbollarini belgilashda foydalanganligi (2005-yil 28-yanvar). Statistik kuzatish turlari: faktlarni hisobga olish; to`xtovsizligi bo`yicha statistik kuzatish; joriy, davriy, bir vaqtda olib boriladigan kuzatish.

### **Huquqni muhofaza qilish organlarida, sudlarda va boshqa yuridik tashkilotlarda ro`yxatga olish va hisobotlarni yuritish**

Jinoyatlarning yagona hisobi tushunchasi, jinoyatlarni ro`yxatga olish tizimi, ro`yxatga olishni yurituvchi organlar, statistik kartochkalar: jinoyatning surishtiruv natijalari haqida; jinoyatni sodir etgan shaxslar aniqlangan ishlar haqida; jinoyat ishining harakati haqida; sudda ishlarining ko`rilish natijalari haqida hisobga olish kartochkalari. Statistik ma'lumotlarning rasmiy hisobotini yuritish. Adliya vazirligi organlarida va sudlarda statistik hisob va hisobot. Huquqiy statistik ma'lumotlarni tekshirishning avtomatik usuli.

### **Huquqni muhofaza qilish organlarida statistik kuzatuvning tanlama usuli**

Statistik kuzatishning tanlami usuli nazariy asoslari. Tanlama ko`rsatkichlaridagi xatolarni aniqlash. Tanlama yig`indisi. Tanlash turlari. Tanlash usullari: tasodifiy tanlash, mexanik tanlash, kombinatsiyali tanlash, turdosh tanlov.

## **Huquqiy ma'lumotlarni to'plashning ijtimoiy usullari**

Statistik kuzatish usullari va ulardan huquqiy tekshirishlarda foydalanish. So'roq. Suhbat. Intervyu. Anketa. Tanlama so'roq. Yurisprudensiyada sotsiologik kuzatish va ijtimoiy tajriba.

## **Statistik kuzatish materiallarini jamlash va guruhlash**

Statistik jamlash va guruhlash tushunchasi. Statistik guruhlashtirish turlari. Tipologik, tuzilmaviy yoki variatsion, tahliliy guruhlashtirish. Korrelatsion guruhlashtirish. Murakkab, ko'p o'lchamli ikkilamchi guruhlashtirish. Statistik jadval elementlari. Oddiy, guruhlangan, kombinatsiyalangan jadval. Statistik ko'rsatkichlarni grafiklarda tasvirlash.

## **Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar**

Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar tushunchasi. Taqsimlashning nisbiy ko'rsatkichlari. Uzluksizlikning nisbiy ko'rsatkichlari. Dinamikaning nisbiy miqdori. Reja bajarilishini tavsiflovchi nisbiy miqdorlar, reja bajarilishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash. Taqsimlash ko'rsatkichlari, uzluksizlik ko'rsatkichlari. Indekslar. Taqsimlash qatorlari, variatsion qatorlar tushunchasi.

## **O'rtacha miqdor va ularning huquqiy statistikada qo'llanilishi**

O'rtacha miqdor tushunchasi. O'rtacha miqdorlar turlari. O'rtacha arifmetik miqdor. O'rtacha garmonik miqdor. O'rtacha kvadrat miqdor. O'rtacha geometrik miqdor. Moda va mediana. Variatsion ko'rsatkich belgilari. Variatsion qatorlarni tahlil qilish.

## **Huquqiy statistikaning dinamik qatorlari**

Dinamik qatorlar tushunchasi va ularning turlari. Dinamik qatorlarni tahlil qilish. Dinamik qatorlarni tenglashtirish. Dinamika qatorlarida mavsumiylikni o'rganish usullari.

## **Kompleks statistik tahlil va uning yuridik statistikada qo'llanilishi**

Statistik tahlil qilish tushunchasi. Jinoyatchilikni statistik tahlil qilish imkoniyatlari. Jinoyatchilik sabablari, huquqbuzarlarning shaxsi va jinoiy harakat motivatsiyalarini statistik tahlil qilish, jinoyatchilikning miqdor ko'rsatkichi, darajasi, strukturasi, dinamikasi. Huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini statistik tahlil qilish, sudlanganlikni statistik tahlil qilish, jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha sud faoliyatini tahlil qilishning statistik imkoniyatlari.

## Seminar mashg`ulotlari

Sud statistikasining umumiy tushunchasi va tarixi, predmeti va usullari. Sud statistikasida statistik kuzatuvlar. Huquqni muhofaza qilish organlarida, sudlarda va boshqa tashkilotlarda ro`yxatga olish va hisobotlarni yuritish. Huquqni muhofaza qilish organlarida statistik kuzatuvning tanlama usuli. Huquqiy -ma'lumotlarni to`plashning ijtimoiy usullari. Statistik kuzatish materiallarini jamlash va guruhlash. Mutlaq va nisbiy ko`rsatkichlar. O`rtacha miqdor va ularning huquqiy statistikada qo`llanilishi. Huquqiy statistikaning dinamik qatorlari. Kompleks statistik tahlil va uning yuridik statistikada qo`llanilishi.

## Mustaqil ish

Huquqni muhofaza qilish organlarida, sudlarda va boshqa tashkilotlarda ro`yxatga olish va hisobotlarni yuritish. Huquqiy statistikaning dinamik qatorlari. Kompleks statistik tahlil va uning yuridik statistikada qo`llanilishi.

### Semestrlar bo`yicha o`quv yuklamasi hajmi

Semestr	Yuklama	Auditoriya mashg`ulotlari turi bo`yicha o`quv yuklamasi taqsimoti (soat).						Mustaqil ta`lim
		Jami	Ma`ruzalar	Amaliy mashg`ulotlar	Laboratoriya ishlari	Seminarlar	Kurs ishi (proyekt)	
8 semestr	90	60	20	20		20		30
Jami	90	60	20	20		20		30

## O`ZLASHTIRISH NAZORATI.

### 1.semestrlar bo`yicha bilimni nazorat qilish turlari

Semestr	Nazorat turi	%	Maksimal ball (100%)	O`tish bali (55%)
8 semestr	<b>Joriy</b>	<b>35</b>	35	19,25
	<b>Oraliq</b>	<b>50</b>	50	27,5
	<b>Yakuniy</b>	<b>15</b>	15	8,25

## 2.Talaba bilimini baholash

Qoniqarsiz ball		Qoniqarli ball		Yaxshi ball		A'lo ball	
min	max	min	max	min	max	min	max
0	54	55	70	71	85	86	100
Bilmaslik. Aniq tasavvurga ega emaslik.		Tasavvurga ega bo'lish. Bilish, aytib berish. Mohiyatini tushunish.		Amalda qo'llay olish. Mustaqil mushohada yuritish.		Ijodiy fikrlay olish. Xulosa va qaror qabul qilish.	

### Mashg'ulotlarning mavzular bo'yicha rejasi

№	Mashg'ulotlar bo'yicha mavzulari	Ma'ruza (soat)	Seminar (soat)	Amaliy mash- g'ulotlar
1.	Sud statistikasining umumiy tushunchasi va tarixi, sud statistikasining predmeti va usullari.	2	2	2
2.	Sud statistikasida statistik kuzatuvlar.	2	2	2
3.	Huquqni muhofaza qilish organlarida, sudlarda va boshqa yuridik tashkilotlarda ro'yxatga olish va hisobotlarni yuritish.	2	2	2
4.	Huquqni muhofaza qilish organlarida statistik kuzatuvning tanlama usuli.	2	2	2
5.	Huquqiy-ma'lumotlarni to'plashning ijtimoiy usullari.	2	2	2
6.	Statistik kuzatish materiallarini svodkalash va guruhlash.	2	2	2
7.	Absolut va nisbiy ko'rsatkichlar.	2	2	2
8.	O'rtacha miqdor va ularning huquqiy statistikada qo'llanilishi.	2	2	2
9.	Huquqiy statistikaning dinamik qatorlari.	2	2	2
10.	Kompleks statistik tahlil va uning yuridik statistikada qo'llanilishi.	2	2	2
	<b>Jami</b>	<b>20</b>	<b>20</b>	<b>20</b>

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

### I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari

1. Karimov I.A. Adolat-qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasidagi ma'ruza. 2001-yil 29-avgust. // Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002. – B. - 26-53.

2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l-demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T.: O'zbekiston, 2003. – 456 b.

3. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni yangilash, mamlakatni isloh qilish va yetishdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2005-yil 28-yanvar. – T.: O'zbekiston NMIU, 2005. – 64 b.

4. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. – T.: O'zbekiston, 2005. – 226 b.

5. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsiz va barqaror taraqqiyot yo'lidan. T. 6. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. - 31-262.

6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'n to'rtinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1999-yil 14-aprel. // Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999. – B.- 370-405.

7. Karimov I. A. Inson, uning huquqlari va erkinliklari, manfaatlari-oliy qadriyat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda qilgan ma'ruzasi. // Xalq so'zi. 2005-yil 10-dekabr.

8. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. 2005-yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2006-yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasidagi majlisidagi ma'ruzasi. //Xalq so'zi 2006-yil 11 fevral.

### II. O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003. - 40 b.

2. "Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish Dasturi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 10-martdagi PK – 24-sonli qarori. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005 yil. 10-11 son. 34-modda.

3. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida 2005-yil 1-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3641 sonli

Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005-yil. 30-31 son, 223-modda.

4. Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida 2005-yil 8-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3644 sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2005-yil. 32-33 son, 242-modda.

5. "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida" Nizom. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2003-yil, 1-2 son. 7-modda.

6. «O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2003-yil, 1-2 son. 7-modda.

7. O'zbekiston Respublikasi «Davlat statistikasi to'g'risida»gi Qonuni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2002-yil, № 24. 194-modda.

### **III. Asosiy adabiyotlar**

1. Savyuk L.K. Pravovaya statistika: Uchebnik. – 2-c izd., pererab. i dop. – M.: Yurist, 2005. – 637 s.

2. Abdullayev Y. Umumiy statistika nazariyasi. - T.: Mexnat, 1987. - 250 b

3. Abdullayev Y. Statistika nazariyasi. - T.: Mehnat, 2000. – 410 b.

4. Abdullayev Y. Statistika nazariyasi. -T.: O'qituvchi. 2002.B.592 b.

5. Akromov E.A., Soatov N.M. Statistika asoslari.- T.: O'qituvchi, 1979.- 270 b.

6. Eminov S.P. Kriminologiya. Uchebnik dlya VUZov, - M.: Norma, 1997. – 370 s.

7. Luneyev V.V. Yuridicheskaya statistika. - M.: Yurist', 1999. – 428 s.

8. Lyalin V.S., Kostirya E.A. Pravovaya statistika. Uchebnik. - SPb.: IVESEP, Znanie, 2006. – 235 s.

9. Xlebnikov B.N. Sudebnaya statistika. - M.: Yur.lit., 1989. – 290 s.

### **IV. Qo'shimcha adabiyotlar**

1. Abdullayev Y. Sravnitelniy analiz effektivnosti regionalnoy ekonomiki. - T.: Mehnat, 1987. – 245 s.

2. Adamov V.E. Faktorniye indeksniy analiz. - M.: Statistika, 1977. – 180 s.

3. Baxlanov T.I. Nekotorie voprosi indeksnogo metoda. - M.: Statistika, 1972. – 200 s.

4. Djinni K. Srednie velichini. - M.: Statistika, 1970. – 102 s.

5. Drujinin M.K. Logika otsenki statisticheskix gipotez. - M.: Statistika, 1973. – 186 s.

6. Karaketov Y.M., Usmonaliev M. Jinoyatchilikka qarshi kurashning kriminologik choralari. - T.: O`zbekiston, 1995. – 228 b.

7. Kovaleva L.K. Mnogofaktornoye prognozirovaniye na osnove ryadov dinamiki. - M.: Statistika, 1980. – 210 s.

8. Nemchinov V.S. Teoriya i praktika statistiki. -M.: Nauka, 1987. – 180 s.

9. Pasxaver I.S. Srednie velichini statistiki. -M.: Statistika, 1989. -217 s.

10. Ratikov A.R. Yefremova. Pravovaya psixologiya i prestupnoye povedeniye. –Krasnoyarsk: KGU, 1988. – 240 s.

11. Statisticheskiy slovar. - M.: Finstatinform. 1996. – 510 s.

12. Shmoylova R.A. Teoriya statistiki. -M.: Finstatinform. 1999. – 345 s.

13. Internetdan olingan ma'lumotlar: <http://www.zakon.ru>;  
<http://www.narod.ru>; <http://www.advokat.ru>; <http://www.msu.ru>;  
<http://www.msal.ru>; <http://kalinovsky.narod.ru>



## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	3
<b>1-BOB: Sud statistikasining umumiy tushunchasi va tarixi. Sud statistikasining predmeti va usullari</b> .....	11
1-§. <i>Statistika atamasi, tushunchasi, statistika fanining predmeti, o`rganish obyektlari</i> .....	11
2-§. <i>Statistika fanining asosiy tarmoqlari, umumiy nazariy statistika, ijtimoiy statistika, statistikaning paydo bo`lish va rivojlanish tarixi, statistikaning predmeti</i> .....	10
3-§. <i>O`zbekistonda statistikaning vujudga kelishi va rivojlanishi</i> .....	17
4-§. <i>Sud statistikasining umumiy va tarmoqlararo rivojlanishi. Jahon kriminalistik statistikasining vujudga kelishi, statistik ma'lumotlarni taqqoslash, statistik ma'lumotlarni taqqoslashda BMTning roli</i> .....	23
5-§. <i>Sud statistikasining fan sifatida rivojlanishi</i> .....	24
6-§. <i>Sud statistikasining yuridik fan va amaliyot uchun ahamiyati. Sud statistikasi tarmoqlari</i> .....	29
7-§. <i>Amaliy va ilmiy ishlarda sud statistikasining ahamiyati</i> .....	37
<b>2-BOB: Sud statistikasida statistik kuzatuvlar</b> .....	45
1-§. <i>Statistik kuzatuv tushunchasi va uni o`tkazishni tashkil qilish. Statistik kuzatishning tashkiliy shakllari, rasmiy hisobga olish va hisobot; maxsus uyushtirilgan statistik kuzatishlar</i> .....	45
2-§. <i>Rasmiy davlat hisobi va hisobot statistik kuzatishning birinchi va asosiy shakli sifatida</i> .....	58
3-§. <i>Kuzatish yig`indisi qamrab olish darajasiga qarab kuzatish turlari: yoppasiga kuzatish, qisman kuzatish, monografiya, anketali yoki sotsiologik, tanlama usullari, statistika usullari</i> .....	63
<b>3-BOB: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, sudlar va boshqa muassasalarning hisob va hisobdorligi</b> .....	83
1-§. <i>Jinoyatchilarning yagona hisobi tushunchasi, jinoyatlarni ro`yxatga olish tizimi, ro`yxatga olishni yurituvchi organlar, statistik kartochkalar</i> .....	83
2-§. <i>Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning rasmiy statistik hisobdorligi</i> .	88
3-§. <i>Ma`muriy huquqbuzarliklar hisobi</i> .....	91
4-§. <i>Sud va Adliya organlarining hisob va hisobdorligi</i> .....	93
5-§. <i>Huquqiy statistik ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan qayta ishlash tizimi va ularni nashr etish</i> .....	95
6-§. <i>Huquqiy statistikadagi statistik miqdorlarning ishonchliliigi</i> .....	98

<b>4-BOB: Huquqni muhofaza qiluvchi organlarda statistik kuzatuvning tanlama usuli .....</b>	<b>100</b>
1-§. <i>Statistik kuzatishning tanlama usuli nazariy asoslari .....</i>	100
2-§. <i>Tanlama miqdordagi xatolarni aniqlash .....</i>	102
3-§. <i>Tanlama yig'indisi.....</i>	105
4-§ <i>Tanlash turlari.....</i>	106
<b>5-BOB: Huquqiy ma'lumotlarni to'plashning ijtimoiy usullari.....</b>	<b>107</b>
1-§. <i>Statistik kuzatish usullari va ulardan huquqiy tekshirishlarda foydalanish.....</i>	107
2-§. <i>So'roq.....</i>	110
3-§. <i>Suhbat .....</i>	111
4-§. <i>Intervyu.....</i>	112
5-§. <i>Anketa .....</i>	114
6-§. <i>Tanlama so'roq.....</i>	120
7-§. <i>Yurisprudensiyada sotsiologik kuzatish va ijtimoiy tajriba .....</i>	121
<b>6-BOB: Statistik kuzatish materiallarini svodkalash va guruhlashtirish.....</b>	<b>123</b>
1-§. <i>Statistik svodkalash va guruhlash tushunchasi .....</i>	123
2-§. <i>Statistik guruhlashtirish turlari.....</i>	128
3-§. <i>Tipologik guruhlashtirish.....</i>	130
4-§. <i>Tuzilmaviy yoki variatsiyali guruhlashtirish.....</i>	132
5-§. <i>Tahliliy (analitik) guruhlashtirish .....</i>	135
6-§. <i>Korrelatsion guruhlashtirish.....</i>	137
7-§. <i>Murakkab, ko'p o'lchamli, ikkalamchi guruhlashtirish .....</i>	138
8-§. <i>Statistik jadval elementlari.....</i>	139
9-§. <i>Oddiy, guruhlangan, kombinatsiyalangan jadval.....</i>	142
10-§. <i>Jinoyatlarni klassifikatsiyalash tushunchasi.....</i>	151
<b>7-BOB: Mutlaq (absolut) va nisbiy miqdorlar .....</b>	<b>154</b>
1-§. <i>Mutlaq va nisbiy miqdorlar tushunchasi.....</i>	154
<b>8-BOB. O`rtacha miqdor (miqdorlar) va ularning huquqiy statistikada qo`llanilishi .....</b>	<b>161</b>
1-§. <i>O`rtacha miqdorlarning tushunchasi.....</i>	161
2-§. <i>O`rtacha miqdorlar turlari .....</i>	164
3-§. <i>O`rtacha arifmetik miqdorlar .....</i>	167
4-§ <i>O`rtacha garmonik miqdor .....</i>	172
5-§. <i>O`rtacha kvadrat miqdor .....</i>	173
6-§. <i>O`rtacha geometrik miqdor .....</i>	174
7-§. <i>Moda va Mediana .....</i>	178
8-§. <i>Variatsion miqdor belgilari. (Alomatning o`zgarish miqdorlari) .....</i>	183
9-§. <i>Variatsion qatorlarni tahlil qilish.....</i>	185

<b>9-BOB: Huquqiy statistikaning dinamik qatorlari .....</b>	<b>186</b>
1-§. <i>Dinamik qatorlar tushunchasi va uning turlari .....</i>	186
2-§. <i>Dinamik qatorlarni tahlil qilish .....</i>	188
3-§. <i>Dinamik tahlil miqdorlari .....</i>	191
4-§. <i>Dinamik qatorlarni tenglashtirish .....</i>	194
5-§. <i>Dinamika qatorlarida mavsumiylikni o`rganish usullari .....</i>	199
<b>10-BOB: O`zaro aloqadorlikni o`rganishning statistik metodlari (uslubiyatlari) .....</b>	<b>206</b>
1-§. <i>Statistik aloqadorlik va sababiylik(sababiyat) tushunchasi .....</i>	206
2-§. <i>Sifat belgilari o`rtasida aloqalarni o`lchash .....</i>	211
3-§. <i>Juft tarmoqli ( chiziqli) korrelatsiya .....</i>	218
<b>11-BOB: Kompleks statistik analiz (tahlil) va uning yuridik statistikada qo`llanishi .....</b>	<b>227</b>
1-§. <i>Statistik analiz (tahlil) tushunchasi .....</i>	227
2-§. <i>Jinoyatchilikni statistik tahlil qilish imkoniyatlari .....</i>	232
3-§. <i>Jinoyatchilikning sabablari, qonunbuzarning shaxsi va jinoiy qilmishning motivatsiyasida statistik tahlilning imkoniyatlari .....</i>	234
4-§. <i>Huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyatini statistik tahlil qilish .....</i>	246
5-§. <i>Sudlanganlikni statistik tahlil qilish .....</i>	253
6-§. <i>Jinoyat va fuqarolik ishlari bo`yicha sud faoliyatini statistik tahlil qilish imkoniyatlari .....</i>	257
<b>Statistika fanidan test savollari .....</b>	<b>262</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati .....</b>	<b>274</b>
<b>“Sud statistikasi” ishchi o`quv dasturi .....</b>	<b>275</b>

**O.M.MADALIYEV**

# **SUD STATISTIKASI**

**O`quv qo`llanma**

Muharrir: *Sh.Ziyomammedova.*  
Texnik muharrir: *A.Boymamatov.*  
Kompyuterda sahifalovchi: *F.Nurlibayev.*

Bosishga ruxsat etildi: **12.03.2009y.**  
Bosma tabog`i: **18.** Adadi: **700.** Buyurtma: **№10.**  
Baxosi kelishilgan narxda.  
XT «**Ахмедова Г.А.**» bosmaxonasida chop etildi. -